M. RAXIMOV

IQTISODIYOT SUBYEKTLARI MOLIYAVIY HOLATINING TAHLILI

33
R-11

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

M.YU. RAXIMOV

IQTISODIYOT SUBYEKTLARI MOLIYAVIY HOLATINING TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2013

X/R 2664

UO'K: 33(075)
KBK: 65.26
R-11

Iqtisod fanlari doktori, professor A. Karimov tahriri ostida

Taqrizchilar: – i.f.n. O. Masharipov;
– i.f.n. dots. N. Ishonqulov

Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma / Raximov M.Yu. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent Moliya instituti. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. 392 b.

Ushbu o'quv qo'llanma xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini baholash, tahlil etishning nazariy va amaliy jihatlari haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib subyektlar faoliyatini muhim qirralarini ochib berishga imkon beradi. Mazkur qo'llanmaning muhim jihati korxona boshqaruvida tahlilga oid jihatlarni ilmiy tadqiq etilganligidir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini tahlil etishning dolzarb muammolari yechimi yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar tuzib chiqilgan. Har bitta mavzu va unda o'rganiladigan masalalar xorijiy amaliyot bilan uyg'unlikda o'rganilgan.

Mazkur qo'llanma xo'jalik subyektlari moliyaviy holatini tahlil etishning algoritmini belgilashda ham muhim manbaa bo'lishi mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan magistrlar va ilmiy tadqiqotchilar, shuningdek, korxona boshqaruvchilari, buxgalterlar, auditorlar va keng omma uchun mo'ljallangan.

UO'K: 33(075)
KBK: 65.26ya73

ISBN 978-9943-13-441-6

© «IQTISOD-MOLIYA», 2013
© Raximov M.Yu., 2013

KIRISH

XXI asr barcha sohalar qatori iqtisodiyotda ham globallashuv, raqobatning subyektlararo darajasidan xalqaro darajaga ko'tarilganligi, hisob-kitob tizimining jahon miqyosida bir xil andozaga keltirilayotganligi, zamonaviy biznes qoidalarining tez o'zgarishi kabi keskin jarayonlarning sodir bo'lishi bilan boshlandi. Yuz berayotgan o'zgarishlar va jarayonlar axborot tizimini takomillashtirishga, dunyo miqyosida iqtisodiyotni boshqarishning bir-biriga o'xshash va muvofiq keladigan tizimining shakllanishiga olib kelmoqda. Dunyo ahli Internet orqali bir-biri bilan cheklanmagan tarzda muloqot qilmoqdalar. Bu esa, o'z navbatida, odamlardan ham tezkorlikni, ham axborotlardan tez xulosa chiqarib, zudlik bilan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni talab qilmoqda. Ayni paytda xuddi shunday talablar iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektlarga ham qo'yilmoqda. Aynan ushbu muammolarni hal qilish xo'jalik yurituvchi subyektlar, uning asosiy bo'g'ini bo'lgan korxonalar faoliyati iqtisodiy tahlilini takomillashtirishni, uning tezkorligini ta'minlashni taqozo etmoqda.

Jahon amaliyotida erkin iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yishning yagona modeli sifatida tan olingan bozor iqtisodiyoti avvalo chuqur tahliliy va ilmiy asoslangan yechimlarni talab etadi. Firma va kompaniyalar faolligi hamda ularning ish samaradorligini ta'minlash iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida har qachongidan ham murakkab hodisa va jarayonga aylanadi. Shu jihatdan, har bitta korxona faoliyati uning moliyaviy holati, to'lovga qodirligi hamda moliyaviy barqarorligini aniqlashda tahliliy amallarga bo'lgan ehtiyoj va zaruriyatda muammolar yechimini chiqarish yanada murakkablashadi. Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining yuzaga kelishi hamda uning barcha davlatlarni qamrab olishidan ham ko'rish mumkinki bugungi iqtisodiyot o'ta murakkab iqtisodiyot, uni bir davlat doirasidagi siyosat, yoki amaliy yechimlar bilan hal etish mumkin emasligi, masalaga keng qamrovli tarzda yondashuvni

talab etadi. Ya'ni, har bir davlat yoki unda faoliyat yuritayotgan korxona, jahon iqtisodiyotining ajralmas bo'g'iniga aylanib ulgurgan deyish mumkin.

Chop etish yoki taqdim etish orqali oshkor etiladigan moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish va tushunish qiyin bo'lmaydi, qachonki ushbu hisobotlar bir xil qoida va tamoyillar asosida tuzilgan bo'lsa. Shu ma'noda yuqoridagi ta'kidlarni aynan o'rinli deyish mumkin. Negaki, agar turli davlatlardagi korxonalar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlarni ham buxgalterlar va analitiklar tomonidan hech qanday qiyinchiliklarsiz tushunishlari mumkinligini nazarga oladigan bo'lsak, bu qarash juda sodda qarash bo'lar edi. Agar shunday bo'lganda, moliyaviy hisobotlarni o'rganish va tahlil etish orqali barcha muammolar o'z-o'zidan hal etilgan yoki oldi olingan bo'lar edi. Korxonaning manzili, erishgan natijalari, muammolari moliyaviy holati haqidagi axborotlarda (moliyaviy hisobotlarda) aks etgani bilan aslida muammolar yechimi uning quyi bo'g'inlarda ekanligini esdan chiqarmaslik lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bankrotlikka yuz tutmaslik va yashab qolishga harakat mavjud moliyaviy resurslarlarni boshqarishni yaxshi bilishni, kapital tarkibini va tashkil topish manbaalarini shakllantirishda moliyaviy mustaqillikni (o'z va qarz mablag'lari ulushini) to'g'ri nisbatlashni, eng muhimi samarali va natijali ishlab chiqarishni, tijorat va moliyaviy faoliyatini yo'lga qo'yishni talab etadi.

Korxonalar moliyaviy holatini tahlil etishning amaldagi an'anaviy holati biznesning bugungi kun talabida takomillashtirish, metodologik yangiliklar bilan boyitish, aniq qoida va normalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, obyektivlikning istiqboldagi darajalarini bashoratlash mumkin bo'lgan analitik jarayonlar tizimiga aylantirish lozim. Bugungi moliyaviy holat tahlilida ko'proq tashqi ta'sirlardan himoya etish (inflyatsiya, kontrigentlar bilan aloqalar mustahkamligi, mulkiy va huquqiy shakllarning o'zgaruvchanligi kabi) masalalarini qamrab olgan kompleks yondashuvlarga, modellarga tayanish lozim.

Moliyaviy holat tahlilini bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos shakli aktivlar, kapital va majburiyatlarning tarkibiy hamda dinamik o'zgarishlarini, korxona faoliyat natijaviyligini va

xarajatlar tarkibini, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorligini, kapital aylanuvchanligini, rentabellik va bozor aktivligini ko'rsatkichlar tizimida shunday baholay bilishi lozimki bu harakat biznesni samaradorligini aniq ko'rsata bilsin va istiqbolda uni o'stirishning aniq yo'llari ta'minlansin.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq maxsus kasbiy fanlar qatoriga kiritilgan «Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holati tahlili» kursi Buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi bazasida tayyorlanadigan ta'lim mutaxassisliklari talabalari (magistr va ilmiy izlanuvchilariga) mo'ljallangan. Kursning maqsadi ta'lim oluvchilarga iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatini tahlil etishning nazariy bilimlarini berishga, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu kurs buxgalteriya hisobi, audit, menejment va boshqa maxsus fanlar bo'yicha olingan bilimlarni boyitgan holda moliyaviy hisobotlarni tahlil etish va ular bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul etish hamda fanning dolzarb masalalari yuzasidan ma'lumotlar beradi. Shu bilan birga mazkur kurs iqtisodiy yo'nalishlarda ta'lim olayotgan boshqa mutaxassisliklar uchun ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, «Bank ishi», «Soliqlar va soliqqa tortish», «Sug'urta», «Iqtisodiyot» ta'lim yo'nalishlari bazasida tayyorlanadigan mutaxassisliklarida o'qitilayotgan fanlar uzviyligida ushbu kursning roli va o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki ushbu soha mutaxassislari iqtisodiyotning turli sektorlarida faoliyat yuritayotgan karxonalarning moliyaviy ahvolidan voqif bo'lish va uning kutilishlarini bashorat etishda albatta moliyaviy holat tahlili bo'yicha chuqur bilim, malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishlari talab etiladi.

O'quv qo'llanma namunaviy dasturga muvofiq moliyaviy tahlilning 7 ta bobini o'z ichiga oladi. Har bitta bob nazorat savollari va muammoli savollar bilan boyitilgan.

O'quv qo'llanmaning birinchi bobi «Moliyaviy holat tahlili va uning axborotlar tizimi»ga bag'ishlangan. Unda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korxonalar moliyaviy holatini tahlil etishning zaruriyati va muhimligi, moliyaviy holat tahlilini fan sifatida shakllanishi, iqtisodiy tahlilni tarkibiy qismlari: boshqaruv va moliyaviy tahlil, moliyaviy holat tahlili maqsadi, mazmuni va asosiy vazifalari, tahlil subyektlari,

moliyaviy holat tahlilini tashkil etilishi, tahlilni axborotlar tizimi va uning oldiga qo'yiladigan talablar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan hisobotlar axborotligi va ularning muammoli jihatlari, hisobotlar bo'yicha xarajatlarni baholash va ularni minimallashtirish, hisobotlarni elektron shaklda topshirishni takomillashtirish va axborotlarni analitik ishlashni avtomatlashtirish, chet el firma va kompaniyalarida moliyaviy holat tahlili va uning O'zbekiston Respublikasidagi moliyaviy holat tahlili bilan muvofiqligi masalalari yoritilgan.

Ikkinchi bob «Buxgalteriya balansini gorizontal, vertikal va trendli tahlili» deb nomlanib unda buxgalteriya balansini o'qish va tahlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishni mazmuni, buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili, firma va kompaniyalarni mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsiyentlarda baholanishi, buxgalteriya balansini trend tahlili, firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini tahlili, uzoq muddatli aktivlar, zaxira va xarajatlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishini tahlili, lizing hisobiga olingan mablag'lar tahlili, firma va kompaniyalar balansini reyting baholash va moliyaviy tahlilni yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi berilgan.

Kursning uchinchi bobi «Mahsulot sotishni kritik hajm darajasi va foydalilik tahlili» deb nomlanib unda realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda aloqadorligini tahlili, ishlab chiqarish xarajatlarini baholash, marjinal foyda kontributsiyasi va uning omilli tahlili, kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarish tahlili, korxona aktivlarini joylashtirish holati va uning foydalilikka ta'sirining tahlili, korxona passivlarini joylashtirish va uning foydalilikka ta'sirini tahlili yoritib berilgan.

Iqtisodiyot rivojida doimo ijobiy jihatlar kuzatilavermaydi. Ayniqsa jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va glaballashuv, dunyo bo'yicha raqobatdosh iqtisodiyotning birbutun iqtisodiyotga aylanishi korxonalarni iqtisodiy nochorlikka yuz tutmasligi va uni oldini olish chora-tadbirlarini ko'rishni talab etadi.

Shu maqsadda, ushbu kursning to'rtinchi bobi jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozlari sharoitida «Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalar faoliyatini tahlil qilishni xususiyatlari»ga

bag'ishlangan. Ushbu bobda mavjud nazariy manbalar va amaliy kuzatishlar natijasida chiqarilgan ilmiy xulosalarga tayangan holda iqtisodiy nochorlikni tahlil etishning asosiy jihatlari bayon etilgan.

Ya'ni, iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tushunchasi mohiyati, firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillar, moliyaviy barqaror, moliyaviy xavf xatari bor va moliyaviy nobarqaror korxonalar faoliyatini tahlili, korxonalar iqtisodiy nochorligini tahlili, iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirishda xalqaro tajribalar hamda ulardan foydalanish, iqtisodiy nochor firma va kompaniyalarni moliyaviy tahlili natijalarini umumlashtirish masalalari bayon etilgan.

O'quv qo'llanmaning beshinchi bobi korxonalarning manzilli va maqsadli harakatining intihosi bo'lgan bozor va ish aktivligi ko'rsatkichlarini tahliliga bag'ishlangan. Unda korxonalar ish va bozor faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ular tahlilini vazifalari, korxonalar ish faolligini asosiy va aylanma kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili, korxonalar ish faolligini qarz kapitali bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili, korxonalar bozor faolligi va uning omilli tahlilini metodik jihatlari bayon etilgan.

Qo'llanmaning oltinchi bobi «Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini tahlili», deb nomlanib unda, kreditga layoqatligini baholashni mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalari, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlil, kreditga layoqatlikni baholashda mablag'lar likvidligi va to'lov qobiliyatini tahlili, kreditga layoqatlikni o'stirishning amaliy chora-tadbirlari, kreditga layoqatlikni baholashni xorij tajribalari yoritib berilgan.

Biror-bir iqtisodiyot rivojini investitsion faollik va uning ahamiyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli o'quv qo'llanmaning oxirgi, yettinchi bobi korxonalar investitsion faoliyatini tahlil etishning dolzarb masallariga bagishlangan.

Mazkur bobda investitsiyalarning mazmuni, mohiyati, turlari, investitsiyalarni moliyaviy tahlil etishning maqsadi va uning asosiy jihatlari, ichki investitsiyalar tahlili, tashqi (xorijiy) investitsiyalar tahlili, investitsiyalar samaradorligini baholash

yo'llari, investitsion loyihalar va ularning jozibadorligi tahlili, diskontlash, risklar tahlili yuzasidan manbalar berilgan.

Muallif ushbu o'quv qo'llanmani kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishlarda muhim manba bo'ladi degan umidda, o'quvchidan o'z fikr va mulohozalarini kutib qoladi.

I bob. MOLIYAVIY TAHLIL VA UNING AXBOROTLAR TIZIMI

1.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida moliyaviy tahlilning zaruriyati va muhimligi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi iqtisodiy tangliklar, inqirozlar doimo mulk egalari, investorlarni yuzaga kelgan holatlar bo'yicha muhim qarorlar qabul qilishga undaydi. Aks holda, sekin-sekin biznesdagi harakat yakun topadi va korxonalar yopiladi. Erkin iqtisodiyotda, xo'jalik yurituvchi subyektlar va mulk egalarini qiziqtiradigan eng muhim masala biznes samaradorligi va faoliyat natijaviyligini baholash, ular moliyaviy holatini tahlil etish masalasidir. Mazkur masala iqtisodiyotning bir maromda rivojlanishida ham muhim hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv apparati oldida bir qancha murakkab ya'ni, mavjud mulkiy holatga, iqtisodiy resurslarning tarkibiy tuzilishi va ularning samaradorligi, faoliyatning natijaviyligi, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorligiga baho berish yuzasidan aniq taktik qarorlar tayyorlash bo'yicha qator muammolarga duch kelinmoqda.

Bugun, dunyoning barcha davlatlarini u yoki bu darajada qamrab olayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi xo'jalik yurituvchi subyektlar oldiga nafaqat ichki muammolar haqida qayg'urishini, balki ko'proq tashqi muammolar ta'siridan himoyalanishini ham talab etmoqda. Afsuski, yuz berib bo'lgan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi albatta o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Shuningdek, undan qutilib qolishning ham imkoni yo'q. Bu borada faqat, uning ta'sirini yumshatish, yo'qotishlar va iqtisodiy jabrlarni imkon qadar kamaytirish choralarini ko'rish lozim.

Inqirozga yuz tutgan korxonaning holati ham aynan shunday, faqat yuqoridagi jihatdan o'zining ko'lami, darajasi bilan farq etadi xolos. Ya'ni, korxona inqirozga yuz tutmaslik haqida, ko'proq inqirozgacha bo'lgan jarayonda qayg'urishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning inqirozga yuz tutishi va sinishi tabiiy hol sanaladi. Kimki uning shartlari, qoidalari asosida harakat qilmas ekan bu hol albatta muqarrar hisoblanadi. Korxonalar faoliyatidagi inqiroz belgilarini ko'rsatib beruvchi barometr mavjud emaski doimo uning ko'rsatkichi kuzatib turilsa. Bu holat, xo'jalik moliyaviy faoliyati haqidagi reallikni rasmiy tuziladigan va chop etiladigan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tizimli tahlil etish orqaligina bilinadi, o'rganiladi xolos. Korxonada inqiroz belgilar mavjud emas, inqirozning xavf-xatari bor, inqirozli holat mavjud deb xulosa qilish biznesda doimo boshqaruv apparatining e'tiborida turuvchi masaladir.

Korxonalar moliyaviy holatidagi tanglikni ham xuddi yuqoridagi holatga qiyoslash mumkin. Aslida, inqirozning bosh sababi ham korxonalar moliyaviy holatidagi ushbu tanglikka borib taqaladi. Lekin asli, tanglikning sababi va yechimlar moliyaviy holatda emas balki ko'proq subyektlarning ishlab chiqarish faoliyatining quyi bo'g'inlaridadir. Moliyaviy holatda esa ushbu holat oyna singari aks etadi xolos.

Yechimi unchalik oson bo'lmagan bunday holatda korxona egalari ko'pincha mustaqil maslahatchilarga va analitiklar yordamiga ehtiyoj sezadilar. Negaki, korxonalar moliyaviy holatidagi tanglikni, inqirozni mo'jizaviy formula asosida yoki shunchaki hoxish-istak bilan hal etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda tobora doirasi kengayib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham korxonalar moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda.

Respublikamizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siridan ko'riladigan talofatlarni imkon qadar kamaytirish va korxonalarni hamda davlatimizni uning ta'siridan saqlab qolish yuzasidan hukumatimiz tomonidan inqirozga qarshi choralar dasturining ishlab chiqilganligi va uning izchil amalga oshirilishi natijasida aytish mumkinki (xalqaro ekspertlarning ishonchsizlik

va mensimaslik bilan qarab kelishiga qaramay) bunga to'la barham berildi va berilmoqda deyishga asoslarimiz yetarli.

Inqirozlar sharoitida korxonalar moliyaviy holatini tahlil etishning ahamiyati har qachongidan ham dolzarb va muammoli ahamiyat kasb etadi. Negaki barcha yuz bergan holatning asosiy sabablarini va mavjud tanglikdan chiqishning yo'llarini bilishni xohlaydi.

Jahon maliyaviy-iqtisodiy inqirozi har doimgidan ham ekspert, tahlilchilar oldiga o'ta murakkab vazifalarni qo'yadi. Natijada, kasb egalari va ularning xizmat funksiyalariga bo'lgan zaruriyat har qachongidan ham yuksak darajaga ko'tariladi.

Korxonalar moliyaviy holatiga tashhis qo'yish va uni sog'lomlashtirishning aniq chora-tadbirlarini ko'rish aslida makro ko'lamdagi barqarorlikni ta'minlashning ham muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, yuzaga kelgan holatda birinchi navbatda korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va ularning kelgusida barqaror o'sishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish lozim.

Inqirozning siklik jarayonlari bilan olimlar 100 yillar davomida shug'ullanib kelgan. Lekin shunga qaramay uning jozibadorligi, doirasining kengayishi, shakllarining xilma-xilligi masalaga doimo turlicha yondashuvni talab etadi.

Galdagi, jahon inqirozi (moliyaviy-iqtisodiy) sababi ko'proq ipoteka kreditlarini berishdagi tanglik holati bilan izohlanadi. Uning aniq sabablari yuzasidan Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarida batafsil izohlar berib o'tgan.

«Hech kimga sir emaski, bugun keng tarqalib borayotgan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri-bu banklar likvidligi, ya'ni to'lov qobiliyatining zaifligi bilan bog'liq muammoning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag'larining yetishmasligi bilan izohlanadi».

Ko'plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o'ylanmagan siyosati ham ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo'yganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Shu bilan birga aytish joizki inqiroz yuzaga kelgan va undan ko'proq jabr ko'rayotgan davlatlarda yalpi ichki mahsulotning 80 foizga yaqin qismi xizmat ko'rsatish sohasida (asosan moliyaviy sektorda) yaratilganligiga nazar soladigan bo'lsak, moliya sektori iqtisodiyotni lokomotivi, uni harakatga keltiruvchi kuchiga aylanganligini, uning izdan chiqishi esa butun iqtisodiyotni izdan chiqarishi ham mumkinligini izohlash mumkin. Bugungi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini asli ildizi ham shunda. Ushbu sektorda, juda ehtiyotkor va puxta o'ylangan siyosat olib borish lozim.

Jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq[1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2008-yildagi №4058 «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni[2]ga muvofiq quyidagilar jahon moliyaviy-iqtisodiy krizisining salbiy oqibatlarini bartaraf etishning hal qiluvchi omillari sifatida belgilangan:

– eng avvalo iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayonlarini faollashtirish, sifatli, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy moslashuvchan minitexnologiyalarni tatbiq etish;

– ichki va tashqi bozorlarda mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining raqobatbardoshligini yanada oshirish, eksport qiluvchi korxonalar tomonidan yangi tovarlar turlarini sotish hajmlarini kengaytirish hamda mahsulot sotishning istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish;

– iqtisod qilishning qattiq tartibini joriy etish, jumladan, texnologik jarayonlarni ratsionalizatsiyalash, ishlab chiqarishda

[1] И.А.Каримов Жаҳон молиявий иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т.: 2009

[2] Ўзбекистон республикаси Президентининг 28 11.2008 йилдаги №4058 «Иқтисодиетнинг реал сектори корхоналарини қўллаб-қувватлаш, уларнинг барқарор ишлашини таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги» фармони www.lex.uz

materiallar, elektr va energiya sarfini hamda boshqa sarf-xarajatlarni kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini keskin kamaytirish;

– texnik va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, mahsulot sifatini boshqarishning xalqaro standartlarini tatbiq etish;

– moslashuvchan narx-navo siyosatini amalga oshirish, jahon bozorlarida narx-navo konyunkturasi tez o'zgarib borayotgan sharoitda eksport mexanizmlarini takomillashtirish.

Dunyo inqirozlarining boshlanishi ushbu kasb egalariga bo'lgan zaruriyatni yanada oshirgan va bu fanning rivojlanishida o'ziga xos davr bo'lishi ham mumkin.

Negaki, yuzaga kelgan holatlar yuzasidan aniq sabab-oqibat bog'lanishlarini hech bir kasb egasi tahlilchi ekspertlarchalik aniq izohlab bera olmaydi. Shu sababli jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozlari sharoitida korxonalar moliyaviy holati tahlilining zaruriyati va muhimligi yanada oshadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi (iqtisodiyot globallushuvidagi muvofiqlik) sharoitida moliyaviy tahlilning zaruriyati, moliyaviy hisobotlarda aks etgan ma'lumotlar bazasiga tayangan holda korxonaning moliyaviy holatiga baho berish orqali mavjud holat va uni istiqboldagi kutilishini maqsadli boshqarish yuzasidan boshqaruvchilarga axborotlar bazasini shakllantirib berishdagi sa'y-harakatlar tashkil etadi.

Moliyaviy holatni bilish orqali biznesning ko'lamdorligiga, faoliyat samarasi va natijaviyligiga, aktivlar va ularning manbalanishidagi real holatga, subyektlarning bozordagi va ishdagi aktivlik darajasiga, mablag'lar aylanuvchanligi, to'lovga qobillik va qodirlik darajasiga, salohiyat darajasiga baho berish mumkin.

Moliyaviy tahlilni zaruriyatini yana shu bilan izohlash mumkinki korxonalar moliyaviy holatini tahlil etish orqali nafaqat mavjud holat yuzasidan axborot olinadi, balki uni yaxshilash, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni oldini olish, mavjud tanglik holatidan chiqish yo'llarini ko'rsatib berish, rivojlanishning istiqboldagi ko'rsatkichlarini bashoratlash imkoni ham tug'iladi.

Moliyaviy tahlil mavjud holat va erishilgan natijalarni klassik usulda (mutlaq va nisbiy darajalarni, koeffitsiyentlarni aniqlash orqali) tasniflashdangina iborat emas.

Moliyaviy tahlilda moliyaviy hisobotda aks etgan ma'lumotlar bazasini «o'qish» va tahlil etish imkoni tug'iladi. Axborotlarni o'qishda metodik asosga tayangan holda tartibli qoidalarga amal etish talab etiladi. Ya'ni, bu o'qish oddiygina o'qishdan iborat emas, balki tahlilni an'anaviy va maxsus usullaridan foydalangan holda ma'lumotlar bazasiga analitik ishlov berish va tahlil etish orqali tashxis qo'yishning murakkab protseduralar tizimidan iborat.

Moliyaviy tahlilning muhimligini uning boshqaruvning zarur dastagi ekanligi bilan, apparatning maqsadli boshqaruvi yuzasidan ma'lumotlar bazasini shakllantirishdagi roli bilan izohlash mumkin. Ushbu ma'lumotlar bazasini buxgalteriya hisobi, audit, statistika, moliyaviy menejment, marketing fanlaridan farqli ravishda moliyaviy tahlilda masalaning qo'yilishi, amaliy yechimi, taktik jarayonlarning aniqligi bilan tubdan farq etishi orqali izohlash mumkin. Ya'ni, har bitta dastak o'zining ob'yektini o'rganishdagi mazmun va mohiyati bilan tubdan farq qiladi. Axborotlarni yig'ish, hisobotlash, moliyaviy qonunchilik normalariga mosligini nazorat etish, jamlash va taqdim etish, tizimlashtirish, tadqiqot usullari bilan bir-biridan farq etuvchi ushbu fanlar tizimida moliyaviy tahlil quyidagi jihatlari bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Birinchidan: moliyaviy tahlilda korxonalar boshqaruvi yuzasidan qayta ishlangan axborotlarga bo'lgan talablarni maqsadli hal etish;

Ikkinchidan: xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyoridagi iqtisodiy resurslarni, ularning moliyaviy tuzilmasini, likvidligi va to'lovga qobilligini vaqti-vaqti bilan baholash orqali mavjud holatga iqtisodiy tashxis berib borish;

Uchinchidan: kelgusida, pul va pul ekvivalentlarini ko'paytirish yuzasidan, daromadlarni oshirish yuzasidan aniq tavsiyalar yechimini tayyorlash;

To'rtinchidan: moliyaviy ahvol haqidagi axborotlarning kelgusidagi kutilishlarini oldindan bashoratlash ularning taktik boshqaruvini yo'lga qo'yish.

1.2. Fanlar tizimida moliyaviy tahlil, uning fan sifatida shakllanishi

Fanlar tizimida buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlilni (fanning umumiy nomlanishi) fanlarining vujudga kelishini tarixiy jarayoni uzoq davrga borib taqaladi.

Fanlarning yuzaga kelishi va ularning asrlar davomida kasbiy faoliyatni o'rganish va malakaviy ko'nikmalarni shakllantirishdagi rolining oshib borishi alohida yoki ayrim guruhlarning hoxish-istaklari bilan ular ijodkorligining muhim natijasi sifatida emas balki zaruriyat tufayli amalga oshib boradi. Barcha insonlar va davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladi. Xuddi shu reallikni kasbiy fanlar qatoriga kiruvchi buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit fanlarining vujudga kelishi va tobora takomillashib borishining evolutsion jarayonida ham kuzatish mumkin. Bir-birini to'ldiruvchi, bir-biri bilan uzviy bog'liq va aloqada bo'lgan ushbu fanlar tizimida bugungi kunda dunyo bo'yicha 100 dan ortiq fanlar o'qitilmoqda.

Buxgalteriya hisobi. Buxgalteriya hisobi fani qachon shakllanganligi haqidagi savollarga iqtisodchilar tomonidan haliga qadar aniq va to'liq javob topilmagan. Chunki turli shaxslar uning shakllanishida turlicha yondashuvlarga tayanishadi. Lekin, olingan javoblarning mantiqan bir-biriga yaqinligini ko'rib ularni uchta guruhga ajratish mumkin.

Birinchisi: buxgalteriya hisobi bundan 6000 yil oldin odamlar jarayonlarni ro'yxatga olishni (natural shaklda) boshlagan paytdan boshlab yuzaga kelgan;

Ikkinchisi: bundan 500 yil oldin italyan matematigi Luka Pachiola tomonidan «Ikki yoqlama yozuv» kitobining nashrdan chiqishi bilan buxgalteriya hisobi yuzaga kelgan;

Uchinchisi: 100 yil oldin, birinchi navbatda buxgalteriya hisobini yuritishning instruktiv normasi belgilangan davrdan, ya'ni zamonaviy korxonalarning tashkil topishi va ular boshqaruvida buxgalteriya hisobining yo'lga qo'yilishi bilan boshlanadi.

Shu sababli, bu tortishuvlar haliga qadar yakuniga yetilmaganki, javobi esa aniq. Ya'ni, biz uning ilk ko'rinishlari

qachon yuzaga kelganligi haqida, taxminlar asosidagina xulosa chiqarishimiz mumkin.

Buxgalteriya hisobi fanining shakllanishidagi evolutsion jarayonni birinchi faraz bilan belgilab olsak quyidagi shajarasini tuzib chiqish mumkin bo'ladi va bu shajara uning rivojlanishining butun tarixiy o'zgarishlariga qaysidir jihatdan mos ham tushadi.

1.1-jadval

Buxgalteriya hisobi va uning rivojlanishining evolutsion jarayoni shajarasi[1]

Davr	Davr oraliqlari va ularning nomalanishi	Fannni rivojlanishining o'ziga xos jihatlari
1-davr	Naturalistik davr (Ushbu davr eramizdan oldingi 4000-yildan bizning eraning 500-yiliga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi)	Bu davr ilk xo'jalik jarayonlarining sodda shaklda ro'yxatga olinishi bilan xarakterlanadi. Juda uzoq davriylikdagi oraliqqa ega bo'lgan ushbu davrda insoniyat aqlining hisob-kitoblarga asoslangan ilk namunalari shakllana boshladi. Aytish mumkinki ushbu amallarning ayrimlari haliga qadar insoniyatni lol qodirib kelmoqda.
2-davr	Qiymat davri. (Bizning eraning 500-yilidan 1300-yiliga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi)	Ushbu davr pulni o'ylab topilishi va muomala vositasiga aylanishi bilan xarakterlanadi. Shu paytga qadar xo'jalik jarayonlari naturada o'lchangan bo'lsa endilikda unga parallel ravishda qiymatda ham baholashga o'tildi. Qiymat ifodasini yuzaga chiqishi buxgalteriya hisobida patrimonal va kameral hisobni shakllantirdi. Patrimonal hisobda mulkka egalik birinchi o'ringa qo'yilsa, kameral hisobda uning kirimga olinishi yoki hisobdan chiqarilishiga urg'u berilgan. Pul patrimonal hisobda qiymat o'lchovi vositasi sifatida, komeral hisobda to'lov vositasi sifatida qaralagan.

[1] Ушбу таркиблаш муаллиф томонидан мавжуд манбаларга таянган ҳолда мустақил тузиб чиқилди

3-davr	Ikki yoqlama yozuv davri. (Ushbu davr 1300–1850-yillarni qamrab oladi.)	Bu davrda xo'jalik jarayonlarining ommalashuvi, murakkablashuviga mos ravishda oddiy yozuvdan ikki yoqlama yozuvga o'tish zaruriyatining yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Hisob yozuvlariga katta urg'u berilganligi ham ushbu davrga xos. Bu davrda buxgalteriya hisobida dastlabki schyotlar rejasi ishlatila boshlandi.
4-davr	Nazariy-amaliy davr (Ushbu davr 1850-1900-yillar oralig'ini egallaydi).	Bu davrga kelib xo'jalik jarayonlarini huquqiy maqomi shakllandi. Natijada jarayonga ham iqtisodiy jihatdan, ham huquqiy jihatdan yondashuvlar belgilandi. Schyotlar rejasining differensiyasi boshlandi, shakllariga ahamiyat qaratildi, balans, foyda, tannarx, ishlab chiqarish va muomala xarajatlari tushunchalari shakllandi. Buxgalteriya hisobi butun reallikni baholashni qamrab oldi. Buxgalteriya hisobi butun jarayonni suratga oladigan, rengenometriya qiladigan dastakka aylandi.
5-davr	Ilmiy davr. (Ushbu davr 1900–1950-yillarni o'z ichiga oladi)	Bu davrda asosiy e'tibor ishlab chiqarish xarajatlariga va mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlashga, xarajatlarning jadalligiga qaratiladi. Kalkulyatsiyalash tartibi ham ushbu davrga xos. Mahsulotning ishlab chiqarish va to'liq tannarxini aniqlash, smeta qiymati tushunchasi, direkt kost, standart kost usullari, to'g'ri va egri xarajatlar ushbu davrning eng muammoli masalasi hisoblanadi. Boshqaruvning har bitta funksiyasini ajratish, soliqqa tortish masalalarida buxgalteriya hisobini o'ta va aniq tizimi yaratildi. Buxgalteriya hisobini ishlab chiqarish hisobiga alohida urg'u berildi. Boshqaruv va moliyaviy hisobning tarkiblanishiga o'tish davri boshlandi.

XR 9664

6-davr	Yangilanish davri. Bu davr 1950-yildan 1990-yillarga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.	Xalqaro standartlarning qabul qilinishi bilan xarakterli bo'lgan ushbu davr buxgalteriya hisobining rivojlanishida o'ziga xos revolutsion davr bo'ldi deyish mumkin. Buxgalteriya hisobi, mulk egalari, jamoat, davlat manfaatlari bo'yicha o'zining aniq javoblariga ega bo'ldi
7-davr	Takomillashuv davri 2000-yildan keyingi davrlar	Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiga globallashuvi, uning ajralmas qismiga aylanishi, undan alohida rivoj topa olmasligi, makro va mikro ko'lamdagi jarayonlarning murakkablashuvi, kapitalning dunyoviy aylanishi, hisob-kitoblarning yuksak darajaga ko'talirilishi, biznesning xalqaro rasmiy tiliga aylanishi bilan izohlanadi

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki buxgalteriya hisobi fan sifatida o'zining rivojlanishining to'rtinchi davrida to'liq ega bo'ldi va uning kasb turiga aylanganini izohlasak albatta o'rinli bo'ladi.

Buxgalteriya so'zining lug'aviy ma'nosiga keladigan bo'lsak nemes tilida ushbu so'z «Buchhalter» ya'ni, ikkita so'z birikmasi, ya'ni «Buch» – книга (kitob) va «halten» – держат (ushlovchi, tutuvchi) ma'nosini anglatadi. Kitob tutuvchi, kitob ushlovchi, yurituvchi ma'nosini anglatuvchi ushbu so'zni, uning rasmiy hujjatlarini bugungi kunda butun dunyo xalqi bir xil qoidada o'qiydi va tushunadilar.

Buxgalteriya hisobining tahlil fani bilan bog'liqligini ustun jihatini uning axborot manbasi bilan ta'minlashida ko'rish mumkin. Jumladan, moliyaviy tahlil to'liq oshkor etiladigan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida o'tkaziladi. Tahlilda butun axborot oqimining 90 foizdan ortiq qismi ushbu bo'g'indan olinadi. MHHS hamda BHMSda shuningdek, moliyaviy hisobotlarni tuzishda faqat axborot talab etuvchilarning ma'lumotlar bazasiga bo'lgan talablarini qondirishgina emas, balki ushbu ma'lumotlarni doimiy va davriy tahlil qilib turish shartlari ham belgilangan.

Audit fanining yuzaga kelishini ham nazoratning ilk ko'rinishlari bilan bog'laydigan bo'lsak uzoq o'tmishga borib taqaladi. Uning funksional mahoratga ega kasbiy faoliyat turiga aylanganligi bilan bog'laydigan bo'lsak ushbu fan shartli ravishda bundan ikki asr oldin Yevropada shakllanganligini izohlash o'rinli hisoblanadi.

Auditning lug'aviy ma'nosi rus tilida on «slishit» yoki «slushayushchiy», u «eshityapti» «eshituvchi» ma'nosida tushunish mumkin.

Audit boshqaruv tizimida ham o'ziga xos o'ringa va ahamiyatga ega. Hech bir jarayonni va uning natijasini ushbu elementsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Aslida, auditning yuzaga kelishi korxona boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan shaxslarning hamda unga mablag' qo'ygan tomonlarning manfaatlari bilan bog'liq muammodan kelib chiqqan. Buni qanday izohlash mumkin. Albatta, mablag'larni bir guruh odamlar qo'lida va ulkan hajmda to'planishiga qadar bo'lgan davrda ushbu fanning ahamiyatini tasavvur qilish qiyin. Soddaroq qilib aytganda mablag'larning oshib borishi, ularning hududiy tarqalishi, faoliyat doirasining kengayishi va boshqa jihatlar bilan uni bitta shaxs yoki ular guruhi (mulk egalari) tomonidan boshqarishda, ularni nazorat qilib turishda imkoniyatlarni cheklar edi. Natijada egalikdagi yer va boshqa aktivlar, mablag'larni ishonchli vakillar orqali boshqarishga o'tilishi foydaliroq shaklga aylandi. Bu harakatning takomillashgan, zamonaviy va ilg'or shakli, ya'ni aksionerlik (mulkning yangi formadagi egasiga aylanish va barchaning uning nomidan va ko'rsatmasiga muvofiq ish ko'rishi) shakliga o'tilishi bilan muammo o'z-o'zidan hal etildi. Muammo, faqat vaqti-vaqti bilan mablag' va mulk qo'yilgan obyektda aldovlar va ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yilmayotganligini, aksionerlarning manfaatlariga xiyonat qilinmayotganligini bilib turish bo'lib qoldi va uning yechimiga auditorlik nazorati orqali to'la erishildi.

Murakkab mazmunda esa, boshqaruv xodimlari tomonidan olib borilgan ishlar yakunini moliyaviy hisobotda aks ettirishda kimlarning aybi tufayli salbiy oqibatlarga kelinganligini aksionerlar tomonidan aniq bilinishiga bo'lgan urinishlar, shuningdek reallikni to'g'ri va oqilona, qonuniy asosda

moliyaviy hisobotlarda aniq aks ettirilganligiga bo'lgan zaruriyat ham ushbu fanning va kasbiy faoliyat turining shakllanishida muhim o'rin tutdi.

Aksionerlarning aldanilmayotganligini bilish, boshqaruv apparatiga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar haqiqatda korxonaning moliyaviy holatini to'la aks ettirganligini tasdiqlab beruvchi sifatida chaqiriluvchi yoki tushuriluvchi auditorlar o'z kasbiy etikasi ega, qo'yilgan umumiy va qonuniy talablar asosida faoliyat ko'rsatayotgan auditorlar va auditorlik faoliyatining bugungi kundagi xizmat vazifalarini qatori yanada kengayib bormoqdaki, bu ham ushbu fanning rivojlanishida yangi bir davr boshlanganligini izohlaydi.

Auditning tarixiy vatani Angliya hisoblanadi. Auditorlik kasbi rus podshosi Pyotr-1 ning sharafi bilan Rossiyaga kirib kelganligi ham manbalarda keltiriladi.

Audit va auditorlik faoliyatining ilk davrida ish yurituvchi, sekretar, prokuror, tergovchi kabi vazifalarni bajarish ushbu kasb egalariga yuklatilgan.

Uning dastlabki shaklida asosiy urg'u hujjatlarning haqqoniyligi va realligiga qaratilgan bo'lsa keyingi ko'rinishlari samaradorlik, natijaviylik, moliyaviy sog'lomlashtirish, masalahat, tavakkalchilik masalalari bilan boyitilgan.

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab uning standartlarini yaratish va amalga kiritish boshlandi. Auditorlarning kasbiy malakaviy darajalarini mustahkamlash yuzasidan yagona talablar va tartiblar belgilanadigan bo'ldi.

O'tgan asrning muhim voqealariga va yangi asrning shov-shuvli, tahlikali vositasiga aylangan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozlari ham audit va auditorlik faoliyatining rivojlanishida muhim voqea bo'ldi deyish mumkin. Negaki har qachongidan ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari sharoitida ushbu kasb egalari va ularning faoliyatiga bo'lgan talab yanadi oshadi. Negaki yuzaga kelgan holat yuzasidan mustaqil ekspertlar hisoblangan auditorlar xulosasiga bo'lgan talabning ortishi, ro'y bergan holat va undan chiqish yo'llarini aniq izohlab berishdagi zaruriyat birinchi navbatda ushbu soha xodimlarining asosiy vazifasi hisoblandi.

Iqtisodiy tahlil. Iqtisodiy tahlilning kasbiy fanlar tizimida alohida fan sifatida shakllanishi buxgalteriya hisobi va audit fanining shakllanishi va rivojlanishidagi jarayon kabi uzoq tarixiy davrga ega. Tahlil so'zining lug'aviy ma'nosi grekcha «analisis» so'zidan olingan bo'lib butunni bo'laklarga bo'lib o'rganish ma'nosida ishlatiladi.

Iqtisodiy tahlilni fan sifatida shakllanganligiga endigina bir asrdan oshdi. Lekin shunga qaramay u o'zining boy tarixiga ega. Ushbu fan, dastlab balansshunoslik, keyinchalik balansni talqini, balansni tahlili, hisobotlar tahlili, iqtisodiy tahlil, sotsial-iqtisodiy tahlil, xo'jalik faoliyati tahlili deb nomlandi. Bugunga kelib esa boshqaruv va moliyaviy tahlilga bo'lingan holda yuritilmoqda.

Uning mahalliy shaklini sxematik tarzda quyidagi jadvalda umumlashtirish va izohlash mumkin (1.2-jadval).

1.2-jadval

Moliyaviy tahlil fanining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot jarayonida atalgan nomlari[1]

Nomlanishi	Izoh
Balansshunoslik	Balans ma'lumotlarini o'rganganligi sababli
Balans talqini	Ko'rsatkichlarning davriy o'zgarishlariga baho berish zaruriyati tufayli
Balansni tahlil qilish	Davriy o'zgarishlarda erishilgan natijalar yoki boy berilgan imkoniyatlarga qarab kelajakni baholash zaruriyatining paydo bo'lishi bilan
Hisobot tahlili	Moliyaviy hisobot shakllari sonining ko'payishi va ularda aks etuvchi elementlarni baholash zaruriyati tufayli
Iqtisodiy tahlil	Barcha iqtisodiy o'zgarishlarga bo'lgan talabning kuchayishi bilan

[1]Муаллиф томонидан мустақил тузилган

Sotsial – iqtisodiy tahlil	O'rganiladigan masalalar ko'lamining faqat iqtisodiy jihatlarini emas balki ijtimoiy jihatlarini ham o'rganishga zaruriyatning paydo bo'lishi bilan
Xo'jalik faoliyati tahlili	Xo'jalik faoliyatining barcha qirralarini qamrab olinishiga bo'lgan talab tufayli
Moliyaviy va boshqaruv tahlili	Buxgalteriya hisobining moliyaviy va boshqaruv hisobiga tarkiblanishiga uyg'unlikda

Iqtisodiy tahlil fan sifatida O'zbekistonda ilk bora Toshkent moliya institutida (keyinchalik Toshkent xalq xo'jaligi instituti deb hozirda Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti deb nomlanadi) 1930-yillardan keyin kadrlarni, mahalliy millat vakillaridan tayyorlash boshlangan paytdan boshlab Respublikamizda o'qitila boshlanganligini ta'kidlash lozim.

Dastlab, rus tillarida keyinchalik o'zbek tilida o'qitilgan ushbu fan bugungi kunga kelib rivojlanish, takomillashishning yangi bir pog'onasiga ko'tarildi.

O'tgan davrda uning nafaqat nazariy asosi boyitildi, balki qonuniy asosini yaratishga kirishildi, iqtisodiy tahlil etishning rasmiy jihatlari belgilandi, tashkiliy asosi qurildi, amaliy asoslari yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda O'zbekistonda ushbu kasb egalari qatorida 30 ga yaqin fan doktorlari, 100 dan ortiq fan nomzodlari, minglab amaliyotchi tahlilchilar, magistr va izlanuvchilar faoliyat olib bormoqda.

Iqtisodchi kvalifikatsiyasidagi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun o'zbek tilidagi zomonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarining chop etilishi, dasturiy ta'minotlarning yangi avlodini yaratilishi, o'quv va ishchi rejalariga ushbu fanlar tizimining kiritilishi, kurs ishlari va malakaviy o'quv amaliyotlarini belgilanishi bilan fanning nufuzi va uning o'rni tobora oshib borayotganligini izohlash mumkin.

Shuningdek, Toshkent moliya instituti va iqtisodchi mutaxassislar tayyorlaydigan boshqa ta'lim muassasalarida alohida va birlashgan kafedralarning faoliyat yuritayotganligi

ham fanning rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Ular tomonidan har yili o'tkaziladigan respublika va xalqaro konferensiyalar, ilmiy nazariy seminar va yig'ilishlar, fanning dolzarb masalalari bo'yicha rejali ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotganligi, aniq loyihalar bo'yicha grantlar doirasida ishlab ketayotganligini ijobiy baholash mumkin.

1.3-jadval

Iqtisodiy tahlilni ayrim turlari[1]

Iqtisodiy tahlil bazasida yuzaga kelgan mutaxassislik fanlari	Moliyaviy va boshqaruv tahlili
	Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatini tahlili
	Boshqaruv tahlili
	Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili
	Tarmoqlarda iqtisodiy tahlil*
	Korxonalar bozor faoliyatini tahlili
	Kompleks iqtisodiy tahlil
	Iqtisodiy nochorlik tahlili
	Investitsion tahlil
	Funksional qiymat tahlili
	Xorijiy firma va kompaniyalar tahlili
	Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili
	Budjet tashkilotlarida iqtisodiy tahlil

* – *tarmoqlarda iqtisodiy tahlil – o'z ichiga qishloq xo'jaligida iqtisodiy tahlil (fermer xo'jaliklarida iqtisodiy tahlil), qurilish tashkilotlarida iqtisodiy tahlil, savdoda iqtisodiy tahlil, umumiy ovqatlanish korxonalarida iqtisodiy tahlil va boshqa tarmoqlar faoliyati tahlilini oladi.*

Dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatorida kuchli mingtalikka kiritilgan biznes dargohi deb tan olingan va Yevropa sifat sertifikatiga ega bo'lgan Toshkent Moliya institutining «Moliyaviy kafedrasi» ham dunyo bo'yicha markazlar qatorida kuchli 200 talikga kiritilganligi haqidagi guvohnomaga ega bo'lishi ham O'zbekiston tahlilchilarini xalqaro maydonda tan olinganligini yorqin ifodasi deyish mumkin.

Fanlar tizimida iqtisodiy tahlil va ularning muhim jihatlari haqida to'xtalganda, boshqa fanlarning ham o'rni va roli mu-

[1] Муаллиф томонидан таълим йўналишлари ва мутахассисликларни ДТС, ўқув режаларига мувофиқ тузиб чиқилган

himdir. Lekin biz yuqorida ushbu fanlar va mutaxassisliklar, kasbiy fanlar bloki va mutaxassislik klassifikatorida bir qatorda turishi sababli aynan buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit fanlariga to'xtaldik.

1.3. Iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismlari: Boshqaruv va moliyaviy tahlil

Iqtisodiy tahlilni boshqaruv va moliyaviy tahlilga tarkiblanishi olimlar o'rtasida eng munozorali masala hisoblanadi. Shu bilan birga o'rganiladigan masalani bunday qo'yishga juda ko'p mulohozalar asosidagina kelinganligini alohida ta'kidlash joiz.

Boshqaruv tahlili va moliyaviy tahlil, ular orasida aniq chegara mavjudmi, ular qanday farqlanadi, aniq tasnifiy belgilari mavjudmi? Ushbu savollarga javob topish maqsadida qator olimlarning fikr-mulohozalariga tayanishni lozim deb topdik.

Chet el adabiyotlarini kuzatish natijasida shuni tasniflash mumkinki, G'arb mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida (rivojlangan mamlakatlarda) boshqaruv tahlili alohida fan sifatida shakllanmagan. Uning birlik elementlari, xizmat funksiyalari boshqaruv hisobi xizmatini ichida bajariladi. Moliyaviy holat tahlili esa rivojlangan davlatlarning barchasida alohida fan sifatida shakllangan va kasbiy fanlar qatoriga kiritilgan.

Bu bir jihatdan to'g'ri ham hisoblanadi. Negaki boshqaruv tahlili va boshqaruv hisobi ma'lumotlarini sir saqlanishi ham, ularni alohida yuritishni talab etmaydi. Shuningdek, rejalashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini aniqlash, baholash, nazorat qilishning ichki tartiblari ularni alohida tarkiblashni talab etmaydi.

Boshqaruv tahlili bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan ichki imkoniyatlarni aniqlashning aniq masalalarini o'z ichiga oladi. Unda korxonaning ishlab chiqarish va tijorat faoliyati yuzasidan reja topshiriqlarining bajarilishi, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning holati,

mahsulot chiqishi yuzasidan imkoniyatlar va ularni maqsadli boshqarishdagi muhim yo'nalishlar bilan belgilanadi.

Iqtisod fanlari doktori professor M.Q.Pardayev tomonidan boshqaruv tahliliga quyidagicha ta'rif beriladi. «Boshqaruv tahlili deganda korxona rahbariyati, uning egasi va mutaxassislari tomonidan boshqaruv hisobi va hisobotlari asosida ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida, ma'lumot manbalari va natijalari ma'lum ma'noda sir tutiladigan boshqaruv qaorlarini qabul qilishga qaratilgan ichki tahlil tushuniladi.[1]

«Moliyaviy tahlil-xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga bag'ishlangan tahlildir».[2]

Bir guruh rus olimlari A.I.Alekseyeva, Yu.V.Vasilyev, A.V.Maleyeva, L.I.Ushvitskiylar tomonidan chop etilgan «Xo'jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlil» darsligida boshqaruv va moliyaviy tahlilga quyidagicha ta'rif berishadi.

Boshqaruv tahlili (sinonimlari: boshqaruv hisobidagi tahlil, ichki tahlil, ichki ishlab chiqarish tahlili) har qanday axborot resurslaridan foydalanish imkoniga ega korxona xodimlari tomonidan o'tkaziladigan tahlildir.

Moliyaviy tahlil ichki axborot manbalaridan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan tashqi subyektlar tomonidan o'tkaziladigan tahlildir. Ya'ni uning axborot manbasi bo'lib buxgalteriya va moliyaviy hisobotlar hisoblanadi[3].

L.E.Basovskiy, A.M.Lunyova, A.L.Basovskiylar ham o'zlarining «Iqtisodiy tahlil» o'quv qo'llanmasida boshqaruv va moliyaviy tahlilga yuqoridagi kabi fikrlarni bildirishadi. Ya'ni «Boshqaruv tahlili-bu boshqaruv hisobi ma'lumotlari bazasiga tayangan holda o'tkaziladigan ichki xo'jalik moliyaviy va ichki xo'jalik ishlab chiqarish tahlilidir. Moliyaviy tahlil e'lon qilinadigan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida o'tkaziladigan tahlildir. Korxonaga nisbatan boshqaruv tahlili ichki, moliyaviy tahlil tashqi tahlil turidir»[4].

---

[1] М.Пардаев Бошқарув таҳлили.Т.· Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси-2005й.,32-бет

[2] Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлил назарияси Сам.· Зарафшон, 2001 й.,183-бет

[3] А.И.Алексеева, Ю.В.Васильев, А.В.Малеева, Л.И Ушвицкий «Комплексный экономический анализ хозяйственный деятельности» М. «Финансы и статистика» 2006 г., стр-16

[4] Л.Е.Басовский, А.М.Лунёва, А.Л.Басовский «Экономический анализ» М. «ИНФРА-М»-2008г , стр-7

A.A.Kanke, I.P.Koshevayalar «Korxonalar xo'jalik moliya faoliyatining tahlili» o'quv qo'llanmasida boshqaruv tahliliga yuqoridagilardan o'zgacha ta'rif beradi.

1.4-jadval

Moliyaviy holat tahlili va boshqaruv tahlilidagi farqlanishlar

Tarkibiy qism	Nomlanishi	Mualliflari
Boshqaruv tahliliga nisbatan	Boshqaruv tahlili	V.G. Artemenko, I.T. Balabanov, M.I.Bakanov, A.A. Besovskiy, L.E. Basovskiy, L A. Bernstayn, S.B. Barngols, V.L. O.V. Efimova, I.I. Karakoz, A.N. Kashayev, A.I. Kovalyov, V.V. Kovalyov, M.N. Kreynina, N.P. Lyubushin, A.Sh. B.I. Maydanchik, Margulis, E.A. Markaryan, O.V. Migun, A.I. Murav'yov, E.V. Negashev, L.A., V.S. Nemchinov, V.G. Savitskaya, R.S. Sayfulin, , A.D. Sheremet, I.A. Shalomovich M.K. Pardayev, B.I. Isroilov, A. Abdug'aniyev,
	Ishlab chiqarish tahlili	Bikadorov, N.R. Veytsman, G.P. Gerasimenko, L.T. Gilyarovskaya, A.V. Grachev, D.E. Davidyants, L.V. Dontsova, B. Xasanov
	Ichki tahlil	V.V. Osmolovskiy, I.I. Poklad, D.A. Pankov, N.A. A.V. Prokofev, M.S. Rubinov, N.A. Rusak, V.A. Rusak,
	Jarayonlar tahlili	V.I. Strajev, S.K. Tatur, V.A.Chernov
Moliya-viy tahliliga nisbatan	Moliyaviy holat tahlili	M.Raximov, E.A. Akramov, A.T. Ibragimov, B.Haqimov, M.Pardaev, B.Isroilov
	Tashqi tahlil	V.G. Artemenko, I.T. Balabanov, M.I.Bakanov, L.E. Basovskiy, L.A. Bernstayn, S.B. Barngols, V.L. O.V. Efimova, I.I. Karakoz, A.N. Kashaev, A.I. Kovalev, V.V. Kovalev, M.N. Kreynina, N.P. Lyubushin, A.Sh. B.I. Maydanchik, Margulis, E.A. Markaryan, O.V. Migun, A.I. Murav'ev, E.V. Negashev, L.A., V.S. Nemchinov, V.G. Savitskaya, R.S. Sayfulin, , A.D. Sheremet, I.A. Shalomovich A. Abdug'aniev,I.T. Abdukarimov
	Moliyaviy tahlil	V.G. Artemenko, N.E. Babicheva, I.T. Balabanov, M.I.Bakanov, A.A. Besovskiy, L.E. Basovskiy, L.A. Bernstayn, S.B. Barngols, V.L. O.V. Efimova, I.I. Karakoz, A.N. Kashaev, A.I. Kovalev, V.V. Kovalev, M.N. Kreynina, N.P. Lyubushin, B.I. Maydanchik, Margulis, E.A. Markaryan, O.V. Migun, A.I. Murav'ev,

		E.V. Negashev, L.A., V.S. Nemchinov, G.I.Prsvetov,V.G. Savitskaya, R.S. Sayfulin, , A.D. Sheremet, I.A. Shalomovich M.K. Pardaev, B.I. Isroilov, A. Abdug'aniev,
Moliyaviy tahliliga nisbatan	Moliya xo'jalik faoliyatini tahlili	V.G. Artemenko, I.T. Balabanov, M.Bakanov, L.E. Basovskiy, L.A. Bernstayn, S.B. Barngols, O.V. Efimova, I.I. Karakoz, A.N. Kashaev, A.I. Kovalev V.V. Kovalev
	Moliyaviy (Buxgalteriya) hisobotlar tahlili	A.N.Sheremet, A.Kavalev, M.A.Vaxrushinoy, N.S.Plaskovoy, L.V.Dantsova, N.A.Nikiforova
	Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari	M,Tulaxodjaeva, A.N.Sheremet, A.Kavalev, I.T Abdukarimov
	Korxona faoliyatining moliyaviy tahlili	A.I.Alekseeva, Yu.V.Vasilev, A.V.Maleeva, L.I.Ushvitskiy, A.A. Kanke, I.P.Kashevaya
	Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili	M.Raximov, I.O. Voljin, V.V. Ergashboev, M. Tulaxodjaeva, N. Xasanov, S. Najmiddinov, T. Shag'iyasov, , A. Karimov, A.X. Shoalimov, A. Usanovlar, E.Akramov

Ya'ni, «Boshqaruv tahlili-bu korxona boshqaruvchisiga taktik va strategik boshqaruv bo'yicha optimal boshqaruv qarorlarini qabul etish yuzasidan ishlab chiqarishni tashkil etilishi, uning moliviy siyosati, marketing faoliyati, texnika va texnologik yangilanishi bo'yicha zarur bo'lgan axborotlar bazasini yetkazish maqsadida o'tkaziladigan tahlil turidir»[1].

Bu borada, moliyaviy tahlilni nomlanishi masalasiga ham alohida urg'u berish lozim. Negaki uning turlicha nomlanishi ham o'quvchilar fikrini chalg'itishi tabiiy. Ya'ni o'rganish obyekt, predmeti va metodi bir xil bo'lgan fanning turlicha nomlanishi juda ko'p kuzatiladi. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.Yuqoridagi tarkiblash o'zbek va rus tillaridagi manbalarning bir qismiga tayangan holda tuzib chiqildi. Agarda ularni xorijiy manbalar asosida qayta tarkiblaydigan bo'lsak ro'yxatni yana davom ettirish mumkin.

Fanning nomlanishidagi yagona andozaga kelinmaganligini turlicha izohlash mumkin. Bu farqlanishlar bir jihatdan tabiiy hisoblanadi. Negaki, birinchidan tarjimani so'zma-so'z o'zbek tiliga ko'chirish turlicha mazmun kasb etadi. Chop etilgan manbalar ko'proq olib borilgan ilmiy tadqiqot, izlanish mavzularning turlicha nomlanishi bilan ham bog'lanadi.

[1] А А.Канке, И П Кошевая «Анализ финансо хозяйственной деятельности предприятия М : ИНФРА-М 2007 г , стр-14

Fanning nomlanishida u yoki bu qatorda noto‘g‘ri yondashuv mavjud deyish qaysidir jihatdan to‘g‘ri ham emas. Lekin shu bilan birga uning nomlanishida yagona andozaga kelish ham g‘oyatda to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Shu sababli yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda fanning nomini «Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatini tahlili» yoki ruschasiga «Анализ финансового состояния экономических субъектов» deb nomlanishi to‘g‘ri deb baholash mumkin. Lekin bu degani masala o‘z yechimiga to‘la ega bo‘ldi degani va munozaralar to‘xtadi degani emas.

Boshqaruv tahlili va uning obyektlari to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotni 1.1-chizmadan bilib olish mumkin.

<table>
<tr><th colspan="4">Boshqaruv tahlili</th></tr>
<tr><td colspan="4">Mahsulot, ish xizamatlar yuzasidan bozor konyunkturasining tahlili</td></tr>
<tr><td colspan="4">Ta’minot jarayoni tahlili</td></tr>
<tr><td>Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini tahlili</td><td>Moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanishni tahlili</td><td>Mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanishni tahlili</td><td>Mahsulot ish va xizamtlarni sotishni tahlili</td></tr>
<tr><td colspan="4">Xo‘jalik faoliyatining quyi bo‘g‘inlari (sex, bo‘lim, zveno va h.k.), hodisa va jarayonlar tahlili</td></tr>
</table>

1-chizma. **Boshqaruv tahlili va uning obyektlari**

I.f.d. professor M.Pardayev Boshqaruv tahlilida o‘rganiladigan bo‘limlarga va obyektlarga quyidagilarni kiritadi[1].

– ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish tahlili;
– xarajatlar sarfini boshqarish tahlili;
– tijorat faoliyatini boshqarish tahlili;
– mehnat salohiyatidan foydalanish tahlili;
– moliyaviy faoliyat va uning natijalari bilan bog‘liq vaziyatni boshqarish tahlili (marjinal tahlil). Bunda ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish tahlili bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish

[1] М.Пардаев Бошқарув таҳлили Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунеси 2005 32-бет

hajmini tahlili, mahsulotlar assortimenti va tarkibiy tuzilishini tahlili, mahsulot sifati va raqobatdoshligini tahlili, mahsulot hajmi va sifatiga ta'sir etuvchi omillar tahlili mavzulari qamrab olingan.

Xarajatlar sarfini boshqarish tahlilida-moddiy xarajatlar tahlili, mehnat va ish haqi xarajatlari tahlili, boshqaruv xarajatlari tahlili, umumiy tannarx tahlili kiritilgan.

Tijorat faoliyatini boshqarish tahlilida-sotish hajmini tahlili, shartnomalarning bajarilishini tahlili, sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili keltirilgan.

Mehnat salohiyatidan foydalanishni tahlilida-mehnat salohiyatidan foydalanishni boshqaruv tahlili, kadrlar bilan ta'minlanishni tahlili, mehnat samaradorligini tahlili, mehnat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili mavzulari qamrab olingan. Moliyaviy faoliyat va uning natijalari bilan bog'liq vaziyatni boshqarish tahlili (marjinal tahlil) qismiga foydaning shakllanishidagi turli yo'nalishlar tahlili, zararsizlik yoki foydalilik nuqtasini ta'minlash tahlili, rentabellikni oshirishni ichki imkoniyatlari tahlili, moliyaviy faoliyat natijasiga ta'sir etuvchi omillar tahlili mavzulari kiritilgan.

Muallif tomonidan keltirilgan bu tartib tarkiblashga qo'shilish, shu bilan birga turli e'tirozlar bildirish ham mumkin. To'g'ri unda boshqaruv tahlilining asosiy obyektlari qamrab olingan. Lekin bu tarkiblashni to'la to'g'ri deb ham bo'lmaydi. Negaki, bozor konyukturasi tahlili, ta'minot jarayoni tahlili, moddiy resurslar tahlili (xarajat tarkibida o'rganilgan) kabi masalalar qamrab olinmagan. Shuningdek, ularning ayrim qatorlari masalan, moliyaviy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan mavzular, moliyaviy holatni ifoda etuvchi (foyda va uning shakllanishi, rentabellik) ko'rsatkichlarini ham qamrab olganki bu masalalar moliyaviy tahlil mavzulari qatoriga kiritiladi.

Iqtisodchi olim T.Shog'iyasov boshqaruv tahliliga – ichki xo'jalik ishlab chiqarishining tahlilidir, deb juda sodda ta'rif beradi. Shuningdek, boshqaruv tahlili boshqaruv hisobi ma'lumotlariga asoslangan holda o'tkaziladigan tahlil turidir.[1]

[1] Т.Шоғиясов Комплекс иқтисодий таҳлил.Т Иқтисод-Молия. 2010 й

Aslida, ichki xo'jalik ishlab chiqarishi hisobi, boshqaruv hisobi tushunchalari bitta jihatni izohlashga qaratilgan. Shuningdek, ichki xo'jalik ishlab chiqarish hisobi tushunchasini bugungi kunda rasmiy tushuncha sifatida ishlatish eskirgan, uning mutlaq yangi iborasi boshqaruv hisobi, deb yuritiladi.

I.f.d. professor E.Akramov boshqaruv tahlilini – boshqaruv tahlili, boshqarma tahlili shaklida turlicha nomlar bilan nomlaydi. Muallif tomonidan boshqaruv tahliliga quyidagicha ta'rif beriladi. Boshqaruv tahlili bevosita korxonalar tomonidan o'tkazilib u ham ochiq, ham yopiq hisobot ma'lumotlariga asoslanadi va bu tahlil yakunlari korxona rahbariyati tomonidan boshqaruvlikni takomillashtirish uchun foydalaniladi.

Ta'rifda, boshqaruv tahlilini korxonalar tomonidan o'tkazilishiga urg'u berilishi, shuningdek, hisobotlarni ochiq va yopiq hisobotlarga tarkiblash ham rasmiy jihatdan to'g'ri emas. Tahlil natijalari korxona rahbariyati tomonidan boshqaruvchilikni takomillashtirish foydalaniladi deyish ilmiy jihatdan to'g'ri, lekin boshqaruv qarorlarini qabul etish uchun zarur bo'lgan axborotlar bilan ta'minlashga nisbatan takomillashuv so'zini ishlatish noo'rin.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda boshqaruv tahliliga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin. Boshqaruv tahlili bu – xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi iqtisodiy jarayonlar, ularning samaradorligini va ularning yaqin kelajakdagi kutilishini ichki ma'lumotlar bazasiga tayangan holda aniq boshqaruv qarorlarini qabul etish yuzasidan o'tkaziladigan tahlildir.

Ushbu ta'rif yuqoridagi ta'riflarga nisbatan asosligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

– boshqaruv tahlili ko'proq iqtisodiy jarayonlar (bozorni o'rganish, ta'minot, ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotish va h.k) va ularning samaradorligini (miqdoriy va qiymat ko'rsatkichlarda) baholashdagi yondashuvning to'g'riligi bilan;

– boshqaruv tahlilida faqat boshqaruv hisobi va hisoboti emas balki hisobdan tashqari ma'lumot manbalaridan ham foydalanish mumkinligi bilan;

– boshqaruv tahlili – iqtisodiy hodisa va jarayonlarga, ularning samarasiga shu davrda va yaqin kelajakda qanday ta'sir etish mukinligini ham singdirgan;

– ta'rif shuningdek sir saqlash qoidasini ham ichki tahlil turi ekanligi bilan qamrab olgan.

Moliyaviy tahlil — korxonalarning ochiq tarzdagi moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga asoslanib o'tkaziladigan tahlildir[1]. Moliyaviy tahlilni predmeti (obyekti) deb – firma va kompaniyalarni moliyaviy holatini yakuniy hisobot shakllarida ifodalangan axborotlarga tayangan holda aniq ko'rsatkichlar tizimida, ichki va tashqi omillarga bog'liq ravishda davriy o'rganishga aytiladi.

Moliyaviy tahlil fanining metodi, uslubiy asosini firma va kompaniyalar moliyaviy holatini o'rganishda qo'llaniladigan usullar majmuasi tashkil etadi. Bu usullar majmuasiga moliyaviy hisobotlarni «o'qish», «gorizontal tahlil», «vertikal tahlil», «asos (trend) tahlili», «taqqoslama tahlil», «omilli tahlil», «moliyaviy koeffitsiyentlar» tahlili kiradi.

Moliyaviy tahlil – moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy holatiga iqtisodiy tashxis qo'yishni tavsiflaydi. Moliyaviy tahlilda firma va kompaniyalar mulki, kapitali va majburiyatlarining holatiga, faoliyat natijaviyligiga, asosiy va aylanma kapital holatiga va samaradorligiga, pul mablag'lari va xususiy mablag'larning holatiga baho beriladi.

Moliyaviy tahlilda o'rganiladigan masalalarni quyidagi 5-jadvalda ko'rib chiqish mumkin.

Moliyaviy tahlil asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy ahvolidan, moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlardan to'la voqif bo'linadi.

Tahlil natijalaridan nafaqat ichki balki tashqi foydalanuvchilar ham foydalanishlari mumkin. Negaki moliyaviy hisobot va moliyaviy tahlil natijalarida sir saqlanadigan, ya'ni birovning zarari hisobiga boshqa birovning naf ko'rishi mumkin bo'lgan axborotlar kuzatilmaydi. Shu sababli, moliyaviy tahlilning ko'plab subyektlarini tarkiblash mumkin.

[1] Э Акрамов «корхоналар молиявий ҳолати таҳлили» Т. 2008, ТДИУ

Boshqaruv va moliyaviy tahlil orasidagi farqni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida aniq bayon etish mumkin.

1.5-jadval

Moliyaviy tahlil va uning o'rganish obyektlari (moliyaviy hisobot shakllarini tuzilishi bo'yicha)*

Moliyaviy holat va uning o'zgarishlari tahlili				
Buxgalteriya balansi tahlili	Moliyaviy natijalar tahlili	Asosiy vositalar tahlili	Pul mabalag'lari tahlili	Xususiy kapital tahlili
O'rganiladigan masalalar				
Korxonaning mulki tuzilishi va dinamikasi tahlili	Zararsizlik tahlili	Asosiy vositalarning tarkibiy tuzilishi tahlili	Operatsion faoliyatdan pul oqimi tahlili	Xususiy kapital tarkibiy tuzilishi tahlili
Korxona mulkini manbalash tarkibi va dinamikasi tahlili	Marjinal foyda tahlili	Asosiy vositalar dinamik tahlili	Investitsion faoliyatdan pul oqimi tahlili	Xususiy kapital o'zgarishi tahlili
To'lov layoqati tahlili	Mahsulot sotishdan foyda tahlili	Asosiy vositalar bilan ta'minlanish va qurollanish tahlili		
Likvidlilik tahlili	Asosiy faoliyatdan moliyaviy natijalar tahlili	Asosiy vositalarning holat va harakat ko'rsatkichlari tahlili	Soliqqa tortishdan pul oqimi tahlili	
Moliyaviy barqarorlik tahlili	Moliyaviy faoliyatdan natijalar tahlili	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi tahlili	Moliyaviy faoliyatdan pul oqimi tahlili	
Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tahlili	Favqulodda daromadlar tahlili	Asosiy vositalardan samarali foydalanish tahlili	Valuta mablag'lari tahlili	Xussiy kapital samara va daromadlari tahlili
Kreditga qodirlik tahlili	Sof foyda tahlili va		Pul oqimini diskontlash	

	uning taqsimlanishi tahlili			
Ish aktivligi tahlili	Moliyaviy natijalarni omilli tahlili	Asosiy vositalardan samarali foydalanish omilli tahlili	Pul oqimini bashoratlash	
Bozor aktivligi tahlili	Rentabellik tahlili			Xususiy kapital renta-belligi tahlili
Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili				
Moliviy holat reytingi				
Iqtisodiy salohiyat tahlili				
Moliyaviy salohiyat tahlili				

* – *shuningdek, investitsion loyihalar tahlili, moliyaviy rejalar tahlili, budjet tahlili alohida tahlil obyekti sifatida olinishi mumkin*

1.6-jadval

Boshqaruv va moliyaviy tahlil

Farqlash belgisi	Boshqaruv tahlili	Moliyaviy holat tahlil
1. Obyekti bo'yicha	Firma va kompaniya boshqaruvini quyi bo'g'inlarini	Firma va kompaniyaning moliyaviy holati
2. Subyekti bo'yicha	Firma va kompaniyaning o'z xodimlari	Firma va kompaniyalarning o'z xodimlari hamda uchinchi shaxslar(tashqi subyektlar)
3. Tartibga solinishi	Firma va kompaniyalar ichki nizom, qoidalari asosida	Umumiy nizom, qoidalar asosida tartibga solinadi
4. Maqsadi	Faoliyatni quyi bo'-g'inlari samaradorligi yuzasidan ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yish	Korxonaning moliyaviy ahvolining iqtisodiy reytingi va uni bashoratlashdan
5. Ma'lumot iste'molchilari	Faqat, shu firma, kompaniya boshqaruvi xodimlari, xizmatchilari	Firma va kompaniyalarni o'z xodimlari va tashqi tahlil subyektlari
6. Usullari bo'yicha	Iqtisodiy tahlilni oddiy va iqtisodiy matematik usullari	Oddiy, iqtisodiy matematik usullar hamda moliyaviy tahlilni individual usullari

7. Ma'lumotlarni olish shakli bo'yicha	Ma'lumotlarni olishni istalgan shaklida (og'zaki, yozma, hisobot shaklida, telefon orqali, ma'ruza yoki nutq shaklida va h.k.	Moliyaviy hisobot shakllari asosida
8. Tahlil natijalarini oshkor etilishi bo'yicha	Sir saqlanadi	Oshkor etiladi
9. Mazmuni bo'yicha	Boshqaruvni, faoliyat va harakatning har bitta bo'g'ini, resurslarning har bitta turi, jarayonlarning har bittasi bo'yicha ma'lumotlar bazasi bilan ta'minlashi bilan farq qiladi	Boshqaruvni, firma va kompaniyalar faoliyatining muayyan davrga bo'lgan umumlashgan ma'lumotlarini tahlil etish asosida manbalashi bilan farq qiladi
10. Vazifalari bo'yicha	Vazifalarni hal etilishi faqat shu korxona boshqaruv xodimlari uchun xizmat qiladi.	Vazifalarni hal etilishi ham ichki, ham tashqi tahlil subyektlari uchun xizmat qiladi
11. Tahlilni tashkil etilishi yuzasidan	Norasmiy (korxona uchun maqbul) shaklda	Rasmiy shaklda

1.4. Moliyaviy tahlilining maqsadi, mazmuni va asosiy vazifalari

Korxonaning moliyaviy holati iqtisodiy kategoriya sifatida xo'jalik subyektining o'z faoliyatini yuritish, rivojlantirish va o'z-o'zini moliyalashtirish imkoniyatlari yuzasidan kapitalning holatini xarakterlaydi. Ya'ni xo'jalik subyektining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasini, ularning maqsadli joylashtirilishi va samarali foydalanish darajasini, boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik holatini tavsiflashni xarakterlaydi.

Moliyaviy holat xo'jalik subyektining barcha jihatlariga: ishlab chiqarishni reja topshiriqlarining bajarilishiga, xarajatlari

va mahsulot tannarxini kamaytirish va foydani o'stirish darajalariga, ishlab chiqarish samaradorligini o'sishiga, tovarlar, pul mablag'larining aylanuvchanligiga ta'chir etuvchi faktorlarga, xomashyo va materiallarni yetkazib beruvchilar bilan, mahsulotlar yuzasidan xaridorlar bilan aloqalarning mustahkamligi, sotish yuzasidan hisob-kitoblarning takomillashuv darajasiga bog'liq ravishda moliyaviy holatni o'rganish va tahlil etish orqali xo'jalik subyektining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va uni o'stirishning imkoniyatlariga, moliyaviy raqobatdoshlikka va to'g'ri moliya siyosatini yuritilishiga, moliyaviy resurslar va kapitaldan davlat va boshqa subyektlar oldidagi majburiyatlarni bajarilishiga baho beriladi.

Xo'jalik subyektining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va uni o'stirish imkoniyatlarini baholashda korxona ishlab chiqarish, tijorat va moliya faoliyatidan moliyaviy resurslarning kirimiga va ulardan moliyaviy holatni o'stirishda foydalanish darajalariga, moliyaviy natijalarni kutilishini prognozlash va iqtisodiy rentabellikni xo'jalik faoliyatining real imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda oshirishning yo'llarini belgilashga, moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilashga ahamiyat qaratiladi.

Moliyaviy raqobatdoshlikka va to'g'ri moliyaviy siyosatni yuritishga korxona foydasini maksimallashtirish, kapital tarkibini optimallashtirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mulkdorlar (qatnashchilar, ta'sischilar), investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy holatning jozibadorligini oshirish, korxona boshqaruvi yuzasidan samarali mexanizmni shakllantirish, shuningdek, moliyaviy resurslarni jalb etishda bozor mexanizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanish orqali erishish mumkin.

Moliyaviy holatni baholash orqali ikkita natijaviy ko'rsatkichga ega bo'linadi. Birinchisi korxona boshqaruv apparatining faoliyatiga baho beriladi, ikkinchisi moliyaviy holatning ayrim ko'rsatkichlarini prognozlash imkoni tug'iladi.

Moliyaviy tahlil maqsadi – firma va kompaniyalar moliyaviy holatini, moliyaviy natijalari, pul oqimlarini moliyaviy hisobot ma'lumotlarida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan davriy o'rganishdan iborat.

Moliyaviy tahlil mazmunini — xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini muayyan davriylikda, axborotlar oqimini uzluksiz jarayonida joriy va istiqbolli taktik boshqarishning zaruriy asosiga ega bo'lgan qarorlarni tayyorlashga imkon beruvchi analitik jarayonlarni tashkil etish va o'tkazishni tashkil etadi.

Moliyaviy holat tahlili oldiga qo'yiladigan asosiy vazifalarni quyidagi qatorlarda umumlashtirish va tarkiblash mumkin. Xo'jalik yurituvchi subyektlar:

— mulki, kapitali va majburiyatlarini, ularning o'zgarishlarini tahlil etish;

— moliyaviy natijaviyligi va rentabelligini baholash;

— asosiy va oborot kapitalini tahlil etish;

— pul mablag'lari va moliyaviy qo'yilmalarini tahlil etish;

— xususiy mablag'lar va ularning o'zgarishini tahlil etish;

— iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, mehnat salohiyatini tahlil etish;

— to'lovga qobillik va mablag'lar harakatchanligini tahlil etish;

— bozor va ish aktivligini tahlil etish;

— firma va kompaniyalar moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy nochorligini tahlil etish;

— biznesining samaradorligi va natijaviyligini omilli tahlil etish;

— debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini tahlil etish

— bozordagi o'rni va iqtisodiy reytingini baholash;

— moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlash va ularni yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini belgilab olishdan iboratdir.

Professor M. Pardayev tomonidan korxona moliyaviy ahvolini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagi kategoriya va ko'rsatkichlarni baholash hisoblanadi:

— buxgalteriya balansi va mulkiy holat ko'rsatkichlari tuzilmasini tahlil etish;

— iqtisodiy va moliyaviy salohiyat ahvoli, ta'minlanganlik va foydalanish samaradorligini tahlil etish;

— asosiy va aylanma mablag'lar ahvoli, ta'minlanganlik va foydalanish samaradorligini tahlil etish;

– iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamligini tahlil etish;

– likvidlilik va to'lov qobiliyatini tahlil etish;

– xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini tahlil etish;

– ish va bozor faolligini tahlil etish;

– bankrotlik holatini tahlil etish kabi vazifalar belgilanadi.

M.I. Bakanov fikricha korxonaning moliyaviy holati deganda moliyaviy resurslarning turlari bo'yicha mavjudligini, raqobatdoshlik darajasini, davlat va boshqa xo'jalik subyektlari oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar kabi muhim jihatlar majmuasi tushuniladi[1].

Korxona moliyaviy ahvolini baholashda iqtisodiy va moliyaviy salohiyat, iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlik mulkiy holat; likvidlilik; moliyaviy barqarorlik; moliyaviy natijalar; ish va bozor faolligi samaradorlik kabi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Boshqa bir manbada moliyaviy holat- deganda korxonaning moliyalashtirishga qodirlik darajasi tushuniladi[2] deyiladi.

Analitik tahlilchi L.I. Dontsova, N.A. Nikiforovalar tomonidan moliyaviy holat deganda korxonalar aktivlari va kapitalining tarkibiy elementlarini balansligi, shuningdek, ulardan samarali foydalanish darajasini xarakterlovchi ifoda nazarda tutiladi.[3]

Iqtisodchi olim T.Shog'iyasov qarashicha moliyaviy holat davlat, tashkilot va shaxslar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarini ifodalaydi. Moliyaviy holat korxonani mablag' bilan ta'minlanganligi, barcha turdagi mablag'larning maqsadga muvofiq yo'nalishi va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, budjet bank, xomashyo yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan hisob-kitob holati bilan xarakterlanadi.[4]

Bizning fikrimizcha, moliyaviy holat-xo'jalik subyektining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasini, ularning maqsadli joylashtirilishi va samarali foydalanishini, boshqa

[1] Пардаев М. Молиявий таҳлил СамИСИ-2007 йил, 36-бет

[2] Н.П.Любушин, Н.Е.Бабичева «Фиансовий анализ» м..Экспо-2010 стр-15

[3] Л.И.Донцова, Н А Никифорова Анализ финансовой отчетности.М.. Дело и Сервис. стр-6

[4] Т Шогиясов Комплекс иктисодий таҳлил. Т Иктисод – Молия 2009. 183-бет

huquqiy va jizmoniy shaxslar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik holatini tavsiflashni xarakterlaydi.

Korxona moliyaviy holatini xarakterlovchi asosiy jihatlar quyidagi qatorlarda aks etadi:

– moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi;

– moliyaviy resruslardan maqsadli va samarali foydalanish holati;

– boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan moliyaviy aloqalarning mustahkamligi;

– to'lovga qobillik;

– kreditga qodirlik;

– moliyaviy barqarorlik.

Iqtisodchi olim, professor M. Pardayev tomonidan esa moliyaviy holatni aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimiga tayanish tavsiya etiladi.[1]

– iqtisodiy va moliyaviy salohiyat;

– iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlik;

– mulkiy holat;

– likvidlilik;

– moliyaviy barqarorlik;

– moliyaviy natijalar;

– ish va bozor faolligi;

– samaradorlik ko'rsatkichlari.

Rus olimlari N.P. Lyubishin, N.E. Babichevalar tomonidan moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga umumlashgan holda quyidagi qatorlar kiritiladi

1.7-jadval

Moliyaviy holatni tarkibiy ko'rsatkichlari

<table>
<tr><th colspan="5">Moliyaviy holatni ifoda etuvchi tarkibiy jihatlar</th></tr>
<tr><td>Moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi</td><td></td><td>Aktivlar va passivlar balansligi</td><td rowspan="4"></td><td rowspan="4">Korxonaning moliyaviy barqarorligi</td></tr>
<tr><td>Kreditga qodirlik</td><td>Daromad va xarajatlar balansligi</td></tr>
<tr><td>To'lovga qobillik</td><td>Pul oqimlari balansligi</td></tr>
</table>

[1] Пардаев М Молиявий таҳлил СамИСИ-2007 йил, 36-бет, www/ziyonet/uz

Moliyaviy jozibadorlikni xarakterlovchi ko'rsatkichlar: moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish, kreditga va to'lovga qobillik darajalari moliyaviy holatni baholashda eng muhim qatorlar hisoblanadi.

Aktivlar va passivlar balansligi, daromad va xarajatlar balansligi, pul oqimi balansligini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar moliyaviy faoliyatning natijaviyligi va rentabelligini xarakterlaydi.

Moliyaviy barqarorlik, aktivlarni (uzoq muddatli va joriy aktivlarni) moliyalashtirishning, moliyaviy mustahkamlik va qaramlikning, o'z va qarz mablag'larini jalb etilishida ijobiy nisbatning saqlanishini xarakterlaydi.

1.5. Moliyaviy tahlil usullari

Iqtisodiyotning rivoj topishida o'zaro uzviy bog'langan xo'jalik subyektlarini axborot almashuvlari asosidagi maqsadli harakatlari muhim o'rin tutadi. Ya'ni, korxona o'z faoliyatini erkin yuritgan holda boshqa korxona va xodimlar bilan uzviy aloqada bo'ladilar. Bu esa kuchli raqobat muhitida boshqaruvni yanada murakkablashtiradi. Natijada korxonalar axborotlar oqimidan ham ichki va ham tashqi muhitga moslashuvchan tarzda foydalanishga zaruriyat sezadilar

Boshqaruv qarorlarini tayyorlash yuzasidan axborotlarni o'qish va tahlil qilish bir qadar murakkab jarayon. Ularni shunchaki o'qish orqali hech qanday bilimga ega bo'linmaydi. Aslida bundan keyingi harakatlar butun harakatlarning natijasini bilishdan va o'rganishdan kelib chiqib belgilanadi.

Avvalgi voqealarning natijalarini aks ettiruvchi moliyaviy hisobotlar, nafaqat bugunni bilishni balki kelajakni ham basho-ratlash imkonini beradi. Shu sababli, moliyaviy hisobotlarni tahlil etishda eng tajribali rahbar, menejer va buxgalterlar ham (moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning professional o'quviga ega bo'lgan holda) oddiy hisob- kitoblarni amalga oshirishda qiynalishadi. Moliyaviy hisobotlarni tahlil etish orqali nafaqat investitsiya qarorlarini qabul etish, kredit resurslarini jalb etish, bo'lg'usi pul oqimlariga baho berish, resurslar va

majburiyatlar tuzilishiga avvalo rahbar organlarning ishiga baho beriladi.

Demak, xo'jalik subyektini faoliyatini, uning ko'lami, holati, natijaviyligi va kelgusidagi kutilishlariga baho berishni tahlil usullari orqaligini bilib olish mumkin.

Xo'jalik faoliyatiga doir bir xil holatlarning har xil jihatlarini aks ettiruvchi moliyaviy hisobotlar xo'jalik subyektining moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar to'g'risida axborotni taqdim etishning muhim vositasi sifatida tahlil etilishi va o'rganilishi lozim. Tahlil etish va o'rganish esa maxsus usullar yordamida amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati yuzasidan obyektiv axborotlarni olish yo'llarini belgilab beruvchi tahlil usullariga quyidagilarni kiritish mumkin.

- moliyaviy hisobotni o'qish;
- gorizontal tahlil;
- vertikal tahlil;
- trend tahlili;
- qiyosiy (taqqoslama) tahlili;
- moliyaviy koeffitsiyentlar;
- omilli tahlil.

Moliyaviy hisobtlarni «o'qish» deganda moliyaviy hisobotni manzilli o'rganish tartibi tushuniladi. Ya'ni korxonani bilishni dastlabki o'rganish usulidir.

Gorizontal tahlil-moliyaviy hisobot elementlari va ularning moddalarini mutlaq va nisbiy farqlash orqali o'zgarishlarini aniqlash usulidir.

Vertikal tahlil-mablag'lar va ularning tashkil topishi manbalarini, daromad va xarajatlarni, moliyaviy hisobotlarning boshqa elementlarini tarkibiy o'rganish usulidir.

– Trend tahlili – asos ko'rsatkichiga nisbatan dinamik o'rganish usulidir.

– Qiyosiy (taqqoslama) tahlili-bir yoki bir nechta ko'rsatkichlar tizimini, turli obyektlar bo'yicha taqoslash usulidir.

– Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini o'zaro nisbatlash asosida aniqlanadigan ko'rsatkichlar asosida baholash usulidir.

Omilli tahlil-natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birliklarni va hisob-kitob qilish mumkin bo'lgan birliklarda aniqlash usulidir.

Moliyaviy tahlil usullari qatoriga ayrim manbalarda shuningdek, taqqoslama (solishtirma) tahlil, loyihaviy tahlil, diskontlash usullari ham kiritiladiki ushbu usullar iqtisodchilar guruhiga kiruvchi boshqa mutaxassislar tomonidan ko'proq qo'llaniladigan usullardir.

Yuqorida keltirilgan usullar barcha tahlilchilar uchun yagona usul sifatida foydalaniladi.

Tahlil usullarining sxematik tushuntirish ularni anglashni yanada osonlashtiradi. Shu sababli bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi moliyaviy htisobot elementlari moddalariga nisbatan, shuningdek moliyaviy holat ko'rsatkichlariga nisbatan ushbu usullarning tasnifini berib o'tamiz.

1.5.1. Moliyaviy hisobotni o'qish

Moliyaviy hisobotni o'qish, deganda ko'pincha moliyaviy hisobotning manzilligi (egasi) mulki shakli (xususiy, aksionerlik h.k.), o'lchov birligi (milliy va xorijiy valuta), yuridik manzili, davriyligi (qaysi davrga tuzilishi) tasniflash tushuniladi. Aslida o'qish kengroq tushuncha. Unda mulkning o'ziga va qarzga olingan qismlarga bo'linishi, agar korxonada pul mablag'lari bo'lsa ular hozirda kimga tegishli ekanligi, agar korxona foydaga ega bo'lsa ular qaysi aktivlarda saqlanganligi (moliyaviy va nomoliyaviy ko'rinishda ekanligi), balansning o'sishi nimani izohlashi, agar korxona moliyaviy barqaror bo'lsa yoki nobarqaror bo'lsa u balansda qanday joylashuvi kabi masalalarni ham qamrab olmog'i lozim.

Qoidalarga muvofiq moliyaviy hisobot mulkchilikning barcha shakllariga mansub, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra yuridik shaxs hisoblangan korxona va tashkilotlar (sug'urta tashkilotlari va banklar mustasno), shuningdek mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-

kitob raqamiga ega bo'lgan, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchi hisoblanadigan alohida bo'linmalar taqdim etadilar.

Moliyaviy hisobot shakllari, taqdim etish muddatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilanadi.

Moliyaviy hisobotning yillik va davriy hisobot turlari belgilanadi. Davriy hisobot yillik hisobotdan hisobotlar shakli sonining kamligi bilan farq etadi.

«Buxgalteriya hisobi» to'g'risidagi qonunga va 1-sonli BHMS (Buxgalteriya Hisobining Milliy Standarti)ga muvofiq moliyaviy hisobot tarkibiga quyidagi hisobot shakllari kiritilgan.

1) Buxgalteriya balansi – 1-shakl;
2) Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot – 2-shakl;
3) Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot – 3-shakl;
4) Pul oqimlari to'g'risida hisobot – 4-shakl;
5) O'z sarmoyasi to'g'risida hisobot – 5-shakl;
6) Qo'shimcha axborot (izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar).

Moliyaviy hisobotni o'qish hisobot shakllarining manzil qismini ya'ni, korxonaning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan ta'sis hujjatlariga muvofiq to'liq nomi (KTUT), korxona tarmog'i (XXTUT), korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli (THT), korxonaning mulkchilik shakli (MShT), ixtiyorida korxona turgan (agar u mavjud bo'lsa) va unga moliyaviy hisobot yo'naltiriladigan organning nomi (DBPBT), soliq to'lovchi sifatida identifikatsiya raqami (STIR), hudud bo'yicha rekviziti (MHOBT) hamda korxonaning to'liq yuridik manzilini o'rganishdan boshlanadi.

Moliyaviy hisobotni o'qishda moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini hisob-kitoblarsiz tasnifiy bayonlash muhim o'rin tutadi. Bu jihatdan aktivlar va passivlarning jami summasi.

Daromad va xarajatlarning mutlaq ifodalari to'langan soliqlar summasi, asosiy vositalarning tarkibiy tuzilishi, pul oqimlarini kirimi va chiqimini umumiy ifodalari, valuta mablag'alari summasi, o'z sarmoyasining darajasini bayonlashni misol qilib keltirish mumkin.

Moliyaviy hisobotlarni o‘qishda xo‘jalik subyektining moliyaviy holatini biografik tasniflashga asoslaniladi va bu jihat tegishli hisobot davri uchun ahamiyatli hisoblanadi.

1.5.2. Gorizontal tahlil

Gorizontal tahlil – alohida moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash orqali moliyaviy holatdagi o‘zgarishlarga baho berish usuli hisoblanadi. O‘zgarishlar, mutlaq va nisbiy ifodalarda aniqlanadi. Moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini, moliyaviy ko‘rsatkichlarni gorizontal tahlili asosida ularning o‘sish darajalariga baho beriladi.

Moliyaviy tahlilda gorizontal tahlilning quyidagi shakllaridan foydalaniladi.

1.8-jadval

Buxgalteriya balansi aktivini gorizontal tahlil etish metodikasi[1]

Ko‘rsatkichlar nomi	hisobot davri boshiga		hisobot davri oxiriga		farqi	
	summa	%	sum-ma	%	mutlaq	%
Aktiv	2	3	4	5	6(4-2)	7(5-3)
I. Uzoq muddatli aktivlar						
Asosiy vositalar:	Ab	SAb	Ao	SAo	Ao-Ab	SAo-SAb
Nomoddiy aktivlar:	Nb	SNb	No	SN	No-Nb	SNo-SNb
Uzoq muddatli investitsiyalar,	Ib	Sib	Io	SIo	Io-Ib	SIo-SIb
O‘rnatiladigan asbob-uskunalar	O‘b	SO‘b	O‘o	SO‘o	O‘o-O‘b	SO‘o-SO‘b
Kapital qo‘yilmalar	Kb	SKb	Ko	SKo	Ko-Kb	SKo-SKb
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari	Db	SDb	Do	SDo	Do-Db	SDO-SDb

[1] Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2002 йил 27 декабрдаги 140-сонли буйруғига 1-сонли илова, ЎзР АВ томонидан 2003 й. 24 январда рўйхатга олинган N 1209

Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar	Xb	SXb	Xo	SXo	Xo-Xb	SXo-SXb
I bo'lim bo'yicha jami	Wb	CW b	Wo	CW o	Wo-Wb	CWo-CWb
II. Joriy aktivlar						
Tovar-moddiy zaxiralari	Tb	STb	To	STo	To-Tb	STo-STb
Kelgusi davr xarajatlari	Pb	SPb	Po	SPo	Po-Pb	SPo-SPb
Kechiktirilgan xarajatlar	Rb	SRb	Ro	SRo	Ro-Rb	SRo-SRb
Debitorlar	Mb	SMb	Mo	SM o	Mo-Mb	SMo-SMb
Pul mablag'lari	PMb	SP Mb	PMo	SP Mo	PMo-PMb	SPMo-SMPb
Boshqa joriy aktivlar (5900)	Jb	SJb	Jo	SJo	Jo-Jb	SJo-SJb
II bo'lim bo'yicha jami	WWb	CW Wb	WWo	SW WY ao	WWYao-WWYab	SWWYa o-SWWYa b
Balans aktivi bo'yicha jami	WWW b	100	WW Wo	100	WWWo-WWWb	x

1. Hisobot davri moliyaviy ko'rsatkichlarni o'tgan yilning shu davri (dekada, oy, chorak) ko'rsatkichlari bilan taqqoslash.

2. Hisobotning moliyaviy ko'rsatkichlarini o'tgan yilning shu davri ko'rsatkichi bilan taqqoslash (masalan joriy davr 1-choragini o'tgan yilning 1-choragi bilan taqqoslash).

3. Bir necha yillar bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlarni taqqoslash.

1.5.3. Vertikal tahlil

Vertikal tahlil gorizontal tahlilni to'ldiruvchi usul sifatida moliyaviy hisobot elementlari, moddalarining tarkibiy jihatlariga baho berishni xarakterlaydi. Ushbu jihatlarni moliyaviy hisobotlarning barcha shakllariga nisbatan qo'llash mumkin.

Umumiy tarkibda yakka birliklarning salmog'i va ularning o'zgarishlari asosida korxona moliyaviy holatini tashxislash yanada osonlashadi. Korxonani moliyaviy ahvolini anglash, bilishda asosiy jihatlar jami tarkibda birlik qatorlarni to'g'ri nisbatlashga qaratiladi.

Masalan, jami aktivlar tarkibida uzoq muddatli va joriy aktivlarning salmog'ini aniqlash asosida, aktivlarning joylashuviga baho beriladi. Bu jihat nafaqat ularning joylashuvini nisbiy ifodada anglashni balki, likvidlilik ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishda ham ahamiyatli hisoblanadi. Shu sababli joriy aktivlar tarkibida likvid mablag'lar(tovar moddiy zaxirlar, debitorlik majburiyatlari va pul mablag'lari) ning salmog'ini bilish orqali mulkiy holatning tarkibiy tuzilishiga aniqroq baho berish imkoni tug'iladi.

Bu kabi jihatlarni birlik qatorlarning o'zi bo'yicha ham amalga oshirish mumkin. Ya'ni tovar moddiy zaxiralar joriy aktivlarning tarkibiy qismi sifatida o'rganilsa, o'z navbatida ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tovarlar, tayyor mahsulotlar tovar moddiy zaxiralarning tarkibiy qismi sifatida o'rganiladi.

Buxgalteriya balansini aktiv va passiv tomonlarini tarkibiy jihatdan quyidagicha tarkiblash va vertikal tahlilini o'tkazish mumkin.

1.9-jadval

Balans aktivi va passivining tarkibiy tahlili

Aktiv	Belgi	Balans qatori %	Passiv	Belgi	Balans qatori %
Uzoq muddatli aktivlar	UMA	UMA/AJ*100	O'z mablag'lari manbasi	O'MM	O'MM/PJ*100
Joriy aktivlar	JA	JA/AJ*100	Majburiyatlar	M	M/PJ*100
Shu jumladan:			Shu jumladan:		
Tovar moddiy zaxirlar	TMZ	TMZ*JA/AJ*100/JA	Uzoq muddatli	UM	UM*M/PJ*100/M

Debitorlik majburiyat-lari	DM	DM*JA/AJ *100/JA	Qisqa muddatli	QM	QM* M/PJ*100/ M
Pul mablag'lari	PM	PM*JA/AJ* 100/JA	Kreditorlik	KM	KM* M/PJ*100/ M
Aktiv jami	AJ	**100**	Passsiv jami	PJ	**100**

1.10-jadval

Moliyaviy natijalarning tarkibiy tahlili

Moliyaviy natija qatorlari	Belgi	Tarkib salmog'i
Mahsulot sotishdan yalpi foyda	MSYaF	MSYaF/STQN*100%
Asosiy faoliyatning natijasi	AFN	AFN/STQN*100%
Moliyaviy faoliyat natijasi	MFN	MFN/STQN*100
Favqulodda natija	FN	FN/STQN*100
Soliq to'loviga qadar natija	STQN	100 %
Foydadan soliq va boshqa soliqlar	FS	FS/STKF*100
Sof foyda	SF	SF/STQN*100

Xuddi shu jihat tarkibiy tahlilni pul oqimini umumiy qatorlarida, (operatsion faoliyatdan pul oqim, investitsion faoliyatdan pul oqimi, moliyaviy faoliyatdan pul oqimi, soliqlanishdan pul oqimi qatorlari bo'yicha) asosiy vositalarning tarkibiy tuzilishida (yer, bino, inshoot, uzatuvchi moslamalar, mashina va uskunalar, transport vositalari va h.k.), xususiy kapitalni tarkibiy tuzilishida (ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda qatorlari bo'yicha) ham qo'llash mumkin.

Vertikal tahlil gorizonatal tahlil asosidagi bir butunlikka erishadi. Shu sababli ularni doimo birgalikda va umumiylikda foydalanish kuzatiladi. Ularni bir-biridan holi tarzda qo'llash orqali tahlilning to'liqligini ta'min etib bo'lmaydi.

1.5.4. Trend (asos) tahlili

Trend tahlili – asos tahlili sifatida dinamik o'zgarishlarni baholashda eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Ushbu

usul yordamida yaqin va uzoq davriylikdagi o'zgarishlarga mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi. Trend tahlilidan ko'pincha aktivlar o'zgarishini baholashda, foyda va uning o'sishini baholashda, investitsiyalar hajmini baholashda foydalaniladi. Tahlil yakunida korxona moliyaviy holatining ko'rsatkichlar tizimiga, yillar kesimidagi o'zgarishlariga, korxonaning keng doiradagi imkoniyatlariga baho beriladi. Odatda, qisqa davriylikda, davr boshi va oxiri, hisobot yili va o'tgan yil ko'rsatkichlarini taqqoslash asosida moliyaviy imkoniyatlarga to'la baho berish imkoni bo'lmaydi. Korxonaning moliyaviy holatini yillar kesimida uzoq davriylikka nisbatan o'rganish faoliyati haqida aniqroq xulosa chiqarishga, boshqaruvning tadrijiy tadbirlarini belgilashda turli omillarni hisobga olgan holda yo'nlashuvlar imkonini beradi.

Masalan, iqtisodiyotning agrar sektorida ob-havo sharoitining noqulay kelishi sababli tarmoq korxonalarining moliyaviy ahvoli ushbu davrga nisbatan boshqa yillarga nisbatan past ko'rsatkichlarni xarakterlaydi.

Lekin ushbu jarayonga joriy davr moliyaviy holatini baholash natijalarini mezon qilib oladigan bo'lsak korxona iqtisodiy nochor, bankrotlik darajasidagi holatga tushib qoladi. Buning ta'sirida boshqaruv apparati ishbilarmonligining yo'qligi, faoliyat samaradorligini pasayishida o'ziga bog'liq bo'lmagan omillar ta'sirini ko'pligiga ahamiyat qaratish lozim bo'ladi.

Trend tahlili asosida moliyaviy holatdagi o'zgarishlarning ayrim jihatlarini bashoratlash (prognozlash) imkoniga ham ega bo'linadi.

1.11-jadval

Moliyaviy hisobot elementlarini trend tahlili

Yillar/Ko'rsatkichlar	Moliyavviy ko'rsatkich	O'zgarishi +,-			
		Oldingi yilga nisbatan		Bazis davriga nisbatan	
		summa	%	Summa	%
2008	K1	x	x	x	x
2009	K2	K2-K1	K2/K1	K2-K1	K2/K1
2010	K3	K3-K2	K3/K2	K3-K1	K3/K1
2011	K4	K4-K3	K4/K3	K4-K1	K4/K1
2012	K5	K5-K4	K5/K4	K5-K1	K5/K1

Uning kamchiligi sifatida inflyatsiya ta'sirining mavjudligi, ko'rsatkichlarni aniqlash va hisoblash tartiblaridagi o'zgarishlarning mavjudligi (buxgalteriya foydasi va soliq foydasini aniqlash tartiblarining o'zgarishi, xarajatlar tarkibining o'zgarishi, moliyaviy hisobotlarni tuzish tartiblarining o'zgarishi va h.k.), ko'p mehnat talabligi, ma'lumotlarning bazasining to'liq emasligi, ayrim ko'rsatkichlarga nisbatangina o'rganish mumkinligini xarakterlash mumkin.

1.12-jadval

Foyda, sotishdan tushum va aktivlar summasi

Ko'rsatkichlar / Yillar	Foyda	Sotishdan tushum	Aktivlar summasi
2008	F0	ST0	A0
2009	F1	ST1	A1
2010	F2	ST2	A2
2011	F3	ST3	A3
2012	F4	ST4	A4

1.13-jadval

Moliyaviy ko'rsatkichlarni o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlari tahlili

Ko'rsat-kichlar	Foyda		Sotishdan tushum		Aktivlar summasi	
	Oldingi yilga nisbatan	Bazis davrga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan	Bazis davrga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan	Bazis davrga nisbatan
Mutlaq ifoda						
2008	F0		ST0	*	A0	*
2009	F1-F0	F1-F0	ST1-ST0	ST1-ST0	A1-A0	A1-A0
2010	F2-F1	F2-F0	ST2-ST1	ST2-ST0	A2-A1	A2-A0
2011	F3-F2	F3-F0	ST3-ST2	ST3-ST0	A3-A2	A3-A0
2012	F4-F3	F4-F0	ST4-ST3	ST4-ST0	A4-A3	A4-A0
Nisbiy ifoda						
2008	F0		ST0	*	A0	*
2009	F1/F0	F1/F0	ST1/ST0	ST1/ST0	A1/A0	A1/A0
2010	F2/F1	F2/F0	ST2/ST1	ST2/ST0	A2/A1	A2/A0
2011	F3/F2	F3/F0	ST3/ST2	ST3/ST0	A3/A2	A3/A0
2012	F4/F3	F4/F0	ST4/ST3	ST4/ST0	A4/A3	A4/A0

Trend tahlili asosida, shuningdek, ko'rsatkichlarning aloqadorlik darajasiga, o'rtacha o'sishi, darajalarining holatiga ham baho beriladi.

Foyda, sotishdan tushum, shuningdek, o'rtacha o'sish darajalarini hisob-kitoblariga asoslanib moliyaviy rejaning istiqboldagi ko'rsatkichlarini ham belgilab olish mumkin. Foydaning o'sish darajasi, sotishdan tushumning o'sishi darajasidan yuqori bo'lishligi, sotishdan tushumning o'sish darajasi aktivlarning o'sish darajasidan yuqori bo'lishligi, aktivlarning o'sish darajasi esa doimo 1 yoki 100 dan yuqori bo'lishligi qonuniyat sifatida belgilangan. Bu jihatning iqtisodiy qonuniyatga aylanishi, korxonaning iqtisodiy mustahkamligini, rivojlanishini ham belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

Ushbu qonuniyatni mehnat unumdorligini o'sishi bilan ish haqining o'sishi orasidagi nisbatning saqlanishida tushunib olish mumkin. Negaki asossiz ish haqini oshirish, agarda mahsulot ishlab chiqarish hajmining real o'sishlariga erishilmasa hech qanday iqtisodiy, ijtimoiy samara bermaydi. Shu moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish darajalariga baho berishda albatta bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turli ko'rsatkichlarning qiyosiy farqlanishlariga ham muhim ahamiyat berish talab etiladi.

1.5.5. Koeffitsiyent tahlili

Korxona faoliyatiga baho berishda mutlaq ifodalar moliyaviy holatning barcha qirralarini ochib bera olmaydi. Shu sababli ko'p hollarda nisbiy ifodalardan ham foydalaniladi.

Nisbiy ifodalar fanda moliyaviy koeffitsiyentlar deb nomlanib ularning har biri korxona moliyaviy holatining muhim jihatlarini o'zida ifoda etishi bilan farqlanadi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlashning quyidagi muhim jihatlarini xarakterlash lozim:

– moliyaviy koeffitsiyentlar – 2 yoki undan ortiq ko'rsatkichlarni o'zaro nisbatlash orqali topiladi (nisbatlash o'z mazmuniga hamda tasnifiga ega bo'lmog'i va moliyaviy holatga baho berishda yangi bir ko'rsatkichni ifoda etishi lozim);

– moliyaviy koeffitsiyentlar – faqat rasmiy chop etiladigan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aniqlanadi (moliyaviy koeffitsiyentlar bitta yoki bir nechta moliyaviy hisobot qatorlarini, shuningdek ularning jamlangan birliklarini nisbatlash orqali hisoblanadi);

– moliyaviy koeffitsiyentlar – bir xil jarayonning har xil jihatlarini ifodalaydi (masalan korxona to'lov layoqatini baholashda, uning mutlaq, oraliq va umumiy ko'rsatkichlarini tarkiblanishi);

– moliyaviy koeffitsiyentlarni – aniqlashda alohida ko'rsatkichlarni jamlash imkoniyati mavjud (masalan, korxona moliyaviy holatining reyting baholashda ko'rsatkichlarning jamlanishi yoki iqtisodiy nochorlikni aniqlashda ko'rsatkichlarning jamlanishi).

– moliyaviy koeffitsiyentlar – bir xil o'lchovga ega;

– moliyaviy koeffitsiyentlar – korxona faoliyat samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi;

– moliyaviy koeffitsiyentlar – har xil jarayonning bir xil jihatlari mazmunini xarakterlaydi (asosiy vositalarning eskirishi va yaroqlilik koeffitsiyentlari har xil jihat, ularning birligi esa bitta jihat)

– moliyaviy koeffitsiyentlar – mutlaq darajadagi qiymatning qanday bo'lishidan qat'iy nazar barcha korxona va tashkilotlar ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash imkonini beradi. Moliyaviy koeffitsiyentlar aslida tahlilning oxirgi bosqichida aniqlanadigan ko'rsatkichlar emas. Moliyaviy holatga baho berish ushbu ko'rsatkichlarni aniqlashdan boshlanadi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarning, odatda tarkibiy va muvofiqlashtiruvchi turlari xarakterlanadi. Tarkibiy moliyaviy koeffitsiyentlar bir xil asosli jamlangan qatorlarda birlik qatorlarning salomog'ini xarakterlasa, muvofiqlashtiruvchi koeffitsiyentlar esa har xil asosli ko'rsatkichlarni o'zaro nisbatlash orqali hisoblanadi.

Tarkibiy koeffitsiyentlarga – korxona mol-mulki tarkibida uzoq muddatli va joriy aktivlarning salmog'i, joriy aktivlar tarkibida likvid aktivlar (tovar moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari, pul mablag'lari)ning salmog'i, jami manbalar tarkibida o'z va qarz mablag'lari salmog'i, majburiyatlar tarkibi-

da uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar salmog'i va boshqa tarkibiy koeffitsiyentlar kiradi.

Muvofiqlashtiruvchi koeffitsiyentlarga moliyaviy mustaqillik, barqarorlik, rentabellik ko'rsatkichlari, to'lov layoqati ko'rsatkichlari kiradi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarni jamlangan qatori bo'yicha quyidagi tarkibni tuzib chiqish mumkin.

– to'lov layoqati va likvidlilik koeffitsiyenti;
– moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari;
– daromadlik (rentabellik) koeffitsiyentlari;
– bozor aktivligi koeffitsiyentlari;
– ish aktivligi koeffitsiyentlari;

Moliyaviy koeffitsiyentlarning har bir guruhi bir nechta ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

1. To'lov layoqati va likvidlilik koeffitsiyentlari qatoriga mutlaq, oraliq, umumiy to'lov layoqati ko'rsatkichlari kiradi (ayrim manbalarda ushbu ko'rsatkichlar mutlaq, tez likvidlilik va joriy likvidlilik, deb nomladi).

1.14-jadval

To'lov layoqati va likvidlilik ko'rsatkichlari

Koeffitsiyentlar	Aniqlanish formulasi	Birliklar ifodasi	Izoh
To'lov layoqati ko'rsatkichlari			
Mutlaq to'lov layoqati	PM+QMMQ/TM	PM-pul mablag'lari QMMQ-qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar TM-to'lov majburiyatlari	
Oraliq to'lov layoqati	PM+QMMQ+DM /TM	DM-debitorlik majburiyatlari	Muddati o'tgan majburiyatlari chegiriladi
Umumiy to'lov layoqati	PM+QMMQ+DM + +TMZ/TM	TMZ-tovar moddiy zaxiralar	
Likvidlilik ko'rsatkichlari			
Joriy	A1-P1 yoki A1/P1 >=	A1=PM+QMMQ	P1=KM(kred. majb.)

Qisqa muddatli	A2-P1 yoki A2/P2 >=	A2=DM	P2=KMKQ (qisqa muddatli kredit va qarzlar)
Uzoq muddatli	A3-P3 yoki A3/P3 >=	A3=TMZ	P3=UMKQ (uzoq mudd. kredit va qarzlar
Doimiy	P4-A4 yoki P4/A4 >=	A4=UMA	P4=O'MM(O'z mabla.manbayi)

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari qatoriga moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti, moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti, o'z sarmoyasining harakatchanlik koeffitsiyenti, qarz mablag'larining jamlanganlik koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti.

1.15-jadval

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari

Koeffitsiyentlar	Aniqlanish formulasi	Birliklar ifodasi
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	O'MM/BJ	O'MM-o'z mablag'lari manbasi BJ-balans (passiv) jami
O'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti	O'MM/Maj	Maj-majburiyatlar
Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	BJ/O'MM	
O'z sarmoyasining harakatchanlik koeffitsiyenti	O'MM+UMKQ-UMA/O'MM	UMKQ-uzoq muddatli kreditlar va qarzlar UMA-uzoq muddatli aktivlar
Qarz mablag'larining jamlanganlik koeffitsiyenti	Maj/BJ	
Qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti	Maj/O'MM	

Moliyaviy natijaviylik koeffitsiyentlari qatoriga aktivlar daromadligi (rentabelligi), xususiy kapital daromadligi (rentabelligi), qarz kapitali daromadligi (rentabelligi), sof aktiv

daromadligi(rentabelligi) koeffitsiyentlari kiradi. G'arb kompaniyalarida (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya) ko'proq moliyaviy koeffitsiyentlarning quyidagi turlaridan foydalanish amaliyoti kuzatiladi.

1.16-jadval

Moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Birlik ifoda
Balans aktiv daromadligi (rentabelligi) koeffitsiyenti	Dar(SF)/A	Dar-daromad SF-sof foyda A-aktivlar o'rtacha yillik qiymati
Xususiy kapital daromadligi (rentabelligi) koeffitsiyenti	Dar(SF)/XK	XK-Xussiy kapital
Qarz kapitali daromadligi (rentabelligi)koeffitsiyenti	Dar (SF)/QK	QK-Qarz kapitali
Sof aktivlarning daromadligi (rentabelligi) koeffitsiyenti	Dar(SF)/SA	SA-Sof aktivning o'rtacha yillik qiymati

1.17-jadval

Moliyaviy koeffitsiyentlar va ularning aniqlanishi

Koeffitsiyentlar	Anqlanish formulasi	Belgilar izohi
ROA koeffitsiyenti – Aktivlarning jami summasiga to'g'ri keladigan foyda summasi ko'rsatkichi	ROA = SF + F x (1 – Ss) / JA	SF-Sof foyda F- Foizlar Ss- Soliq stavkasi JA-Jami aktivlar
ROE koeffitsiyenti – xususiy kapital foydaligi ko'rsatkichi	ROE = Sf / Ak x 100	Ak-Aksionerlik kapitali
ROLC koeffitsiyenti – Investitsiyalangan kapital foydaligi ko'rsatkichi.	ROLC=Sf + F x (1-Ss) / Umm + Ak	Umm-uzoq muddatli majburiyat

1.18-jadval

Bozor aktivligi ko'rsatkichlari va ularning aniqlanishi

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Birlik ifoda
Aksiyaning daromadligi	SFa/Abn	SF-bitta aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda Abn-bitta aksiyaning bozor narxi
Aksiyaning foydalilik koeffitsiyenti	Ad/Ann yoki Ad/Abq	Ad-Bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividend summasi Ann-bitta aksiyaning nominal qiymati (nominal foydalilik normasini aniqlashda) Abq-bitta aksiyaning bozor qiymati (haqiqiy foydalilik normasini aniqlashda)
Aksiya kurs bahosining o'zgarishi koeffitsiyenti	Asb-Aob/Ann	Asb-bitta aksiyaning bozor bahosi Aob-aksiyani sotib olish bahosi
Dividendlik koeffitsiyenti	D/SF	D-To'langan dividendlar summasi SF-korxona sof foydasi

1.19-jadval

Ish aktivligi ko'rsatkichlari va ularning aniqlanishi

Koeffitsiyent	Aniqlanishi	Birlik ifoda
Jami aktivlar aylanuvchanligi	MSST/A	MSST-Mahsulot sotishdan sof tushum
Uzoq muddatli aktivlar aylanuvchanligi	MSST/UMA	UMA-Uzoq muddatli aktivlar
Joriy aktivlar aylanuvchanligi	MSST/JA	JA-Joriy aktivlar
TMZ aylanuvchanligi	MSST/TMZ	TMZ-tovar moddiy zaxiralar
Tayyor mahsulot aylanuvchanligi	MSST/TM	TM-Tayyor mahsulot
Tovarlar aylanuvchanligi	MSST/T	T-Tovarlar

Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi	MSST/DM	DM-Debitorlik majburiyatlari
Kreditorlik majburiyatlari aylanuvchanligi	SMIChT/KM	SMIChT-Sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi

Korxonaning bozor aktivligi ko'rsatkichlari qatoriga aksiyaning daromadligi, aksiyaning foydaligi, aksiyaning balansdagi qiymati, aksiya bahosi va foyda nisbati koeffitsiyentlari kiradi.

Ish aktivligi koeffitsiyentlariga jami aktivlarning, uzoq muddatli aktivlarning, joriy aktivlarning, TMZ, tayyor mahsulot, tovarlar, debitorlik majburiyatlari, kreditorlik majburiyatlari aylanuvchanligi koeffitsiyentlari kiradi

1.5.6. Taqqoslama (qiyosiy) tahlil

Moliyaviy tahlilda qiyosiy tahlil turi – ko'rsatkichlarni mutlaq va nisbiy ifodalarda keng doirada taqoslash usuli sifatida ishlatiladi.

Metodik jihatdan ushbu usul gorizontal va vertikal, trend tahlili usullariga o'xshaydi, lekin ulardan tubdan farq qiladi.

Gorizontal tahlil vertikal tahlil usuli bilan to'ldiriladi, trend tahlil asosida uning ushbu obyekt bo'yicha doirasi kengayadi.

Taqqoslash tahlilida esa ushbu tahlil obyekti, yoki tahlil etilayotgan korxona bo'yicha ma'lumotlar boshqa subyektlar ma'lumotlari bilan, normativ me'yorlar bilan, reja ko'rsatkichlari bilan, tarmoq bo'yicha o'rtacha, ilg'or ko'rsatkichlar bilan ham taqqoslanishi nazarda tutiladi.

Taqqoslash tahlilida moliyaviy hisobot elementlari va moddalarining o'zgarishiga, moliyaviy holatni xarakterlovchi ko'rsatkichlarga baho beriladi. Mutlaq ifodalar, nisbiy ifodalar bilan to'ldiriladi.

Moliyaviy tahlilda taqqoslash tahlilining shartlari:

-taqqoslashni interval oraliqlar bir xilda olinishi;

-taqqoslash ko'rsatkichlari bir xil o'lchovli bo'lishi;

-taqqoslashni bazaviy ko'rsatkichi, normativ ko'rsatkichlarini belgilab olishda rasmiy jihatlarga amal etilishi;

-taqqoslashning obyektlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalari bir xilda bo'lishi;

-moliyaviy hisobot elementlari, moddalarini tarkiblash va ko'rsatkichlarini aniqlash metodikasi bir xilda bo'lishi lozim.

Taqqoslash usuli iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari qatorida eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanib undan tahlilning boshqa usullari bilan birgalikda korxona moliyaviy holatini to'la ochib berishda foydalaniladi. Bu jihati bilan qiyosiy tahlil ham moliyaviy tahlilning ham boshqaruv tahlilining usuli sifatida qaraladi.

1.20-jadval

Buxgalteriya balansining qiyosiy tahlili

Qiyosiy ko'rsatkichlar	To'lov layoqati	Moliyaviy mustaqillik	Xususiy kapital rentabelligi
Joriy davr	2,6	0,52	0,12
Moliya rejasi bo'yicha	2,5	0,55	0,15
O'tgan yilning shu davri	2,2	0,53	0,15
Normativ ko'rsatkich	3,0	0,50	0,10
Ilg'or korxona ko'rsatkichi	3,4	0,70	0,16
Tarmoq o'rtacha ko'rsatkichi	2,2	0,42	0,07
Farqi+,-			
Moliya rejasidan	+0,1	+0,03	-0,03
O'tgan yilga nisbatan	+0,4	+0,01	-0,03
Normativ ko'rsatkichga nisbatan	-0,4	-0,02	+0,02
Ilg'or korxonaga nisbatan	-0,8	-0,18	-0,04
Tarmoq o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan	+0,4	-0,10	+0,05

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki joriy davrda korxonaning to'lov layoqati (to'lov majburiyatlarining to'lov mablag'lari hisobiga qoplanishi) 2,6 daraja, 1), o'tgan

yilga nisbatan(+0,4), tarmoq o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan (+04) ijobiy o'zgarishga ega ekanligini, normativga nisbatan (-0,4), ilg'or korxona ko'rsatkichiga nisbatan(-0,8) past darajada ekanligini ko'rish mumkin.

Korxonaning moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti moliya rejasiga nisbatan (+0,03), o'tgan yilga nisbatan (-+0,01) o'sganligini, normativ ko'rsatkichga nisbatan (-0,02), tarmoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan (-0,10), ilg'or korxonaga nisbatan (-0,18) pastligini, rentabellik ko'rsatkichi bo'yicha esa moliya rejasi va o'tgan yilga nisbatan (-0,03), ilg'or korxonaga nisbatan (-0,04) pastligini, normativga nisbatan (+0,02), tarmoq o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan (+0,05) darajaga ortganligini kuzatish mumkin.

1.5.7. Omilli tahlil

Korxona moliyaviy holati haqidagi obyektiv ma'lumotlarni ifoda etuvchi natijaviy ko'rsatkichlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish imkoniyatlarini baholashda muhim usul hisoblanadi. Omilli tahlil natijaviy ko'rsatkichning qaysi omillar hisobiga o'zgarganligini, ularning ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa korxona faoliyatini samarali boshqarishning muhim yo'nalishlarini belgilab olishda ahamiyatli hisoblanadi. Omilli tahlilni moliyaviy faoliyat va uning samaradorligi, natijaviyligini xarakterlovchi barcha jihatlarga nisbatan qo'llash mumkin.

Omilli tahlil quyidagi shartlar asosida bajariladi.

– natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birlik ikki yoki undan ortiq bo'lishi lozim;

– natijaviy ko'rsatkich bir xil o'lchovli bo'lishi lozim;

– natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni hisob-kitoblar orqali aniqlash mumkin bo'lishi lozim;

– natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birliklar o'rtasida uzviylik, bog'liqlik, aloqadorlik bo'lmog'i lozim;

– natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi birliklar turli jihatlarni aks ettirishi lozim (baho, tannarx, hajm, struktura va h.k. kabi).

Moliyaviy tahlilda omilli tahlildan ko'proq korxona moliyaviy faoliyati natijaviyligini baholashda, foyda va zararlar o'zgarishiga, rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklarni baholashda foydalaniladi. Aslida har bitta natijaviy ko'rsatkichni omilli tahlilini amalga oshirish mumkin. Shu sababli moliyaviy holat tahlili yuzasidan omilli tahlil mavzularini quyidagicha tarkiblash mumkin:

– iqtisodiy resurslar samaradorligi, natijaviyligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarning omilli tahlili;

– aktivlar samaradorligi, natijaviyligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarning omilli tahlili;

– kapital va majburiyatlar samaradorligi, natijaviyligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar omilli tahlili;

– moliyaviy faoliyat natijaviyligi va rentabelligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarning omilli tahlili;

– korxonaning bozordagi faolligi va ish aktivligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarning omilli tahlili.

Omilli tahlil metodikasini xalqaro amaliyotda mashhur bo'lgan, g'arb tahlil maktabining buyuk nomoyandasi Dyuponning uch faktorli modeli misolida ko'rib chiqish mumkin.

$$Rxk=SF/XK \qquad (1.1)$$

1.21-jadval

Xususiy kapital rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

t/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
1	Sof foyda	9000.0	9900.0
2	Sotishdan tushum	60000.0	63600.0
3	Aktivlar summasi	120000.0	126000.0
4	Xususiy kapital summasi	30000.0	30000.0

Ushbu ifodani sotuv rentabelligi (SF/ST), aktivlarning aylanuvchanligi (ST/A) va aktivlarda xususiy kapitalni jamlanishi (A/XK)ga muvofiq quyidagi ko'rinishga keltirish mumkin.

$$Rxk=SF/ST*ST/A*A/XK \qquad (1.2)$$

Bunda: Rxk- xususiy kapital rentabelligi;
SF-sof foyda;
ST-sotishdan sof tushum;
A-oxirgi hisobot sanasiga aktivlar summasi;
XK-oxirgi hisobot sanasiga xususiy kapital summasi.

Xususiy kapital retabelligi hisob-kitobi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklarning hisob-kitobini quyidagi jadvalda keltirib o'tamiz.

1.22-jadval

Omillar ta'sirining hisob-kitobi

Ko'rsatkich-lar	Hisob-kitoblar	Natija	Ta'sir darajasi
o'tgan yili	Rxk(o'y)=9000.0/60000.0x600 00.0/120000.0x 120000.0/30000.0 x 100%	30%	
hisobot yili	Rxk(hy)=9900.0/63600.0x6360 0.0/126000.0x126000.0/30000. 0 x 100%	33%	
		+3%	
Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi			
SF/ST ta'siri	Rxk(sf)=9900.0/63600.0x60000 .0/120000.0x120000.0/30000.0 x100%	31,14%	1,14% (31,14–30,0)
ST/A ta'siri	Rxk(a)=9000.0/120000.0x6360 0.0/126000.0x120000.0/30000. 0 x 100%	30,3 %	0,3 % (30,3–30.0)
A/XK ta'siri	Rxk(a)=9000.0/120000.0x6000 0.0/120000.0x126000.0/30000. 0 x 100 %	31,5%	1,5 % (31,5–30,0)

Demak, korxonada xususiy kapital rentabelligi o'tgan yilga nisbatan +3 %ga ortgan. Bu o'zgarish sof foydaning sotishdan tushumdagi salmog'ining o'zgarishi hisobiga +1,14% ga. (31,14–30,0) aktivlar aylanuvchanligining o'zgarishi hisobiga +0,3 %ga (30,3-30,0), kapitalning tarkibiy o'zgarishi hisobiga +1,5 %ga (31,5–30,0) o'sishi tufayli ro'y bergan. Hisob-kitobdagi noaniqliklar +,–0,4 ga teng.

1.6. Moliyaviy tahlili va uning subyektlari

Moliyaviy tahlil subyektlariga tahlilchilarning keng qamrovli guruhi kiritiladi. Ularni shartli ravishda ichki va tashqi subyektlarga bo'lish mumkin. Ichki tahlil subyektlariga faqat shu firma, kompaniya xodimlari kirsa, tashqi subyektlarga mulk egalari, investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, davlat boshqaruv organlari, jamoatchilik va boshqalar kiritiladi.

Tahlilda mulk egalari (qatnashchilar va ta'sischilar) va investorlarning e'tibori ko'proq xo'jalikning ustav kapitalida xissali qatnashishidan oladigan dividendlar summasini mavjudligiga, jalb qilingan investitsiyalar yuzasidan xavf xatarlarning yo'qligiga qaratiladi.

Kreditorlarning e'tibori xo'jalik subyektining moliyaviy resurslari va ularning tuzilishiga, davlat va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar, ishchi xizmatchilarga bo'lgan majburiyatlarning qoplanish darajasiga, olingan majburiyatlar, berilgan kreditlar yuzasidan qarzlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyatiga ega ekanligiga, kreditga qodirlik darajasiga qaratiladi.

Mahsulot yetkazib beruvchilar e'tiborini o'zlariga tegishli bo'lgan summalarni qaytarib olish imkoniga ega ekanligi bilan bog'liq bo'lgan jihatlar, aloqalarning yuksak ishonchga emas balki yaqin va uzoq davriylikda real imkoniyatlarga ega ekanligi bilan bog'liq bo'lgan axborotlarni bilishga qaratadilar.

Xaridorlarni, xo'jalikning uzluksiz faoliyatini bilishga, olingan buyurtmalarni bajarish yuzasidan moliyaviy imkoniyatlar, uzoq muddatli hamkorlikni davomiyligini ta'minlashga imkon beradigan axborotlar qiziqtiradi.

Davlat boshqaruv organlarini, xo'jalik yurituvchi subyekning faoliyatini tartibga solib turish, soliqlar, to'lovlar va yig'imlar yuzasidan fiskal siyosatni yuritish, resurslar taqsimoti, milliy daromadning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan jihatlar qiziqtiradi.



1.2-chizma. **Ichki va tashqi tahlil subyektlari tomonidan o'rganiladigan masalalar**

Jamoatchilik ham tashqi moliyaviy tahlil subyekti sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy faoliyati va ahvolidan, farovonlikni ta'minlashning so'nggi yutuqlaridan, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash orqali ularning o'z hayot darajalarini yaxshilashning imkoniyatlariga ega ekanligi bilan bog'liq bo'lgan axborotlarni o'rganishdan manfaatdorlar. Tashqi tahlil subyektlari qatoriga, shuningdek, reyting kompaniyalarini ham kiritish mumkin. Ushbu kompaniyalar alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqa xo'jalik subyektlariga nisbatan iqtisodiy o'rnini aniqlashga imkon beruvchi axborotlarni tahlil etish va ularni doimiy kuzatuvini olib borish bilan shug'ullanadilar. Tahlil subyektlarining manfaatlari albatta bir-biridan farq qiladi. Ularning bir guruhi korxonaning moliyaviy holatini to'la o'rganishdan, bir qismi esa qisman o'rganishdan manfaatdordir. Moliyaviy tahlil subyektlari xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini kompleks (to'liq) baholashlari ham

mumkin. Bu borada auditorlik faoliyatida olib boriladigan tahliliy protseduralarni ham misol qilib keltirish mumkin. Qolgan hollarda analitiklarning va buyurtmachilarning maqsad, manfaatlaridan kelib chiqqan holda zaruriy bo'lgan obyektlar bo'yicha xulosalar chiqarishga yetadigan tahlillar o'tkaziladi.

Moliyaviy holatning kompleks tahlili ko'proq faqat ichki moliyaviy tahlilga xos jihatdir. Tashqi tahlil subyektlari, odatda o'zini qiziqtirgan masala yuzasidan axborotlarning jozibadorligiga ahamiyat qaratadilar.

Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlar mushtarakligini quyidagi 1.23-jadval ma'lumotlaridan ko'rib chiqish mumkin.

1.23-jadval

Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlari

t/r	Moliyaviy tahlil subyektlari	Subyekt manfaatlari	Qo'yilgan mablag'	Kompensat-siya
1.	Korxona xodimlari	Firma va kompaniyaning moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishdan	Jismoniy va aqliy salohiyatni yo'naltirilishi	Ish haqi va rag'batlantirishlarning turli shakllarida
2.	Ta'sischilar	Firma, kompaniyaga qo'yilgan va qo'yiladigan mablag'larning foydaligidan	Xususiy kapital, sarmoya qo'yilishi	Dividend, ulush,
3.	Auditorlar	E'lon qilinadigan hisobot shakllarini to'g'riligini huquqiy tamoyillar asosida baholash va firma, kompaniyalar moliyaviy holatini yaxshilash ichki imkoniyatlarini ko'rsatib berishdan, mulk egalari manfaatlarini himoya etishdan	Amaliy yechim va tavsiyalar berilishi	Auditorlik xizmatlari qiymati

4.	Yuqori tashkilotlar	Band qilingan moddiy va moliyaviy resurslar harakatini va samaradorligini o'rganishdan	Amaliy (moddiy va moliyaviy) ko'mak yordam berilishi	Faoliyat natijasidan ulushga ega bo'lish
5.	Soliq idoralari	Majburiy to'lovlar, soliqlar va ajratmalarni undirish yuzasidan resurslar holati, harakatini va faoliyat natijaviyligini o'rganishdan	Jamiyat manfaatlariga xizmat qilinishi orqali	Soliqlar, to'lovlar va yig'imlarning to'liq va o'z vaqtida yig'ib borish
6.	Sug'urta agentliklari	Firma, kompaniya mulkini turli tahlikalardan himoya qilish, saqlanishi yuzasidan ma'lumotlarni o'rganishdan	Sug'urta polislarini bnlilpnishi	Sug'urta to'lovlari
7.	Mol yetkazib beruvchilar	Shartnomaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishi, to'lov intizomiga rioya qilish, to'lovga qobillikni holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan	Tovar moddiy zaxiralarni yetkazib berilishi	TMZning kelishilgan narxlardagi qiymatiga ega bo'lish
8.	Xaridor va buyurtmachilar	Ta'minotdagi uzilishlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan firma va kompaniyalarning moliyaviy va iqtisodiy salohiyatining tayanchi to'g'risidagi ma'lumotlardan	Mahsulot(ish, xizmat)larni sotish yuzasidan ishonchli savdo hamkorligi	Mahsulot (ish xizmatlar)ni kelishilgan narxlardagi qiymatiga ega bo'lish
9.	Banklar	Korxonaning to'lov layoqati, moliyaviy barqarorligi, kreditga qodirlik, mablag'lar harakatchanligi (likvidligi) ni o'rganishdan	Kredit va qarzlar tushirilishi	Kreditlar va qarzlar foizi

10	Jamoat-chilik	Korxona faoliyatining barcha qirralari	Korxona faoliyatida jamoat manfaatlarini qay darajada uyg'unligini kuzatib borish orqali uning barcha bo'g'inlariga ta'sir etishi mumkin	Jamoat manfaatlari uyg'unligi ta'minlanadi

1.24-jadval

Tahlil subyektlarining qiziqishlari va ularning mushtarakligi

Moliyaviy tahlil	Axborot foydlanuvchilari						
Aspektlari	Mulk egalari, investorlar	Menejerlar	Soliq idoralari	Statistika organlari	Sheriklar, raqobatchilar	Kredit tashkilotlari	Auditor va auditorlik firmalari
Axborotning ishonchligi, sifati va aniqligi	+	+	+	+	-	+	+
Aktivlar likvidligi	+	+	-	-	+	+	+
To'lov layoqatini baholash	+	+	-	-	+	+	+
Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish holatini baholash	+	+	-	-	+	+	+
Moliyaviy barqarorlikni baholash	+	+	-	-	+	+	+
Investitsion jozibadorlikni baholash	+	+	+	+	-	-	+
Kreditga layoqatlik	+	+	-	-	-	+	+
Dividend siyosati	+	+	-	-	-	-	+
Iqtisodiy nochorlikni baholash	+	+	+	-	+	+	+

Moliyaviy holat tahlili subyektlarining keng qamrovligi va ular manfaatlarining turlichaligi moliyaviy holat tahlilini o'tkazish bo'yicha aniq konseptual asoslarni belgilashni talab etadi.

Lekin xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini baholashning me'yoriy hujjatlarga tayangan rasmiy va norasmiy jihatlari mavjud.

Rasmiy jihatlarni xo'jalik subyektlarining reyting bahosini chiqarishda, to'lovga qobillik va kreditga qodirligini baholashda, iqtisodiy nochorlik va bankrotlik darajalarini belgilashda ko'rish mumkin.

Norasmiy jihatlar bo'yicha tahlilchi, analitiklar o'zlari uchun maqbul shaklda tartib va qoidalarni belgilashlari va ularga mos analitik jarayonlarni tuzib chiqishlari mumkin.

1.7. Moliyaviy tahlil va uning tashkil etilishi

Moliyaviy tahlil yuzasidan rasmiy jihatlarning belgilanmaganligi sababli uni tashkil etishda an'anaviy yo'nalishlardan foydalanish mumkin.

Odatda, buxgalteriya hisobini yoki auditni (ichki, tashqi) tashkil etishda rasmiy jihatlar bilan belgilangan aniq tartib va qoidalar ushbu jarayonni tashkil etishda asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, «Buxgalteriya hisobi» to'g'risidagi qonunning 7-moddasida buxgalteriya hisobini tashkil etishning quyidagi shakllari tarkiblanadi[1]:

– bosh buxgalter rahbarligida buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalter xizmatidan foydalanish;

– buxgalteriya hisobi yuritishni shartnoma asosida ixtisoslashtirilgan buxgalteriya firmasiga yoki tarkibiga buxgalteriya subyekti ham kiradigan xo'jalik birlashmasining markazlashtirilgan hisobga olish bo'limiga yuklash;

– buxgalteriya hisobini mustaqil yuritish.

Tashkil etishning shakli bo'yicha moliyaviy tahlil ichki moliyaviy tahlilni tashkil etilishi va tashqi moliyaviy tahlilni tashkil etilishini tarkiblashi maqsadga muvofiqdir.

Tashqi moliyaviy tahlil cheklangan axborotlarni aks ettiruvchi moliyaviy hisobot shakllari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini o'rganishni xarakterlaydi va

[1] Ўзбекистон республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги қонуни 1996 йил 30-август №-279/1

korxona erishgan natijalarining barcha sirlarini ochib berish imkonini bermaydi. Ushbu tahlil ichki axborot bazasidan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan, korxona faoliyati bilan qiziquvchi kontirgentlar tomonidan, mulk egalari yoki davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tashqi moliyaviy tahlilning ahamiyatli jihatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

– tahlil subyektlari va axborot foydalanuvchilarining ko'pligi;

– tahlilchilarning maqsadi va qiziqishlarining turli-tumanligi;

– hisobga olish va hisobotlashning normativ qoidalari, tahlil etishning rasmiy jihatlarini belgilanganligi;

– tahlilning faqat chop etiladigan moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlar bazasiga tayangan holda o'tqizilishi;

– qo'yiladigan analitik masalalarning cheklanganligi;

– axborot foydalanuvchilari uchun korxona faoliyati yuzasidan tahlil natijalaridan foydalanishning maksimal ochiqligi.

Tashqi moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxona aktivlari, o'z sarmoyasi va majburiyatlarining o'zgarishiga, to'lov layoqati va likvidlilik darajasiga, moliyaviy holati va barqarorligi, bozor va ish aktivligiga, moliyaviy va iqtisodiy salohiyatiga, iqtisodiy mustahkamligi va nochorligiga, foyda va rentabellik darajasiga, pul oqimi va xususiy kapitalning o'zgarishlariga, korxonaning iqtisodiy reytingini aniqlashga qaratiladi.

Ichki moliyaviy tahlil - korxonaning ichki bo'limlari, xodimlari tomonidan o'tkazilib o'rganiladigan masalalarning ko'lami bilan tashqi moliyaviy tahlildan farq qiladi. Ichki moliyaviy tahlilning axborotlar bazasi va o'rganiladigan masalalarning ko'lami tashqi moliyaviy tahlilga nisbatan keng hisoblanadi. Uning axborotlar bazasiga faqat chop etiladigan moliyaviy hisobotlargina emas balki, moliyaviy hisobning barcha manbalaridan va hisobdan tashqari manbalarni ham kiritish mumkin. O'rganiladigan masalalar ko'lamini boshqaruvchilar va tahlilchilarning qiziqishlari doirasidan kelib chiqib belgilash

mumkin. Ushbu tahlil turining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin.

Ichki moliyaviy tahlilning o'ziga xos jihatlari:

– tahlil subyektlarining tor guruhi;

– tahlil natijalari faqat ichki talablarga, korxona boshqaruvi yuzasidan yo'naltirilganligi;

– teran moliyaviy tahlilni o'tkazishda axborotlarning keng doirasidan foydalanish imkoniyatining yuqoriligi;

– tahlilni o'tkazish bo'yicha normativ metodikalar bilan birgalikda aniq reglamentlar (tartiblarning) belgilanmagan usullaridan foydalanish imkoniyatlari;

– aniq boshqaruv qarorlarini tayyorlash yuzasidan chuqur moliyaviy tahlilni o'tkazishning imkoniyati;

– boshqaruv apparati talablaridan kelib chiqqan holda analitik ishni tashkil etilishi.

Moliyaviy tahlil mazmuni bo'yicha to'liq moliyaviy tahlil va tematik moliyaviy tahlil turlariga tarkiblanadi

To'liq moliyaviy tahlil korxona moliyaviy faoliyatining barcha jihatlarini kompleks o'rganishni xarakterlaydi. Tematik moliyaviy tahlil korxona moliyaviy faoliyatining alohida jihatlarini va aspektlarini o'rganishni xarakterlaydi. Tematik moliyaviy tahlil predmetiga: aktivlardan samarali foydalanish, aktivlarni moliyalashtirishda alohida manbalardan optimal foydalanish darajasi, to'lov layoqati va moliyaviy barqarorlik holati, optimal investitsion faoliyat, kapitalning moliyaviy tuzilishi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Moliyaviy tahlilda obyektni qamrab olinishi yuzasidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'liq (bir butunlikdagi) moliyaviy tahlili, alohida bo'limlar va birliklar moliyaviy holatining tahlili (iqtisodiy javobgarlik markazlari bo'yicha) hamda alohida moliyaviy jarayonlar tahlilini tarkiblash mumkin.

O'tkazish davri bo'yicha moliyaviy tahlil oldingi, joriy va istiqbolli tahlil turlariga tarkiblanadi.

Oldingi moliyaviy tahlil- korxona moliyaviy faoliyatini bir butunlikda yoki alohida olingan moliyaviy jarayonlar bo'yicha shart-sharoitlarni bilish bilan bog'lanadi (masalan, uzoq va qisqa muddatga bank kreditlarini olish yuzasidan korxonaning to'lov layoqatini baholash).

Joriy (operativ) moliyaviy tahlil – alohida moliya rejalarini bajarilishida yoki moliya operatsiyalarini amalga oshirish davomida operativ tarzda moliyaviy holatga ta'sir etish yuzasidan o'tkaziladigan tahlil turidir.

Istiqbolli moliyaviy tahlil – amaldagi holatni o'rganish asosida moliyaviy holat va uning alohida birliklari bo'yicha kelajakdagi o'zgarishlarning kutilishlarini baholab beruvchi tahlil turidir. Tahlilni tashkil etish bosqichlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Tahlil maqsadini belgilash va uning rejasini tuzish.
2. Tahlil yuzasidan zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, ularni saralash, ko'rsatkichlar holatiga keltirish, analitik jadvallar tuzish.
3. Tahlilni o'tkazish.
4. Tahlil natijalarini umumlashtirish, rasmiylashtirish va chora-tadbirlarni belgilash.

I.f.d. professor M.Q. Pardayev tomonidan moliyaviy tahlilni 3 ta bosqichini, ya'ni tahlil maqsadini aniqlash va unga yondashish yo'llarini belgilash, tahlil uchun taqdim qilinadigan axbarotlar sifatiga baho berish tahlilni usullaridan foydalangan holda tahlil o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish bosqichlari tarkiblanadi.[1]

1.25-jadval

Moliyaviy holat tahlilining tashkil etilishi[2]

t/r	Tarkib belgilanishi	Ichki moliyaviy tahlil	Tashqi moliyaviy tahlil
1	Tashkil etish subyektlari	Korxonaning shtat tarkibida turuvchi va boshqaruv qarorlarini tayyorlashga mas'ul xodimlar	Korxona faoliyatiga qiziqishga ega tashqi subyektlar
2	Tashkil etish joyi	Korxona bo'limlarida	Ma'lumotlar bazasiga tayangan holda mustaqil ish o'rnida

[1] М.Қ.Пардаев Молиявий таҳлил. Т., Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси 1999 й. 11-бет
[2] Муаллиф томонидан мустақил тузиб чиқилди.

3	Tashkil etishni rasmiy jihatlari[1]	Mustaqil bo'limni tashkil etish asosida, xizmat vazifasini alohida tarkibga yoki xodimga yuklash orqali, mustaqil o'zi yuritishi	Mustaqil o'z xodimlari (bank, soliq inspekiyalari, yuqori tashkilotlar, reyting kompaniyalari va h.k.), yollangan shartnoma asosida xizmat ko'rsatuvchi (maslahat, autsorsing, analitik xizmat byurolariga buyurtma berish) orqali
4	Tashkil etish-ning huquqiy normalari	Umumiy normalar	Umumiy va maxsus normalar
5	Tashkil etishdan manfaatdorlar	Korxona boshqaruvi apparati, ishchi xizamtchilar	Korxona faoliyati-dan manfaat ko'ruv-chi barcha tashqi qiziquvchilar (o'z qiziqishlar doirasida)
6.	Tashkil etishni moliyalashtirish	Korxona mablag'lari hisobidan	Tashqi tahlil subyektlari tomonidan
7	Tashkil etish maqsadi	Chop etiladigan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxona moliyaviy holatini foyda va samaradorligini baholash,	Pul tushumlarining rejali tushumini ta'minlash, faoliyat yuritish uchun o'z va qarz mablag'larini jalb etishning eng maqbul shaklini yo'lga qo'yish

Ushbu tarkiblashni ham to'g'ri deyish mumkin. Lekin unda tahlilni birlik bosqichlari umumlashtirilgan tarzda ifoda etilgan.

[1] Молиявий ҳолат таҳлилини алоҳида таҳлил хизмат бўлимини очиш орқали, ёлланган таҳлилчидан фойдаланиш ёки алоҳида ходимга юклаш орқали бажарилиши, мулк эгаси томонидан мустақил юритилиши каби ташкилий шаклларини ажратиш «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги қонунда белгиланган бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш қоидасига мувофиқ белгиланган

Professor E. Akramov tomonidan moliyaviy tahlilning bosqichlari quyidagilardan iborat deb belgilangan[1]:

– moliyaviy tahlilni o'tkazishning ishchi dasturini tuzish (dasturda tahlilning maqsadi va vazifalari aniqlanadi);

– tahlilni o'tkazuvchilarning tarkibini aniqlash, ya'ni tahlil qiluvchilarning ro'yxatini tuzish;

– tahlil uchun foydalaniladigan iqtisodiy ma'lumotlarni to'plash;

– moliyaviy tahlilda foydalanadigan ko'rsatkichlar tizimini aniqlash;

– moliyaviy tahlil ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini aniqlash;

– tahlilda foydalanadigan ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni umumlashtirish;

– tahlil yakunlarini jadvallar va chizmalarda shakllantirish;

– moliyaviy tahlil natijasida xotima tayyorlab, unda tahlil yakunlari bo'yicha xulosalar chiqarib, kelgusida korxonaning moliyaviy holatini ko'tarishga bag'ishlangan tavsiyalar ishlab chiqish;

– moliyaviy tahlil yakunlarini maxsus yig'ilishda muhokama qilish;

– tahlil yakunlari bo'yicha muhokama natijalarini e'tiborga olib, korxonaning moliyaviy holatini ko'tarish maqsadida boshqaruv tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan tadbirlar ishlab chiqib, ularni korxona rahbariyatining maxsus qarorida ifodalash va bpshqalar.

Moliyaviy tahlilni tashkil etish bosqichlarini iqtisodiy tahlil va uning tarkibiy qismlariga nisbatan yagona asosda birday belgilash to'g'ri, lekin aynan moliyaviy tahlil yuzasidan uni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish maqsadga muvofiq.

1. Moliyaviy tahlil maqsadini belgilash va rejasini tuzish.
2. Moliyaviy tahlil yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash.
3. Moliyaviy tahlilni bevosita o'tkazish bosqichi.
4. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.
5. Qarorlar tayyorlash bosqichi.

[1] Э Акрамов Корхоналар молиявий ҳолати таҳлили. Т. -2008й. ТДИУ 20-стр

6. Tahlil natijalarini realizatsiya qilish bosqichi.

Iqtisodiy tahlilni yoki moliyaviy tahlilni tashkil etishdagi yondashuvlar turlicha bo'lganligi bilan ularning mazmuni albatta bitta jihatga ya'ni tahlilni sifatli va foydali o'tkazishga qaratilgan.

1.8. Moliyaviy tahlilni axborotlar tizimi va uning oldiga qo'yiladigan talablar

Tahlil natijalari va uning sifati ko'p jihatdan uning axborotlar manbayi bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Biz iqtisodiy tahlilni axborotlar tizimiga quyidagi manbalarini kiritamiz;

– Hisob ma'lumotlari;

– Hisobdan tashqari ma'lumotlar.

Hisob ma'lumotlariga: buxgalteriya hisobi va hisoboti, statistik hisob va hisobot ma'lumotlari, operativ hisob va hisobot ma'lumotlari kiritiladi.

Hisobdan tashqari ma'lumotlarga: tekshirish natijalari, yig'ilish qarorlari, reja ma'lumotlari, turli kataloglar, nashrlar, statistik byuletenlardan olingan ma'lumotlar kiradi.

Shuningdek, i.f.d. prof M. Pardayev tomonidan iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar, hisoblanadigan va hisoblanmaydigan axborotlarga tarkiblanishi ta'kidlanadi.

Hisoblanadigan axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

– buxgalteriya hisobi va hisoboti;

– statistika hisobi va hisoboti;

– tezkor hisob va hisobot;

– tanlab kuzatilgan hisob ma'lumotlari.

Buxgalteriya hisobi va hisobotida xo'jalik operatsiyalari, xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari ifodalanadi.

Statistika hisobi va hisobotida hodisa va jarayonlar umumiy majmuasining miqdoriy jihatlari ifodalanadi.

Tezkor hisob va hisobotlarga hisobot davri ichida olish mumkin bo'lgan axborotlar majmuasi kiradi.

Tanlab kuzatish natijasida olingan ma'lumotlar hisobotdagi ko'rsatkichlarni chuqurlashtirish hamda hodisa va jarayonlarni alohida o'rganish imkonini beradi.

Hisoblanmaydigan ma'lumot manbalariga quyidagilar kiradi:
– ichki idora va idoradan tashqari taftish ma'lumotlari;
– ichki va tashqi audit hisobotlari;
– laboratoriya va tibbiy-sanitariya nazorati materiallari;
– soliq xizmati xodimlarining tekshirish natijalari;
– mehnat jamoasining majlis va yig'ilish qarorlari.

Shuningdek, tahlil jarayonida tasdiqlangan reja, biznes-reja va boshqa me'yoriy hujjatlar ham qo'llaniladi.

Iqtisodiy tahlilni tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy yoki boshqaruv tahliliga nisbatan yuqoridagi tarkiblashni berib o'tish esa umumiy jihatdan to'g'ri lekin tarkib jihatdan noto'g'ri hisoblanadi.

Negaki, boshqaruv tahlilini axborot manbalari moliyaviy tahlilni axborot manbalaridan o'zining ifoda etilishi, mazmuni, ko'lami, rasmiylashtirish tartibi, olish tartiblari va boshqa belgilari bo'yicha farq qiladi.

I.f.d. prof. M.Q.Pardayev tomonidan moliyaviy tahlilni quyidagi axborot manbalari tarkiblanadi;

1. Tashqi moliyaviy tahlil-buxgalteriya hisoboti asosida.
2. Ichki moliyaviy tahlil-buxgalteriya hisobi va hisoboti hamda tezkor hisobotlar asosida.

Prof. I.T. Abdukarimov tomonidan moliyaviy tahlilni axborot manbalariga quyidagilar kiritiladi;
– buxgalteriya hisobi va hisoboti;
– statistik hisob va hisobot ma'lumotlari;
– operativ hisob va hisobot ma'lumotlari;
– tanlab olingan hisobot ma'lumotlari[1].

Profeesor G.V. Savitskaya[2] va V.Ya. Pozdnyakov[3] ning fikriga ko'ra axborotlarning uchta guruhi tarkiblanadi.
– Normativ-reja ma'lumotlari;
– Hisob ma'lumotlari;
– Hisobdan tashqari ma'lumotlar.

G.N.Liferenko fikricha moliyaviy tahlilning axborotlar bazasiga quyidagi turkum manbalar kiritiladi[4]:

---

[1] Абдукаримов И.Т Молиявий ҳисоботни ўқиш ва таҳлил қилиш йўллари Т ,Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси.1999 й. 6-бет

[2] Г.В.Савицкая Анализ хозяйственной деятельности предприятия.Учеюник. М.·ИНФРА-М, 2009 стр-117

[3] Поздняков В тахрири остида чоп этилган «Анализ и диагностика ФХДП» М. ИНФРА-М.2008, стр-18)

[4] Г Н Лиференко Фиансовиї анализ М ·Экзамен 2005 г. стр-24

1. Normativ va instruktiv manbalar (qonunlar, farmon, va qarorlar va boshqa normativ aktlar, nizomalar va yo'riqnomalar);

2. Reja-prognoz ma'lumotlari(umumdavlat, hududiy rejalar, investitsiya dasturlari, biznes-rejani tuzish bo'yicha ma'lumotlar, statistik to'plam byuletenlari, birja va bank byuletenlari, budjet loyihalari, analitik ma'lumotlar spravochniklari, biznes-reja ma'lumotlari)

3. Hisobot ma'lumotlari (buxgalteriya, statistik va operativ hisobotlar);

4. Analitik ma'lumotnomalar (rasmiy statistik va jamlangan analitik ma'lumotlar).

M.Q. Pardayev tomonidan moliyaviy tahlilni ichki va tashqi tahlil turlariga nisbatan tarkiblangan axborot manbalari to'g'ri belgilangan. Negaki, uning iste'molchilari manfaatlaridan kelib chiqqan holda tahlil olib borish uchun zaruriy bo'lgan axborotlar to'g'ri ifoda etilgan.

Prof. I.T.Abdukarimov tomonidan tarkiblangan guruhlash esa iqtisodiy tahlilni o'zi uchun ahamiyatli uning moliyaviy tahlili yuzasidan o'rinli emas. Negaki statistik hisob va hisobot, operativ hisob va hisobot ma'lumotlari, tanlangan ma'lumotlarni tarkiblanishi moliyaviy tahlilga nisbatan to'g'ri emas.

Prof. G.V.Savitskaya, V. Pozdnyakovning fikricha axborot manbalari qatoriga normativ, reja ma'lumotlari kiritilishi ko'proq iqtisodiy tahlilga xos tarzda to'g'ri hisoblanadi, aynan moliyaviy tahlil uchun emas. Shu bilan birga moliyaviy rejalarga nisbatan to'g'ri baholash ham mumkin. Shuningdek, ularning birinchi o'ringa qo'yilishi ham o'rinsiz.

G.N. Liferenko tomonidan axborot manbalarining bu tarkibda guruhlanishida makro ko'lamdagi tahliliy amallarga ustunlik beriladi. Makro ko'lamdagi tahlil alohida fan sifatida shakllanmaganligi sababli ushbu tarkiblash noan'anaviy yondashuv hisoblanadi.

Yuqoridagi qarashlarga qarama-qarshi tarzda biz moliyaviy tahlilni axborotlar bazasiga quyidagilarni kiritish lozim deb o'ylaymiz:

1. Moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlari;

2. Tanlab olingan ma'lumotlar (moliya rejasi, loyihalar, normativlar va h.k.).

Moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlariga iqtisodiy jarayonlarni o'zida ifoda etuvchi umumlashgan ma'lumotlar kiradi. Ushbu axborotlar moliyaviy hisobot shakllarida aks etadi.

Har qaysi korxona o'zining rivojlanishini asosiy jihatlariga oid ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarni aks ettirish orqali maksimal darajada investorlarni jalb etishga, ishonchli mijozlar va mol yetkazib beruvchilar bilan uzluksiz aloqani ta'minlashga harakat qiladi. Shu sababli, boshqaruv xodimlari (boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi xodimlari) moliyaviy hisobotlarni o'qishga va uning mulkiy va moliyaviy holatiga baho berishga bo'lgan qiziqishlariga zaruriyat seziladi. Ya'ni, moliyaviy hisobotlarda aks etgan ma'lumotlar bazasi belgilangan tartib va qoidalar asosida rasmiy tuziladigan va taqdim etiladigan oddiy shakllar emas. O'rganuvchilar, moliyaviy hisobotlarda aks etgan manbalarda nafaqat muayyan sanaga bo'lgan erishilgan natijalariga (aktivlar va passivlarning holati, joylashuvi, harakati, daromad va xarajatlari, pul va pul ekvivalentlarining harakati, to'lovga qodirligi, moliyaviy barqarorligi, moliyaviy, iqtisodiy salohiyati) balki ularning kelgusidagi kutilishlari, prognozlari haqidagi ma'lumotlarni ham ko'ra bilishi lozim.

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy hisobotning alohida tarkibiy qismi bo'lib ularga berilgan izohlar, qo'shimchalar, ma'lumotnomalar orqali to'ldiriladi.

Moliyaviy hisobotlarni maqsadi alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati moliyaviy holati, natijalari va pul oqimlari to'g'risida axborot foydalanuvchilarining erkin iqtisodiy qarorlari yuzasidan moliyaviy ahvol va uning kutilishi yuzasidan ma'lumotlar bazasi bilan ta'minlashdan iboratdir. Albatta, moliyaviy hisobotlarni tuzish va topshirish tartibining rasmiy jihatlari buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari asosida, moliyaviy qonunchilik bazasiga tayangan holda belgilanadi. Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar tegishli hisobot davri bo'yicha belgilangan, shakllardagi buxgalteriya hisobotlarini taqdim etadilar. Ushbu davriylik choraklik va yillik oraliqni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy hisobot (moliyaviy hisobotlar, ularga berilgan izohlar, tushuntirishlar, qo'shimchalar)da aks etgan ma'lumotlarni axborot foydalanuvchilarining qiziqishi va manfaatlaridan kelib chiqqan holda tashxis etish, risklarni hisobga olgan holda kelgusidagi kutilishlarini baholash alohida malakaviy tajriba va ko'nikmalarni talab etadi. Ya'ni, moliyaviy holat tahlili moliyaviy hisobot elementlari va ulardagi o'zgarishlarni klassik usulda farqlashdangina iborat jarayon emas.

Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, tashqi moliyaviy tahlil faqat e'lon qilinadigan moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlar asosida o'tkaziladi. Ichki moliyaviy tahlil moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlari, tanlab olingan ma'lumotlar asosida tashkil etiladi.

Moliyaviy hisobot shakllariga[1];

1-shakl. Buxgalteriya balansi.

2-shakl. «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot.

3-shakl. «Asosiy vositalar harakati to'g'risida»gi hisobot.

4-shakl. «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot.

5-shakl. «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot.

Moliyaviy hisobotlar ularga berilgan izohlar, mo'ljallar va tushuntirishlar bilan birga to'liq shaklga ya'ni moliyaviy hisobotga aylanadi.

Moliyaviy tahlilni axborotlar bazasiga qo'yiladigan talablarga quyidagilar kiradi. Ya'ni axborotlar ishonchligi, taqqoslanuvchanligi, betarafligi, pulda baholanishi, uzluksizligi, hisobga olinish, hisob-kitoblarda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmasligi, daromad va xarajatlar, aktivlar va passivlar to'g'ri baholanganligidir.

Bu talablar moliyaviy hisob va hisobotlashning konseptual asoslarida ham belgilanadi.

Ma'lumotlarni mantiqiy tekshirishda, hisob-kitoblarni aniqligi, raqamlarni bo'yab yozishlarga yo'l qo'yilmaganligi, turli hisobot shakllaridagi nazorat raqamlarining mosligiga ahamiyat berish lozim.

[1] Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2002 йил 27 декабрдаги 140-сонли буйруғи. ЎзР АВ томонидан 2003 й 24 январда рўйхатга олинган N 1209

1.8.1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan hisobotlar axborotligi va ularning muammoli jihatlari

Maqsadli iqtisodiy harakat, yuzasidan bo'ladigan mulkiy, moliyaviy, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi o'z navbatida boshqaruvning muhim dastaklarini ham takomillashuvini talab etadi. Ana shunday dastaklardan biri buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditdir.

Bugungi kunda olimlar o'rtasidagi sohaga oid dolzarb muammolardan biri bu – xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatiga joriy va istiqbolli baho berish va tahlil etishda moliyaviy hisobotlarni tuzish va topshirish tartiblariga qo'yiladigan umumiy talablardagi yagona yondashuvlarni bir mazmunda tushunmaslik bilan izohlanadi.

Har xil jihatlarni moliyaviy holat va undagi o'zgarishlarni baholashning nazariy qarashlaridagina emas balki uning tashkiliy, uslubiy asoslarida va huquqiy normalarida ham ko'rish mumkin.

Quyida biz korxonalar moliyaviy holatini baholashning faqat moliyaviy hisobotlarini axborot ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan muammolariga to'xtalamiz.

Bugungi kunda hisobotlarning quyidagi turlarini tarkiblash rasmiy jihatdan belgilanganligini qayd etish lozim.(1.26-jadval)

1.26-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan rasmiy tuziladigan va taqdim etiladigan amaldagi hisobot turlari

	Hisobot turlari	Taqdim etiladigan organi
1	Moliyaviy hisobotlar	-soliq organlariga; -ta'sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga; -davlat statistika organlariga; -qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga; -budjet muassasalarida yuqori organga taqdim etiladigan hisobotlar.
2	Soliq hisobotlari	Soliq to'lovchini ro'yxatga olingan manzili bo'yicha davlat soliq idorasiga taqdim etiladigan hisobotlar

3	Statistika hisoboti	Xo'jalik yurituvchini ro'yxatga olingan manzili bo'yicha statistika organlariga taqdim etiladi hisobotlar
4	Maxsus hisobotlar	-shaxsiy to'planib boriladigan pensiya jamg'armalari yuzasidan halq bankiga -naqd pul tushumlari bo'yicha bank muassasalariga -ish bilan bandlik yuzasidan mehnat birjasiga taqdim etiladigan hisobotlar -kasaba uyushma tashkilotiga taqdim etiladigan hisobotlar va boshqa hisobotlar

Moliyaviy hisobotlar axborotligi deganda xo'jalik subyektining moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy natijaviyligi hamda ulardagi o'zgarishlar haqidagi axborotlarni moliyaviy hisobotlarda aks etishi nazarda tutiladi (1.27-jadval).

1.27-jadval

Moliyaviy hisobotlar va ularning axborotligiga iste'molchilar tomonidan qo'yiladigan talablar[1]

Axborot foydalanuvchilari	Manfaatlari
Haqiqiy va bo'lg'usi investorlar	Berilgan investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan xatarlar munosabati bilan dividendlar to'lash qobiliyatiga ega ekanligini bilishga imkon beruvchi va aksiyalarni sotib olish, saqlash yoki sotish kerakligi yoki yo'qligini belgilashga ko'maklashadigan axborotlarni olishdan
Kreditorlar	O'zlariga tegishli kreditlar va foizlar o'z vaqtida to'lanadimi yoki yo'qligini aniqlashga imkon beradigan axborotlarni olishdan
Mahsulot yetkazib beruvchilar	O'zlariga tegishli bo'lgan summani o'z vaqtida ola biladimi yoki yo'qmi shu mazmundagi axborotlarni bilishdan
Hukumat, Davlat boshqaruv organlari	Resurslarning taqsimlanishi va binobarin subyektlarning faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olishdan

[1] молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун талаб этиладиган концептуал асос Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигида 1998 йил 14-августда 475-сонли руйхатга олинган БҲМСга асосан тузиб чиқилган

Xaridorlar	Xo'jalik yurituvchi subyektning uzluksiz faoliyat yuritishi to'g'risidagi yoki uzoq mudddatli bitimlarga ega bo'lish maqsadidagi zaruriy axborotlarni olishdan
Xodimlar	Faoliyat barqarorligi va rentabelligi to'g'risidagi axborotlarni bilishdan, ish haqi va nafaqalarini hozirda va keyinchalik ham olish imkonini yaratadigan axborotlarni olishdan
Jamoatchilik	Taraqqiyot yo'nalishlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning farovonligini yaxshilashda erishilgan so'nggi yutuqlar to'g'risidagi axborotlarni bilishdan manfaatdordirlar

1.28-jadval

Moliyaviy hisobotlar va ularni tahlil etishning zaruriy jihatlari[1]

Buxgalteriya balansi	
Axborot turi	Moliyaviy holat haqidagi axborotlarni jamlaydi
Axborot zaruriyati	-iqtisodiy resurslar va ularning tarkibiy tuzilishiga baho berish zaruriyati; -mablag'lar va ularning manbalanishiga baho berish zaruriyati; -to'lov layoqati va likvidlilik darajasiga baho berish zaruriyati; -moliyaviy barqarorlikni moliyaviy mustahkamligiga baho berish zaruriyati; -xo'jalik subyektining tashqi muhitga moslashuvchanligini baholash zaruriyati; -xo'jalik subyektining moliyaviy salohiyatiga baho berish zaruriyati; -xo'jalik subyektining moliyaviy holatidagi kutilishlarni baholash zaruriyati.
Axborotni tuzish oralig'i, tartibi va qoidasi	Har chorakda, jamlangan holatda, hisobga olish qoidasida
Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	
Axborot turi	Xo'jalik subyektining faoliyat natijaviyligi haqidagi axborotlarni jamlaydi

[1] *-Ўзбекистон Республикасининг «бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги қонунининг 16-моддасига мувофиқ кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектлари соддалаштирилган молиявий ҳисоботларни тузадилар (улар томонидан 1шакл «Бухгалтерия баланси» ва 2-шакл «Молиявий натижалар тўғрисида»ги ҳисобот шакллари ҳамда дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлари ҳақидаги маълумотнома тақдим этилади).

Axborot zaruriyati	-xo'jalik subyekti tasarrufidagi iqtisodiy resurslardan oldingi faoliyat natijasi yuzasidan olingan natijalarini baholash zaruriyati; -hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoki kamayishini baholash zaruriyati; -hisobot davrida majburiyatlarning kamayishini yoki ko'payishini baholash zaruriyati; -kelgusidagi pul oqimlarini baholash zaruriyati; -resurslardan samarali foydalanish holatiga baho berish zaruriyati;
Axborotni tuzish oralig'i, tartibi va qoidasi	Har chorakda, jamlangan holatda, hisobga olish qoidasida
Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot	
Axborot turi	Moliyaviy holatdagi o'zgarishlarni ifoda etadi
Axborot zaruriyati	-asosiy vositalarning tarkibiy tuzilishi bo'yicha o'zgarishlarini baholash zaruriyati; -asosiy vositalarning holati, harakatini tarkibiy baholash; -asosiy vositlarning mulkiy egaligi va tasarruf etish huquqining o'zgarishlariga baho berish zaruriyati.
Axborotni tuzish oralig'i, tartibi va qoidasi	Yillik davrda, hisobga olish qoidasida
Pul oqimi to'g'risidagi hisobot	
Axborot turi	Moliyaviy holatdagi o'zgarishlarni ifoda etadi
Axborot zaruriyati	-pul mablag'lari va pul ekvivalentlarini xo'jalik ehtiyojlariga qoplash imkoniyatlarini baholash zaruriyati; -pul mablag'larini diskontlash, kelgusida foyda keltirishini baholash yuzasidan axborotlar zaruriyati; -xo'jalik subyektining iqtisodiy aktivlarini pulga aylanish davriyligini baholash zaruriyati.
Axborotni tuzish oralig'i, tartibi va qoidasi	Yarim yillik va yillik davraga, kassali usulda
Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot	
Axborot turi	Moliyaviy holatdagi o'zgarishlarni ifoda etadi
Axborot zaruriyati	-xususiy kapitalning tarkibiy o'zgarishlarini baholash zaruriyati; -zaxiralarni shakllantirish holatining baholash zaruriyati; -to'lash uchun hisoblangan dividendlar summasining o'zgarishlarini baholash zaruriyati
Axborotni tuzish oralig'i, tartibi va qoidasi	Yillik davrada, hisobga olish qoidasida

Moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan axborotlar xo'jalik subyektlarining mavjud resurslari, ularning tuzilmasi, faoliyat natijaviyligi, pul mablag'larini jalb etilishi va ularning kelgusida to'plash, qayta ishlash va olinishini prognozlash imkonini beradigan ma'lumotlardir.

Bu axborotlar moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining maqsadga muvofiq iqtisodiy qarorlar qabul qilishi yuzasidan ma'lumotga bo'lgan minimal ehtiyojini aks ettirishi lozim.

Moliyaviy hisobotlarni axborotlar bilan ta'minlashdagi muammolarni quyidagilarda ko'rib chiqish mumkin

Moliyaviy hisobotlarning shakllari va ularning axborotligi moliyaviy tahlilda muhim ahamiyatga ega. Shu sababali, moliyaviy hisobotlarni tuzishda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli, uning faoliyat ko'rsatkichlari to'g'risida hamda pul mablag'larining harakati haqida iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchilarning keng doirasi uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishning umumiy qoidalari belgilangan.

Ya'ni, moliyaviy hisobotlarni tuzishda bir guruhning manfaatini boshqa guruhning ziyoni hisobiga aks ettirishga yo'l qo'yilmaydi.

Moliyaviy hisobotlarning axborotligi yuzasidan qo'yiladigan talablarni va tahliliy amallarni zaruriyatini quyidagi jadvalda aniq izohlash mumkin.

Moliyaviy hisobotlar tuzish va taqdim etishdagi muammoli jihatlar va ularning amaliy yechimlari yuzasidan quyidagilarni alohida tarkiblab o'tish lozim:

1. Moliyaviy hisobotlarni tuzishning xalqaro tajribalaridan ayonki bir davlatning amaliyotchi buxgalteri yoki iqtisodchisi ikkinchi davlatning xo'jalik yurituvchi subyektlari tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlarni ortiqcha qiyinchiliklarsiz tushunishi hamda korxonadagi real holat va uning natijalarini baholay bilishi lozim.

Ushbu muammo, korxonalar tomonidan yuritiladigan buxgalteriya hisobining yagona biznes tilidagi so'zlashuv vositasiga aylangan holdagina hal etiladi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari tuzib chiqilganligi hamda shu asosda davlatlarning milliy standartlari tasdiqlanganligi ham buning yorqin ifodasidir.

Albatta, bir davlatning moliyaviy hisobot shakllari ikkinchi davlatning moliyaviy hisobot shakllaridan mazkur davlatning hisob, amortizatsiya va soliq siyosati bilan shuningdek, korxonalar tomonidan mustaqil tanlangan, hisobning muqobil tartiblaridagi yondashuvlardan kelib chiqqan holda miqdori, tuzilish shaklida, moliyaviy hisobot elementlarining tarkiblanishida va boshqa bir qator jihatlarida farq qiladi. Ammo, mazmunning shakldan ustunligi, tamoyillarning bir xilligi, moliyaviy hisobot elementlarini aks ettirishda va baholashdagi umumiy tartiblar, maqsaddagi keskin farqlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Demak, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotlarni tuzish va topshirishni axborot foydalanuvchilarning yagona talablariga mos ravishdagi tartibini yaratish talab etiladi. Bu tartib, har qanday qiziquvchiga iqtisodiy qarorlar qabul qilishda bir xil naflikni minimal darajada ta'minlash imkonini bermog'i lozim.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlarida, moliyaviy hisobotlarni tuzish va topshirish tartiblarida xalqaro mezonlarning uyg'unlashuvi ushbu muammoning yechimini beradi.

2. Mahalliy va xorijiy qiziquvchilarning ortiqcha qiyinchiliklarsiz moliyaviy hisobot ma'lumotlarini o'qishi, tahlil etishi, korxonaning moliyaviy ahvoliga aniq tashhis va xulosalarini berishida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining taqqoslanuvchanligi yoki qiyosiyligini ta'minlash lozim.

Qiyosiy va taqqoslanuvchanlik moliyaviy hisobotlarni tuzishda hisob siyosatining yuritilishidan kelib chiqib belgilanadi.

Shuningdek, moliyaviy hisobotlardagi ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash yuzasidan aniq yechimlarga kelishda xalqaro amaliyotda quyidagi yondashuvlarga ahamiyat qaratish muhimdir.

➢ Buxgalteriya balansidagi barcha birliklar individual indekslardan foydalangan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

➢ Umumiy indekslardan foydalangan holda barcha ko'rsatkichlar qayta hisob-kitob qilinadi.

Moliyaviy hisobot elementlarini haqiqiy qiymatini aniqlashda erkin almashtiriladigan valutada qayta hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Odatda, ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruriyati mamalakatdagi inflyatsion darajaning holatidan kelib chiqib belgilanadi.

Xalqaro ekspertlarning ilmiy xulosalari bo'yicha mamlakatdagi inflyatsion darajasi 8-10 foiz bo'lganda moliyaviy hisobot ma'lumotlarini hech qanday hisob-kitoblarsiz qiyoslash mumkinligi e'tirof etiladi.

Respublikamizda inflyatsiya darajasining oylik o'rtacha miqdori 0,5-0,6 %, yillik o'rtacha miqdori 7,0-8,0 % da saqlanishini[1] hisobga oladigan bo'lsak amaldagi holat korxonalarda moliyaviy hisobotlarni qayta hisoblashlarsiz o'qish, tahlil etish, bashoratlash mumkinligini belgilab beradi.

3. Tadbirkorlik faoliyatida va ularni tartibga soluvchi davlat organlari faoliyatida axborot oqimidagi yutuqqa moliyaviy hisobotlarni tuzish va topshirish qoidalarini soddalashtirish O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 16 moddasi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining «Kichik biznes korxonalarining hisobot berishini qisqartirish va tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2000-yil 23-fevraldagi 65-sonli qarorlariga asosan kichik biznes subyektlari soddalashtirilgan moliyaviy hisobotlarni tuzish va topshirish tartiblari belgilangan holda amalda ular tomonidan hisobotlar umumiy asoslarda tuzilmoqda va topshirib kelinmoqda. Soddalashtirilgan hisobot shakllarini tuzish malakali buxgalterlar tomonidan amalga oshirilishini, bu bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari kamida bitta buxgalterni doimiy ishga qabul qilishi yoki yollashini nazarda tutadigan bo'lsak hisobotlarni tuzish va topshirish tartiblarida haliga qadar ham murakkabliklar mavjudligini e'tirof etish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risidagi PK 100-sonli hamda 16.07. 2012-yil 16-iyulda qabul qilinngan PF-4453 sonli «statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsensiyalanadigan

[1] Манба-Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси -www stat.uz сайти маълумотлари

faoliyat turlari va ruxsat berish tartib tamillari tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» farmoniga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-iyundagi «Statistika va moliyaviy hisobotini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 227-sonli, 2005-yil 26-sentabrdagi «Elektron raqamli imzolar kalitlarini ro'yxatga olish markazlarining faoliyat ko'rsatish tartibi to'g'risidagi» 215-sonli qarorlari asosida moliyaviy, soliq va statistik hisobotlarni tuzish va topshirish qoidalarida qator o'zgarishlar kiritilganligini e'tirof etish o'rinlidir. Lekin shunga qaramay ushbu jarayon buxgalterlar ish faoliyatida eng ko'p vaqt va xarajat sarfi normasiga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Ushbu harakatlar buxgalterlarning rahbar uchun boshqaruv qarorlarini tayyorlashga ketadigan vaqtining asosiy qismini band etadi.

Bugungi kunda moliyaviy, statistika va soliq hisobotlariga xo'jalik yurituvchi subyektlarning sarflari daromadga nisbatan 6,4 foizga ekvivalentligi xalqaro ekspertlar tomonidan hisob-kitob qilingan.[1]

Shuningdek, davlatning hisob siyosatining soliq siyosati bilan muvofiqligini, korxonaning hisob siyosatida ularning uyg'unligini ta'minlash lozim. Ya'ni axborot talabalaridagi nomutanosiblikni bartaraf etish lozim. Bunda, moliyaviy hisobotlarda aks etgan ma'lumotlar soliqlar hisob-kitobiga va hisobotiga to'g'ridan to'g'ri ko'chirilishini ta'minlash muvofiqlikni asosiy omildir. Shu bilan birgalikda moliyaviy hisobotlarning o'zaro bir-birini takrorlashidan, ularda bo'sh qatorlarning belgilanishidan chekinish lozim.

4.Moliyaviy hisobotlarni tuzish va topshirishning elektron tizimiga o'tish muammosi.

Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi ekspertlari guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hisobotlarni elektron shaklda topshirishga urinib ko'rganlar salmog'i atiga juda kam foizni tashkil etgan.

Buxgalteriya hisobini kompyuter dasturlari asosida yuritish holati ham respublika viloyatlari kesimida turlicha bo'lgan. Eng

[1] Жахон банкининг Узбекистон Республикасидаги ваколатхонаси «Ўзбекистон республикаси тадбиркорлик субъектларининг солиқ маъмуриятчилиги ва ҳисоботларга доир харажатлари» нашри 2010 йил

yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (79 %), Toshkent viloyatida (45%) kuzatilgan, Samarqand (32%), Farg'ona (29%), Surxondaryo (24%), Xorazm (23%). Navoiy (22%), Namangan (21%), Jizzax (17%) va Qashqadaryo viloyatida (14%), eng past ko'rsatkichlar Qaraqolpog'iston respublikasi (7%), Buxoro (7%), Sirdaryo (5%) viloyatlarida kuzatilgan[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi PK 100-sonli qarorida hamda 16.07. 2012-yil 16-iyuldagi qabul qilingan PF-4453 sonli «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsentsiyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib tamillari tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» farmoniga muvofiq hisobotlarni topshirishda pochta va elektron tizimiga o'tish haqida alohida band belgilanganligiga qaramay, uning tashkiliy (lokal tizimni yaratilishi, internet, onlayn tizimini yo'lga qo'yilishi), uslubiy (dasturiy ta'minot, qo'llanmalar, tavsiyalar, ma'lumotnomalar berilishida) asoslarida sustkashliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Hisobotlarni pochta va elektron shaklda topshirish buxgalterlarning ushbu jarayonga ketadigan vaqt va xarajatlar sarfini ikki baravarga qisqartirishi mumkin. Hisobotlarni tuzish va topshirishning umumiy tartib qoidalarida, bir xildagi naflikka qaratilgan shakl va mazmunning belgilanishiga muhim ahamiyat berish talab etiladi. Ushbu muammolarning bartaraf etilishi hisobotlarni tayyorlash va topshirishdagi tashvishlarni ham, biznesga ma'muriy bosimni ham kamaytiradi. Bir vaqtning o'zida, hisobot tizimini maqbullashtirish orqali, xo'jalik yurituvchi subyektlardan ma'lumotlarni olish va ularni qayta ishlash bo'yicha axborotga bo'lgan ehtiyojlarni, hamda ulardan tahliliy xulosalar chiqarishda foydalanishning imkoni ortadi.

5. Bugungi ko'rinishdagi hisobot tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun turli darajadagi tahlikalarni keltirib chiqarmoqda (hisobotlarni tuzish va topshirishdagi har qanday kichik xatolar amaldagi, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

[1] Жахон банкининг Узбекистон Республикасидаги ваколатхонаси «Ўзбекистон республикаси тадбиркорлик субъектларининг солиқ маъмуриятчилиги ва ҳисоботларга доир харажатлари» нашри 2010 йил

kodeksga muvofiq katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin). Shuningdek, axborot talablari biznesning turli toifalariga nihoyatda nomutanosib belgilanganligini qayd etish lozim.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va topshirish shunchaki maqsadga aylanmagan holda, ularda aks etgan ma'lumotlarni atroflicha tahlil etish, iqtisodiyot subyektlari moliyaviy ahvolini bilishga qiziquvchi, ular bilan o'zaro hamkorlikni, sherikchilikni yo'lga qo'yishda ishonchli hamkorlarning axborot ekraniga (oynasiga) aylangan holni ko'rishga imkon beruvchi tizimni yaratish lozim. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy, soliq va statistik hisobotlarni tuzishi va topshirishi qat'iy tartib qoidalar asosida belgilangan, lekin ulardagi ko'rsatkichlar va ma'lumotlardan ko'proq jamlangan ma'lumotlarni yig'ish uchun foydalanilmoqda. Ya'ni ayni korxonaning moliyaviy ahvoli, natijaviyligi, to'lovga qobilligi va layoqati, moliyaviy barqarorligi va boshqa jihatlarining joriy va istiqboldagi holatini baholash kabi masalalar nuqtai nazaridan o'rganilishi kamdan kam holatlarda kuzatiladi.

Xalqaro tajribalarni kuzatishdan shunday xulosaga kelish mumkinki biznesning samarali faoliyat yuritishi ularga to'g'ridan to'g'ri tushiriladigan majburiy soliqlar yukining yengilligi yoki undagi imtiyozlarning kengligi bilan emas balki qaysidir jihatdan ular orqali yuzaga keladigan «axborotlar solig'i»[1] ning ortishi bilan belgilanadi. Axborotlar solig'i deganda hisobotlarni tuzish va topshirish bilan bog'liq bo'lgan, rasmiy va norasmiy xarajatlar qilinishi (kompyuter dasturlarini sotib olinishi, nashrlarga obuna bo'lish, hisobot shakllari va buxgalteriya ishchi hujjatlarini sotib olish, hisobot topshiriladigan tashiklotlarga borish, kelish, ish kunidagi va joyidagi yo'qotishlar va h.k.lar) nazarda tutilgan. Shu sababli, tuziladigan, topshiriladigan hisobotlarni minimal talablarini belgilash, uning bir markazli shakliga o'tish lozim. Ya'ni, hisobotlarni tuzish va topshirishning qonunda belgilangan hollarigagina amal etish, uning turli tahliliy xulosalar yoki maqsadlar uchun istalgan paytda yoki shaklda turli organ yoki tashkilotlar tomonidan talab etishlaridan chekinish lozim.

---

[1] «Ахборотлар солиғи» деганда хўжалик юритувчи субъектлар томонидан тузиладиган ва топшириладиган (молиявий, солиқ, статистик ва бошқа махсус) ҳисоботларга кетган харажатлар назарда тутилади

Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining soliq, moliyaviy va statistik hisobotlarini isloh qilish bo'yicha 2000, 2002 va 2005, 2008, 2010, 2012-yillarda qabul qilingan chora-tadbirlarlar natijasida amaldagi hisobot tizimining asosiy andozalari shakllantirildi. Bu borada, barcha hisobotlar va hisob-kitoblarni tadbirkorlik subyektlari har chorakda taqdim etishga o'tganligini, davlat organlari tomonidan hisobot shakllarida nazarda tutilmagan biron-bir axborotni talab qilinmasligini, xo'jalik subyektlari hisobotlarni pochta orqali yoki elektron aloqa vositasida topshirishga nisbatan harakatlar jonlanganligini e'tirof etish lozim

Yuqorida sanab o'tilgan jihatlar, hisobotlarni axborotligi yuzasidan kelib chiqadigan muammolarni aytish mumkinki bir qismi ham bo'lishi mumkin. Shu sababli hisobotlarni tuzishda har ikki tomon (korxona va axborot iste'molchilari)ni manfaatlariga xizmat qiladigan samarali tizimini yaratish, uning jahon amaliyotida qo'llanilayotgan, axborot talablarining minimallashtirilgan shakllaridan milliy iqtisodiyot va hisobchilik tizimidagi yondashuvlardagi ustivor tamoyillarni e'tirof etgan holda andoza sifatida foydalanishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

1.8.2. Hisobotlar bo'yicha xarajatlarni baholash va ularni minimallashtirish

Hukumat tomonidan keyingi yillarda byurokratik g'ovlarni bartaraf etish, zamon talablariga mos kelmaydigan litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini, statistik, moliyaviy va soliq hisobotlari shakllarini qisqartirish, ularni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish hisobiga qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish, biznes subyektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va ularning erkin faoliyat yuritishlarini ta'minlash borasida izchil hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biznesning hisobotlar bo'yicha xarajatlarini miqdoriy baholash orqali ularni kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar avvallari amalga oshirilmagan. Shu sababli ushbu masalani qo'yishdan oldin juda ko'p munozoralarga duch kelindiki oxir

oqibat uning yechimi tadbirkorlik muhitini shakllantirishda o'ta muhimligini hisobga olgan holda fanning dasturiy tarkibiga kiritishni lozim deb topdik.

1.29-jadval

Hisobotlar bo'yicha xarajatlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin

Hisobotlash bo'yicha xarajatlar guruhi	1	Korxonalar buxgalterlari va boshqa xodimlari tomonidan hisob-kitob ishlarini yuritish va rahbariyat uchun boshqaruv qarorlarini tayyorlash yuzasidan axborot oqimini shakllantirishga, ketadigan xarajatlar
	2	Korxonalar buxgalterlari va boshqa xodimlari tomonidan yil davomida soliqlar va majburiy to'lovlarni hisob-kitob qilishga; soliq, moliyaviy va statistika, maxsus hisobotlarni tayyorlashga va taqdim etishga ketadigan xarajatlar
	3	Korxonalar buxgalterlari va boshqa xodimlari tomonidan yil davomida barcha soliqlar, to'lovlar va yig'imlar yuzasidan tekshiruvlardan o'tishga ketadigan xarajatlar
	4	Hisobotlash yuzasidan moliyaviy qonun hujjatlarini o'rganishga qilingan sarf-xarajatlar (masalan, maxsus adabiyotlarni xarid qilish, buxgalteriya, soliqlar hisobi va hisoboti uchun blankalar sotib olish; turli seminarlarda ishtirok etish; maslahatlar olish; imtiyozlari qo'llanilishi huquqini tasdiqlash va boshqa) xarajatlar.

To'g'ri, deyarli ko'pchilik biznes namoyandalari, auditorlar, soliq va boshqa davlat organlari xodimlari soliq ma'muriyatchiligi va hisobotlar bo'yicha sarf-xarajatlarni tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha yuk deb hisoblamaydilar. Ko'pchilik hollarda bunday chiqimlarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning tabiiy va ajralmas sharti sifatida qaraladi. Mazkur ish jarayoni buxgalterning asosiy ishi hisoblanganligi sababli ham ushbu xarajatlarni hisoblash noo'rin masaladek ko'rinadi.

Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida kompaniya buxgalterni ishga yollar ekan, birinchi navbatda o'z ichki

vazifalarini (axborotlashgan va samarador boshqaruv hamda istiqbolli rivojlanishini) hal etish maqsadida ushbu ishni ustuvor deb biladi. Ya'ni, buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsad kompaniya faoliyati to'g'risidagi batafsil axborotni to'plab, muassislar, menejment va kreditorlarga taqdim etishdan iboratdir. Shu tariqa buxgalteriya hisobini yuritish kompaniyaning ixtiyoriy qarori bilan belgilanadi, u kompaniyaning ichki ustuvorliklariga va mavjud resurslariga bog'liqdir.

Buxgalteriya hisobini yuritishda birinchi tarkib vazifalari korxona o'rinli, 2, 3, va 4 vazifalar esa korxonaning o'rinsizga chiqarish mantiqan noto'g'ri. Lekin bu yerda gap ularga ketadigan xarajatlarni minimallashtirish borasida bormoqda. Mazkur sarf-xarajat chiqimlari birmuncha past bo'lgan boshqa mamlakatlar bilan solishtiradigan bo'lsak milliy biznesning raqobatbardoshligini ta'minlashda bu harakat qanchalik o'rinli ekanligini ko'rish mumkin. Shu jihatdan samarali budjet, soliq, moliya, tizimi bunday chiqimlarni iloji boricha kamaytirish imkonini yaratmog'i lozim.

Masalan, professional buxgalterlar xizmatiga ehtiyoj sezmaydigan kichik biznes uchun soliq solishning maksimal darajadagi soddalashtirilgan rejimlarini yaratish zarur. Bu holat tadbirkorlarni o'z bizneslarini legal tarzda va real yuritishini rag'batlantirsin.

Yuridik shaxs va xususiy tadbirkorlarning bitta soliq ma'muriyatchiligi va hisobotga sarflagan xarajatlari YaIMning 0,75 foiziga yoki xususiy sektorning YaIMdagi ulushining 1,66 foiziga ekvivalentligi ekspetlar tomonidan hisob-kitob qilingan[1].

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan tuziladigan hisobotlar va ularni tarkibiy tuzilishini quyidagicha tarkiblash mumkin.

Hisobotlashni bu tartibdagi amaliyoti tadbirkorlardan ko'proq vaqt va mablag' sarfini talab etadi, ularni asosiy faoliyatdan chalg'itadi. Shu sababli ishlab chiqilgan va yuritilayotgan hisobotlashning amaldagi tizimi har ikki tomonning manfaatlariga xizmat qilmog'i lozim. Unda hisobotni

[1] Халқаро молия корпорацияси, Жаҳон банкининг Ўзбекистон Республикасидаги ваколатхонаси «Ўзбекистон тадбиркорлик субъектларининг солиқмаъмуриятчилиги ва ҳисоботларга доир харажатлари» 2010 й.

taqdim etish bo'yicha talablarni minimallashtirish; axborotlarning turli davlat organlari tomonidan takroriy so'ralishiga yo'l qo'ymaslik, hisobotlar topshirishning kam xarajatli usullarini (ularni pochta orqali yoki elektron shaklda uzatish) qo'llashga ustuvorlik berish lozim.

1.30-jadval

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan tuziladigan hisobot shakllari va ularning soni (2012-yilgacha bo'lgan holatda)

Tadbirkorlik bo'g'inlari	Soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisobotlar	Moliyaviy hisobotlar	Statistik hisobotlar	Xalq banki, mehnat birjasi va b**.
Yirik korxonalar	64	19	32	*
Kichik korxonalar	34	9	6	*
Mikrofirmalar	32	9	5	*
O'rtacha	36	10	8	*

Tadbirkorlik subyektlarining soliq, moliyaviy va statistik hisobotlarini isloh qilish bo'yicha hukumatimiz tomonidan 2000, 2002, 2005 va 2012-yillarda qabul qilingan choralari natijasida amaldagi hisobot tizimining asosiy andozalari shakllantirildi. Barcha hisobot va hisob-kitoblarni tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etishning maqbul tartiblari belgilandi; davlat organlari hisobot shakllarida nazarda tutilmagan biron-bir axborotni talab qila olmasligi belgilandi, hisobotlarni elektron oqimini shakllantirishga kirishildi.

Hisobotlash tizimidagi so'nggi o'zgarishlarni ijobiy jihatlaini quyidagicha izohlash mumkin.

Hisobot tizimini maqbullashtirish nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobotlash yuzasidan xarajatlarini minimallashtirishga, balki ma'lumotlarni olish va ularni qayta ishlash bo'yicha davlatning ma'muriy xarajatlarini ham kamaytirishga imkon beradi. Soliq ma'muriyatchiligi va hisobot

** Бундан ташкари, йил давомида корхоналар турли ҳисоботларни бошқа органларга (масалан, хўжлик бошқаруви органларига – фаолияти тўғрисида маълумотлар; меҳнат бўйича органларига – бўш иш ўринлари ва ходимларнинг кутилаётган ишдан бўшаши тўғрисида, ижтимоий муҳофазага муҳтож шахсларнинг ишга жойлашиши тўғрисида; Табиатни муҳофаза қилиш бўйича давлат қўмитасига –атроф муҳитни ифлослантирганлик учун компенсация тўловлари суммалари ҳисоб-китоби; мудоффа бўлимларига – ҳарбий хизматга мажбур ходимларнинг қабул қилингани ва ишдан бўшатилгани тўғрисидаги маълумотлар, коммунал тўловлар, металлом, макалатура, обуна масалалари бўйича тўловлар қағозини йиғиш)

xarajatlari, odatda, biznes miqyosining kattalashuvi bilan o'sib boradi: tushum qancha ko'p bo'lsa, xarajat ham shunga yarasha oshaveradi.

1.31-jadval

Hisobotlarni tuzish va topshirish tartibidagi ijobiy o'zgarishlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yilda qabul qilingan PQ-100120-son qarori hamda 16.07.2012 sanada qabul qilingan PF-4453 sonli farmoniga muvofiq hisobotlarni tuzish va topshirish tartibidagi so'nggi o'zgarishlar	Hozirgi vaqtda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari har chorakda faqat bitta soddalashtirilgan statistik hisobotni taqdim etadilar, moliya hisoboti esa yiliga bir marta taqdim etiladi. Faoliyat turlarini amalga oshirish uchun litsenziyalar amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi. Barcha soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha oyma-oy soliq hisobotini taqdim etish bekor qilinadi. Mikrofirmalar statistik hisobotlarni yillik muddatga bir marta tuziladi. 2014-yilning oxiriga qadar barcha tadbirkorlik statistik, soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga to'la o'tkazilishi belgilangan.
	Tadbirkorlik subyektlaridan davlat soliq xizmati va davlat statistika organlarining belgilangan moliyaviy va statistik hisobotlarga qo'shimcha ravishda har qanday ma'lumotlar, ma'lumotnoma va hujjatlarni talab qilishlariga yo'l qo'yilmaydi, tekshiruvlarni o'tkazish vaqtida qilingan talablar bundan mustasno;
	Boshqa organlar hamda tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan qonunlarda nazarda tutilmagan har qanday axborotni, shu jumladan hisobot, ma'lumotlar, ma'lumotnoma va hujjatlarni talab qilishlariga yo'l qo'yilmaydi;
	Davlat statistik, moliya, soliq hisobotlari hamda boshqa hisobot turlarini bekor qilish va bir-birini takrorlovchi shakllarni birlashtirish evaziga ana shunday hisobotlar miqdorini, shuningdek ularni taqdim etish davriyligini belgilangan muddatlari qisqartirildi.

Yillik tushumi 5 million so'mdan kam bo'lmagan korxonalar bu maqsadlar uchun tushumning 15,9 foizini sarf qiladilar. Agar mazkur xarajatlar qo'shimcha «ma'muriy» soliq sifatida qaraladigan bo'lsa, u holda ushbu subyektlar guruhi uchun uning stavkasi yagona soliq to'lovi stavkasidan ikki baravar ko'pdir.

Kattagina oborotga ega korxonalar (yiliga 1 milliard so'mdan yuqori) uchun xarajatlar tushumning 0,06 foizini tashkil etgan. Mazkur ko'rinish yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ham xosdir.[1]

Davlat xo'jalik yurituvchi subyektlardan ular faoliyatini nazorat qilish va statistika maqsadlarida hisobot topshirishni talab etadi. Biroq uni taqdim etish tadbirkorlardan vaqt va mablag' sarfini talab etadi, ularni asosiy faoliyatidan chalg'itadi. Shuning uchun hisobotni ba'zida biznesga solinadigan «axborot solig'i» deb ataydilar.

Jahon amaliyotida ishlab chiqilgan hisobotning samarali tizimi prinsiplariga amal qilish har ikki tomonning manfaatlariga xizmat qiladi.

Ularga hisobotni taqdim etish bo'yicha talablarni minimallashtirish; axborotning turli davlat organlari tomonidan takroriy so'ralishiga yo'l qo'ymaslik; hisobotlar topshirishning kam xarajatli usullarini (ularni pochta orqali yoki elektron shaklda uzatish) istifoda qilishga ustuvorlik berish kiradi.

Hisobot topshirish uchun soliq inspeksiyasi, statistika organlari va Xalq bankiga tashrif buyurish[2] tadbirkorlar xarajatlarining alohida qismidir. Hato to'ldirilgan hisobotlarni topshirishda ham tadbirkorlar ko'p vaqtini yo'qotadi. Yo'lga ketgan vaqtdan tashqari, tadbirkorlar navbatda kutish va mazkur tashkilotlar xodimlari bilan suhbatlashish uchun ham vaqt sarfi anchani tashkil etadi.

---

[1] Халқаро молия корпорацияси, Жаҳон банкининг Ўзбекистон Республикасидаги ваколатхонаси «Ўзбекистон тадбиркорлик субъектларининг солиқмаъмурчилиги ва ҳисоботларга доир харажатлари» 2010 й.

[2] «Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида» ги Қонунига134 мувофиқ иш берувчи ўзи жойлашган жой бўйича Халқ банкининг филиалига жамғариб бориладиган пенсия бадалларининг ўтказилиши тўғрисидаги тўлов ҳужжатининг нусхасини, ходимларнинг ИШБМҲ рақамлари, фамилияси, иш ҳақининг ҳисоблаб ёзилган сум- малари, бошқа даромадлари ва жамғариб бориладиган пенсия бадаллари суммаларини кўрсатган ҳолда ходимлар реестини ҳар ойга тақдим этиши керак

Ba'zida ularga ketgan vaqt korxonada bo'lishi lozim bo'lgan ish vaqtini to'liq band etadi. Transport xarajatlari, ovqatlanish xarajatlarini hisobga olinadigan bo'linsa jarayon yanada murakkablashadi.

Yuqorida keltirilgan barcha choralar hisobot jabhasidagi ko'plab muammolarni hal etishi tabiiy albatta. Lekin amaldagi holat hali quvonarli tarzda o'zgarganicha yo'q. Birinchidan, bugungi ko'rinishdagi hisobot tizimi shakli va mazmuni bo'yicha eskiligicha qolmoqda; ikkinchidan hisobotlashning davriy oralig'ini uzaytirish yoki topshirishlar sonini kamaytirishni biznesning ko'lamdorligini hisobga olgan holda aniq maqsadli va manzilli mexanizmini shakllantirish va soddalashtirish lozim, uchinchidan axborotlarning elektron oqimini shakllantirish yuzasidan aniq va arzon dasturiy ta'minot bazalari yetishmaydi. to'rtinchidan imkoniyatlar qanchalik kengaymasin hisobotlarni tuzish va topshirish tartiblaridagi normalarni qayta ko'rib chiqish lozim.

Bildirilgan fikrlarni, amalga oshirilgan tadbirlar yakunida erishilgan natijalarning miqdoriy ifodasidagina emas balki ularning sifat jihatlarida ham aks ettirish lozim. Negaki, hisobotlarni qisqartirish uni boshqa hisobot shakliga birlashtirish orqali ham kuzatilishi mumkin.

Moliyaviy, statistik va boshqa hisobotlar sonini qisqartirish va ularni tuzish oraliqlarini uzaytirish amalga oshirilgan ishlar yakunida erishilgan natijalarni qiyosiy jihatlarini quyidagi jadvalda umumlashtirishimiz mumkin.

1.32-jadval

Davlat organlariga taqdim etiladigan hisobotlar[1]

2012-yilga qadar	**2012-yildan keyin**
Davlat organlariga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlar soni	
Mikro firma va kichik korxonalarda	
3 ta	2 ta
Yirik korxonalarda	
6 ta	4 ta
Soliq hisobotlari	
Mikro firma va kichik korxonalarda	

[1] Б. Исроилов Иқтисод ва молия журнали 2012 йил 11-сон 24 бет

69 ta	40 ta
Yirik korxonalarda	
153 ta	63 ta
Davlat va xo'jalik organlariga taqdim etiladigan boshqa hisobotlar	
50 ta	20 ta

Jadval ma'lumotlaridan ham anglash mumkinki mikro firma va kichik korxonalar tomonidan shu paytga qadar tuzib kelingan va taqdim etiladigan moliyaviy va soliq hisobotlari soni 72 tadan 42 taga, yirik korxonlarda esa 159 tadan 67 taga tushirilgan. Davlat va boshqa xo'jalik organlariga taqdim etiladigan hisobotlar shakli 50 tadan 20 taga tushirilgan. Bu harakat dastlabki bo'g'inda amalga oshirilgan ulkan ish hisoblanadi. Albatta hisobotlarning amaldagi tartiblari bo'yicha o'rtacha har chorakka to'g'ri keladigan hisobotlar soni yirik korxonalarda 52 tani, mikro firma va kichik korxonalarda 30 tani tashkil etadi. Agar ushbu miqdorni yil yakuni bo'yicha amalga oshiradigan bo'lsak uning tig'izligi yanada oshib ketadi.

1.8.3. Hisobotlarni elektron shaklda topshirishni takomillashtirish va axborotlarni analitik ishlashini avtomatlashtirish

Tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tgan va huquqiy maqomga ega bo'lganlik haqidagi guvohnomani olgan holda kichik biznes subyekti sifatida faoliyatni boshlaganida, buxgalteriya hisobining eng nozik jihatlarini biladigan yaxshi buxgalterni doimiy shtatda ushlab turishga, yoki yollashga zaruriyatni sezadi. Shu bilan birga kichik biznes subyektlari ham, o'rta va yirik biznes subyektlari sifiatida ularning tashkiliy shaklidan qat'iy nazar yagona tartib qoida asosida tegishli moliyaviy, soliq, statistik, pensiya ta'minotiga tegishli hisobot va ma'lumotnomalarni tuzishlari va topshirishlari lozim. Axborotning bu oqimi buxgalterning birinchi funksional vazifasiga (aslida uning birinchi vazifasi rahbarga boshqaruv uchun zarur ma'lumotlar oqimi bilan ta'minlashdan iborat edi) aylangan. Shu bilan birgan, hisobotlarni tuzish va ularni topshirish doimo, xo'jalik

yurituvchi subyektlarning rahbari va bosh buxgalteri uchun eng muammoli masalalar sirasiga kirib kelgan.

Xo'jalik subyektlari tomonidan tuziladigan va topshiriladigan hisobotlarni odatda 4 ta muhim turini tarkiblash mumkin:

– moliyaviy (buxgalteriya)hisobotlar;
– soliq (to'lovlar, ajratmalar, yigimlar) hisobotlari;
– statistik hisobotlar;
– pensiya ta'minotiga tegishli hisobotlar

Hisobotlarni har qanday shakli ham ularni tuzish va topshirish tartiblariga qat'iy amal etishni talab etadi. Talab va qoidalardagi xatoliklar esa qonun asosida jazolanishidan ushbu masala yanada muammoli masalaga aylanadi.

Moliyaviy hisobotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan va topshiriladigan quyidagi hisobot shakllaridan tashkil topadi:

1. Buxgalteriya balansi, 1-son.
2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, 2-son.
3. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot, 3-son.
4. Pul oqimi to'g'risidagi hisobot. 4-son.
5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, 5-son.
6. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotnoma, 2A-shakl.
7. Shuningdek, moliyaviy hisobotga izohlar, mo'ljallar va tushuntirishlarni o'z ichiga oladi[1].

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan va topshiriladigan ushbu hisobot shakllari choraklik va yillik hajmda jamlanganda o'rta hisobda 19 taga yetadi. Demakki, moliyaviy hisobotlar, soliq va statistika hisobotlari, jamg'arib boriladigan pensiya jamgarmalari yuzasidan xalq bankiga tashrif buyurishlar, shuningdek topshiriladigan hisobotlar, taqdim etiladigan tashkilotlar turli manzilligini hisobga oladigan bo'lsak ushbu harakat eng muammoli va serchiqim harakatga aylanadi.

Tasavvur qilish qiyin emaski, hisobotlarni qabul qilish manzili bilan korxona manzili orasidagi masafa qanchalik uzoq bo'lsa ma'muriyatchilik xarajatlari ham shunchalik yuqori

[1] Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирининг 2002 йил 27 декабрдаги 140-сонли буйруғи, ЎзР АВ томонидан 2003 й 24 январда рўйхатга олинган N 1209.

bo'ladi. Hisobotlar, hisob-kitoblar va ma'lumotnomalarni chop etish, kerakli nusxada ko'paytirish, rasmiylashtirish va ularni oxirgi manzilga taqdim etishdagi holat (navbatga turishlar, asab buzishlar, kameral nozoratda aniqlangan kamchiliklarni to'g'rilash yuzasida harakatlar) aytish mumkinki biznesning erkin rivojiga birinchi to'siqdir.

Mazkur holatlardan qutilishning eng sodda va qulay yo'li bu hisobotlarni elektron shaklda topshirish va qayd etishga o'tish hisoblanadi.

Hisobot shakllarini elektron shaklda topshirishning axborot ta'minotiga, tashkiliy-texnik ta'minotiga va o'quviga ega bo'lgan holda uni yo'lga qo'yish muammo bo'lmasligini bugungi kun amaliyoti esa to'la tasdiqlaydi. «1-S buxgalteriya» dasturi yoki milliy hisobchilik va soliq qonunchiligi talablari asosida ishlab chiqilgan «Buxgalterga elektron madad» kompyuter dasturining yaratilishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning kompyuter ta'minoti, kompyuter savodxonligiga va internet tizimida ishlash tajribasiga ega bo'lgan xodimlar salohiyati bilan bu vazifani hal etish g'oyatda qisqa muddatda amalga oshirilishiga erishish mumkin. Hisobotlarni elektron shaklda topshirishga rivojlangan davlatlarda bir necha yillar davomida o'tilganligi, bizning bugungi salohiyatimizda uzoq davom etmasligini mobil aloqa va internet tizimidan foydalanishdagi yutuqlarimiz ham yana bir bor isbotlaydi. Vaholanki, mana shu ikkita tizim uning negizida turadi.

Hisobotlarni topshirishning elektron tizimini yo'lga qo'yish asosida hisobotlarni tuzish va topshirishga ketadigan xarajatlarni bir necha bor qisqartirish mumkinligini e'tirof etish lozim. Bu nafaqat xarajatlar tejamiga balki xodimlarning (hisobot topshiruvchi va qabul qiluvchilarning) asosiy ish faoliyatiga, ularning ish vaqti fondidan ham unumli foydalanishiga olib keladi.

Respublikamizda hisobotlarni elektron shaklda topshirishga harakatlar boshlanganligiga qaramay hali bu boradagi yutuqlarimiz sezilarli darajada emasligini qayd etish lozim. Shu sababli, unga o'tishning izchil modeli, tizimini yaratish lozim.

Hisobotlarni topshirishning bu progressiv shakliga G'arb davlatlari tajribasini o'rganish asosida muhim o'zgartirishlar

kiritish asosida axborotlar qabul qilishning yagona tizimini ham shakllantirish mumkin.

Hisobotlarni tuzish va topshirishning elektron shakliga o'tish nafaqat korxona, davlat soliq xizmatchilari, balki keng jamoatchilikning ham axborotlar bilan ishlashini, foydalanishini, muhimi ularni tahliliy samaradorligini oshirish imkonini ham beradi.

Buning uchun, tashkiliy imkoniyatda arzon va sifatli kompyuter jihozlari va dasturiy ta'minotiga, yuqori tezlikka ega internet tizimiga, lokal bog'lanishning qulay, ishonchli tarmog'iga ega bo'lish, elektron raqamli imzoni ishlatishning himoyalangan vositasiga ega bo'lish talab etiladi xolos.

Hisobot ma'lumotlarini yagona bazadan olishning dasturiy ta'minotiga (homiylar, statistika va soliq organlari talablariga mos tushadigan) tartibiga o'tish lozim. Sodda qilib aytganda bitta hisobot shaklidagi ma'lumotlarni turli shakllarda tuzish va topshirishdan chekinish lozim. Hisobotlarni elektron shaklda topshirishda, qabul qiluvchilarning barcha portallari bepul, davomli va muttasil ishlashini ta'min etish lozim. Hisobotlarni tuzish va topshirish tartiblaridagi o'zgarishlar haqida pochta orqali, SMS orqali xabar berish tizimini jonlantirish darkor.

Tadbirkorlar tomonidan tuziladigan hisobotlarning elektron shaklda topshirilishi nafaqat ularning «axborot solig'i» (hisobotlarni tuzish va topshirishga ketadigan ma'muriyatchilik xarajatlari) yukini kamaytiradi, balki ularning ish unumini ham oshiradi, axborotlarni olishdagi ma'muriy bosimni umuman olib tashlaydi. Bu holat alohida olingan xo'jalik yurituvchi subyektlardagi yutuqlargagina emas balki ma'lumotlar oqimidagi barcha axborot iste'molchilari (talab etuvchilar)ning ham ish unumiga, samarasiga ta'sir etadi.

Elektron shaklda hisobotlarni tuzish va topshirish albatta o'ziga xos muammolarga ham olib keladi. Bunday tizim qog'oz variantidagi shakllardan to'la voz kechishni xarakterlamaydi. Shuningdek, dasturiy ta'minotga o'z-o'zidan kirib oluvchi va axborotlarni yeb qo'yuvchi «virus»lar, elektr energiyasidagi uzilishlar, ma'lumot o'g'rilarining kirib olishlari va hokazo tahlikalarni mavjudligi ushbu tizimga o'tish tahlikali yo'l ekanligini anglatmaydi.

Bu holat esa bugungi globallashgan, yangiliklarga o'ch, boshqarish murakkab bo'lgan iqtisodni informatsion bazaga bo'lgan ehtiyojini sifatli va o'z vaqtida ta'minlash imkonini beradi.

Axborotlarni olish va ulardan foydalanishning optimal darajasiga erishishni ta'minlaydi.

Elektron hisobot shakllariga o'tish nafaqat korxonalarning, balki kelgusida jismoniy shaxslarning ham davlat oldida (deklaratsiyalash, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar to'lovi bo'yicha) masofaviy hisobot berish imkoniyatini tug'diradi.

1.33-jadval

Tahlilda kompyuter texnikalaridan va dasturlaridan foydalanish shajarasi[1]

Davrlar	Amaliyotni o'ziga xosligi
1-davr	Oddiy hisob-kitoblarni mexanizatsiyalash bosqichi ya'ni, birinchi hisob uskunalarining paydo bo'lish davri (1980-yillardan 1920-yillargacha bo'lgan davrlar);
2-davr	Sanoat korxonalarida oddiy mexanizatsiyalash jarayoniga asoslangan perfaratsion va klavishli hisoblash uskunalaridan foydalanish davri (PVM vaKVM) (1920-yillardan 1940-yillargacha asr boshidan o'rtalarigacha davr);
3-davr	Har xil hisoblash uskunalaridan foydalanish davri (buxgalteriya, fakturali, nomenklaturali), ma'lumotlari avtomatik kiritiladigan perforatsion mashinalarning ishlatilish davri (1940-yillarning o'rtalari va 1950-yillar);
4-davr	Hisob-statistik ma'lumotlarni avtomatik ishalashga mo'ljallangan raqamli mashinalarni paydo bo'lishi va foydalanish davri, hisob ishlarini mexanizatsiyalashdan avtomatlashtirishga o'tilishi (1950-yildan 1970-yillar o'rtalarigacha bo'lgan davr);
5-davr	Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ASU) ga o'tilishi (1970-yillar o'rtalaridan 1980-yillar oxirigacha bo'lgan davr);
6-davr	Amaliyotda xo'jalik subyektlari tomonidan personal kompyuterlardan foydalanishga o'tilishi (PEVM) va buxgalteriya hisobi bo'yicha birinchi kompyuter programmalariga o'tilishi davri (1980-yillar oxiridan 1990-yillar boshlarigacha bo'lagan davr);

[1] Муаллиф томонидан тадқиқот натижалари бўйича мустақил тузиб чиқилган

7-davr	Lokal hisoblash tarmoqlari (LVS) integratsiyalashuviga asoslangan personal kompyuterlardan ommaviy foydalanishga o'tish davri (1990–2000-yillar);
8- davr	Internet tizimi va internet texnologiyalariga o'tilishi va ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, qayta ishlash va analitik jarayonlarning markazlashgan qayta ishlash texnologiyalariga o'tish davri (1990-yillar 2010-yillarga qadar bo'lgan davrlar).
9- davr	Zamonaviy axborot portaliga o'tish davri (2010-yildan keyingi davrlar), yuqori tezlik va imkoniyatlarga ega elektron axborot oqimiga ega bo'lish davri

Ma'lumotlarni kompyuter texnikalari va texnologiyalaridan foydalangan holda qayta ishlash va boshqaruv qarorlari sifatini oshirish yuzasidan insoniyat tomonidan yaratilgan texnikaviy mo'jizaning ahamiyatini tasavvur qilish ancha mushkul jarayon hisoblanadi. Bugungi kunda buxgalteriya hisobi va uning ma'lumotlarini kompyuter texnikalari va texnologiyalarisiz yig'ish, umumlashlatirish, analitik ishlov berish, qarorlar chiqarishga tayyorlashni tasavvur qilish mumkin emas.

Ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning oddiy ko'rinishidan tortib uning murakkab jarayonlariga bo'lgan barcha jarayonlarida yuqori tezlikka va aniqlikka ega bo'lgan kompyuter texnikalari va texnologiyalaridan foydalanish jarayoni axborot asrining oldimizga qo'ygan muammolarini hal etishning qudratli vositasiga aylandi deyish mumkin. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va nazorat ishlarida texnik uskunalar va dasturlaridan foydalanishga o'tilishi shajarasini quyidagi davrlar kesimiga ajratgan holda tavsiflab berishimiz ham mumkin.

Moliyaviy amaliyotchilikda kompyuter va dasturlardan foydalanishni rivojlanish tendensiyasini quyidagi etaplarga tarkiblash mumkin.

Ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning murakkab dasturiy ta'minotlari tahlilda axborotlarni olish va analitik jadvallar orqali hisob-kitob qilish, xulosa va takliflar tayyorlashda axborot asrining eng ishonchli, tezkor modeliga aylanganligi analitik ishlarda yangi bir davrni boshlab berdi deyish mumkin.

Bugungi kunda axborotlarni kompyuter dasturlari asosida tahlil etishning qator dasturiy ta'minotlari yaratilganligi va ular-

ning yangi modellari yaratilayotganligini ta'kidlash joiz. Amaliyotda keng qo'llanilayotgan dasturiy ta'minotlarga quyidagilarni kiritish mumkin.

Umumiy moliyaviy holat va moliyaviy holatni bashoratlash yuzasidan dasturiy ta'minotlar ichida eng ommalashgan shakllari sifatida Rossiyaning «Inek», «Intelekt-servis», «Pro-invest IT» kompaniyalari tomonidan tuzib chiqilgan dasturiy ta'minotlar asosiy o'rinni egallaydi.

Ushbu dasturiy ta'minotlar nafaqat analitik ishlash jarayoni balki, biznes rejalarni tuzish, investitsion loyihalarni analitik baholash imkonini ham beradi. Boshlang'ich jarayon ko'proq ma'lumotlarni analitik ishlashga qaratilgan bo'lgan bo'lsa hozirgi holati ko'proq prognozlashga ham imkon bermoqda.

Moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tahlil etishda, koeffitsiyentlardan foydalanish va korxonaning moliyaviy iqtisodiy reytingini aniqlashning sistemalashtirilgan himoyalangan dasturiy ta'minotlariga o'tilishi bilan analitik ishlar samaradorligini yuksak darajaga chiqqanligini ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda ommalashgan dasturiy ta'minotlar qatoriga yuqorida tarkiblangan firma va kompaniyalarning litsenzion dasturiy ta'minotlari sanalgan «Analitik», ««Finansoviy analiz», Inek-AFSP», «Inek-ADP», «Inek-Analitik», «Audit Expert» dasturiy ta'minotlarini kiritish mumkin.

Moliyaviy holat tahlilida axborotlarni dasturiy ta'minotidan foydalanishning sxematik ketma-ketligi quyidagi tarkibda amalga oshiriladi.

1. Ma'lumotlarni kiritish:

– buxgalteriya hisobot ma'lumotlarini kiritish;

– moliyaviy hisobotga kirmaydigan qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish.

2. Buxgalteriya balansi aktiv va passiv moddalarini korrektirovkalash (baholash);

3. Buxgalteriya balansini xalqaro standartlar talablari asosidagi anilitik jadvallarini tuzish;

4. Moliyaviy koeffitsiyentlarni hisob-kitob qilish;

5. Aniqlangan moliyaviy koeffitsiyentlar orqali chizma va diagrammalarni tayyorlash;

6. Olingan natijalar asosida xulosalar tayyorlash.

Ma'lumotlarni analitik qayta ishlashning galdagi vazifalari qatoriga ularning o'zbek tilidagi dasturiy ta'minotlarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish, dasturiy ta'minotda ko'proq prognoz asosida aniq yechimlarga kelish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish, milliy hisobchilik va xalqaro normalarga mos ishlanmalarni tuzib chiqish vazifalari turmoqda. Albatta, bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lamini jonlantirish maqsadida olimlar va amaliyotchilar o'rtasida konkurslar o'tkazishni yo'lga qo'yish va ularni rag'batlantirishning aniq shakllariga o'tish lozim.

1.9. Chet el firma va kompaniyalarida moliyaviy tahlil va uning O'zbekiston Respublikasidagi moliyaviy tahlil bilan muvofiqligi

Moliyaviy tahlilni uslubiy asoslarini taqqoslash yakunida shunday xulosaga kelish mumkin-ki xorijiy firma va kompaniyalar moliyaviy hisobotlari tahlili bilan O'zbekistonda amal qilinayotgan uslubiy asoslarda keskin farqlanishlar kuzatilmaydi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va ular asosida milliy standartlarni tuzilishidan ham shu zaruriyatni sezish mumkin.

Moliyaviy tahlildagi farqlanishlarni masalaga yondashuvning mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanishning darajasidan kelib chiqilishida, moliyaviy tahlilning uslubiy jihatlarida, axborot manbalarining rasmiy jihatlarini belgilanishida, moliyaviy holatni baholash va iqtisodiy nochorlikning belgilarini aniqlanish tartiblarida, shuningdek tahliliy ko'rsatkichlarning hisob-kitoblaridagi farqlanishlarida ko'rish mumkin.

G'arb mamalakatlari, AQShda moliyaviy holatni baholashda uch tarkibiy jihatga muhim ahamiyat beriladi.

– moliyaviy holatni tahlil etishga;

– iqtisodiy resurslarni, pul va pul ekvivalentlari shaklida oldingi faoliyat natijasi sifatidagi moliyaviy natijalari tahliliga;

– moliyaviy holatdagi o'zgarishlar tahliliga.

Ushbu jihatlar bizning amaliyotda ham kuzatiladi, lekin moliyaviy holatdagi o'zgarishlar ulardagi amaliyotdan keskin farq qiladi. Bu farqni balansning ayrim moddalariga nisbatan ustunlikning belgilanishi (asosiy vositalar, pul oqimlari, xususiy

kapital, majburiyatlarning tarkibiy tuzilishi va muddatligiga ahamiyat qaratilishi bilan) bilan izohlash mumkin.

1.34-jadval

Moliyaviy tahlilning axborotlar bazasi bo'yicha o'xshash jihatlar

Moliyaviy hisobotlarni tuzishni xalqaro standartlari (MHHS) bo'yicha	Rossiya moliyaviy hisobotlash tartibi bo'yicha	O'zbekistondagi moliyaviy hisobotlash tartibi bo'yicha
Buxgalteriya balansi	Buxgalteriya balansi	Buxgalteriya balansi
Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot	Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot
Kapital o'zgarishi to'g'risidagi hisobot	Kapital o'zgarishi to'g'risidagi hisobot	Asosiy vositlar harakati to'g'risidagi hisobot
Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot	Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot	O'z sarmoyasi to'g'risidagi hisobot
Hisob siyosati va tushuntirishlar	Buxgalteriya balansiga ilova	Pul oqimi to'g'risidagi hisobot
	Olingan mablag'larning maqsadli ishlatilishi haqida hisobot	Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotnoma
		Moliyaviy hisobotlarga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar

Shuningdek, moliyaviy tahlilning axborot manbalarini tarkiblanishida, yoki moliyaviy hisobotlarni tuzishning konseptual asoslarining belgilanishida ayrim farqli jihatlarni qayd etish lozim.

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari bo'yicha buxgalteriya balansi tuzilishida mablag'larning likvidlilik darajasiga ustunlik beriladi va balans aktivi aylanma aktivlar bilan boshlanadi.

O'zbekistondagi buxgalteriya balansida bu xususiyat teskari tomondan to'g'ri belgilangan. Ya'ni, buxgalteriya balansi qiyin likvid aktivlar, asosiy vositalar bilan boshlanib o'ta likvid aktivlar

pul mablag'lari bilan tugaydi. Shuningdek, majburiyatlar tarkibi jihatidan to'laroq ochib berilishiga ko'proq urg'u beriladi.

Moliyaviy tahlildagi farqli jihatlarni, shuningdek o'rganiladigan ko'rsatkichlar, ularni aniqlash uslubi, tartibi bilan ham izohlash mumkin.

Masalan, Rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlashda G'arb mamlakatlarida, aktivlarning jamiga nisbatan foydalilik darajasini baholash yagona mezon ko'rsatkichi sifatida qaraladi.

$$R=SF/A \qquad (1.3)$$

Bunda: SF-sof foyda,

A-aktivlarning o'rtacha yillik qiymati.

Ushbu ko'rsatkich milliy amaliyotda tahlil etuvchining qiziqishlariga ko'ra sotuv rentabelligi, xarajat rentabelligi, asosiy vositalar, oborot aktivlar, jami aktivlar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichlarini baholash bilan farqlanadi.

Xuddi shu kabi farqlanishni xo'jalik subyektlarining to'lovga qobilligini aniqlashda ham ko'rish mumkin. Xalqaro amaliyotda to'lov layoqatining yagona, umumiy ko'rsatkichi ya'ni, joriy aktivlarni va joriy majburiyatlarga nisbatlash orqali aniqlanadigan ko'rsatkich baholanadi.

Bizning amaliyotda ushbu ko'rsatkichning uchta muhim ko'rsatkichi, mutlaq (joriy), oraliq va umumiy ko'rsatkichlari baholanadi, shuningdek, likvidlilik ko'rsatkichlari ham hisobkitob qilinadi.

Moliyaviy tahlildagi muvofiqlikni ularning shaklan bir xilligi bilan emas balki tahlil mazmunining bir xilligi bilan izohlansa farqlanishlar yanada qisqaradi. Lekin bu jihatlar, moliyaviy tahlil bo'yicha xalqaro amaliyotga to'la o'tilgan deyishga asos bo'la olmaydi. Tahlildagi farqlanishlarni uning har bitta masalasiga turlicha yondashuvlarda ko'rish mumkin.

Xuddi shunday jihatlarni xo'jalik subyektlari iqtisodiy nochorligini belgilashdagi turlicha modellarga amal etilishida, ularning ko'rsatkichlar tizimining shakllanishida va aniqlanishida ko'rish mumkin.

Xorij amaliyotining muhim jihatlaridan biri BHHS asosida ish ko'ruvcha firma va kompaniyalarning ko'pligidir. Bu o'z navbatida, tuziladigan moliyaviy hisobot shakllarida ham

farqlanishlarni izohlaydi. Moliyaviy hisobotlar tuzish yuzasidan xalqaro standart talablari BHMS talablaridan ustun turishi albatta farqli jihatlarga olib kelishi tabiiy hol sanaladi.

1.35-jadval

To'lovga qobillik ko'rsatkichlari

Xalqaro amaliyot	**O'zbekistonda (MDH davlatlarida)**		
JA/JM	PM+Qmmq/JM	PM+Qmmq+Dm/JM	JA/JM
Ja-Likvid aktivlar (aylanma aktivlar+uzoq muddatli moliyaviy aktivlar) JM-joriy majburiyatlar	PM-pul mablag'lari Qmmq-qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	Dm-debitorlik majburiyatlari	JA-joriy aktivlar JM-joriy majburiyatlar

Xorij amaliyotida keng ommalashgan korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash tizimi bizning amaliyotga endigina shakllantirilmoqda.

Banklar o'rtasida reyting ko'rsatkichlarini e'lon qilish, ta'lim tizimi bo'yicha reyting ko'rsatkichlarini belgilanishi amaliyotiga endigina o'tilayotganligi sababli bu borada qilinadigan ishlar ko'lami hali ko'pligini, uning rasmiy jihatlarini belgilash lozimligini ta'kidlash zarur.

Moliyaviy holat tahlili yuzasidan eng muhim farqli jihatlarni korxonalarning bozor aktivligi ko'rsatkichlarini baholashda, investitsion loyihalarni baholashda, mijozlarning kreditga qodirligini baholashda va boshqa jihatlarda ham ko'rib o'tish mumkin.

GLOSSARIY

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi – inqirozning turli sabablar tufayli bir davlat doirasidan chiqib tahlikali tarzda dunyo bo'yicha yoyilishi. 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy

inqirozining asosiy jihatlari retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofatlarning sodir bo'lishi bilan izohlanadi.

Inqiroz ko'lami, doirasi va oqibatlari – har qaysi davlatning moliya-valuta tizimi nechog'lik mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada — mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq.

Moliyaviy tahlilning zaruriyati – moliyaviy hisobotlarda aks etgan ma'lumotlar bazasiga tayangan holda korxonaning muayyan sanaga bo'lgan holatiga baho berish orqali mavjud holat va uni istiqboldagi kutilishini maqsadli boshqarish yuzasidan boshqaruvchilarga axborotlar bazasini shakllantirib berishdagi sa'y harakatlar tashkil etadi.

Moliyaviy holatni bilish – biznesning ko'lamdorligiga, faoliyat samarasi va natijaviyligiga, aktivlar va ularning manbalanishidagi real holatga, subyektlarning bozordagi va ishdagi aktivlik darajasiga, mablag'lar aylanuvchanligi, to'lovga qobillik va qodirlik darajasiga, salohiyat darajasiga baho berish usuli.

Axborotlarni o'qish – metodik asosga tayangan va tartibli qoidalarga amal etgan holda manbalarni tasnifiy bayonlash

Iqtisodiy tashxis qo'yish – xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyoridagi iqtisodiy resurslarni, ularning moliyaviy tuzilmasini, likvidligi va to'lovga qobilligini, moliyaviy barqarorligini, daromad va xarajatlarini, pul oqimlarini o'rganish orqali mavjud holatga va ularning kutilishiga baho berishda tahlilning rasmiy yakuni.

Moliyaviy tahlil – moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga hamda ularning yaqin kelajakdagi kutilishlariga baho berish yuzasidan o'tkaziladigan tahlildir.

Boshqaruv tahlili – xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi iqtisodiy jarayonlar, ularning samaradorligini va ularning yaqin kelajakdagi kutilishini ichki ma'lumotlar bazasiga tayangan holda aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish yuzasidan o'tkaziladigan tahlildir.

Korxonaning moliyaviy holati-deganda korxonalarning aktivlari, kapitali va majburiyatlarini tarkibiy tuzilishi, to'lovga qobillik va likvidlilik, daromad va xarajatlarini baholash, pul oqimi va moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlarning muhim jihatlari majmuasi tushuniladi.

Moliyaviy tahlil mazmuni – xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini muayyan davriylikda, axborotlar oqimini uzluksiz jarayonida joriy va istiqbolli taktik boshqarishning zaruriy asosiga ega bo'lgan qarorlarni tayyorlashga imkon beruvchi analitik jarayonlarni tashkil etish va o'tkazishdan iborat.

Moliyaviy tahlil subyektlari – tahlilning kimlar tomonidan o'tkazilishi. Ichki moliyaviy tahlil subyektlariga shu korxonaning xodimlar tarkibida turuvchi xizmatchilar, tashqi tahlil subyektlariga (ta'sischilar, soliq organlari xodimlari, auditorlar, yuqori tashkilot va vazirliklar, xaridor va buyurtmachilar, mol yetkazib beruvchilar, sug'urta agentliklari, reklama agentlari, bank xodimlari va boshqa shaxslar) kirishi mumkin.

Tahlil subyektlarining manfaatlari – deganda ularning tahlil o'tkazishda nazarda tutiladigan qiziqishlari tushuniladi. Masalan mulk egalari va ta'sischilar-ko'proq firma va kompaniyalarning foydasi bilan, kredit inspektorlari va bank xodimlari-firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligi va moliyaviy barqarorligi bilan, mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar – xo'jalik subyektining to'lov layoqatini o'rganishdan, tahlil etishdan manfaatdorlar va.h.k.

Moliyaviy hisobot – foydalanuvchilar keng doirasining axborotlarga bo'lgan talablarini qondirish uchun tuziladi va vaqti-vaqti bilan taqdim etiladigan manbalarni o'z ichiga oladi Moliyaviy hisobotlar va ularga beriladigan izohlar, mo'ljallar va tushuntirishlar moliyaviy hisobotni tarkibiy qismi hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlar – moliyaviy hisobotning alohida tarkibiy qismi bo'lib BHMS asosida tuziladi va ularga berilgan izohlar, qo'shimchalar, ma'lumotnomalar bilan to'ldiriladi.

Moliyaviy hisobotlarni maqsadi – alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati moliyaviy holati, natijalari va pul oqimlari to'g'risida axborot foydalanuvchilarining erkin iqtisodiy qarorlari yuzasidan moliyaviy ahvol va uning kutilishi yuzasidan ma'lumotlar bazasi bilan ta'minlashdan iboratdir.

Moliviy hisobot axborotligi deganda – investitsiya qarorlarini qabul qilish, kredit va qarz mablag'larini jalb etish, xo'jalik subektining bo'lg'usi pul oqimiga baho berish, xo'jalik subyektining tasarrufida bo'lgan resurslardan foydalanish holatiga va ularning majburiyatlarini qoplash yuzasidan joylashtirilishiga, yaqin kelajakdagi kutilishiga baho berish, xo'jalik subyektining boshqaruv apparati ishining natijaviyligiga baho berishning axborotlarini mazmunli aks ettirilishi tushuniladi.

Moliyaviy hisobotlash yuzasidan xarajatlar – deganda ularni tuzish va topshirish (tuzishga va taqdim etish yuzasidan sarflangan vaqtlarga xodimlarga haq to'lash, tuzish va taqdim etishni yuazsidan normativ hujjatlarni sotib olish va o'rganishga ketadigan xarajatlar, moliyaviy hisobotlar va ularga izohlar, qaydlar va tushuntirishlarni chop etish va ko'patirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va boshqa xarajatlar) yuzasidan keladigan sarflar tushuniladi.

Moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar – jadvallar shaklida yoki boshqacha tarzda beriladigan qo'shimcha axborot manbasi hsioblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni «o'qish» – deganda moliyaviy hisobotni manzilli o'rganish va tavsiflash tartibi tushuniladi.

Gorizontal tahlil – moliyaviy hisobot elementlari va ularning moddalarini mutlaq va nisbiy farqlash asosida o'rganish usulidir.

Vertikal tahlil – mablag'lar va ularning tashkil topish manbalarini, daromad va xarajatlarni, moliyaviy hisobotlarning boshqa elementlarini tarkibiy (jamida tutgan ulushi bo'yicha) o'rganish usulidir.

Trend tahlili – asos ko'rsatkichiga nisbatan dinamik o'rganish usulidir.

Qiyosiy tahlil (taqqoslama) tahlil – bir hisobot davri ma'lumotlarini boshqa hisobot davrining ma'lumotlari bilan, shuningdek boshqa subyektlar ma'lumotlari, normativ meyorlar, o'rtacha ko'rsatkichlar va boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan o'rganish usuli.

Moliyaviy koeffitsiyentlar – tahlili bir yoki bir nechta moliyaviy hisobotlar elementlari va moddalarini o'zaro nisbatlash asosida aniqlanadigan ko'rsatkichlar asosida baholash usulidir.

Omilli tahlil – natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birliklarni va hisob-kitob qilish mumkin bo'lgan birliklarda aniqlash usulidir.

Elektron hisobot – barcha turdagi hisobotlarni (buxgalteriya, soliq, statisktika) elektron shaklda tuzish va jo'natishning zamonaviy shakli.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Moliyaviy tahlilning zarurligi va muhimligi nimada?
2. Moliyaviy tahlilning fan sifatida shakllanishining tarixiy jarayoni haqida nimalar deya olasiz?
3. Iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismlarini tushuntiring?
4. Boshqaruv tahlili maqsadi, mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?
5. Moliyaviy tahlil maqsadi, mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?
6. Moliyaviy va boshqaruv tahlilini farqlashning belgilari va ularning asosiy jihatlari nimada?
7. Moliyaviy va boshqaruv tahlil obyektlariga nimalar kiradi?
8. Moliyaviy va boshqaruv tahlillidagi uzviy bog'liqlikni tushuntiring?
9. Moliyaviy tahlilni uslubiy asoslariga nimalar kiradi?
10. Moliyaviy hisobot shakllaridagi ma'lumot manbalariga qo'yiladigan betaraflik qoidasi mazmunini tushuntiring?

11. Moliyaviy tahlil natijalarini umumlashtirilishi qanday amalga oshiriladi?

12. Moliyaviy tahlilni oshkoralik va boshqaruv tahlilida sir saqlanish qoidalari mazmunini tushuntiring?

13. Moliyaviy tahlilni nazariy, uslubiy, huquqiy manbalarini takomillashtirishning zaruriyatini tushuntirib bering?

14. Moliyaviy tahlil tamoyillarini izohlab bering?

15. Moliyaviy tahlil bilan moliyaviy menejmentni farqlang?

16. Moliyaviy tahlil usullariga qaysi usullar kiritiladi va ularni tasniflang?

17. Gorizontal tahlil qanday tahlil?

18. Vertikal tahlil qanday amalga oshiraladi?

19. Gorizontal va vertikal tahlilning bir butunligini tushuntiring?

20. Trend tahlili qanday tahlil?

21. Taqqoslash usuli mohiyatini tushuntiring?

22. Omilli tahlilning muhimligi, zaruriyati nimada?

23. Omilli tahlilni amalga oshirish nima uchun ahamiyatli hisoblanadi?

24. Koeffitsiyentlar va ularning moliyaviy holatga baho berishdagi ahamiyati nimada?

25. Moliyaviy tahlil usullarini takomillashtirish zaruriyati nimada?

26. Moliyaviy tahlil subyektlariga kimlar kiritiladi?

27. Moliyaviy tahlil subyektlari manfaatlari nimaga qaratiladi va ular qanday farqlanadi?

28. Moliyaviy tahlil subyektlarining manfaatlari to'qnashuvi deganda nimani tushunasiz?

29. Moliyaviy tahlil tashkil etilishining qaysi jihatlarini farqlash mumkin?

30. Moliyaviy tahlilning rasmiy va norasmiy jihatlari deganda nimalar nazarda tutilmoqda?

31. Moliyaviy hisobotlarni axborotligi deganda nimani tushunasiz va bunga qanday erishish mumkin?

32. Moliyaviy hisobotlash yuzasidan xarajatlar deganda qanday xarajatlar nazarda tutilmoqda?

33. Moliyaviy va boshqa hisobotlarni tuzishda qanday ijobiy siljishlarni ayta olasiz?

34. Moliyaviy hisobotlar va boshqa hisobot shakllarini tuzish va taqdim etishning amaldagi tartibida qanday kamchiliklarni kuzatish mumkin?

35. Moliyaviy tahlilning xalqaro amaliyoti yuzasidan qanday jihatlarni aytish mumkin?

36. Moliyaviy tahlil va uni xalqaro muvofiqligini ta'minlashdagi muammolar nimada?

37. Moliyaviy hisobot elementlariga nimalar kiradi va ularni aks ettirish tamoyillarini tushuntiring?

II bob. BUXGALTERIYA BALANSINI GORIZONTAL, VERTIKAL VA TREND TAHLILI

2.1. Buxgalteriya balansi, uning tarkibiy tuzilishi

Buxgalteriya balansi ma'lum sanaga korxonaning aktivlari, kapitali va majburiyatlarini holati haqida axborot beruvchi hisobot shaklidir.

«Balans» atamasi lotincha bis ikki marta, banx – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, ikkala palla degan ma'noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansini turli tasnifiy belgilari (tuzilish vaqti, axborot hajmi, aks ettirish obyekti, tozalash usuli) bo'yicha turlarini tarkiblash mumkin (2.1-jadval).

2.1-jadval

Buxgalteriya balansi turlari

Buxgalteriya balansi tuzilish vaqtiga ko'ra				
Tashkil topish balansi	**Joriy balanslar**	**Tugatish balansi**	**Bo'lish balansi**	**Birlashtirish balansi**
Korxona-ning tashkil topish vaqtida tuziladi.	Korxonaning uzluksiz faoliyatida, qonunda belgilangan muddatlarda tuziladi	Korxona tugatil-ganda tuziladi	Yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo'linish vaqtida.	Bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda tuziladi.
Axborot hajmi bo'yicha balanslar				
Bir martalik		**Yig'ma balans**		
Bir martalik balans faqat bitta korxona bo'yicha joriy hisob asosida tuziladi.		Yig'ma balans bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar (vazirliklar, qo'mita va boshqarmalar va shu kabilar)ning xo'jalik mablag'larini aks ettiradi.		

Aks ettirish obyektiga ko'ra	
Mustaqil balans	**Alohida balans**
Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo'lgan barcha korxonalar tuzadi.	Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo'linmalari (filiallar, bo'limlar, sho'ba hamda qaram xo'jaliklar va shu kabilar) tuzadi.
Aks ettirish obyektiga ko'ra	
Balans-brutto	**Balans-netto**
Tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir	Balansning umumiy qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uzluksiz faoliyatida iqtisodiy resurslar harakatga keltiriladi va ularning tuzilishi doimo o'zgarib turadi.

Ushbu o'zgarishlarni buxgalteriya balansida to'rtta jihatini harakaterlash lozim.

Birinchi jihat o'zgarish aktiv va passiv tomonning o'sishini xarakterlaydi, ikkinchi jihat o'zgarishlar har ikki tomoning kamayishini, uchinchi jihat o'zgarishlar faqat aktiv tomonning o'zgarishini, to'rtinchi jihat o'zgarishlar faqat passiv tomonning o'zgarishlarini xarakterlaydi.

2.2-jadval

Buxgalteriya balansidagi o'zgarishlar

Balansdagi o'zgarishlar			
A+X1=P+X1	A-X2=P-X2	A+X3-X4=P	A=P+X4-X4
Aktiv tomon ham passiv tomon ham ortadi	Aktiv tomon ham passiv tomon ham kamayadi	Ko'payish va kamayish aktiv tomonda kuzatiladi	Ko'payish va kamayish passiv tomonda kuzatiladi
Balans summasi ortadi	Balans summasi kamayadi	Balans summasi o'zgarmaydi	Balans summasi o'zgarmaydi

Buxgalter balansini moliyaviy tahlilga tayyorlash yuzasidan uning elementlari va moddalarini turli tasnifiy belgilari bo'yicha ko'rsatkichlar tizimiga jamlash talab etiladi. Bu tasnifiy belgilar ularning shakli, aylanuvchanlik darajasi, likvidligi bo'lishi mumkin.

2.3-jadval

Buxgalteriya balansi aktiv tomoni klassifikatsiyasi

Aktivlar (A)			
Uzoq muddatli aktivlar (UMA)		Joriy aktivlar (JA)	
Moliyaviy bo'lmagan uzoq muddatli aktivlar (MBUMA)	Moliyaviy uzoq muddatli aktivlar (MUMA)	Moliyaviy bo'lmagan joriy aktivlar (MBJA)	Moliyaviy joriy aktivlar (MJA)
Pul ko'rinishida bo'lmagan aktivlar (PKBM)			Pul ko'rinishidagi aktivlar (PKM)
Qiyin sotiladigan aktivlar (QSA)	Likvid aktivlar (LA)		

2.4-jadval

Buxgalteriya balansi passiv tomoni klassifikatsiyasi

Passiv (P)			
O'z mablag'lari manbayi (UMM)	Majburiyatlar (M)		
Xususiy kapital	Uzoq muddatli kredit va qarzlar (UM)	Qisqa muddatli kredit va qarzlar(KM)	Kreditorlik majburiyati(K)
Doimiy passivlar (DP)	Majburiyatdagi passivlar (MP)		

Balansdagi ifodalar:

Umumiy ifodalar	
A=P	(2.1)
UMA+JA= O'MM+M	(2.2)
MBUMA+MUMA+MBJA+MJA=O'MM+UM+QM+K	(2.3)
PKBA+PKA=DP+MP	(2.4)
Birlik ifodalar	
UMA=MBUMA+MUMA	(2.5)
JA=MBJA+MJA	(2.6)
PKBA=MBUMA+MUMA+MBJA	(2.7)
LA=MUMA+MBJA+MJA	(2.8)

Moliyaviy bo'lmagan uzoq muddatli aktivlar asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o'rnatiladigan uskunalar, kapital qo'yilmalarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy uzoq muddatli aktivlarga uzoq muddatli investitsiyalar kiritiladi.

Moliyaviy bo'lmagan joriy aktivlarga ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, tovarlar, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlari va debitorlik majburiyatlari kiradi.

Moliyaviy joriy aktivlarga pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar kiradi

2.5-jadval

Aktivlarning turli shakllari o'rtasidagi aloqadorlik

Aktivlar shakli	Moliyaviy bo'lmagan aktivlar	Moliyaviy avktivlar	Jami aktivlar
Uzoq muddatli aktivlar	MBUMA	MUMA	UMA
Joriy aktivlar	MBJA	MJA	JA
Jami aktivlar	MBA	MA	A

2.6-jadval

Aktivlarni mazmuni bo'yicha tarkiblanishi

Aktivlarni manbalashning mazmuni		
Xususiy (XK)*	Qarzga olingan (QK)	
	Tashqi qarz (TQ)**	Ichki qarz (IQ)***
*-O'z mablag'lari manbasi	**-Uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar, kreditorlik majburiyatlarning tashqi qismi	***-Kreditorlik majburiyatlarini ichki qismi

Xususiy kapital o'z ichiga ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali taqsimlanmagan foyda va o'z mablag'lari manbayining boshqa tarkiblarini (maqsadli tushumlar, kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari zaxirasi) oladi.

Tashqi qarz bank kreditlari va qarzlarini, olingan avans to'lovlarini, kreditorlik majburiyatlarining mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qismini o'z ichiga oladi.

Ichki qarz korxonaning mehnat haqidan, soliqlar, to'lovlar va yig'imlar bo'yicha qarzidan, jalb qilingan qarz mablag'lari yuzasidan foizlar, aksionerlarga e'lon qilingan dividendlar bo'yicha majburiyatlardan iborat bo'ladi.

2.7-jadval

Buxgalteriya balansini mulkiy egaligi bo'yicha tuzilishi

	O'ziga tegishli mulk	**Qarzga olingan mulk**	**Jami**
Pul ko'rinishida bo'lmagan mulk (PKB)=MBUMA+ MUMA+ MBJA	XK (PKB)	QK(PKB)	PKB
Pul ko'rinishidagi mulk(PK)=MJA	XK(PK)	QK(PK)	PK
Jami mulk	XK	QK	A

2.8-jadval

Buxgalteriya balansini tuzilishidagi dinamik o'zgarishlar

	Davr boshiga debet qoldiq	Xususiy mulk	Qarzga olingan mulk	Davr oxiriga debet qoldiq	O'sish darajasi
Davr boshiga kredit qoldig'i	Ab	XKb	QKb	-	-
Pul shaklida bo'lmagan mulk (PShBM)	PShBMb	^XK (PKB)	^QK (PKB)	PShBMo	^PShBM
Pul shaklidagi mulk (PShM)	PShMb	^XK(PK)	^QK (PK)	PShMo	^PShM
Davr oxiriga kredit qoldig'i	-	XKo	QKo	Ao	-
O'sish darajasi	-	^XK	^QK	-	^A

Moliyaviy hisobotlar tarkibida buxgalteriya balansi markaziy o'rinda turadi va undagi ko'rsatkichlarni tahlil etish va baholash orqali xo'jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvolidan voqif bo'linadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy ahvolidagi o'zgarishlar albatta mulkiy va moliyaviy munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Odatda, moliyaviy munosabatlarning klassik formulasi sifatida quyidagi bog'lanishdan foydalaniladi.

Pul1 => Tovar1 => Pul2* => Tovar2* => Pul3*... (2.9)

*sikl natijasidagi yutuq: Pul1<Pul2<P3<.....

Ushbu formulani iqtisodiy jarayonlarga nisbatan rasmiylashtirsak quyidagi ko'rinishga keladi.

PM=>R=>ICh=>TF=>XK=>PM*... (2.10)

Bunda PM-pul mablag'lari
PM*-sikl natijasidagi yutuq:
PM < PM*<PM**<PM***<.....
R-resurslar;
ICh-ishlab chiqarish;
TF-tijorat faoliyati;
XK-hisob-kitoblar;

Korxona aktivlari, xususiy kapital (sarmoya) va majburiyatlar buxgalteriya balansining elementlari hisoblanadi.

2.9-jadval

Buxgalteriya balansi elementlari va ularning tasnifiy belgilari

Buxgalteriya balansi elementlari	**Tavsifi**	**Tarkibiy tuzilishi**
Aktivlar	Subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir	**Uzoq muddatli aktivlar:**
		-Asosiy vositalar:
		-Nomoddiy aktivlar;
		-Uzoq muddatli investitsiyalar;
		-O'rnatiladigan asbob-uskunalar;
		-Kapital qo'yilmalar.
		Joriy aktivlar:
		-Tovar moddiy zaxiralar;

		-Debitorlar;
		-Pul mablag'lari;
		-Qisqa muddatli investitsiyalar.
Xususiy kapital (sarmoya)	Subyektning majburiyatlarini chegirib tashlagandan keyingi aktivlardir	**O'z mablag'lari manbasi:**
		Ustav kapitali;
		Qo'shilgan kapital;
		Zaxira kapitali;
		Taqsimlanmagan foyda.
		Maqsadli tushumlar
		Kelguzi davr to'lovlar zaxirasi
Majburiyatlar	Shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirishi, masalan mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yohud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir	Uzoq muddatli majburiyatlar
		Joriy majburiyatlar

Korxona aktivlari va majburiyatlarini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich qiymat. Aktivlar sotib olish vaqtida erishilgan tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra belgilangan joriy qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni bajargunga qadar to'lanadigan pul mablag'lari summasi bo'yicha majburiyatlarga almashib olingan mablag'lar summasida aks ettiriladi.

Joriy qiymat. Aktivlar ana shu yoki shunga o'xshash aktiv endigina sotib olingan bo'lgandagi holatda to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari summasi bo'yicha hisobotda aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni to'lash uchun talab

etiladigan pul mablag'larining diskontlanmagan summasida aks ettiriladi.

Sotish qiymati. Aktivlar sotishdan olinishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari summasi bo'yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar ularni to'lash qiymati bo'yicha aks ettiriladi, bunday qiymat esa majburiyatlarni to'lash uchun talab etiladigan pul mablag'larining diskontlanmagan summasidir.

Diskontlangan qiymat. Aktivlar xo'jalik yurituvchi subyektning oldingi faoliyati davomida aktivlarni ko'paytirishi lozim bo'lgan bo'lg'usi pul mablag'lari tushumining diskontlangan qiymati bo'lgan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi.

Majburiyatlar kelgusida o'tkaziladigan pul mablag'larining diskontlangan qiymatidan iborat bo'lgan, xo'jalik yurituvchi subyektning oddiy faoliyati davomida majburiyatlarni to'lash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi.

Balans qiymati – hisobot sanasida buxgalteriya balansida aktivlar va majburiyatlarni aks ettirish qiymatidir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda boshlang'ich qiymatni baholash uchun asos qilib oladilar. Undan odatda baholashning boshqa asosiy tushunchalari bilan birgalikda foydalaniladi.

2.2. Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil qilish orqali moliyaviy holatga baho berishni mazmuni

Moliyaviy hisobotni va uning shakllarini «o'qish»ga olimlar tomonidan turlicha tavsiflar beriladi.

«Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari»,[20] deb nomlangan yoki «Как считать баланс»[21] deb nomlangan o'quv adabiyotlaridan ham ko'rish mumkinki, o'qish so'zi juda keng ma'noli tushuncha. Balansni qanday o'qish mumkin, moliyaviy hisobotni o'qish orqali nimalar o'rganiladi, o'qish, tahlil usulimi, tahlil o'qishning usulimi bu kabi savollarga javob topish yuzasidan uning lug'aviy ma'nosini tushunib olish lozim. O'qish

[20] Абдукаримов И Т «Молиявий ҳисоботни ўқиш ва таҳлил қилиш йўллари» Т.. Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й

[21] Патров В В , Ковалев В В Как читать баланс М Финансы и статистика, 1993 г

deganda adabiy tilda matnni o'qish va tovushlarda ifoda etish tushuniladi. Moliyaviy hisobotda esa bu yondashuv biroz murakkablashadi. Moliyaviy hisobotda matn yo'q, unda faqat ko'rsatkichlar, qatorlar va ularga tegishli raqamlar mavjud .

«O'qish» so'zi moliyaviy hisobotlar va ularning shakllariga nisbatan ishlatishning mohiyati shundaki, ushbu hisobotlar faqat raqamlar ifodasidagi ko'rsatkichlarni tartibli joylashtirishdan iborat matnga o'xshaydi. Matnni o'qish mumkin faqat undagi raqamlar nimani ifoda etishini bilgan holdagina. Sodda qilib aytganda korxona moliyaviy ahvolini moliyaviy hisobot shakllarida raqamlarda yashiringan so'zlar orqali bilib olishni xarakterlaydi.

Moliyaviy hisobotni «o'qish»ni mazmunini nima tashkil etadi. Bizningcha moliyaviy hisobotni o'qish deganda ko'rsatkichlarni arifmetik hisob-kitoblarsiz uni mantiqiy tavsiflash tushuniladi.

«Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari», deb nomlangan o'quv adabiyotida ham «Как считать баланс» o'quv adabiyotida ham kitobning nomlanishida o'qish so'ziga urg'u berilgani bilan uning ichida «o'qish»ga tasnifiy jihatdan izoh berilmaydi.

Moliyaviy hisobotni tahlil etish deganda – korxonaning muayyan sanaga bo'lgan moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar haqidagi axborotlarni analitik qayta ishlash jarayonlar tizimi tushuniladi.

Yuqoridagi manbalarda keltirilishicha buxgalteriya balansini o'qish va tahlil etish mazmunini quyidagilar tashkil etadi.

– korxonaning mulki, kapitali va majburiyatlarini baholash;

– kompaniya va firmalar to'lovga qobilligi va likvidlilik ko'rsatkichlarini aniqlash;

– korxonaning iqtisodi va moliyaviy salohiyati, uning samaradorligini baholash;

– korxonaning moliyaviy barqarorligi, bozor va ish aktivligi ko'rsatkichlarini baholash;

– korxonaning iqtisodiy nochorligi va uni sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash;

– korxonaning moliyaviy ahvoli va uni yaxshilash yuzasidan muhim takliflar hozirlashni tashkil etadi.

Bu bilan buxgalteriya balansini «o'qish» , tahlil etish bilan bir qatorga qo'yilmoqda. Ya'ni, turli nomlanishdagi bir xil jihatlarni xarakterlovchi so'zga aylanib qolgan. Yuqoridagi tarkiblashda o'qish va tahlil qilish kabi so'zlarning ishlatilishida ularni bir mazmunda qarash ustunlik qiladi.

Buxgalteriya balansi asosida o'rganiladigan masalalar ko'lami nihoyatda kengki, ularni barcha adabiyotlarda bir xilda berilgan deyish qiyin. Masalan ayrim manbalarda korxona mablag'larini harakatchanligi va aylanuvchanligi, ish aktivligi, moliyaviy barqarorligi buxgalteriya balansini tahlili mavzusida berilgan holda (A.Vahobov, A.Ibroximov, N.Ishonqulov «Moliyaviy va boshqaruv tahlili»[1]) boshqa manbalarda ushbu o'rganiladigan savollar alohida mavzu sifatida beriladi (Akramov E. «Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya»[2] kitobi yoki Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari»[3], shuningdek, Pardaev M.K. «Moliyaviy tahlil»[4], «Iqtisodiy tahlil» adabiyotlarida esa mavzular yanada bulaklanadi)

Moliyaviy hisobotni o'qishda, bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi hisobot shakllaridagi ma'lumotlarning o'zaro mosligiga ham ahamiyat qaratiladi. Masalan buxgalteriya balansida ayrim qatorlar boshqa moliyaviy hisobot shaklining tegishli qatorlari bilan mos kelishi lozim. Bu jihat moslikni, buxgalteriya balansining asosiy vositalar moddasini, asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot shakli ma'lumotlariga mosligida, pul mablag'lari to'g'risidagi qatorini pul oqimi to'g'risidagi hisobot shaklining tegishli qatorlariga mosligida, xususiy kapital to'g'risidagi moddalarini xususiy kapital to'g'risidagi shaklning tegishli qatorlariga mosligida ko'rish mumkin.

Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil etish orqali korxona moliyaviy holatiga baho berishda o'rganiladigan masalalar kengligi sababli ularni bir tizimga solib olish talab qilinadi.

---

[1] Вахобов А , Ибрагимов А.Н Ишонкулов Молиявий ва бошкарув таҳлили Т.: Шарқ 2005 й.

[2] Акрамов Э. Анализ финансового состояния предприятия. Т :ГНИТИ, ГАНТ, 2003 г

[3] Абдукаримов И.Т. «Молиявий ҳисоботни ўқиш ва таҳлил қилиш йўллари» Т Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й.

[4] Пардаев М.Қ., Исроилов Б Молиявий таҳлил Т . Иқтисод иёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й 15-бет

Bu holatni quyidagi o'rganiladigan mavzular bo'yicha tuzib chiqish mumkin.

Ushbu mavzular bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi qolgan hisobot shakllari asosida o'rganiladigan mavzular bilan to'ldiriladi va yakunida moliyaviy holatga to'liq baho beriladi.

Buxgalteriya balansini o'qish yuzasidan balans tuzuvchi korxonaga, uning mulkiy shakliga, faoliyat turiga, balans tuzilgan davriylikka, balans o'lchovi va korxona yuridik manziliga tavsif berish birinchi bosqichda bajarilagan ishlar ketma ketligini xarakterlaydi.

2.10-jadval

Korxona moliyaviy holatini ifoda etuvchi birliklar

<table>
<tr><td colspan="5">Buxgalteriya balansi tahlili</td></tr>
<tr><td colspan="2">1. Aktivlar tarkibi tuzilishi va dinamikasi tahlili</td><td colspan="3">2. Passivlar tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili</td></tr>
<tr><td>3. To'lov layoqati tahlili</td><td>4. Likvid-lilik tahlili</td><td>5. Moliyaviy barqarorlik tahlili</td><td>6. Kreditga qodirlik tahlili</td><td>7. Moliyaviy va iqtisodiy salohiyat tahlili</td></tr>
<tr><td colspan="5">Buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar hamda bir xil jihatning boshqa tomonlarini aks ettiruvchi hisobotlar asosida o'rganiluvchi mavzular</td></tr>
<tr><td>8. Bozor aktivligini tahlili</td><td>9. Ish ak-tivligini tahlili</td><td>10. Moliyaviy holatni bashoratlash</td><td>11. Majburiyat-lar tahlili</td><td>12. Iqtisodiy nochorlik tahlili...</td></tr>
<tr><td colspan="5">13. Reyting baholash</td></tr>
</table>

O'qishning keyingi bosqichida korxonaning jami aktivlari va ularning tashkil topish manbalariga, korxonada aktivlarning asosiy kapitalga va joriy kapitalga yo'naltirilgan qismiga, mablag'lar manbasida qaysi manba turining (o'z va qarz) ustunligiga, moliyaviy faoliyat natijasi va uning qaysi shakllarda (pullik va pulsiz ko'rinishlarda) mavjudligiga, asosiy va nomoddiy aktivlarning holatiga, majburiyatlar va ularning nisbatiga, pul mablag'lari va ularning qo'proq qaysi shaklda turganligiga ahamiyat beriladi.

2.11-jadval

Buxgalteriya balansi aktivi passivini o'qish

Mol-mulk tarkibi	**Yil boshiga**	**Yil oxiriga**	Mablag'lar manbasi	**Yil boshiga**	**Yil oxiriga**
Uzoq muddatli aktivlar	30 091 481	28 121 979	O'zlik mablag'lari manbalari	39 599 947	40 863 356
Joriy aktivlar	73 711 147	101 200 268	Majburiyatlar	64 202 681	88 458 891
Shu jumladan:			Shu jumladan:		
Zaxira va xarajatlar (140+190+200)	49 294 661	42 807 962	Uzoq muddatli kredit va qarzlar (570+580+590)	517 465	178 714
Debitorlik majburiyatlari (210+310)	20 511 076	53 776 535	Qisqa muddatli kredit va qarzlar (730+740)	17 328 092	9 160 674
Pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar(320+370+380)	3 905 410	4 615 771	Kreditorlik qarzlari	46 357 124	79 119 503
Balans aktivining JAMI:	103 802 628	129 322 247	**Balans passivining JAMI:**	103 802 628	129 322 247

Korxonada jami aktivlar summasi yil boshida 103802628 so'mni tashkil etgan va shundan uzoq muddatli aktivlar summasi 30091481 so'mni, joriy aktivlar so'masi esa 73711147 so'mni tashkil etgan. Joriy aktivlar tarkibida zaxira va xarajatlar davr boshida 49294661 davr oxirida 42807962 so'mni tashkil etgan biroz kamaygan, pul mablag'lari davr boshida 3905410 so'mni davr oxirida esa 4615771 so'mni, debitorlik majburiyatlari davr boshida 20511076 so'mni, davr oxirida 53776535 so'mni tashkil etgan.

Aktivlarning manbalash yuzasidan korxona passivlari quyidagi tarkibda shakllangan. Davr boshiga 39599947 o'zlik

mablag'lari manbasiga va 64 202 681 so'm majburiyatlarga, davr oxiriga kelib esa 129322247 so'm o'zlik mablag'lari manbasiga va 40863356 so'm majburiyatlar so'mmasiga ega bo'lingan

2.3. Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili

Buxgalteriya balansini gorizontal (bo'ylamasiga) va vertikal (yonlamasiga) tahlili bo'yicha olimlar tomonidan turlicha qarashlarni mavjudligi o'quvchini albatta e'tiborini tortadi. Masalan; prof. M.K. Pardayev o'zining «Moliyaviy tahlil» o'quv qo'llanmasida moliyaviy tahlilning asosiy shakllari sifatida gorizontal, vertikal, dinamik, makon, nisbiy ko'rsatkichlar, omilli tahlilni keltirgan holda, shu yerda gorizontal va vertikal tahlilga izoh beradi.

«**Gorizontal tahlil** – hisobot davrini o'tgan yil ko'rsatkichlari bilan solishtirish»[27]tahlilidir.

Vertikal tahlil – tahlil qilinayotgan obyektni barcha qismlari bo'yicha o'rganish»[28] tarkibiy tahlil deb ataladi.

Boshqa bir manbada gorizontal tahlil- moliyaviy holat tahlilida ko'rsatkichlarni davriy va dinamik o'zgarishlarini aniqlashni nazarda tutadi. (N.P.Lyubishin, N.E.Babicheva «Финансовый анализ» M.: Ekspo-2010, 41 bet)

Vertikal tahlil tarkibiy tahlil asosi hisoblanib, moliyaviy va boshqa hisobotlar, analitik jadvallarga ko'rsatkichlarni tarkiblashni, tahlil etiladigan davrlar bo'yicha dinamik o'zgarishlarini xarakterlaydi. Masalan balansning alohida qatorlarining balans jamida tutgan ulushini aniqlash tartibi vertikal tahlilga misol bo'ladi. (N.P.Lyubishin, N.E.Babicheva « Финансовый анализ» M.: Ekspo-2010, 43-44 bet)

Professor V.Pozdnyakovning fikricha gorizontal tahlil deganda bazaviy ko'rsatkichlar (o'tgan yil, o'rtacha) nisbatan mutlaq va nisbiy o'zgarishlarini aniqlash nazarda tutiladi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, gorizontal tahlil solishtirish, taqqoslash usulining o'zidan iborat bo'lib qolmoqda.

---

[27] Пардаев М.Қ., Исроилов Б. Молиявий таҳлил. Т.: Иқтисод иёт ва ҳуқуқ дунеси, 1999 й., 15-бет

[28] Пардаев М.Қ., Исроилов Б. Молиявий таҳлил. Т.: Иқтисод иёт ва ҳуқуқ дунеси, 1999 й., 15-бет

Bizningcha, moliyaviy hisobotni gorizontal tahlili deganda-moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini mutlaq va nisbiy ifodalarda, hisobot davri boshiga yoki o'tgan yilga nisbatan qiyosiy o'rganishga aytiladi.

Vertikal tahlil deganda – moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini mutlaq va nisbiy ifodalarda tarkibiy o'rganishga aytiladi.

Tahlilda har ikkala usul eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Ushbu usullar orqali kompaniya va firmalarni mulki, kapitali, majburiyatlarini umumiy va tarkibiy o'zgarishlariga baho beriladi. Umumiy o'zgarishlar buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida olinsa, tarkibiy o'zgarishlar bugalteriya yoki moliyaviy hisobotga «tushuntirish xati» da beriladi.

Gorizontal va vertikal tahlilni fanga olib kirgan shaxsning nomini aniq keltirish qiyin. Negaki bu usul matematik ifodani iqtisodiyotda qo'llash bilan fanga kirib kelgan. Uning ilk iboralarini tahlilchilar Sheremet A.D., Sayfulin R.S[29]., Kavalev V.V., Abdukarimov I.T.[30], Pardaev M.Q., Isroilov B[31]., Vaxobov A., Ibragimov A.T[32]. E.Akramov, M.Raximov asarlarida uchratish mumkin.

Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili yuzasidan prof. i.f.d. E Akramov o'zining «Анализ финансового состояния предприятия»[33] kitobida gorizontal va vertikal tahlil yuzasidan prof. M.Q. Pardayev tomonidan bildirilgan fikrni to'la takrorlaydi.[34] Faqat toqqoslash bazasi bo'yicha ular qarashlarida, farqni sezish mumkin. Ya'ni M.Q.Pardayev hisobot davri ko'rsatkichini o'tgan davr ko'rsatkichi bilan taqqoslasa, prof. E.Akramov tomonidan uning dinamik yoki bazis davriga nisbatan o'zgarishlarini taqqoslash tavsiflanadi. Dinamik tahlil gorizontal tahlildan alohida farqlanadi. Bu farqlanish M.Q.Pardayevni «Moliyaviy tahlil» kitobida ham alohida tarkiblanadi.

---

[29] Шеремет А Д , Сайфулин Р С Методика финансового анализа М· ИНФРА-М 1996 г

[30] Абдукаримов И.Т «Молиявий ҳисоботни ўқиш ва таҳлил қилиш йўллари» Т Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й

[31] Пардаев М.Қ., Исроилов Б. Молиявий таҳлил. Т : Иқтисод иет ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й., 15-бет

[32] Вахобов А , Ибрагимов А Молиявий таҳлил. Т.: Шарқ 2002 й.

[33] Акрамов Э Анализ финансового состояния предприятия. Т ·ГНИТИ, ГАНТ , Руз

[34] Пардаев М.Қ , Исроилов Б Молиявий таҳлил Т Иқтисод иёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й , 15-бет

Gorizontal va vertikal tahlil turlarini bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilish qiyin, negaki ulardan birgalikda foydalanilgandagina mazmun kasb etadi. Shu sababli gorizonatal va vertikal tahlil turlari doimo bir butunlikda olib boriladi. Sodda qilib aytganda gorizontal tahlil yonlamasiga darajalarni, vertikal tahlil esa bo'ylamasiga darajalarni xarakterlaydi.

2.12-jadval

Buxgalteriya balansi aktivining gorizontal va vertikal tahlili

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
	ming so'm	%	Ming so'm	%	ming so'm	%	Yb ga nisba-tan %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8
1. Uzoq muddatli aktivlar	30 091 481	29,0	28 121 979	21,7	- 1 969 502	-7,2	-1,9
2. Joriy aktivlar	73 711 147	71,0	101 200 268	78,3	27 489 121	7,2	26,5
Shu jumladan							
2.1-Tovar moddiy zaxiralar (140+190+200)	49 294 661	47,5	42 807 962	33,1	- 6 486 699	- 14,4	- 6,2
2.2-debitorlar (210+310)	20 511 076	19,8	53 776 535	41,6	33 265 459	21,8	32,0
2.3-pul mablag'lari va qisqa muddatli qo'yilmalar (320+370+380)	3 905 410	3,8	4 615 771	3,6	710 361	- 0,2	0,7
Balans aktivining JAMI	103 802 628	100,0	129 322 247	100,0	25 519 619	0,0	25

Korxonada aktivlar so'mmasi davr boshiga nisbatan 25519619 so'mga yoki 25 % ga ortgan. Tarkibiy tuzilishi bo'yicha jami aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar, davr

boshiga nisbatan 1969502 so'mga yoki 7,2 % ga kamaygan. Joriy aktivlarning summasi esa 27489121 so'mga yoki 7,2 % ga o'sgan.

Joriy aktivlar tarkibida TMZ summasi davr boshiga nisbatan 6486699 so'mga, % da 14,4 ga kamaygan. Debitorlik majburiyatlari summasi esa 33265459 so'mga yoki 21,8 % ga ortgan. Pul mablag'lari summasi davr boshiga nisbatan 710361 so'mga ortgan, lekin foizdagi ulushi -0,2 ga kamaygan.

2.13-jadval

Buxgalteriya balansi passivining gorizontal va vertikal tahlili

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
	ming so'm	%	Ming so'm	%	ming so'm	%	Yb nisba-tan %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8
1.O'zlik mablag'lari manbalari	39 599 947	38	40 863 356	32	1 263 409	- 7	1
2.Majburiyatlar	64 202 681	62	88 458 891	68	24 256 210	+7	23
Shu jumladan							
2.1-uzoq muddatli kredit va qarzlar 570+580+590	517 465	0	178 714	0	-338 751	- 0	- 0
2.2-qisqa muddatli kredit va qarzlar 730+740	17 328 092	17	9 160 674	7	-8 167 418	- 10	- 8
2.3-kreditorlik qarzlari	46 357 124	45	79 119 503	61	32 762 379	17	71
Balans passivining JAMI:	103 802 628	100	129 322 247	100	25 519 619	-	25

Yil boshiga nisbatan joriy aktivlarning nisbiy o'sish darajasi 26,5 % ni, shu jumladan debitorlik majburiyatlarining o'sishi 32 foizga, pul mablag'larining o'sishi 0,7 % ga ortganligini ko'rish mumkin. Uzoq muddatli aktivlarning yil boshiga nisbatan 1,9 % ga kamayishi, shuningdek joriy aktivlar tarkibiga kiruvchi tovar

moddiy zaxiralarning yil boshiga nisbatan 6,2 %ga kamayishi kuzatilgan.

Korxonada passivlari summasi yil boshiga nisbatan 25519619 so'mga yoki 25 % ga ortgan. Tarkibiy tuzilishi bo'yicha jami passivlar tarkibida o'z mablag'lari manbasi, davr boshiga nisbatan **1263409** so'mga ortgan, balans jamida tutgan ulushi esa 7 % ga kamaygan. Majburiyatlarning summasi yil boshiga nisbatan **24256210** so'mga yoki balans jamida tutgan ulushi esa 7 % ga o'sgan.

Majburiyatlar tarkibida uzoq muddatli kreditlar va qarzlar summasi 338751 so'mga kamaygan, qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasi ham yil boshiga nisbatan **-8167418** so'mga kamaygan. Kreditorlik majburiyatlari summasi esa yil boshiga qaraganda **32762379** so'mga ortgan, balans jamidagi salmog'i esa 17 % ga ortgan.

Yil boshiga nisbatan o'z mablag'larining manbasi 1 % o'sishiga, majburiyatlar summasining 23 % ga o'sishiga erishilgan.

Majburiyatlar tarkibida qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasi 7 % ga kamaygan, kreditorlik majburiyatlari hajmi esa yil boshiga nisbatan 71 % ga ortgan.

Korxonalar mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsiyentlarda baholanishi

Korxona mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsiyentlar orqali o'rganish uning moliyaviy holatiga baho berishni yanada osonlashtiradi. Moliyaviy koeffitsiyentlar moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini va birlik elementlarini o'zaro nisbatlash asosida aniqlanadi. Uning umumiy va birlik ko'rsatkichlarini tarkiblash mumkin. Ushbu ifodada koeffitsiyent, indeks va foizlarda aniqlanadi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash va uning o'zgarishlarini qiyosiy taqqoslash asosida xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy ahvolini aniqroq o'rganish, bilish imkoni tug'iladi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash moliyaviy holat tahlilida tahliliy amallar yakunida amalga oshiriladigan ish

emas, balki tahlilning boshlanishidir. Moliyaviy koeffitsiyentlar xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy ahvolini oynada aniq ko'rsatib beruvchi vosita emas, balki bir necha ko'rsatkichlarni jamlash va nisbatlash asosida mazmunga ega bo'lgan ifodaga erishish usulidir.

«Koeffitsiyentlar – mulkning nisbiy darajasini tavsiflaydi» deyiladi Tomas P. Karlin, Albert M.Maklinni «Анализ финансовых отсчетов (на основе ГААП)» kitobida. Bizningcha, moliyaviy koeffitsiyentlar o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikdagi (nisbatlash mezonlari buzilmagan holda) moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini umumiy va individual birliklarda nisbatlash orqali aniqlanadigan ifodadir.

Koeffitsiyentlar moliyaviy holat tahlilidagi eng ko'p qo'llaniladigan va mashhur usul hisoblanadi.[1]

Moliyaviy koeffitsiyentlar moliyaviy hisobot elementlari yoki birliklarini mutlaq va nisbiy farqlanishlarda aniqlash mumkin bo'lmagan qirralarni ochib beradi.

Jahon amaliyotida moliyaviy koeffitsiyentlarning 100 dan ortiq ko'rsatkichi hisob-kitob qilinadi. Ularni bir tizimga solish ushbu ko'rsatkichlarni tushunish va amaliyotda qo'llashni osonlashtiradi.

Analitik maqsadga erishish yuzasidan ingliz olimlari Tomas P.Karlin va Albert R.Maklin moliyaviy koeffitsiyentlarni uchta guruhini tarkiblaydilar.

1. Likvidlilik ko'rsatkichlari.
2. Leverej ko'rsatkichlari.
3. Foydalilik ko'rsatkichlari.

Tahlil etishda ushbu koeffitsiyentlarni to'liq o'rganish talab etilmaydi. Balki qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda alohida tur koffitsiyentlar o'rganiladi.

Korxona mulki, kapitali va majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy koeffitsiyentlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Uzoq muddatli aktivlarga baho berishni nisbiy ifodalari: asosiv vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar, uzoq

[1] Н.П.Любишин, Н.Е Бабичева «Фиансовий анализ» м :Экспо-2010 стр-45

muddatli investitsiyalarning nisbiy ifodalari. (1-ilovada hisob-kitoblari keltirilgan).

2.14-jadval

Uzoq muddatli aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	**Aniqlanishi**	**Belgilar izohi**
Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti	Aqq/Bq	Aqq-Asosiy vositalar qoldiq qiymati Bq-Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti	Aeq/Bq	Aeq- Asosiy vositalarning eskirish qiymati
Asosiy vositalarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi koeffitsiyenti	O'mm+Umkq/A	O'mm-O'z mablag'lari manbasi Umkq-Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar A-Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
Nomoddiy aktivlar yaroqlilik koeffitsiyenti	NAqq/Nabq	Naqq-Nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati Nabq-Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati
Nomoddiy aktivlar eskirish koeffitsiyenti	NAeq/Nabq	Naeq-Nomoddiy aktivlarning eskirish qiymati Nabq-Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati
Nomoddiy aktivlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	O'mm+Umkq/NA	
Kapital qo'yilmalarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	O'mm+M/KQ	M-majburiyatlar KQ-kapital qo'yilmalar
Uzoq muddatli investitsiyalarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	O'mm+Umkq/Umi	Umi-uzoq muddatli investitsiyalar

Uzoq muddatli investitsiyalarning qoplanish koeffitsiyenti	ST/Umi	St-sotishdan sof tushum
Uzoq mudatli aktivlarning aylanish koeffitsiyenti	ST/Uma	Uma-uzoq muddatli aktivlar
Uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi	Stqf,Sf/Uma	Stqf-Soliq to'loviga qadar foyda Sf-sof foyda
Asosiy kapital rentabelligi	Stqf, Sf/Ak	Ak-asosiy kapital
Nomoddiy aktivlar rentabelligi	Stqf, Sf/NA	
Kapiatl qo'yilmalar rentabelligi	Stqf, Sf/KQ	
Uzoq muddatli aktivlar jami mulk tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti	Uma/BJ	BJ-balans jami
Asosi vositalarning uzoq muddatli aktivlar tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti	A/Uma	

2. Joriy aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalariga: joriy aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi, tovar moddiy zaxiralar, ishlab chiqarish zaxiralari, tovarlar, tayyor mahsulotlar aylanuvchanligi, to'lovga qobillik koeffitsiyentlari, debitorlik qarzlarini aylanuvchanligi, joriy aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i, pul mablag'lari, debitorlik majburiyatlari va tovar moddiy zaxiralarning joriy aktivlardagi va balans jamidagi salmog'i va h.k. ko'rsatkichlar kiradi. (2-ilovada hisob-kitoblari keltirilgan).

3. O'z mablag'lari manbayi bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalarga: moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti, jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsiyenti, manevrlik koeffitsiyenti, o'z sarmoyasi harakatchanligi koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti, o'z mablag'larini uzoq muddatli aktivlar va zaxira, xarajatlarni manbalashdagi holat va boshqa ko'rsatkichlar kiradi. (3-ilovada hisob-kitoblari keltirilgan).

2.15-jadval

Joriy aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Joriy aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	JA / BJ	JA-Joriy aktivlar BJ-Balans jami
Pul mablag'larining joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	PM / JA, BJ	PM-Pul mablag'lari
Debitorlik majburiyatlarining joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	DM / JA, BJ	DM-Debitorlik majburiyatlari
Tovar moddiy zaxiralarning joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	TMZ / JA, BJ	TMZ-Tovar moddiy zaxiralar
Ishlab chiqarish zaxiralarining tovar moddiy zaxiralaridagi salmog'i koeffitsiyenti	Ichz / JA	Ichz-Ishlab chiqarish zaxirlari
Joriy aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi koeffitsiyenti (sof oborot aktivlar)	O'mm+Umkq-Uma / JA	O'mm-O'z mablag'lari manbasi Umkq-uzoq muddatli kreditlar va qarzlar Uma-Uzoq muddatli aktivlar
Joriy aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/JA	St-Sotishdan tushum
TMZ aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/TMZ	TMZ-Tovar moddiy zaxiralar
Ishlab chiqarish zaxirlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/Ichz	Ichz-Ishlab chiqarish zaxiralari
Tovarlarning aylanuvchanlik koefitsenti	ST/T	T-Tovarlar
Tayyor mahsulotlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/TM	TM-Tayyor mahsulot
Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/DM	DM-Debitorlik majburiyatlari

Joriy aktivlarni rentabellik koeffitsiyenti	Stqf, Sf/JA	Stqf-Soliq to'loviga qadar foyda Sf-Sof foyda
Joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati koeffitsiyenti(umumiy to'lovga qobillik)	JA/JM	JM-Joriy majburiyatlar
Joriy majburiyatlarning joriy aktivlarga nisbati koeffitsiyenti (karamlik koeffitsiyenti)	JM/JA	JM-Joriy majburiyatlar JA-Joriy aktivlar
Joriy aktivlarning o'z mablag'lari manbasi bilan qoplanishi koeffitsiyenti	O'mm/JA	O'mm-O'z mablag'lari manbasi

2.16-jadval

O'z mablag'lari manbasi bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalar (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	O'mm/BJ	O'mm- O'z mablag'lari manbayi BJ- Jami mablag'lar
O'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti	O'mm/M	M-majburiyatlar
Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	BJ/O'mm	BJ-balans jami O'mm-o'z mablag'lari manbasi
Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsiyenti	JQK/JK	JQK-Jalb qilingan kapital JK-jami kapital (BJ)
O'z sarmoyasi hara-katchanligi koeffitsiyenti	XK/O'mm	XK-Xususiy kapital
-O'z mablag'lari va uzoq muddatli jalb qilingan mablag'larni zaxira, xarajatlarni manbalashdagi holat ko'rsatkichlari	O'mm+Um kq-Uma/ZX	Umkq-uzoq muddatli kreditlar va qarzalar Uma-uzoq muddatli aktivlar Zx-Zaxira va xarajatlar
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	O'mm/Jqs	Jqs-jalb qilingan sarmoya (M)
Uzoq muddatli aktivlarning o'z mablag'lari va uzoq muddatli qarzga olingan mablag'lar bilan	O'mm+O' mkq/Uma	Uma-uzoq muddatli aktivlar Umkq-uzoq muddatli kreditlar va qarzlar

manbalanishi koeffitsiyenti		O'mm-o'z mablag'lari manbayi
Xususiy kapital rentabelligi	Sf/XK	XK-xususiy kapital Sf-Sof foyda

4. Qarz mablag'lari (majburiyatlar) holati bilan bog'liq bo'lgan koeffitsiyentlarga: qarz kapitali va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti, qarz kapitalini barcha kapital tarkibidagi salmog'i, uzoq muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti, qisqa muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i koeffitsiyenti, kreditorlik majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i koeffitsiyenti, kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentlari va boshqa koeffitsiyentlarni o'z ichiga oladi (4-ilovada hisob-kitoblari keltirilgan).

Prof. E.Akramov nazariy jihatdan moliyaviy koeffitsiyentlarni 2ta guruhga tarkiblashni tavsiya qiladi[1].

Ya'ni:

-tarkibiy koeffitsiyentlar;

-nisbat koeffitsiyentlari.

2.17-jadval

Majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalar (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Qarz kapitali va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti	M/O'mm	M-majburiyatlar O'mm-O'z mablag'lari manbasi
Qarz kapitalini barcha kapital tarkibidagi salmog'i,	M/BJ	M-majburiyatlar BJ- jam mablag'lar
Uzoq muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti	Umm/M, BJ	Umm-uzoq muddatli majburiyatlar M-majburiyatlar jami
Qisqa muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i	Qmm/M, BJ	Qmm-qisqa muddatli majburiyatlar
Kreditorlik majburiyatlarining jami mablag'lar va	Km/M, BJ	Km-kreditorlik majburiyatlari

[1] Э А Каримов Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. Т Молия. 2003 40-бет

majburiyatlardagi salmog'i koeffitsiyenti		
Kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentlari	SMicht/Km	SMicht-sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi

Prof. M. To'laxodjayeva tomonidan moliyaviy koeffitsiyentlarni quyidagi beshta guruhga ajratgan holda o'rganish tavsiya etiladi.

1. Likvidlilik darajasini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsiyentlar:
   - Joriy likvidlilik;
   - muhlatli likvidlilik;
   - absolyut likvildlik;
   - sof aylanma aktivlar.
2. Ish aktivligini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsiyentlar:
   - aktivlar aylanishi
   - debitorlik qarzlarining aylanishi;
   - kreditorlik qarzlarining aylanishi;
   - ishlab chiqarish zaxiralarining aylanishi;
   - aylanish davriyligi.
3. Rentabellik koeffitsiyentlari:
   - aktivlar rentabelligi;
   - sotish rentabelligi;
   - korxonaga tegishli mablag'lar rentabelligi.
4. Kapitalning tarkibiy koeffitsiyentlari:
   - moliyaviy bog'liqlik koeffitsiyenti;
   - mulk koeffitsiyenti;
   - kreditni muhofaza qilish koeffitsiyenti;
   - bitta aksiyaning foydalilik koeffitsiyenti.
5. Bozor aktivligini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsiyentlar:
   - aksiya bahosi va foyda nisbati;
   - aksiyaning daromadligi;
   - aksiyaning balansdagi qiymati;
   - to'langan dividendlar salmog'i.

Moliyaviy koeffitsiyentlarni statik, dinamik va o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan o'rganishning ham bir qator kamchiliklari mavjud. Ya'ni, moliyaviy koeffitsiyentlar korxona

moliyaviy holatini to'la ochib berolmasligi, nisbiy ifodada o'lchanishi, davomiylikka amal qilmaslik hollari shular jumlasidandir.

Moliyaviy koeffitsiyentlarning asosiy qismi buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shakllarini ko'rsatkichlaridan aniqlanadi. To'g'ri, asosiy vositalarning holati va harakati, pul oqimi va xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakllaridagi birliklar ham moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlashda qatnashadi. Ammo, ushbu birliklarning buxgalteriya balansida aks etgan umumiy holati ko'rsatkichlarni aniqlashga va baholashga yetarli hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarning boshqa shakllari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatoriga operatsion daromadlar, operatsion xarajatlar, bozor aktivligi ko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Operatsion daromad ko'rsatkichlariga: yalpi tushum, yalpi daromad, operatsion foyda, sof foyda koeffitsiyenti ko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Operatsion xarajatlar ko'rsatkichlariga: sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar koeffitsiyenti ko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Bozor aktivligi ko'rsatkichlariga aksiyaning daromadligi, foydaligi, aksiya bahosi va foyda nisbati, aksiya bahosining o'sishi kabi ko'rsatkichlari kiradi.

2.4. Buxgalteriya balansini trend tahlili

Trend tahlili moliyaviy hisobot elementlari va ko'rsatkichlarini joriy davrga bo'lgan holatini bazis yili yoki asos yili ko'rsatkichi bilan o'rganishni xarakterlaydi. Lekin bu usul prof. M.Q.Pardayevni «Moliyaviy tahlil» o'quv qo'llanmasida «makon» tahlili deb berib o'tiladi hamda unga quyidagicha ta'rif beriladi. «Makon tahlili-deganda birorta obyektni boshqa obyekt ko'rsatkichlari bilan solishtirilgan holda o'rganilishi tushuniladi».[36]

[36] Пардаев М.Қ., Исроилов Б. Молиявий таҳлил. Т.: Иқтисод иет ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й., 15-бет

Professor Pozdnyakov.V. tahriri ostida chop etilgan «Анализ и диагностика ФХДП» (Moskva Infra-m. 2008, str-48) kitobida Trend tahlili bazaviy ko'rsatkichga nisbatan bir necha yillar bo'yicha dinamik o'zgarishlarni xarakterlaydi. Bazaviy ko'rsatkichning bazaviy trend va zanjirli trend usullari tarkiblanadi. Bazaviy ko'rsatkichga nisbatan dinamik o'zgarish asos yiliga nisbatan o'zgarishini xarakterlasa, zanjirli trend o'zidan oldingi yilga nisbatan dinamik o'zgarishlarni xarakterlaydi.

Trend tahlili mazmunini prof. E.Akramov quyidagicha izohlaydi.

«Trend tahlili-bu korxona moliyaviy holatining ko'rsatkichlar tizimini yetarli darajada, davrlar oralig'i bo'yicha umumiy o'zgarishlar tendentsiyasida o'rganishni tavsiflaydi.[37]

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: Trend tahlili-bu moliyaviy holat ko'rsatkichlarini bazis davri va oldingi yillarga nisbatan o'zgarishlarni o'rganishni xarakterlaydi.

Agar prof. E.Akramovni davrlar oralig'i bo'yicha fikriga qo'shiladigan bo'lsak bu tahlil dinamik tahlilni o'zi bo'lib qoladi. Shu sababli uni, asos yiliga yoki maqbul deb topilgan yilga nisbatan o'zgarishlarini baholash trend tahlilini mazmunini tashkil etmaydi. Buxgalteriya balansini trend tahlili inflyatsiya ta'siri kuchli bo'lgan hollarda aniq o'zgarishlarni ifoda eta olmaydi. Shu sababli ko'pincha uzoq davriylikdagi o'zgarishlarni baholash samarasiz natijalarni keltirib chiqaradi.

Ko'rsatkichlarni bunday hollarda nisbiy ifodalar asosida baholashga o'tish samarali vosita hisoblanadi.

Negaki nisbiy ifodalar bir o'lchamli (1 yoki 100 ga nisbatan) ifoda bo'lganligi sababli sig'imliylik darajasi bo'yicha qayta hisoblashlarni talab etmaydi.

Trend tahlili asosida buxgalteriya balansini tarkibiy tuzilishini qayta tuzib chiqish talab etilmaydi, faqat uning taqqoslash qatorlari kengaytiriladi xolos. Trend tahlili ko'pincha asos tahlili deb ham yuritiladi. Mazmun jihatdan bu nomlash to'g'ri hisoblanadi.

---

[37] Акрамов Э Анализ финансового состояния предприятия. Т :ГНИТИ, ГАНТ , РУз

Trend tahlilining o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni tarkiblash mumkin:

– trend tahlili uzoq davriylikni qamrab oladi va yaqin kelajakni moliya rejasini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi;

– trend tahlili moliyaviy korxona moliyaviy faoliyatining barcha jihatlarini to'la ochib berishga imkon beradi;

– Trend tahlil qisqa davriylikda namoyon qilib bo'lmaydigan jihatlarni ham ochib beradi;

– trend tahlili axborotlarning bir necha yillik bazasidan foydalanadi;

– moliyaviy hisobot elementlari, moddalari, ko'rsatkichlarini taqqoslash oralig'i mustaqil belgilanadi.

2.18-jadval

Buxgalteriya balansini trend tahlili

Aktiv-lar tarkibi	2009-yil 1-yanv		2010-yil 1-yanv		2011-yil 1-yanv		2012-yil 1-yanv		Farqi					
									2009-yilga nisb		2010-yilga nisb		2011-yilga nisb	
	summa	%	summa	%	summa	%	summa	%	summa	%	summa	%	summa	%
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
UMA	1243	25.4	1456	34.4.	2145	21	2564	21	1321	-4.4	1108	-134	419	-
JA	3654	746	4768	65.6	8123	79	9711	79	6117	+44.	4943	+13.4	1588	-
Aktiv jami	4897	100	4224	100	10268	100	12275	100	7438	-	6051	-	2007	-
O'MM	2732	55.7	1564	37	4168	405	5175	42.1	2443	-13.6	3611	+4.9	1007	+16
M	2165	44.3	2660	63	6100	59.5	7100	57 9	4935	+13.6	4440	-4.9	1000	-1.6
Passiv jami	4897	100	4224	100	10268	100	12275	100	7378	-	8051	-	2007	-

Belgilar izohi:
UMA-Uzoq muddatli aktivlar;
JA-Joriy aktivlar;
O'MM-o'z mablag'lari manbasi;
M-majburiyatlar.

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki joriy davrda korxona aktivlari va passivlarining tarkibiy tuzilishida uzoq muddatli aktivlarning salmog'i 21 foizni unga mos ravishda joriy aktivlarning salmog'i 79 foizni tashkil etgan. Malbag'lar manbasining tuzilishi bo'yicha 42,1 foiz mablag' o'z mablag'lari manbayi qatoriga, 57,9 foizi majburiyatlar qatoriga to'g'ri kelgan. Joriy davrda bazis yiliga nisbatan o'zgarish uzoq muddatli aktivlar qatori bo'yicha +419 ming so'mga, joriy aktivlar qatori bo'yicha o'sish esa +1588 ming so'mga teng bo'lgan. Aktivlarni manbalash qatori bo'yicha bazis yilga nisbatan o'zgarishlari mos ravishda o'z mablag'lari manbasi bo'yicha +1007 ming so'mga, majburiyatlar qatori bo'yicha +1000 ming so'mga teng bo'lgan.

Korxonaning moliyaviy mustaqillik darajasi bazis yiliga nisbatan juda tushib ketgan. Keyingi yillar bo'yicha esa biroz ko'tarilishi kuzatilgan.

2.5. Korxona aktivlari, passivlari va ularni joylashtirishning moliyaviy holatga ta'sirini tahlili

Aktivlar – subyekt nozorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Aktivlar – xo'jalik yurituvchi subyektlar qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy va nomoddiy resurslari, pul mablag'lari va debitorlik majburiyatlaridan iborat tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan resurslardir.

Aktivlar – xo'jalik yurituvchi subyektning avvalgi bitimlari va boshqa voqealarining natijasidir. Aktivlar- sotib olish, o'zida yaratish va qurish, shuningdek boshqa bitimlar va voqealar asosida egalik qilish yo'llari bilan shakllantiriladi.

Kelgusida kutiladigan bitimlar va boshqa voqealar aktivlarni paydo bo'lishiga olib kelmaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlari

o‘z aktivlaridan mulkni, tovarlarni, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni va xizmatlar ko‘rsatishni boshqarish uchun foydalanadilar.[1]

Aktivlarda aks ettirilgan bo‘lg‘usi iqtisodiy foyda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Masalan: aktivlardan tovarlar ishlab chiqarishda foydalanish, majburiyatlarni bajarishda foydalanishi, boshqa aktivlarga almashtirish va h.k. tartibda.

Aktivlar turli shakllarda ya’ni jismoniy ko‘rinishga ega bo‘lishi, nomoddiy ko‘rinishda bo‘lishi, majburiyat shaklida, biologik aktiv ko‘rinishda ham bo‘lishi mumkin.

Korxonalarning moliyaviy holati ko‘pincha korxona qanday aktivlarga va ularning qaysi darajasiga ega ekanligi bilan belgiladi. Shu sababli moliyaviy holat tahlilida aktivlarni shakllantirish va ularni moliyalash manbalariga ega bo‘lish tahlilda alohida mavzu sifatida o‘rganiladi.

Aktivlarni moliyalashtirish albatta korxonaning mulkiy va tashkiliy tuzilishiga qarab tubdan farq etishi mumkin.

O‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta’minlash darajasini ifoda etuvchi va korxonaning moliyaviy mustaqilligini belgilab beruvchi xususiy kapitalning qiymati aktivlarni manbalashda asosiy manba hisoblandi.

Aktivlarni shakllantirishning o‘ziga tegishli manbalari va qarzga olingan mablag‘lari tarkiblanadi Aktivlarni moliyalash-tirishning o‘ziga tegishli manbalariga[2] quyidagi manbalar kiritiladi.

Korxona aktivlari uzoq muddatli va joriy aktivlarga tarkib-lanadi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibida siyosiy vositalar, nomoddiy aktivlar qiymati uzoq mudddatli investitsiyalar, o‘rnatiladigan uskunalar va kapital qo‘yilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati kechiktirilgan xarajatlar summalari aks etadi.

---

[1] Узбекистон Республикаси БХМС «Молиявий хисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос». УзР АВ 1198 йил 14-август, 475-сонли

[2] Н.П.Любушин, Н.Е Бабичева «Финансовий анализ» м..Экспо-2010 стр-75

2.19-jadval

Aktivlarni moliyalashtirishning o'ziga tegishli manbalari

O'ziga tegishli manbalar		
Xususiy kapital: Ustav kapitali Qo'shilgan kapital Rezerv kapitali Sotib olingan xususiy aksiyalar Taqsimlanmagan foyda	Maqsadli tushumlar	Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar

2.20-jadval

Aktivlarni moliyalashtirishning qarzga olingan manbalari

Qarzga olingan manbalar			
Kreditorlari bo'yicha	**Jalb etish mexanizmi bo'yicha**	**Shakli bo'yicha**	**Muddati bo'yicha**
Banklar	Kredit	Pul mablag'lari shaklida	Uzoq muddatli
Boshqa moliya institutlari	Qarz	Mulk shaklida	O'rta muddatli
Tashkilotlar	Kreditorlik majburiyati	Qo'shma shakllarda	Qisqa muddatli
Davlat		Huquq sifatida	
Jismoniy shaxslar			
Xorijiy manbalar			

o'rta muddat amaldagi tartiblar bo'yicha rasmiy jihatdan belgilanmagan

Joriy aktivlar qatorida tovar moddiy zaxiralar, kelgusi davr xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar aks etadi.

2.21-jadval

Korxona aktivlari va ularning tarkiblanishi

Balansdagi aktivlar			
Uzoq muddatli aktivlar	**satr**	**Joriy aktivlar**	**satr**
Asosiy vositalar	010	Tovar-moddiy zaxiralari	140
Nomoddiy aktivlar	020	Kelgusi davr xarajatlari	190
Uzoq muddatli investitsiyalar	030	Kechiktirilgan xarajatlar	200
O'rnatiladigan asbob-uskunalar	090	Debitorlar	210
Kapital qo'yilmalar	100	Pul mablag'lari	320
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari	110	Qisqa muddatli investitsiyalar	370
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar	120	Boshqa joriy aktivlar	380
Balansdan tashqari aktivlar			
Operativ ijaraga olingan asosiy vositalar.			001
Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar.			002
Qayta ishlashga qabul qilingan materiallar.			003
Komissiyaga qabul qilingan tovarlar.			004
O'rnatish uchun qabul qilingan uskunalar.			005
Qat'iy hisobot blankalari.			006
To'lovga qobiliyatsiz debitorlarning zararga hisobdan chiqarilgan qarzi.			007
Olingan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti.			008
Berilgan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti.			009
Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha berilgan asosiy vositalar.			010
Ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mulklar.			011
Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar.			012
Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo'yicha).			013
Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari.			014

Aktivlarni moliyaviy manbalashda o'zlik mablag'lari, xususiy kapital muhim manba hisoblandi. Shu sababli oborot mablag'lar naqdligini baholashda o'z mablag'lari manbalari summasidan uzoq muddatli aktivlar summasi chegiriladi. Farqlanishda ijobiy jihat joriy aktivlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Odatda, uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishda uzoq muddatli kreditlar va qarzlardan foydalaniladi.

Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar esa joriy aktivlarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

Aktivlarni moliyalashtirish manbalari o'z mablag'lari manbasi va majburiyatlar kiritiladi. Balans moddalari bo'yicha ularni quyidagicha tarkiblash mumkin.

2.22-jadval

Aktivlarni moliyalashtirish manbalari yoki korxona buxgalteriya balansi passisivi moddalari

Buxgalteriya balansi passivi	
O'z mablag'lari manbasi	**Majburiyatlar**
Ustav kapitali	Uzoq muddatli majburiyatlar
Qo'shilgan kapital	Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz[1]
Rezerv kapitali	Joriy majburiyatlar
Sotib olingan xususiy aksiyalar	Ajratilgan bo'linmalarga qarz[2]
Taqsimlanmagan foyda	
Maqsadli tushumlar	
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar	

Buxgalteriya balansining klassik formulasi.

$$\text{Aktiv} = \text{Kapital} + \text{Majburiyat} \qquad (2.12)$$

Buxgalteriya balansini aktiv va passivlari tahlilida uning umumlashgan va birlik ko'rsatkichlariga hamda ularning

[1] Амалдаги тартиб бўйича «Ажратилган бўлинмаларга узоқ муддатли қарз» узоқ муддатли мажбуриятлар таркибида акс этади

[2] Амалдаги тартиб бўйича «Ажратилган бўлинмаларга қарз» жорий мажбуриятлар каторида акс этади

o‘zgarishlariga baho beriladi. Taqqoslash bazasi sifatida yil boshi yoki o‘tgan yil ma’lumotlari olinadi.

Buxgalteriya balansini aktivi va passivi, ularni maqsadli joylashtirish tadbirkorlik faoliyatining muhim omili hisoblanadi. Korxona faoliyatining birinchi kunidan o‘z biznesini yo‘lga qo‘yar ekan albatta dastlabki kapitalni uzoq muddatli va oborot aktivlarini shakllantirish uchun mos qiymatda shakllantirishga ahamiyat beradi va uni moliyalashtirishga yo‘naltiradi. Lekin har doim ham tadbirkor o‘z biznesini to‘liq moliyalashtirish yuzasidan o‘z kapitaliga ega bo‘lavermaydi. Ana shunday hollarda garov evaziga kredit va qarz munosabatlariga o‘tiladi.

Aktivlarni joylashtirishda aniq me’yoriy nisbat belgilanmaydi. Lekin ularni moliyalashtirish manbalari yuzasidan bu nisbatni qaysidir jihatdan aniq belgilab olish mumkin. Masalan jami manbalar tarkibida doimo korxona ulushi, xususiy mablag‘lar ulushi 50 foizdan kam bo‘lmasligi lozim. Bu mablag‘ uzoq muddatli aktivlarni va joriy aktivlarni to‘la moliyalashtirishga yetmaydi albatta. Shu sababli ham ushbu manbani qaysi qismi uzoq muddatli aktivga, qaysi qismi joriy aktivga yo‘naltirilganligini balans ma’lumotlari asosida aniqlab bo‘lmaydi. Bunda faqat umumiy jihatlargina hisobga olinadi xolos. Aktivlarni to‘g‘ri joylashtirish va ularni moliyalashtirishni to‘g‘ri tashkil etish korxona moliyaviy faoliyatini va uning natijaviyligini belgilab beruvchi omil hamdir. Shu sababli, aktivlarni joylashtirishda albatta samaradorlik, natijaviylik, majburiyatlarning qoplanishi, mablag‘larning aylanuvchanligini tezlashishi kabi jihatlarni hisobga olish talab etiladi.

Aktivlarni joylashtirishning eng muhim jihatlarini quyidagilar;

– Aktivlarni joylashtirishda asosiy e’tibor ishlab chiqarishni ilg‘or texnika va texnologiya bilan qurollantirishga qaratiladi;

– aktivlarni joylashtirishda ishlab chiqarish zaruriyatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy resurslarni eng maqbul normasini shakllantirish lozim;

– aktivlarni joylashtirishda joriy aktivlar tarkibida likvid mablag‘larning harakatchanligini ta’minlash yuzasidan ularning javobgarlik markazlarini tashkil etish;

– aktivlarni joylashtirishda ularning samara berish omiliga muhim ahamiyat qaratish lozim;

– Aktivlarni joylashtirishda ularning nazoratligini kuchaytirishga imkon beruvchi usullardan foydalanish va.h.k.

2.23-jadval

Buxgalteriya balansi aktivining tahlili

№	Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
		ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	Yil boshiga nisbatan %
	1	2	3	4	5	6= 4-2	7= 5-3	8
1	Uzoq muddatli aktivlar	30091481	29,0	28121979	21,7	-1969502	-7,2	-1,9
2	Oborot aktivlar	73711147	71,0	101200268	78,3	27 489 121	7,2	26,5
	Shu jumladan							
a)	Zaxira va xarajatlar (140+190+200)	49294661	47,5	42807962	33,1	- 6 486 699	-14,4	-6,2
b)	Debitorlar (210+310)	20511076	19,8	53776535	41,6	33265459	21,8	32,0
v)	Pul mabag'lari va qimmatli qog'ozlar (320+370+380)	3905 410	3,8	4615771	3,6	710361	-0,2	0,7
	Balans aktivining JAMI	103802628	100,0	129322247	100,0	2551919	0,0	25

Buxgalteriya balansini aktivi va passivi moddalarini joylashtirish holati va ularning ahamiyatli jihatlarini quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki korxonada jami aktivlar summasi davr boshiga nisbatan 2551919 so'mga ortgan. Jami aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar

davr boshida 30091481 so'mni, davr oxirida esa 28121979 so'mni tashkil etgan holda mutlaq o'zgarish -1969502 so'mga teng bo'lgan.

Uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i ham mos ravishda 29 foizdan 21,7 foizga tushib ketgan.

Joriy aktivlarning summasi davr boshiga nisbatan +27489121 so'mga ortgan. Jami aktivlardagi salmog'i esa 71 foizdan 78,3 foizga ko'tarilgan.

xarajatlar summasi -6486699 so'mga kamaygan, debitorlar summasi 33265459 so'mga, pul mablag'lari summasi esa 710361 so'mga ortganligini kuzatish mumkin. Joriy aktivlar qatorida eng yuqori salmoq zaxira va xarajatlar ham debitorlik majburiyatlari qatoriga to'g'ri kelgan.

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki korxonada kapital va majburiyatlar summasi davr boshiga nisbatan 2551919 so'mga ortgan. Jami mablag'lar manbasi tarkibida o'z mablag'lari manbasi davr boshida 39599947 so'mni, davr oxirida esa 40863356 so'mni tashkil etgan holda mutlaq o'zgarish +1263409 so'mga teng bo'lgan. O'z mablag'lari manbasini balans jamidagi salmog'i mos ravishda 38 foizdan 32 foizga tushib ketgan.

Joriy aktivlar tarkibida davr boshiga nisbatan zaxira va

Majburiyatlar summasi davr boshiga nisbatan +24256210 so'mga ortgan.

Ularning jami mablag'lar manbasidagi salmog'i esa 62 foizdan 68 foizga ortgan.

Jami majburiyatlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar summasi davr boshiga nisbatan -8167418 so'mga jami kapital tarkibidagi salmog'i esa 10 darajaga kamaygan. Kreditorlik majburiyatlari summasi esa 46357124 so'mdan 79119503 so'mga ortgan. Balans jamiga nisbatan o'zgarishlar mos ravishda 45 foizdan 61 foizga ko'tarilgan.

O'z mablag'larining davr boshiga nisbatan o'sishi 1 foizni, majburiyatlarning o'sishi esa 23 foizni tashkil etgan. Majburiyatlar tarkibida kreditorlik qarzlarini o'sishi eng yuqori darajani ya'ni 71 foiz o'sishiga erishilgan.

2.24-jadval

Buxgalteriya balansi passivining tahlili

№	Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
		ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	Yil boshiga nisbatan %
	1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8
1	O'zlik mablag'lari manbalari	39599947	38	40863356	32	1263409	-7	1
2	Majburiyatlar	64202681	62	88458891	68	24256210	7	23
	Shu jumladan							
a)	Uzoq muddatli kredit va qarzlar (570.580.590)	517465	0	178714	0	-338751	-0	-0
b)	Qisqa muddatli kredit va qarzlar 730.740	17328092	17	9160674	7	-8167418	-10	-8
v)	Kreditorlik qarzlari (770)	46357124	45	79119503	61	32762379	17	71
	Balans passivining JAMI:	103802628	100	129322247	100	25519619	-	25

Aktivlar va passivlar tahlili yuzasidan quyidagi muammoli jihatlarni qarab chiqish, ularning nazariy va amaliy yechimini topish lozim:

Birinchidan: aktivlarni tarkiblanishida muammo mavjud. Rivojlangan mamlakatlar buxgalteriya balansini kuzatadigan bo'lsak (Angliya, Amerika, Fransiya, Germaniya va h.k.) aktivlar likvidlilik darajasi bo'yicha ya'ni avval likvid va tez

likvid mablag'lar, oxirida uzoq muddatda pulga aylanuvchi aktivlar joylashtiriladi.

Ikkinchidan: aktivlar qatoriga kiruvchi zararlar passiv tomoni kamaytiruvchi qator sifatida beriladi. Zarar summasini passiv tamonda chegiriluvchi qator sifatida berilishi va uning xususiy kapital summasini aniqlashda chegiriluvchi qator sifatida olinishi ziyon summasini yo'q qilmaydi.

Aktivlar qatoridagi aylanma aktivlar bo'yicha aniq fikrlar yo'q. Negaki aylanma aktivlar, joriy aktivlar, oborot aktivlari, aylanma mablag'lar, joriy mablag'lar, oborot mablag'lar kabi so'zlar bitta mazmunda ishlatiladi. Shundan: buxgalteriya balansida oborot aktivlar[38] nomida, M.Q.Pardayevni «Moliyaviy tahlil»[39] o'quv qo'llanmasida aylanma mablag'lar (oborot aktivlar) tarzida, Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari»[40] o'quv qo'llanmasida aylanma aktivlar nomi bilan, prof. E.Akramovni «Анализ финансового состояния предприятия»[41] kitobida noharakatchan mablag'lar (aylanma aktivlar) nomi bilan nomlanishini keltirib o'tish mumkin. Aylanma mablag'lar (oborot aktivlar)ni bir xilda nomlashga o'tish albatta nazariy jihatdan to'g'ri bo'lar edi. Shu jihatdan bizningcha, ularning harakatchan aktivlar, harakatchan mablag'lar, oborot aktivlar, oborot mablag'lar, joriy aktivlar, joriy mablag'lar deb nomlanishidan chekinish lozim. To'g'ri bu xato bo'lmaydi. Shuningdek, bir xildagi nomlanish uni tushunish va o'rganishda ham muhim hisoblanadi.

2.6. Uzoq muddatli aktivlar, zaxira va xarajatlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishini tahlili

Uzoq muddatli aktivlar hamda zaxira va xarajatlarni manbalanishi xo'jalik subyektlari moliyaviy holatini baholashda muhim masala hisoblanadi. Korxonalar biznesda nafaqat o'z kapitali balki qarz kapitalini ham ishlatadilar. Faoliyatda, faqat o'z kapitali hisobiga ish yuritishni doimo ham imkoni bo'laver-

---

[38] ЎзР Молия вазирлиги «Молиявий ҳисоботни тузиш ва топшириш тартиби тўғрисидаги Низом» 1997 йил 15-янв. 5-сон

[39] Пардаев М.Қ., Исроилов Б. Молиявий таҳлил. Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й.,

[40] Абдукаримов И.Т. «Молиявий ҳисоботни ўқиш ва таҳлил қилиш йўллари» Т.. Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й.

[41] Акрамов Э. Анализ финансового состояния предприятия Т .ГНИТИ, ГАНТ , РУз

maydi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlari vaqti-vaqti bilan aniq biznes-reja va investitsion loyihalar asosida qarz kapitalini ko'taradilar. Bu jarayon nafaqat o'zini oqlabgina qolmay balki, korxonalar mulkini, kapitalini o'stirish imkonini ham beradi. Lekin shunga qaramay, uzoq muddatli aktivlar va zaxiralarni manbalashda o'z kapitalini holatiga muhim e'tibor qaratiladi. Negaki, bu ko'rsatkichlar korxonalar moliyaviy mustaqilligini ta'minlashni, moliyaviy qaramlikka yo'l qo'ymaslikni ham muhim omili hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va yuritishda albatta aktivlarni moliyalashtirishni ham o'z tartib qoidalari va shartlari mavjud.

Tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarish va tijoratni yo'lga qo'yishning dastlabki tayanchi sifatida xususiy sarmoyani shakllantirayotganda uzoq muddatli aktivlar va zaxiralarni shakllantirishga yetarli mablag'ni to'plashga ahamiyat qaratadilar.

Lekin faoliyatning dastlabki va keyingi jarayonlarida buni doimo to'la ta'min eta olmaydilar va qarz kapitalini jalb qilishga majbur bo'ladilar.

Aktivlarni moliyalashtirishda eng muhim manba bu xususiy sarmoya, o'z kapitali hisoblanadi. Buxgalteriya balansida ushbu qatorni jamlangan ifodasi o'z mablag'lari manbasi deb yuritiladi.

Aktivlarni manbalashda birinchi navbatda uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishga ahamiyat qaratiladi.

2.25-jadval

Aktivlarni manbalash qoidalari

Aktivlar	O'MM	UMChJQM	QMChJQM
Uzoq muddatli aktivlar	+	+	x
Zaxira va xarajatlar	+	X	+

Aktivlarni manbalashni uch xil tarkibini berib o'tish mumkin.

1. O‘z mablag‘lari manbasi hisobiga moliyalashtirish (O‘MM).

2. Uzoq muddatli, chetdan jalb qilingan mablag‘lar hisobiga moliyalashtirish (UMChJQM).

3. Qisqa muddatli, chetdan jalb qilingan mablag‘lar hisobiga moliyalashtirish(QMChJQM.

Zaxira va xarajatlarni moliyalashtirishda ushbu tushunchaning balans moddalariga nisbatan to‘g‘ri belgilanganligini izohlash lozim. Buxgalteriya balansining aktiv tomoni ikkinchi bo‘limi joriy aktivlar deb nomlanib ushbu tarkib likvidlilik darajasi bo‘yicha uchta tarkibni tovar moddiy zaxiralar (TMZ), debitorlik majburiyatlarini (DM) hamda pul mablag‘larini (PM) jamlangan qatorini o‘z ichiga oladi. Joriy aktivlar qatoridagi tovar moddiy zaxiralar qatoriga kiruvchi barcha birliklar hamda kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlari jamlagan holda zaxira va xarajatlar deb nomlanishi rasmiy jihatdan belgilangan.

Uzoq muddatli aktivlar hamda zaxira va xarajatlarni moliyalashtirishda mablag‘larning naqdligi yuzasidan quyidagi jihatlari tarikiblanadi.

Uzoq muddatli aktivlarni manbalanishini topish uchun buxgalteriya balansi bo‘yicha quyidagi bog‘lanishlarga tayaniladi.

Ya’ni:

$$\textbf{O‘MM} - \textbf{UMA} \qquad (2.13)$$

Bunda:

O‘MM-o‘z mablag‘lari manbayi;

ChJQUMM-chetdan jalb qilingan uzoq muddatli majburiyatlar

UMA-Uzoq muddatli aktivlar.

2.13-Ifoda o‘z oborot mablag‘lari naqdligini (O‘OMN) ifodalaydi.

$$\textbf{O‘M} + \textbf{UMChJQM} - \textbf{UMA} \qquad (2.14)$$

Ushbu ifoda o‘z va uzoq muddatli qarzga olingan mablag‘lar naqdligini xarakterlaydi (O‘QOMN).

$$\textbf{O‘M} + \textbf{UMChJQM-UMA+QMChJQM} \qquad (2.15)$$

Ushbu ifoda joriy aktivlarni moliyalashtirishning jami naqdligini ifoda etadi (JOMN).

Chetdan jalb qilinadigan mablag'lar ikki xil tarkibda guruhlanadi. Birinchi tarkibi uzoq muddatli kreditlar va qarzlar qatorini o'z ichiga oladi va ular to'liq, uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar esa aylanma aktivlarni to'ldirish uchun jalb qilinadi.

Uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishda o'z va qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish koeffitsiyentiga ham bah beriladi.

Bu jihatdan uzoq muddatli aktivlarning o'z mablag'lari manbasi hisobiga qoplanish koeffitsiyenti, o'z va qarz mablag'lari hisobiga qoplanish koeffitsiyentlari hisob-kitob qilinadi.

2.26-jadval

Uzoq muddatli aktivlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish koeffitsiyenti

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Izoh
Uzoq muddatli aktivlarni o'z mablag'lari manbasi hisobiga ta'minlanish koeffitsiyenti	O'MM/UMA	1,0 dan yuqori
Uzoq muddatli aktivlarning o'z va uzoq muddatli majburiyatlar hisobiga ta'minlanish koeffitsiyenti	O'MM+ UMChJQM/UMA	Minimum 1,0 ga teng deb olinadi

Zaxira va xarajatlarni manbalashda mablag'lar yetarliligi va yetishmasligini koeffitsiyent usulida ham hisob-kitob qilish mumkin. Koeffitsiyent usuli zaxira va xarajatlarni moliyalashtirishdagi holatni qiyosiy o'rganish, uning ijobiy siljishlari o'rganishda muhim hisoblanadi.

2.27-jadval

Zaxira va xarajatlarni manbalash yuzasidan mablag'lar naqdligini va moliyalashtirish darajasini hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Manbalashdagi farqlanish+,-
O'z oborot mablag'larining naqdligi (O'OMN).	O'MM-UMA	O'OMN-ZX
O'z va uzoq muddatli qarz mablag'larining naqdligi (O'QOMN).	O'MM + UMChJQM -UMA	O'QOMN-ZX
Jami mablag'larning naqdligi (JOMN).	O'MM + UMChJQM −UMA + QMChJQM	JOMN-ZX

2.28-jadval

Oborot mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Izoh
O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	O'OMN/ZX	0,6-0,8
O'z va uzoq muddatli qarz mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	O'QOMN/ZX	Minimum 1,0 ga teng
Jami mablag'lar bilan ta'minlanganlik	JOMN/ZX	1 dan yuqori

Zaxira va xarajatlarning o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, joriy aktivlarning o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyentining tarkibiy qatori hisoblanadi.

Zaxira va xarajatlarni tegishli manbalar hisobidan moliyalashtirishning amaldagi holatidan kelib chiqib korxonaning

barqarorlik darajasiga ham baho berish mumkin. Amaldagi normalar quyidagi shartlar asosida tuzib chiqilgan.

2.29-jadval

Zaxira va xarajatlarni tegishli mag'lag'lar hisobiga manbalanish normalari

O'OMN >ZX	O'OMN <ZX	O'OMN <ZX	O'OMN <ZX
O'OMN +UMKQ >ZX	O'OMN +UMKQ >ZX	O'OMN +UMKQ <ZX	O'OMN +UMKQ <ZX
JM>ZX	JM>ZX	JM>ZX	JM<ZX
Mutlaq moliyaviy barqaror	Normal moliyaviy barqarorlik	Moliyaviy nobarqarorlik	Krizis holatidagi nobarqarorlik

2.30-jadval

Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanganlikni tahlili

Ko'rsatkichlar	**Yil boshiga**	**Yil oxiriga**	**Farqi (+,-)**
1	2	3	4
1. O'z mablag'larining manbalari	994945	1183636	188691
2. Uzoq muddatli aktivlar	470508	676793	206285
3. O'z aylanma mablag'larining naqdligi (1-2)	524437	506843	-17594
4. Uzoq muddatli kredit va qarzlar	74488	3632777	3558289
5. Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	598925	4139620	3540695
6. Qisqa muddatli kredit va qarzlar	8188382	5586206	-2602176

7. Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	8787307	9725826	938519
8. Zaxira va xarajatlar jami	8634486	9386442	751956
9. Zaxira va xarajatlarni qoplashga o'z aylanma mablag'larining yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-) 3-8	-8110049	-8879599	-769550
10. Zaxira va xarajatlarni qoplashga o'z va uzoq muddatli qarz manbalarining yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-) 5-8	-8035561	-5246822	2788739
11. Zaxira va xarajatlarni qoplashga jami manbalarning yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-) 7-8	152821	339384	186563

Korxonadagi holat krizis holatidagi moliyaviy nobarqarorlik qatoriga mos tushadi. Negaki 9, 10-ko'rsatkichlarning barchasida manfiy o'zgaruvchanlik ya'ni mablag'lar yetishmovchiligini xarakterlaydi. Faqat 11-ko'rsatkichgina ya'ni jami (o'z va qarzga olingan) mablag'lar hisobiga moliyalashtirish qatorigina zaxiralar va xarajatlarni qoplashga mablag'lar yetarliligini ifoda etadi.

2.7. Lizing hisobiga olingan mablag'lar tahlili

Lizing operatsiyalarini yo'lga qo'yilishi albatta, puxta ishlangan investitsion loyihalar asosida tashkil etiladi. Investitsion loyihalar esa o'z-o'zidan iqtisodiy va moliyaviy tahlil asosidagina aniq yechimiga ega bo'ladi.

Investitsion loyihalarning moliyaviy va iqtisodiy tahlilini bevosita shu asnoda o'tkazilishi ham bejiz emas.

Lizing — moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing

shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi[1].

Lizing faoliyati lizing beruvchi tomonidan o'z mablag'lari va (yoki) jalb etilgan mablag'lar hisobidan lizing obyektining sotib olinishi va uni lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga berilishi borasidagi investitsiya faoliyati turidir

Lizing uning uchta subyekti ishtirok etadigan to'g'ridan to'g'ri shaklda ham, lizing oluvchi va sotuvchi bo'lib bir shaxsning o'zi ishtirok etadigan qaytariladigan shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

2.31-jadval

Lizing shartnomasi shartlari

Lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:		
lizing shartnomasining muddati lizing obyekti xizmat muddatining sakson foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing obyektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining yigirma foizidan kam bo'lsa;	Lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obyektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini to'lab sotib olish huquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing obyekti qiymati asos bo'ladi;	lizing shartnomasi davri uchun lizing to'lovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing obyektining lizingga topshirish paytidagi joriy qiymatining to'qson foizidan ortiq bo'lsa. Joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymat buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Kompaniya va firmalar erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida turli kredit institutlari bilan shartnoma asosda qarz munosabatlarini yo'lga qo'yishni talab etadi. Ana shunday institutlardan biri bu lizing kompaniyalari hisoblanadi. Lizing kompaniyalarini imkoniyatli tomoni shundaki bunda, ulkan

[1] Ўзбекистон Республикасининг «Лизинг тўғрисида»ги қонуни. 2-модда Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 52-сон

moliyaviy resurslar talab qilinadigan texnika va texnologiyalarni olib kelinishi, xo'jalik yuritish subyektlari yoki tadbirkorlarga qimmatga tushadi.

2.32-jadval

Lizing obyekti va subyekti

Lizing obyektlari va subyektlari	
Lizing obyektlari	**Lizing subektlari**
Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan boshqa mol-mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin emas.	Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing subyektlaridir. Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi deb e'tirof etiladi. Egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo'yicha lizing obyektini olayotgan shaxs lizing oluvchi deb e'tirof etiladi. Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs sotuvchi deb e'tirof etiladi. Lizing obyekti lizing oluvchining krediti (qarzi) hisobidan olingan taqdirda, aniq lizing obyektiga nisbatan lizing beruvchining kreditori va lizing oluvchi bir shaxs timsolida ish ko'rishiga yo'l qo'yilmaydi.

Birinchidan: kompaniya yoki firma uning moliyaviy imkoniyatiga ega emas. Ega bo'lingan hollarda ham uning birdaniga jalb qilinishi mablag'larning oqlanuvchanlik davrini oshirib yuboradi. Ana shunday hollarda kompaniya albatta lizing asosida mablag'larni joylashtirishdan manfaat ko'radi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish va uning aylanmasi asosida ega bo'lingan mablag'lar hisobiga davriy to'lovlarni amalga oshirilishi, kelishilgan muddat tugashi bilan texnika va texnologiyalarni o'z egaligiga o'tishi, lizing to'lovlarini asosiy qismini ishlab chiqarish xarajatlariga olib borilishi va boshqa yutuqli jihatlar lizing operatsiyalarini ham imkoniyatligini xarakterlaydi.

Albatta, narxlar o'zgaruvchanligi sharoitida investitsion loyihalarning uzoq davriylikdagi prognozining aniq yechimini berish qiyin masala. Shu sababli, turli risklarni hisobga olish, inflyatsion jarayon, to'lovlarni amalga oshirish shakllariga ahamiyat berish talab etiladi. Xuddi shu holat Respublikamizda investitsion kompaniyalarning aktiv ishtirokchisi sifatida lizing kompaniyalarini ish faoliyatiga sezilarli ta'sir etmoqda. Lizing kompaniyalari lizing shartlarida aktivlarni joylashtirishda turli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

2.1-diagramma

Lizing xizmatlar bozorining rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari[1]



Tahlil etishda lizing asosida korxona tasarrufiga va foydalanishiga berilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa aktivlar yuzasidan to'lovlarni davriy amalga oshirilishi, ularning oqlanuvchanligi va samaradorligi, foydalilik darajasiga muhim ahamiyat beriladi. Afsuski, lizing operatsiyalari bo'yicha

[1] Ўзбекистонда фаолият юритаетган асосий лизинг компаниялари:Uzbek Leasing International A.O., MED Leasing, Infin Leasing, China Leasing Group, Asaka Trans Leasing, Alliance Leasing, Feron Leasing,Delta Leasing, O'zavtosanoat Leasing, SifCo International,BDS Leasing

olingan mulk va uning samaradorligi tahlilining uslubiy asoslari olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Bu bir jihatdan o'rinlidir. Negaki rejali iqtisodiyot, ko'char va ko'chmas mulkni joylashtirishni markazlashgan ta'minotini, tartibini va qoidalarini belgilab bergan edi. Erkin bozor munosabatlari sharoitida esa bu mexanizmni saqlanishi o'rinsizligi kompaniya va firmalar oldiga ulkan mas'uliyat qo'yadi. Ya'ni: mulk va uni joylashtirishni, egalik va tasarruf etishni yangi shakllarini hayotga joriy etish zaruriyatga aylanadi.

2.8. Firma va kompaniyalar balansini reyting baholash va moliyaviy tahlilni yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi

Moliyaviy holatni reyting baholash orqali turli tashkilot va korxonalarning o'zaro bir-biriga nisbatan faollik darajasiga baho beriladi. Ushbu jarayonni bir tizimga, tarmoqqa kiruvchi korxonalarga nisbatan makro ko'lamda o'rganish masalasi sifatida qarash mumkin.

Ushbu masala ikki jihat bilan xarakterlanadi. Birinchi jihat bir nechta korxonalarning faoliyatini kompleks baholashning tahlil etuvchi tomonidan tarkiblangan muhim ko'rsatkichlar tizimiga tayangan holda taqqoslashni va ularni darajalar bo'yicha ketma-ketligini belgilashni nazarda tutadi.

Ikkinchi jihati korxonalar o'rtasida etalon sifatida olingan bir nechta natijaviy ko'rsatkichlarni taqqoslash asosida o'tkaziladigan jarayonlar nazarda tutiladi.

Birinchi jihatda reyting baholash yuzasidan ko'rsatkichlar tizimi turlicha tanlanishi, ikkinchi jihatda esa rasmiy belgilangan ko'rsatkichlar tizimiga tayaniladi.

Alohida moliyaviy hisobot tuzuvchi, tadbirkorlik subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini reyting baholash orqali tarkiblash bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning kapitallashuv darajasi bo'yicha raqobatdoshligini aniqlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Ushbu tushuncha bizning amaliyotga ilk bora oliy ta'limda, talabalar bilimini baholashda qo'llaniladigan usul sifatida foydalanib kelinganligini ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda buxgalter va iqtisodchilar ushbu jarayonning tashkil etilishini nafaqat nazariy jihatdan balki uni amaliy ifodalarida ham aktiv qatnashmoqdalar.

Reyting baholash maqsadini korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash orqali ularning raqobatchilar va boshqa subyektlarga nisbatan qiyosiy o'rnini belgilab berish tashkil etadi.

Reyting baholashning quyidagi xususiyatlari tarkiblanadi.

– Baholashda ishlatiladigan moliyaviy ko'rsatkichlar rasmiy chop etiladigan moliyaviy hisobotlarda aks etgan bo'lishi lozim;

– reyting baholashning ko'rsatkichlar tizimi tarkibiga: foydalilik ko'rsatkichlari, boshqaruvning samaradorligi ko'rsatkichlari, ish aktivligi ko'rsatkichlarini, likvidlilik darajasini va baqarorlik ko'rsatkichlari kiritiladi. Har bitta tarkibda uchtadan yettitagacha ko'rsatkich qatnashadi;

– reyting baholashda barcha tarkib ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori darajaga ega bo'lgan etalon korxona ko'rsatkichi asos qilib olinadi;

– reyting baholash asosida chiqariladigan xulosa moliyaviy holat tahlili xulosalaridan keskin farq etadi va bunda korxonani iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Reyting baholashda qatnashuvchi koeffitsiyent quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– maksimal darajadagi axborotga ega bo'lishi;

– bir tomonlama xarakterga ega bo'lishi (masalan koeffitsiyent o'sishi moliyaviy holatni yaxshilanishini xarakterlashi) lozim;

– barcha ko'rsatkichlar miqdoriy minimal normalarga ega bo'lishi lozim;

– rasmiy, chop eitiladigan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida hisoblanishi lozim.

Reyting baholash yuzasidan aniqlanadigan va hisob-kitob qilinadigan formulani quyidagi birliklar nisbati orqali ifoda etish mumkin.

$$R = \sum_{i=1}^{n} \frac{1}{L_i} \frac{K_i}{N_i}, \qquad (2.16)$$

Bund L-reyting baholashda aniqlanadigan ko'rsatkichlar, N-koeffitsiyent normativ talabi, K-koeffitsiyent 1/ L*, N-indeks.

Ushbu ko'rsatkichning 1 dan kichkina bo'lishi moliyaviy holatni qoniqarsiz ekanligini xarakterlaydi.

Reyting baholashda eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlar qatoriga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi. Bular:

1. O'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti.

Kt=O'z mablag'lari manbasi (UMM)+Uzoq muddatli kredit va qarzlar (UMKQ)-Uzoq muddatli aktivlar(A)/ Jami aktivlar (JA) (2.17)

Norma Kt>=0.1

2. Balans likvidligi

Kt =Joriy aktivlar (JA) / Joriy majburiyatlar (JM) (2.18)

Norma Kl>=0.1

3. Avanslangan kapital aylanuvchanligi

Ka=Sotishdan tushum/Avanslangan kapital*365 (2.19)

Norma- >=2.5

4. Korxona boshqaruvining samaradorligi

Ks=Sotishdan olingan foyda/ Sotishdan tushum (2.20)

Norma-Ks>= (r-1)

5. Xususiy kapital rentabelligi

Kk=Soliq to'loviga qadar foyda/ Xususiy kapital (2.21)

Norma-Ka>=0.2

Rossiya amaliyotida ko'p qo'llaniladigan ushbu metodik yondashuv yakunida reyting bahosi quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadi.

$$R=2Kt+0.1Kl+0.08Ka+0.45\ s+\ K \qquad (2.22)$$

Ushbu amaliyot bankrotlikni, iqtisodiy nochorlikni aniqlashda xorijda qo'llaniladigan modellarga o'xshab ketadi.

Buxgalteriya balansi tahlilini oxirgi bosqichi – tahlil natijalarini yakuniy xulosalarini chiqarish va rasmiylashtirish hisoblanadi. Yakuniy xulosada, kompaniya va firmalarni mulkiy holati, ularning manbalanishi, iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, kompaniya va firma to'lovga qobilligi, likvidliligi, moliyaviy mustahkamlik va barqarorligini tashxisi qo'yiladi.

Bu tashxis asosida – kompaniya va firmalarning iqtisodiy reyting bahosini ham berish mumkin. Kompaniya va firmalarni buxgalteriya balansi asosida iqtisodiy va moliyaviy reytingini aniqlashning uslubiy mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– kompaniya yoki firmani iqtisodiy va moliyaviy salohiyati;

– kompaniya yoki firmaning mulkiy jamg'armasi, aktivlar va passivlar real qiymati;

– kompaniya yoki firmaning to'lovga qobilligi;

– kompaniya yoki firmaning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligi;

– kompaniya yoki firma mablag'larini harakatchanligi (likvidliligi).

Tahlil natijalarini rasmiylashtirishni uslubiy tartibida xulosalarni aniq va ravon tilda bayon etilishiga, yutuq va kamchiliklarni asosligiga, o'rinli va obyektivligiga, yuzaga kelish va o'zgarishlarni davriyligiga, tahlil yakuni bo'yicha kompaniya, firma boshqaruvini optimal strategiyalarini (chora-tadbirlar) belgilab olinishiga ahamiyat berish lozim.

Korxona mol-mulki (aktivlari)ni odilona baholashni xorij tajribalari

Mulkni «odilona baholash» – moliyaviy hisobotlarni tuzishning eng muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Uning, g'oyaviy mualliflaridan biri Raymond Djon Chambers hisoblanadi. Chambers g'oyaviy qarashlarida inflyatsiya ta'sirida aktivlarni real qiymatini aniqlashning usullari ilgari suriladi.

«Odilona baholash»ning ingliz tilidan tom ma'nodagi tarjimasiga nisbatan, odatda, turlicha so'zlar ishlatiladi.Masalan «haqqoniy baholash», «aniq baholash», «qonuniy baholash», «qoidaviy baholash».

Dastlab, odilona qiymatni aniqlashga qayta baholashning muhim vositasi sifatida qaralgan. Moliyaviy hisobotning xalqaro

standarti, 32 (MFSO) standartiga muvofiq moliyaviy instrumentlarni mustaqil baholashning birinchi harakatlari boshlandi va bu holat buxgalteriya hisobida yangi bir davrni, o'zgarishni ochib bergan. Bu holat, investitsion va moliyaviy aktivlar, valuta balansi qiymatini o'zgartirgan holda ularning moliyaviy natijalariga ta'sir etmagan.

Odilona baholash balans moddalarini tuzish paytiga haqiqiy qiymati bo'yicha hisob-kitob qilinishini xarakterlaydi.

«Odilona baholash» korxonaning mulki, ishlab chiqarish xarajatlarining qiymati uning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda bozorning ta'siridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda korxonaning moliyaviy holati va uning moliyaviy natijaviyligini qayta baholashni izohlaydi. Ya'ni subyektivizmning ta'siridan holi bo'lgan moliyaviy hisobotlar tuzish talabini hal etadi.

Hozirgi hisobchilik tizimida, xalqaro maydonda odilona baholashning quyidagi xususiyatlari xarakterlanadi.

Qo'llash sohasi: «Odilona baholash»ning qo'llanish sohasi cheklangan. Ushbu usul aniq mulkiy birliklarga nisbatan (investitsion mulkka, biologik aktivlarga, moliyaviy instrumentlarga, aktivlarning alohida tarkiblari)ga nisbatan yoki jarayonlarning ayrim turlariga (biznesni birlashtirish, asosiy vositalarni qayta baholash, tekinga olinadigan qiymatliklarni baholash va h.k.) nisbatan qo'llaniladi.

Hisoblash tartibi:– haqqoniy baholash xo'jalik faoliyatining aktivlari va jarayonlariga nisbatan farqlanadi.

Aktivlarni odilona baholash korxonalarning moliyaviy natijaviyligiga, jarayonlarni odilona baholash esa kapitallashuv jarayoniga ta'sir etadi. Biologik aktivlarning (boquvdagi jonivorlar, o'stirilayotgan o'simliklar) odilona baholanishidagi o'zgarishlar foyda va zararlarga, asosiy vositalarni qayta baholanishi esa korxona kapitalining o'zgarishiga olib keladi.

Biologik aktivlar «odilona baholash» kabi hisobning yangi tushunchasidir. MHXS ga muvofiq biotransformatsiyalashuvni boshqarishni nazarda tutuvchi qishloq xo'jalik faoliyati biologik aktivlardan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratishni yoki qo'shimcha biologik aktivlarni yetishtirishni nazarda tutadi.

Baholash tartibi. Odilona baholash aktivlarning turiga va ular qiymatining o'zgarish darajasiga bog'liq.

Odilona qiymat raqobatbardosh bozor baholariga (sotuvchi va oluvchilarning axborotlar to'liqligiga tayangan holda dallolsiz kelishuvlarga) tayangan holda aniqlanadi. Agar aktivning bozor bahosini aniqlash imkoni bo'lmasa ulardan foydalanish va xizmat ko'rsatish muddatlarida keltiradigan daromadligiga qarab aniqlanadi. Agarda, aktivlarning kelgusida, daromad keltirishini aniqlash imkoni bo'lmasa qayta tiklash qiymati bo'yicha baholanadi. Ayrim va juda kam kuzatiladigan hollarda, ya'ni yuqorida keltirilgan usullardan birontasi odilona qiymatni aniqlash imkonini bermasa, u holda dastlabki qiymat bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

GLOSSARIY

Balans atamasi lotincha bis ikki marta, banx – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, tarozining ikkala pallasi degan ma'noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansi – korxona moliyaviy ahvoli haqida axborot beruvchi eng muhim hisobot shakli bo'lib ma'lum sanaga korxonaning aktivlari, kapitali va majburiyatlar holatini ifodalaydi

Tashkil topish balansi – korxonaning tashkil topish vaqtida tuziladigan balans. Ushbu balans kirish balansi ham deb yuritiladi.

Joriy balanslar – korxonaning uzluksiz faoliyati davomida qonunda belgilangan muddatlarda tuziladigan balans.

Tugatish balansi-korxona tugatilganda tuziladigan balans.

Bo'lish balansi – yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo'linish vaqtida tuziladigan balans.

Birlashtirish balansi – bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda tuziladigan balans.

Bir martalik balans – bitta korxona bo'yicha joriy hisob asosida tuziladigan balans.

Yig'ma balans – bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar (vazirliklar, qo'mita va boshqarmalar va shu kabilar)ning xo'jalik mablag'larini aks ettiradi.

Mustaqil balans – yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan barcha korxonalar tomonidan tuziladigan balans

Alohida balans – korxonaning tarkibiy bo'linmalari (filiallar, bo'limlar, sho'ba va qaram xo'jaliklar va shu kabilar) tomonidan tuziladigan balans shakli.

Brutto balans – tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balans.

Netto balans – balansning umumiy qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegirib aniqlanadigan balans.

Tashqi qarz – bank kreditlari va qarzlarini, olingan avans to'lovlarini, kreditorlik majburiyatlarining mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qismini o'z ichiga oladi.

Ichki qarz – korxonaning mehnat haqidan, soliqlar, to'lovlar va yig'imlar bo'yicha qarzidan, jalb qilingan qarz mablag'lari yuzasidan foizlar, aksionerlarga e'lon qilingan dividendlar bo'yicha majburiyatlardan iborat bo'ladi.

Aktivlar – subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Majburiyatlar – qarzdorning kreditor foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yohud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir.

Xususiy kapital – korxonaning ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydasidan iborat o'z sarmoyasi.

Moliyaviy hisobotni o'qish – deganda moliyaviy hisobot elementlari, moddalari va ko'rsatkichlarini arifmetik hisob-kitoblarsiz mantiqiy tavsiflash tushuniladi.

Buxgalteriya balansini gorizontal tahlili – deganda buxgalteriya balansi elementlari va moddalarini, ko'rsatkichlar tizimini mutlaq va nisbiy ifodalarda, hisobot davri boshiga yoki o'tgan yilga nisbatan qiyosiy o'rganishga aytiladi.

Buxgalteriya balansi vertikal tahlili – deganda – buxgalteriya balansi elementlari va moddalarini, ko'rsatkichlar tizimini mutlaq va nisbiy ifodalarda tarkibiy o'rganishga aytiladi.

Buxgalteriya balansini trend tahlili – buxgalteriya balansi elementlari va moddalarini, ko'rsatkichlar tizimini bazis yili yoki asos yili bilan taqqoslash usulidir.

Lizing — moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi taraf (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Lizing obyektlari – tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan boshqa mol-mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin emas.

Lizing subyektlari – lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing subyektlaridir.

Lizing beruvchi – lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi, deb e'tirof etiladi.

Lizing oluvchi – egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo'yicha lizing obyektini olayotgan shaxs lizing oluvchi, deb e'tirof etiladi.

Sotuvchi – lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo'lsa, ushbu shaxs sotuvchi deb e'tirof etiladi.

Reyting baholash – korxonalarning faoliyatini kompleks baholashning tahlil etuvchi tomonidan tarkiblangan muhim ko'rsatkichlar tizimiga tayangan holda taqqoslashni va ularni darajalar bo'yicha ketma-ketligini belgilashni, shuningdek etalon sifatida olingan bir nechta natijaviy ko'rsatkichlarni taqqoslash asosida o'tkaziladigan jarayonlarni nazarda tutadi.

Odilona baholash – korxonaning mulki, ishlab chiqarish xarajatlarining qiymati uning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda bozorning ta'siridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda korxonaning moliyaviy holati va uning moliyaviy natijaviyligini

qayta baholashni izohlaydi. Ushbu tushuncha haqqoniy baholash, aniq baholash, qonuniy baholash, qoidaviy baholash tushunchalari bilan bir ma'noda qo'llaniladi.

Nazorat uchun savollar

1. Buxgalteriya balansini tahlil etishda uning dastlabki tekshirish zarurligini izohlang?
2. Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili deganda nimani tushunasiz?
3. Buxgalteriya balansini trend tahlili mazmunini tushuntiring?
4. Koeffitsiyentlar va ularni korxona moliyaviy holatiga baho berishdagi ahamiyatini tavsiflang?
5. Moliyaviy koeffitsiyentlarni qanday turlarini bilasiz?
6. Kompaniya (firma) mulkini manbalashda qanday mablag'lardan foydalaniladi?
7. Kompaniya (firma) aktivlari va passivlarini joylashtirilishini buxgalteriya balansi asosida tavsiflang?
8. Reting baholash amaliyotiga o'tishdagi muammolar nimada?
9. Analitik netto balans qanday tuzib chiqiladi?
10. Buxgalteriya balansini boshqa hisobot shakllari bilan bog'liqliklarini tushuntiring?
11. Moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini buxgalteriya balansi misolida tushuntiring?
12. Mol-mulkni odilona baholash deganda nimani tushunasiz va bu nimalarga olib keladi?
13. Buxgalteriya balansiga ilovalar nimalarni izohlaydi?
14. Buxgalteriya balansini taqdim etish manzilligi deganda nimani tushunasiz va uning qonuniy talablari?
15. Buxgalteriya balansini kompyuter dasturlari asosida tuzishni, analitik ishlashni yutug'i nimada. Bu boradagi imkoniyatlarni izohlang?
16. Buxgalteriya balansini tuzishning G'arb amaliyotidan farqli jihatlarini izohlab bering?
17. Buxgarteriya balansi likvidligi deganda nimani tushunasiz, korxona likvidligidan qanday farqlanadi?

18. Buxgalteriya balansini tahlil etishning an'anaviy shakli va uni takomillashtirishning zaruriyati nimada?

19. Lizing operatsiyalarini obyektlari moliyaviy hisobot shakllarida qanday aks etadi?

20. Lizing operatsiyalari yuzasidan moliyaviy holatni baholash talab etiladimi?

21. Lizing operatsiyalari asosida olingan va joylashtirilgan aktivlar tahlili qanday amalga oshiriladi?

III bob. MAHSULOT SOTISHNI KRITIK HAJM DARAJASI VA FOYDALILIK TAHLILI

3.1. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot elementlari va uning ko'rsatkichlar tizimi

Foyda tijorat faoliyatining yakuniy ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich bir tomondan yakuniy moliyaviy natijani ifoda etsa, ikkinchi tomondan firmaning moliyaviy resurslari, xususiy kapitalini shakllantirishning asosiy manbayi sifatida qaraladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uning hajmi investitsion yo'nalishlarini ham belgilab beradi. Shu sababli, tadbirkorlar birinchi navbatda, eng yuqori o'sish darajasiga ega bo'lgan hamda kelgusidagi biznes ravnaqini ta'minlovchi sohalarga o'z mablag'larini investitsiyalashga ahamiyat beradilar.

Foydaning o'sishi nafaqat tadbirkorlar, ta'sischilar qiziqishlarida, balki strategik tavsifdagi davlat dasturlarini amalga oshirishda muhim bo'lgan soliqlar to'lovida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, foydaning shakllanishi va taqsimlanishini tahlil etishda asosiy e'tibor raqobatga bardoshlik va xo'jalik subyektining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga imkon beruvchi foydani o'stirishning ichki imkoniyatlarini izlab topishga qaratilmog'i lozim.

Xo'jalik subyektining ishlab chiqarish va moliyaviy imkoniyatlarini baholashda foyda va zararlar haqidagi hisobot shakli investorlar va analitiklar uchun muhim manba hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moliyaviy hisobotning 2-son shakli hisoblanib unda korxonaning joriy davr bo'yicha aktivlarning ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishi shaklidagi iqtisodiy foydaning o'lchangan ko'payishi, aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning ortishi shaklidagi itisodiy foydaning o'lchangan kamayishi (xarajatlar) aks etadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy elementlari daromadlar va xarajatlar hisoblanadi.

Daromadlar – hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishidir.

Xarajatlar – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yohud majburiyatlarning ko'payishidir.

Moliyaviy natija – xo'jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

Moliyaviy faoliyat natijaviyligi yuzasidan:

– shakllanishi bo'yicha: yalpi foyda, marjinal foyda, soliq to'loviga qadar foyda, sof foyda;

– shakllanish manbasi bo'yicha: mahsulot sotishdan foyda, boshqa aktivlarni sotishdan foyda, sotishdan tashqari operatsiyalardan foyda;

– faoliyat turi bo'yicha-asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan, investitsion faoliyatdan foyda;

– olinishining davriyligi bo'yicha-doimiy foyda, favqulodda foyda;

– ishlatilishi bo'yicha – dividend to'lovlariga yo'naltirilgan foyda, taqsimlanmagan foyda (kapitallashuv) turlari tarkiblanadi;

Foydani boshqarish yuzasidan quyidagi maqsadlar belgilanadi;

– foydani maksimallashtirish;

– foydaga ega bo'lish yuzasidan tahlikalarni optimal darajagacha kamaytirish;

– foydaning yuksak sifatliligini ta'minlash;

– mulk egalariga dividend to'lashni ko'zlangan darajasini ta'minlash;

– taqsimlanmagan foyda hisobidan investitsiyalashning yetarli miqdoriga erishish;

– korxonaning bozor qiymatini oshirish;

– korxona xodimlarini foydaning taqsimotida qatnashishi yuzasidan samarali dasturlar ijrosini ta'minlash.

Moliyaviy hisob va hisobotlarning amaldagi normalarida moliyaviy natijalarning quyidagi ko'rsatkichlari tarkiblanadi.

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda (yoki zarar), — sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda (yoki zarar)-mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut hamda asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar va xarajatlar farqini o'z ichiga oladi:

Xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar)-asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi va moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan natijani o'z ichiga oladi.

Xo'jalik umumiy faoliyati deganda — xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy foydalarni mustahkamlash va o'stirishga qaratilgan har qanday tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Soliq to'langungacha olingan foyda (yoki zarar)-umumxo'jalik faoliyatidan olingan natija va favqulodda (ko'zda tutilmagan) foyda (zarar) summasini o'z ichiga oladi:

Yilning sof foydasi (yoki zarari) — soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladigan foyda summasini xarakterlaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularning xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi natijasida olinadigan daromadlari hisobotga quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha kiritiladi:

1. Sotishdan olingan sof tushum.
2. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari).
3. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar.
4. Favqulodda daromadlar.

Sotishdan olingan sof tushum mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan, undan qo'shilgan qiymat, aksiz solig'i va eksport boj poshlinasi, chegirilgan tushum sifatida aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

— undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan qarzlar va xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa xil jazo

jarimalari, shuningdek, yetkazilgan zararlarni undirish bo'yicha daromadlar;

– hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda;

– ishlab chiqarish va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan renta daromadi. xo'jalik yurituvchi subyektlar huzuridagi oshxonalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshqa daromadlar;

– xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy fondlarini va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingan daromadlar;

– da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

– tovar-moddiy boyliklarni puxta baholash. Tovar-moddiy boyliklarni puxta baholash summasi ularning sotilishiga qarab foyda sifatida e'tirof etiladi;

– davlat subsidiyalaridan daromadlar;

– xolisona moliyaviy yordam;

– boshqa operatsion daromadlar.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

– olingan royaltilar va sarmoya transferti;

– O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo'jalik yurituvchi subyektga tegishli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

– mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish);

– valuta schyotlari, shuningdek, chet el valutalaridagi operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari;

– sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar;

– moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Favqulodda daromad (zarar) – deb xo'jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyatidan aniq farq etadigan, ya'ni tez-tez yoki muntazam sodir bo'lmaydigan voqealar yoki bitimlar natijasida yuz bergan daromadlar va xarajatlarga aytiladi.

3.1-jadval

Moliyaviy natijani xarakterlovchi ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Mahsulot sotishdan sof tushum	MSST=MSJT-SS	MSST-mahsulot sotishdan sof tushum MSJT-mahsulot sotishdan jami tushum SS-sotishga soliqlar summasi
Sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi	SMicht	SMicht-sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi
Mahsulot sotishdan yalpi foyda	YaF=MSST-SMicht	YaFz yalpi foyda(zarar)
Davr xarajatlari	Dx	Dx-davr xarajatlari
Asosiy faoliyatdan keladigan boshqa operatsion daromadlar va xarajatlar	On	On-operatsion foyda(zarar)
Asosiy xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari	AFn=YaF-Dx+,-On	AFn-asosiy faoliyatdan foyda (zarar)
Moliyaviy faoliyatga doir boshqa daromadlar va xarajatlar	MFn	MFn-moliyaviy faoliyatdan foyda (zarar)
Xo'jalik umumiy faoliyatining moliyaviy natijasi	UFn=AFn+,-MFn	UFn- Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar)
Favqulodda foyda va zararlar	Fn	Fn-favqulodda foyda(zarar)
Daromad solig'ini to'lagunga qadar umumiy moliyaviy natija	Fd=UFn+,-Fn	Fd-Daromad solig'ini to'lagunga qadar foyda(zarar)
Hisobot davridagi sof foyda	SF=Fd-Ds-Bs	SF-sof foyda (zarar) Ds-daromad solig'i Bs-foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar

U yoki bu moddaning favqulodda daromad (zarar)lar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

– korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;

– bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;

– boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi subyekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo'lsa, u holda – iqlim sharoitlariga bog'liq holdagi ishlamay turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda «bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak» mezoniga javob berishiga qarab belgilanishi lozim. Moliyaviy natijalarni aniqlashda hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligiga ahamiyat qaratish lozim. Hisobot davrida bo'lgan daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi shuni anglatadiki, mazkur davrda ushbu hisobot davridagi daromadlarni olishga asos bo'lgan xarajatlargina aks ettiriladi. Agar daromadlar bilan xarajatlarning o'rtasida bevosita bog'liqlikni o'rnatish qiyin bo'lsa, xarajatlar biron-bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o'rtasida taqsimlanadi. Bu masalan, bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlariga taalluqlidir. Xarajatlarni belgilash mulkni, ishlab chiqarishni boshqarish bilan hamda mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va zararlar bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ular odatda pul mablag'lari, moddiy zaxiralar, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi yoki ulardan foydalanilishi shaklida bo'ladi.

3.2. **Realizatsiya hajmi, chiqarish xarajatlari va foyda aloqadorligini tahlili** (costs-volume-profit)

Biznesni harakatga keltiruvchi kuch faoliyatning (egaistik ko'rinishdagi harakatlar) yakunida erishiladigan foyda hisoblanadi. Shu sababli, foyda mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalarning faolyatini baholashning yagona

ko‘rsatkichi sifatida qaraladi. Shuningdek, foyda bu maqsadli harakatning rag‘bati hamdir. Tijorat faoliyati va uning davomiyligi ko‘pincha ushbu unsurning hajmiga, to‘g‘ri taqsimotiga va ishlatilishiga bog‘liq. Foyda o‘z-o‘zidan iqtisodiy aktivlarni oldingi harakatlarining mutanosibligidan kelib chiqadi. Ya’ni, jarayonlar bo‘lib o‘tgan, yutuqlar va yo‘qotishlar yuzaga kelib bo‘lgan bo‘ladi.

Iqtisodiy aktivlar harakatida foydani shakllantirishning eng muhim omili bu ishlab chiqarish xarajatlari va ular tufayli erishilgan iqtisodiy samarani (mahsulot chiqishi) tijorat faoliyatidan pul va pul ekvivalentlari shaklida tushumlarning ortishi shaklida (sotish jarayoni) aktivlarning ko‘payishi hisoblanadi.

3.2-jadval

Foyda, tushum va aktiv hajmining o‘sishidagi muvofiqlik

Foydaning o‘sishi	Tushumning o‘sishi	Aktivning o‘sishi	%
F1/F0*100	ST1/ST0*100	A1/A2*100	100
O‘sishning muvofiqligi			
F1/F0*100>ST1/ST0*100>A1/A2*100>100 yoki			
100<A1/A2*100< ST1/ST0*100< F1/F0*100			

Bu bilan foyda va unga dahldor bo‘lgan daromadlar va xarajatlar bog‘liqligi kelib chiqadi. Xorij amaliyotida ushbu bog‘liqlikning metodik uslubiyoti yaratilganligi aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak 80 yil bo‘ldi.

Ushbu bog‘liqlikni nafaqat ijobiy yakuniga balki ushbu yakunning qatnashuvchi boshqa birliklarga nisbatan ham o‘sishiga erishilishi umumiy faoliyatning rivojlanishi, taraqqiy etishining ham asosiy omili deb qaraladi.

Ya’ni foydaning o‘sish darajasi sotish hajmining o‘sish darajasidan yuqori, sotish hajmining o‘sishi esa iqtisodiy aktivlarning o‘sishi darajasidan yuqori bo‘lishligi talab etiladi.

Foydaga ega bo'lish shunchaki maqsad emas, uning qaysi darajadaligi muhimroq.

Bu omil faqat korxonaning o'ziga bog'liq jihatlar bilan hal etiladigan hodisa emas. Unda ko'proq tashqi omillar ta'siri kuchliroq hisoblanadi.

Realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda ko'rsatkichlari uzviy bog'liqlikga ega. Realizatsiya hajmi orqali yalpi daromad, yalpi tushum ko'rsatkichiga ega bo'linadi. Uning ishlab chiqarish xarajatlari bilan taqqoslash asosida foyda, natija ko'rsatkichiga chiqiladi. Buni matematik ifodada quyidagicha tasvirlash mumkin.

$$F(D)=MSST-MIChT(TSOQ) \qquad (3.1)$$

Bunda;

F(D)-foyda(daromad);

MSST-mahsulot sotishdan sof tushum;

SMIChT (TSOQ)-mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (sotib olingan tovarlar qiymati).

Buxgalteriya hisobida mahsulot chiqishi, xarajat va natija aloqadorligini quyidagi bog'lanishda hisobga olish tartibi ham belgilanadi.

Sotish hajmi − Xarajatlar=Natija

Natijaviy ko'rsatkich demakki, sotish hajmiga yoki tovar oborot ko'rsatkichiga hamda ishlab chiqarish xarajatlari yoki tovarlarni sotib olish qiymatiga bog'liq deb qaraladi. Uning birlik ifodasini esa quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$N=D*B-D*T \qquad (3.2)$$

$$N=D\ (B-T) \qquad (3.3)$$

Bunda:

N-foyda;

B-mahsulot birligini bahosi (so'm);

D-mahsulot birligi (dona);

T-mahsulot birligini ishlab chiqarish tannarxi (so'm).

Yuqoridagi bog'lanishdan natijaviy ko'rsatkichni mahsulotning miqdori, bahosi va birlik tannarxiga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Uning ifodasi bevosita natijaviy ko'rsatkichni omilli tahlil etish imkonini ham beradi. Demak, natija o'zgarishiga hi-

sob-kitob qilinadigan quyidagi omillar ta'sir etishini izohlash mumkin;

- ishlab chiqarilgan mahsulotlar birligini o'zgarishi;
- mahsulotlar birlik bahosining o'zgarishi;
- mahsulotlar birlik tannarxining o'zgarishi;

Marjinal foyda kontributsiyasiga nisbatan oladigan bo'lsak ishlab chiqarish xarajatlarini shartli o'zgaruvchan, o'zgarmas, o'zgaruvchan xarajatlarga tarkiblanishi, bog'lanishni yanada murakkablashtiradi. Bunda ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishida mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini o'zgarishi asos qilib olingan. Amaldagi tartib bo'yicha shartli o'zgaruvchan xarajatlar tarkibdan chiqarilgan. Ya'ni ishlab chiqarish xarajatlari shartli o'zgaruvchan va doimiy (o'zgarmas) xarajatlarga tarkiblanadi.

3.3-jadval

Mahsulot sotish hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va natija aloqadorligini ko'rsatkichlar tizimi[42]

Daromad	Xarajat	Natija
1	2	3
Mahsulot sotishdan sof tushum (2500.0 m.s.)	Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (2250.0 m.s.)	Mahsulot sotishdan yalpi foyda (250.0 m.s.)
	A)O'zgaruvchan xarajatlar (2000.0 m.s.)	Marjinal foyda (500.0 s.m.)
	B)O'zgarmas xarajatlar (250.0 m.s.)	Mahsulot sotishdan sof foyda (250 m.s.)
Operatsion faoliyatdan tushum (230.0 m.s)	Operatsion xarajat (335.0 m.s)	Operatsion faoliyatdan foyda (zarar) (-105 m.s.)

[42] М Ю Раҳимов «Дон маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида молиявий натижалар ҳисоби, таҳлили ва аудитини такомиллаштириш»(диссертация) Т ; ЎзР. Банк ва Молия академияси. 1999 йил

Moliyaviy faoliyatdan tushum (410.0 m.s.)	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (300.0 m.s.)	Moliyaviy faoliyatdan foyda (zarar) (110 m.s.)
Kutilmagan holatlardan tushum (0.0)	Kutilmagan holatlardan xarajat (0.0.)	Kutilmagan holatlardan foyda(zarar) (0.0)
Umumiy tushum (daromad) (3140 m.s.)	Umumiy xarajat (sarf) (2885 m.s.)	Umumiy foyda (zarar) (265 m.s.)

Jadval natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki; mahsulot sotishdan olingan sof tushum 2500.0 ming so'mni va uning ishlab chiqarish tannarxi 2250.0 ming so'mni tashkil etgan. Mahsulot sotishdan ko'rilgan natija 250 ming so'm ijobiy farqlanishga ega bo'lgan. Umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining ichida 2000.0 ming so'mi o'zgaruvchan xarajatlar, 250 ming so'mi o'zgarmas xarajatlar sifatida belgilangan. Bu orqali mahsulot sotishdan marjinal foyda va sof foyda ko'rsatkichlari aniqlangan.

3.3. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash moliyaviy hisobotlashning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholashda albatta ularning tuzilishi va tabiatini bilish talab etiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari «Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi nizomga muvofiq quyidagi xarajat elementlari bo'yicha tarkiblanadi;

– ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

– ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari va ajratmalari;

– ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashayotgan asosiy va nomoddiy aktivlarni eskirish xarajatlari;

– ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

Ularni baholanishi tarkib bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan: mehnat haqini baholanishi hisoblangan mehnat haqi va ajratmalar summasidan yoki mehnat haqi va ajratmalar yuzasidan tan olingan majburiyatlar summasidan kelib chiqib baholanadi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya, eskirish qiymatlari belgilangan, qat'iy, normalar asosida hisob-kitob qilingan qiymat bilan baholanadi[1].

Asosiy aktivlar va nomoddiy aktivlar ularning to'liq boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Asosiy aktivlar va nomoddiy aktivlar qiymatini hisobdan chiqarish ularning qiymati to'liq to'langunga yoki obyekt safdan chiqib ketgunga qadar bo'lgan eskirishini (amortizatsiyani) hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi. Amortizatsiya ajratmalari obyekt foydalanishga topshirilganidan keyingi oydan ishlab amalga oshiriladi. Yerning qiymati amortizatsiya qilinmaydi.

Moliyaviy qo'yilmalar buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq hisobga olinadi.

Majburiyatlar taraflarning kelishuvi, bilan pul bilan aks ettiriladi.

Sud qarori bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlar tegishli summada aks ettiriladi.

Potensial majburiyatlar dastlabki haqiqiy bahosi bo'yicha aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiruvchi moddiy xarajatlarni baholanishi asosiy vositalarni yoki nomoddiy aktivlarni eskirishi, mehnat haqi va ajratmalar baholanishidan keskin farq qiladi.

Aylanma aktivlarni baholash quyidagi ikki bahoning eng pasti bo'yicha – balans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarxi bo'yicha – (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki bozor bahosi bo'yicha (sof sotish qiymati) amalga oshiriladi.

Moddiy resurslar tarkibiga kiruvchi va ishlab chiqarish xarajatlarida asosiy element hisoblangan zaxiralarni baholanishini buxgalteriya hisobini milliy standartlari bo'yicha quyidagi turlari tarkiblanadi:

[1] Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонуни 12-моддаси. Активлар ва мажбуриятларни баҳолаш

– o'rtacha tannarx usuli;
– FIFO usuli;
– LIFO usuli;

O'rtacha tannarx usuli zaxiralarni o'rtacha bahosida ishlab chiqarish tannarxiga olib borishni, FIFO usuli dastlabki kirimni dastlab chiqarishni, LIFO usuli so'ngi kirimni dastlab hisobdan chiqarishni xarakterlaydi.

Bu usullarni farqlashni ahamiyati shundaki, ularning natijaviy ko'rsatkichga ta'siri turlicha bo'ladi. Masalan: o'rtacha tannarx bo'yicha alohida ishlab chiqarish tannarxiga, fifo usulida alohida, lifo usulida alohida ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichlariga ega bo'linadi. Buning ta'sirida natijaviy ko'rsatkich ham turlicha chiqadi.

3.4-jadval

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash usullari va ularning tavsifi

Baholash elementlari	Baholash usullari
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	Haqiqiy tannarxida
	FIFO
	LIFO
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi va ajratmalar	Hisoblangan va tan olingan qiymati bo'yicha
Ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishi	Belgilangan me'yorlar asosida
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita boshqa xarajatlar	Haqiqiy qiymati bo'yicha
Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari	Tan olingan va yuzaga kelgan qiymati bo'yicha

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholashda boshqa xarajat elementlarini baholanishi xarajatlarning tarkibi bo'yicha farqlanadi. Masalan: xizmatlar shaklida olingan ishlar hajmi ularning haqiqiy qiymati yoki majburiyatlarning tan olingan qiymati bo'yicha baholanadi.

3.4-jadval

Qimmatli qog'ozlar	Pulli ekvivalentlarni haqiqiy qiymati bo'yicha
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar	Sotib olish va qurish qiymatida (har yilning 1-yanvar holatiga qayta baholash amalga oshiriladi)
Tugallanmagan ishlab chiqarish	Tugallanmagan ishlab chiqarishni haqiqiy qiymati bo'yicha

TMZ larni baholashni korxona foydasiga ta'sirni hisob-kitob qilishni aniq misollar asosida quyidagi ma'lumotlar bazasida ko'rib chiqishimiz mumkin.

3.5-jadval

TMZ sotib olish hajmi

Sana	Zaxiralar	Hajmi	Bahosi	Qiymati
01 yanvar	TMZ boshlang'ich qoldig'i	40	1.350	54.000
03 yanvar	Sotib olingan TMZ	150	1.440	216.000
15 yanvar	Sotib olingan TMZ	140	1,520	212,800
18 yanvar	Ishlab chiqarishga berilgani	250		
22 yanvar	Sotib olingan TMZ	30	1,560	46,800
31 yanvar	TMZ oxirgi qoldig'i	110		

Joriy davrda TMZlarning 40 birligi 1.35$ bahoda 100 birligi 1,44$ va 110 birligi 1,52 $ bahoda ishlab chiqarishga berildi. Ishlab chiqarishga berilgan tovar moddiy zaxiralarining tannarxi quyidagicha aniqlanadi.

3.6-jadval

TMZ tannarxi

Soni	Bahosi	Qiymati
40	1,350	54,000
100	1,440	144,000
110	1,520	167,200
Tannarx		365,200

Omborda ishlatilmay qolgan zaxiralar miqdori quyidagicha aniqlanadi.

3.7-jadval

TMZni ombordagi qoldig'i tannarxi

Soni	Bahosi	Qiymati
0,00	1,350	-
50,00	1,440	72,000
30,00	1,520	45,600
30,00	1,560	46,800
Oxirgi zaxira		164,400

3.8-jadval

O'rtacha tannarx usulida

Soni	Bahosi	Qiymati
40	1,350	54,000
150	1,440	216,000
140	1,520	212,800
30	1,560	46,800
To'liq tannarx		529,600
Bir birlik o'rtacha tannarxi		1,470
Qoldiq tannarxi		161,820
Sotilgan mahsulot tannarxi		367,780

O'rtacha tannarx hisob-kitobi:

$ 529.600 / (40+150+140+30) = $ 1.47.

Ishlab chikarilgan berilgan TMZ tannarxi o'rtacha tannarxga ko'paytirib topiladi.

250*1.470=$ 367.780

3.9-jadval

FIFO usuuli bo'yicha tannarxi hisob-kitobi/Birinchi kirim-birinchi chiqim qoidasi

TMZ chiqarilishi birinchi kirimdan boshlanadi		
Soni	Bahosi	Qiymati
40	1,350	54,000
150	1,440	216,000
60	1,520	91,200
0	1,560	-
Sotilgan mahsulot tannarxi		361,200
Ombordagi qoldiq		
Kol-vo	Bahosi	Qiymati
0,00	1,350	-
0,00	1,440	-
80,00	1,520	121,600
30,00	1,560	46,800
Oxirgi qoldiq		168,400

Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtacha tannarx usuliga nisbatan kamayadi va foydaning maksimal darajada oshishiga olib keladi.

3.10-jadval

LIFO usulida TMZ tannarxini hisob-kitobi /Oxirgi kirish oxirgi chiqish usuli/TMZ chiqarilishi oxirgi partiyadan boshlanadi		
miqdori	bahosi	Qiymati
30	1,560	46.800
140	1,520	212,800
80	1,440	115,200
0	1,350	-
Sotilgan mahsulot tannarxi		374,800

Ombordagi qoldiq		
miqdori	bahosi	Qiymati
0,00	1,560	-
0,00	1,520	-
70,00	1,440	100,800
40,00	1,350	54,000
Oxirgi qoldiq		154,800

Yuqoridagi usullar bo'yicha sotilgan mahsulot tannarxi qiyosiy tahlilini amalga oshirish mumkin.

3.11-jadval

Mahsulot tannarxining qiyosiy farqlanishi

Usullar	Sotilgan mahsulot tannarxi	Qoldiq tannarxi
O'rtacha tannarx	367,780	161,820
FIFO	361,200	168,400
LIFO	374,800	154,800

O'rtacha tannarx usulida 376,780 $ ni, FIFO usulida 361200 $ LIFO usulida esa 374,800 $ ni tashkil etgan.

Bundan ko'rinib turibdiki dastlabki davrda foydani o'sishi FIFO usulida imkoniyatli lekin keyingi davrlar bo'yicha ushbu usul foydaning kamayishini xarakterlaydi.

3.4. Marjinal daromad(foyda) kontributsiyasi va uning omilli tahlili

Biznes boshqaruvi qarorlarini asoslashda marjinal tahlil muhim hisoblanadi.Uning metodik asosida o'zaro aloqadorlikka ega bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni uchta guruhini o'rganish turadi

Bu ko'rsatkichlar xarajatlar, ishlab chiqarish (sotish) hajmi va foyda ko'rsatkichlaridir. Mazkur usul ko'pincha zararsizlik tahlili deb yuritiladi.

Ushbu usul amerika olimlari tomonidan 1930-yillarda ishlab chiqilgan.

Uning g'oyaviy muallifi asli kasbi injener bo'lgan Uolter Rautenshtrax hisoblanadi. Uslubiyot negizida, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga muvofiqlikda o'zgarib turuvchi va o'zgarmas xarajatlarning tarkiblanishi turadi.

Korxonaning marjinal daromadi – sotishdan tushumdan o'zgaruvchan xarajatlarni chegirish asosida aniqlanadi. Mahsulot birligidan marjinal daromad ushbu mahsulotning bahosi bilan unga ketgan o'zgaruvchan xarajatlarning farqiga teng. Baho tarkibida esa faqat o'zgaruvchan xarajatlar emas balki doimiy xarajatlar va foyda summasi ham aks etadi.

Marjinal tahlilning asosiy jihatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

– zararsiz ishlash hajmini aniqlash;

– korxonaning xavfsiz (zararsiz) ishlash doirasini belgilash;

– foydaning ko'zlangan hajmida mahsulot ishlab chiqarish hajmini belgilab olish;

– marjinal daromadlikka erishishda doimiy xarajatlarning kritik darajasini aniqlash;

– belgilangan topshiriqlarni uddalashda doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar ta'sirida mahsulot bahosining kritik darajasini belgilab olish.

Marjinal daromadning, odatda, uchta tur ko'rsatkichi hisob-kitob qilinadi:

1. Mutlaq marjinal daromad.
1. Nisbiy marjinal daromad.
2. Operatsion richag.

3.12-jadval

Marjinal daromad ko'rsatkichlari

1. Mutlaq marjinal daromad	ST-O'x	ST-sotishdan tushum O'x-o'zgaruvchan xarajat
2. Nisbiy marjinal daromad	MD/ST	MD-marjinal daromad
3. Operatsion richag	Fo'/STo'	Fo'-mahsulot sotishdan foydaning o'sishi STo'- sotish hajmining o'sishi

Mahsulot sotishdan foydaning o'sishi	F1-F0/F0	Foydaning joriy (1) va o'tgan (0) davr ko'rsatkichi
Sotish hajmining o'sishi	S1-S0/S0	Sotish hajmining joriy (1) va o'tgan (0) davr ko'rsatkichi

Ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblanishi nashr etilgan adabiyotlarda nazariy jihatdan bayon etiladi.

Normativ hujjatlarda esa ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblash normalari belgilanmaydi.

Shu sababli, amaliyotda ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblagan holda hisobga olish tartibiga amal etilmaydi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblashdan maqsad shuki-bu xarajatlarni yuzaga chiqish shakli, o'rni va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish hamda xarajatlarni maqsadli boshqarish imkonini beradi. Afsuski, ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlariga tarkiblashda ishlab chiqarish va davr xarajatlari bir xil mazmunda qarashmoqda. Vaholanki bu tarkib xarajatlarning har ikkala guruhiga nisbatan ham tarkiblanishi to'g'ri deb qaraladi.

Mahsulot sotishdan olingan tushumni hisoblashda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»[44] qonunni qabul qilinishi va amaliyotga kiritilishi bilan kassali usuldan hisobga olish usuliga o'tish belgilandi. Buni bevosita hisobning barcha o'zgaruvchi birliklarini o'z ichiga oluvchi korxona hisob siyosatining o'zgarishi bilan xarakterlash mumkin.

Demak, marjinal foyda kontributsiyasiga ta'sir etuvchi asosiy birliklardan biri bu- korxona hisob siyosatining o'zgarishidir.

Kassali usuldan hisobga olish usuliga o'tilishi marjinal foyda, yalpi summasini oshiradi.

Lekin keyingi davrlar bo'yicha uning realligini ta'minlash vazifasi qo'yiladi.

[44] «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги қонун, 1996 й. 30-август

3.13-jadval

Marjinal foyda va uning omilli tahlili hisob- kitoblari

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili shartli	Hisobot yili
Mahsulot sotishdan yalpi tushum	Mo'*Bo'	Mx*Bo'	Mx*Bx
Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxida o'zgaruvchan xarajatlar	Mo'*O'o'	Mx*O'o'	Mx*O'x
Marjinal foyda	Mo'(Bo'-O'o')	Mx(Bo'-O'o')	Mx(Bx-O'x)
Sotilgan mahsulot tannarxida o'zgarmas xarajatlar	Do'	Dx	Dx
Mahsulot sotishdan sof foyda	Mo'(Bo'-O'o')-Do'	Mx(Bo'-O'o')-Dx	Mx(Bx-O'x)-Dx

Belgilar izohi;

Mo', Mx- o'tgan yil(Mo') va hisobot yilidagi(Mx) haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori;

Bo', Bx-o'tgan yil (Bo') va hisobot yilidagi(Bx) sotilgan mahsulotlar birlik bahosi;

O'o', O'x-o'tgan yil (O'o')va hisobot yilida(O'x) mahsulotlar birligiga o'zgaruvchan xarajatlar;

Do', Dx-o'tgan yil (Do') va hisobot yilida (Dx) jami o'zgaruvchan xarajatlar.

Yuqoridagi bog'lanishlardan marjinal foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ham hisob-kitob qilish mumkin. Marjinal foyda ko'rsatkichi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi, hisob-kitob qilinadigan omillarga mahsulotlar miqdori, birlik bahosi va bir birlikka o'zgaruvchan xarajatlar o'zgarishi ta'siri kiradi.[45]

1. Marjinal foyda va uning o'zgarishiga mahsulot miqdorini o'zgarishi ta'sirini topish uchun quyidagi bog'lanishdan foydalaniladi;

$$\mathbf{Mx * Bo' - Mo' * Bo' = Bo' * (Mx - Mo');} \quad (3.4)$$

[45] Ушбу боғланиш и.ф.н , доц. М.Ю.Рахимов томонидан тавсия этилади .

2. Marjinal foyda o'zgarishiga baho o'zgarishining ta'sirini quyidagi bog'lanishda topish mumkin;

$$Mx * Bx - Mx * Bo' = Mx * (Bx - Bo'); \quad (3.5)$$

3. Marjinal foyda o'zgarishiga mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar sarfi o'zgarishini ta'siri quyidagi bog'lanishda topiladi;

$$Mx * O'x - Mx * O'o' = Mx * (O'x - O'o'); \quad (3.6)$$

Uchta omil yig'indisi jamlangan holda marjinal va sof foyda o'zgarishiga omillar ta'sirini hisob-kitob qilib chiqish mumkin.

Korxona foydasini oshirish yo'llarga: sotish hajmini oshirish (tovarlarni kreditga sotish, sotishdan keyingi kafolatlangan xizmat ko'rsatishlar, to'lovlarda turli chegirmalardan foydalanish), Narxlarni oshirish sifatni yaxshilash orqali, talabgor bozorlarni izlab topish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish), mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish (korxona ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishni yo'lga qo'yish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish zaxiralaridan tejamli foydalanish, sifatsiz va brak mahsulotlarga yo'l qo'yilmaslik) orqali erishish mumkin.

Yuqoridagi metodik jihatga muqobil variant sifatida marjinal foyda va unga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi bog'lanishlar orqali prognozlash (bashoratlash) tartibini ham berib o'tish mumkin.

$$PSp = PSb \text{ yo } DS \text{ yo } DN \text{ yo } DVC \text{ yo } DFC \text{ yo } DP \quad (3.7)$$

Bunda:
PSp – foyda prognozi;
PSb – bazis davri foydasi;
DS – sotish hajmining o'zgarishi ta'siri;
DN – sotish hajmiga tarkibiy o'zgarishlar ta'siri;
DVC – o'zgaruvchan xarajatlarning ta'siri;
DFC – doimiy xarajatlar o'zgarishi ta'siri;
DP – sotish bahosining o'zgarishi ta'siri

3.14-jadval

Marjinal foyda va uning joriy davr ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Belgi	Miqdori	Hisob-kitob usuli
1. Sotish hajmi, ming so'm.	S	500 000	Hisobot
2. O'zgaruvchan xarajatlar, ming so'm.	VC	320 000	Buxgalteriya hisobi
3. O'zgaruvchan xarajatlar koeffitsiyenti	b	0,64	VC : S
4. Marjinal daromad, ming so'm	MP	180 000	S – VC
5.Marjinal daromad koeffitsiyenti	a	0,36	MP : S
6. Doimiy (O'zgarmas) xarajat ming so'm	FC	80 000	Otchet
7. Sotishdan yalpi foyda, ming so'm.	PS	100 000	MP – FC
8. Operatsion richag	OL	1,8	MP : PS

Sotishdan tushumlar qatori bo'yicha tarkibiy o'zgarishlarni bilish yuzasidan mahsulotning (amaldagi variantda) shartli uchta tarkibi belgilab olinadi.

Kelgusi davrning bashorat qilingan o'sish ko'rsatkichlari:

– Sotish hajmining o'sishi- 15%.

– Sotish tarkibining o'zgarishi: «A» – 50%; «V» – 40%; «S» – 10%.

– O'zgaruvchan xarajatlarning kamayishi-10%.

– Doimiy xarajatlarning o'sishi-20 ming so'm.

– Mahsulotlarni sotish bahosining o'sishi- 20%.

3.15-jadval

Sotishni tarkibiy tuzilishi

Tovarlar guruhi	Salmog'i %	Sotishning har bir so'miga MP	Sotishning har bir so'miga qayta hisoblangan MP
A	30%	0,6	0,6 x 0,3 = 0,18
V	50%	0,32	0,32 x 0,5 = 0,16
S	20%	0,1	0,1 x 0,2 = 0,02
Jami:	100%	x	x

Omillar ta'sirining hisob-kitobi:

1.Sotish hajmining foydaga ta'sirini hisob-kitobi.

$$DS = DTs \times OL \times PSb \quad (3.8)$$

Bunda:

DTs – sotishdan tushumning o'sish prognozi;

OL – operatsion richag;

PS – bazis davrida sotishdan tushum summasi.

+15 x 1,8 = + 27% (operatsion richag samarasi).

100 000 x 27%/100 = +27 000.

2. Tarkibiy o'zgarishlarning marjinal foydaga ta'siri hisob-kitobi(DN)

3.16-jadval

Omillar ta'siri hisob-kitobi

Tovarlar guruhi	Salmog'i %	Sotishning har bir so'miga MP	Sotishning har bir so'miga qayta hisoblangan MP
A	50%	0,6	0,6 x 0,5 = 0,3
V	40%	0,32	0,32 x 0,4 = 0,128
S	10%	0,1	0,10 x 0,1 = 0,01
jami:	100%	x	0,44

$$DN = Sb \times Tb \times DMPn \quad (3.9)$$

Bunda:

Sb – bazis davrdagi sotish hajmi;

Tb – sotish hajmining prognozdagi o'sishi;

DMPn – tarkibiy o'zgarishlar hisobiga marjinal daromad koeffitsiyentining o'zgarishi.

500 000 x 1,15 x +7,8% = +44 850

3. Doimiy xarajatlar o'zgarishining foydaga ta'siri hisob-kitobi (DVC):

$$DVC = Sb \times Ts \times VCn \times VCp \quad (3.10)$$

Bunda:

VCn – tarkibiy o'zgarishlar hisobiga o'zgaruvchan xarajatlarning koeffitsiyenti (1 – MPn);

VCp – o'zgaruvchan xarajatlarni kamaytirish prognozi.

500 000 x 1,15 x (1 – 0,438) x +10% = +32315

4. Foydaga doimiy xarajatlar o'zgarishining ta'siri (DFC) doimiy xarajatlarning 20 ming so'mga ortishi foydani shuncha summaga kamaytiradi deb qaraladi. (-20 000).

Foyda o'zgarishiga bahoning ta'siri quyidagi bog'lanishda topiladi(DP)

$$DP = Sb \times Ts \times Pp \qquad (3.11)$$

Bunda:

Pp – mahsulotni sotish bahosining o'zgarishi prognozi.

500 000 x 1,15 x +20% = 115 000.

Hisob-kitoblar yakunida foydaning quyidagi darajasiga erishiladi:

100 000 + 27 000 + 44 850 + 32 315 — 20 000 + 115 000 = 299165

Demak kelgusida, joriy davrda 100000 ming so'm foydaga ega bo'lgan korxona uni 299165 ming so'mga yoki 2,99 baravarga oshirish imkoniyatiga ega deb xulosa qilish mumkin.

3.5. Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darajasini tahlili

Firma va kompaniyalar faoliyat yuritayotganda turli kutilmagan hodisalarga duch keladi. Bu esa to'g'ri baholashni talab etadi. Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarishda uning qanday hajmi korxonaga zararsiz ishlash imkonini tug'diradi, yoki mahsulotning qaysi birligida mahsulot sotishdan olinadigan tushum to'la o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarni qoplay oladi?

Ushbu vazifani bajarish uchun firma va kompaniyalarda mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi ko'rsatkichi aniqlanadi.

Har bitta korxona mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish rejasini tuzishda albatta kutiladigan foyda normasini hisoblashga va biznes samaradorligini baholashga ahamiyat berishadi. Foyda normasini belgilab olish, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada murakkab masala hisoblanadi. Negaki uning hisob-kitobida turli tahlikalarni (risklarni) hisobga olishga to'g'ri keladi.

Foyda normasini hisoblashni murakkabligi shundaki, bunda resurslar, mahsulotlar bahosi, soliqlar, to'lovlar firma va kompaniyalar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgaruvchanlikka ega bo'ladi. Qachonki aniq ko'rsatkichlar manbasiga ega bo'linsa ularni hisob-kitob qilish imkoni tug'iladi. Bu manba inflyatsiyani ta'sir darajasi, baholarning o'zgarish holatlari, ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchanligi (mahsulot hajmi va resurslar bahosini o'zgarishi hisobiga) bo'lishi mumkin.

Kritik hajm darajasini aniqlashga quyidagi hollarda murojaat qilinadi:

– korxona yangi tashkil etilganda;

– ishlab chiqarish va marketing tadqiqotlari tahlilida;

– yangi mahsulot turini ishlab chiqarish yoki eski mahsulot turini rad qilish qarorini tayyorlashda;

– ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda;

– mahsulotlarni tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirishda

Kritik hajm tahlilida javob tayyorlanadigan yo'nalishlar:

– xarajatlarni kamaytirish mumkinmi?

– sotish hajmi o'sadimi yoki kamayadimi?

– baho oshadimi yoki kamayadimi?

– doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar qanday bo'ladi?

Kritik hajm darajasi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar summasi va mahsulotlarni sotish baholari orqali hisob-kitob qilinadi.

Sotishning tegishli hajmiga erishish uchun avalo baho birligi belgilanishi lozim. Baho birligi belgilangandan keyin kritik hajm darajasi qaytadan hisob-kitob qilinadi. Agar olingan natija zararsizlik darajasini qanoatlantirmasa baho korrektirovka qilinadi va daraja hisob-kitobi qaytadan amalga oshiriladi. Marjinal foydaning ko'zda tutilgan darajasiga erishilmasa, mahsulot tannarxini kamaytirish choralari ko'riladi.

Tahlil yakunida yakuniy zararsizlik darajasi hisob-kitob qilinadi va davriy oraliqda korxonaning moliyaviy rejasi belgilab olinadi.

Kritik hajm darajasini tahlil etishning maqsadi – foyda olish imkoniyatini belgilashdan iborat. Agar korxonaning foydaga

ishlash imkoniyatini aniq baholasak, ijobiy pul oqimlariga ega bo'lish imkoniyatlari ham bilinadi.

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni qanday hisob-kitob qilish mumkin? Ushbu xarajatlar buxgalteriya hisobining mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlarini alohida, kalkulyatsiya moddalari bo'yicha o'rganish orqali bilib olinadi.

Xalqaro amaliyotda kritik hajm darajasini aniqlashda analitik tadbirlarning quyidagi metodikasi belgilangan.

1. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar tarkiblanadi.
2. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi belgilanadi

3.17-jadval

Ishlab chiqarish hajmiga muvofiq xarajatlarni klassifikatsiya qilish

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili	
	Doimiy	O'zgaruvchan	Doimiy	O'zgaruvchan
1. Material xarajatlar	4136	78581	5114	97173
2. Mehnat haqi xarajatlari	12859	115733	7684	145996
2.1. Vaqtbay ish haqi	12859	x	7684	x
2.2. Ishbay ish haqi	x	115733	x	145996
3. Ish haqidan ajratmalar	3372	30350	1953	37115
3.1. Vaqtbay ish haqidan	3372	x	1953	x
3.2. Ishbay ish haqidan	x	30350	x	37115
4. Amortizatsiya xarajatlari	8033	x	8730	x
5. Boshqa xarajatlar	22280		28736	
Jami:	50680	224664	52217	280284

Korxonada moliyaviy mustahkamlik zaxirasi hisobot yilida 86 foizni tashkil etgan, o'tgan yilda ushbu daraja 75,85 foizga teng bo'lgan. Bundan ijobiy o'zgarishlar kuzatilganligini izohlash mumkin.

3.18-jadval

Kritik hajm (zararsizlik) darajasini aniqlanishi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi
1. Jami ishlab chiqarish xarajatlari	275344	332501	57157
2. O'zgaruvchan xarajatlar	224664	280284	55620
3.Doimiy xarajatlar	50680	52217	1537
4. Sotish hajmi	342763	422275	79512
5. Xarajatlarning o'sish darajasi, %	80.33%	78.74%	-1.59%
6. O'zgaruvchan xarajatlarning o'sish darajasi %	65.54%	66.37%	0.83%
7. Doimiy xarajatlarning o'sish darajasi %	14.79%	12.37%	-2.42%
8. Sotishdan foyda	38560	43306	4746
9. Sotuv rentabelligi % (q.8:q.4 x 100)	11.25%	10.26%	-0.99%
10. Qoplash jamg'armasi (q.3+q.8)	89240	95523	57157
11. Qoplash jamg'armasi koeffitsiyenti(q.10:q.4)	0.26	0.23	-0.03
12. Zararsizlik nuqtasi (q.3:q.11)	194923.08	227030.43	32107
13. Moliyaviy mustahkamlik zaxirasi % (q.4:q.12 x 100-100)	75.85%	86%	10.15%
14. Operatsion richag		0.005	

Nazariy jihatdan aytish mumkinki hisobot yilida sotish hajmini 227030,43 ming so'mgacha kamaytirishi, o'tgan yil bo'yicha esa 194923,08 ming so'mgacha kamaytirishi ushbu chegaraviylikda korxona zararsiz ishlashi mumkin. Ya'ni doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar summasini qoplashga teng sotuv hajmiga erishadi.

Agar korxona foyda hajmini 1 foizga o'stirishi lozim bo'lsa buning uchun sotish hajmini 0,005 foizga o'stirishi talab etiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini aniqlash va uni tahlil etish, iqtisodiy harakatda va biznesda muhim masala hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich orqali kompaniya va firmalar mahsulot ishlab chiqarishning foydalilik darajasini belgilab oladilar. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini belgilash, uning hisob-kitoblari keng doirada olimlar tomonidan o'rganilgan. Shu sababli uni aniqlashning turli ifodalari tavsiya etilgan.

Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darajasini hisoblashning quyidagi bog'lanishli ifodasini berib o'tish mumkin. (Raximov M.Yu. «Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy natijalarni hisobga olish, tahlil etish va auditni takomillashtirish muammolari» dissertatsiya avtoreferati, T.: O'zR Bank va Moliya Akademiyasi, 1999 y.)

$$Yk=(S/P)*Yk+U \qquad (3.12)$$

Bunda:

Yk-kritik hajm darajasidagi mahsulot hajmi.

U-jami o'zgaruvchan xarajatlar.

S-mahsulot birligida o'zgaruvchan xarajat.

P-mahsulot birligini bahosi.

Shuningdek, kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarishni quyidagi ifodalar orqali aniqlash ham mumkin va ularning mazmuni bitta (3.19-jadval).

3.19-jadval

Kritik hajm darajasini hisob-kitob qilish formulalari

Aniqlanish formulasi	**Muallifi**
Yk=U/1-(S/P)[46]	Prof. Sheremet A.D.
Yk=Q*S+U[47]	Prof. Sheremet A.D.
Yk=(S/P)*Yk+U[48]	I.f.n.dots. Raximov M.Yu.
Yk=C+S+o[49]	I.f.n.dots. Raximov M.Yu.
Qk=U/(P-S)[50] Yk=Qk*P	Prof.Tomas P. Karlin
Yk=U/P/P-S[51]	I.f.n.dots. Raximov M.Yu.
F=R-S=(r-s)*Q-S[52]	I.f.n. N.Xasanov,S.Najmiddinov

[46] Шеремет А.Д. Факторный анализ критического обема продукции. М.: Денги и кредит, 1998г. 36 ст.

[47] Шеремет А.Д. Факторный анализ критического обема продукции. М. Денги и кредит, 1998г. 36 ст.

[48] Рахимов М.Ю. Дон маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида молиявий натижалар ҳисоби. Таҳлили ва аудитини такомиллаштириш. Диссертация, ЎзР Банк Молия академияси, 1999 й.

[49] Рахимов М.Ю. Дон маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида молиявий натижалар ҳисоби. Таҳлили ва аудитини такомиллаштириш. Диссертация, УзР Банк Молия академияси, 1999 й.

[50] Томас П.Карлин Анализ финансовых отчетов М.: ИНФРА-М, 1998

[51] Рахимов М.Ю. Дон маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида молиявий натижалар ҳисоби. Таҳлили ва аудитини такомиллаштириш. Диссертация, ЎзР. Банк Молия академияси, 1999 й.

[52] Н.Хасанов,С Нажмиддинов Корхона молиявий ҳолатини баҳолаш (муаммолар ва уларни ҳал қилиш) Т.; Иқтисодиет ва ҳуқуқ дунёси 1999 й 51-бет

Belgilar izohi:	Yk-kritik hajm U-doimiy xarajatlar R- birlik baho, S +S –o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlar S-jami o‘zgarmas xarajat, Q-mahsulot birligi, miqdor -O‘zgaruvchan xarajat

Qk=U/(P-S).
Qk= O‘x+Dx+o yoki.
Qk= M* S +Dx+o.
Belgilar izohi;
Qk-kritik hajm darajasidagi mahsulotni miqdoriy birligi.
O‘x-o‘zgaruvchan xarajat.
Dx-doimiy xarajat.
0- nol miqdordagi foyda.
M-mahsulot birligi.
R-mahsulot birligiga o‘zgaruvchan xarajat.
C+S+o=O‘zgaruvchan xarajatlar+O‘zgarmas xarajatlar+ foyda. Bunda foyda miqdori nolga teng deb olinadi.



3.1-chizma. **Kritik hajm darajasining grafik shaklda ifoda etilishi**

Ya’ni ishlab chiqarish va savdo aylanmasidan olingan daromad to‘liq, barcha xarajatlarni qoplagan holda foydaga ega bo‘linmaydi.

Kritik hajm darajasini grafik chizmasini quyidagicha ifoda etish mumkin (3.1-chizmaga qarang).

Kritik hajm darajasidagi mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi birliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

– mahsulot birligi bahosining o'zgarishi;
– bir birlikka o'zgaruvchan xarajatlarni o'zgarishi:
– doimiy xarajatlarni o'zgarishi;

Ishlab chiqarish hajmi

Muallif tomonidan tavsiya etilgan 1-formula asosida yakuniy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi bog'lanishlarda hisob-kitob qilish mumkin.

Kritik hajm darajasiga mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar ta'sirini hisob-kitobi;

$$Yk1=(Sx/Pr)*Ykr+Ur - (Sr/Pr)*Ykr+Ur \quad (3.13)$$

Kritik hajm darajasiga mahsulot bahosi o'zgarishini ta'siri;

$$Yk2=(Sx/Px)*Ykr+Ur - Ykr1 \quad (3.14)$$

Kritik hajm darajasiga mahsulot hajmining o'zgarishini ta'siri quyidagi bog'lanish bilan aniqlanadi.

$$Yk3=(Sx/Px)*Ykx+Ur - Ykr2 \quad (3.15)$$

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik darajasi, zararsizlik yoki foydasizlik darajasidagi mahsulot hajmi, mahsulot ishlab chiqarishning zararsizlik nuqtasi deb ham yuritiladi.

Ushbu miqdorni aniqlashni aniq misollar asosida ko'rib chiqamiz.

Korxonada mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini barcha jihatlarida natijaviy ko'rsatkich bir xilda chiqqan. Demak korxonada 1000 birlik mahsulot ishlab chiqarishi o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarni to'liq qoplaydi hamda 1001 mahsulot foydaga ishlashni boshlab beradi.

3.20-jadval

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik darajasini aniqlash ko'rsatkichlari

	Ko'rsatkichlar	Summasi
1	Mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar	10000 so'm
2	Doimiy xarajatlar	2000000 so'm

3	Mahsulot birligining sotish bahosi	12000 so‘m
4	Kritik hajm darajasi	1000 dona
Kritik hajm darajasining aniqlanish usullari		
	Tomas Kaplin formulasi bo‘yicha Qk=U/(P-S)	
5.1. Miq-dorda	2000000/(12000-10000)	1000 dona
6	**Prof. Sheremet A.D. formulasi bo‘yicha Yk=U/1-(S/P)**	
6.1. Qiy-matda	Yk –2000000/1-(10000/120000)	12048192 so‘m
6.2. Miq-dorda	Yk- 12004801/12000	1000 dona
7	**Prof. Sheremet A.D.** Yk=Q*S+U	
7.1. Qiy-matda	Yk=1000*10000+2000000	12000000 so‘m
7.2. Miq-dorda	12000000/12000	1000 dona
8	**I.f.n.dots. Raximov M.Yu.** Yk=(S/P)*Yk+U	
Ifoda-ning o‘zgari shi	Yk-(S/P)*Yk=U ushbu formula quyidagi ifodaga keladi ((1-(S/P))*Yk=U undan Yk quyidagi tartibda aniqlanadi Yk=U/(1-(S/P) bu ifoda Prof. Sheremet A.D. formulasi bo‘yicha Yk=U/1-(S/P) bilan bir xillikka ega	
8.1. Qiy-matda	10000/12000* Yk+2000000 bundan Bundan Yk=2000000/1-10000/12000	12048192 so‘m
8.2. Miq-dorda	12004801 so‘m/12000	1000 dona
9	**I.f.n.dots. Raximov M.Yu.** Yk=C+S+o	
9.1. Qiy-matda	Yk=10000*1000+2000000+foyda nol darajada	12000000 so‘m

9.2. Miq-dorda	Yk=12000000/12000	1000 dona
10	**Prof.Tomas P. Karlin** Yk=Qk*P	
10.1. Qiymatda	Yk=1000*12000	
10.2 Miq-dorda	Qk=2000000/(12000-10000)	
11	**I.f.n.dots. Raximov M.Yu.** Yk=U/(P-S)/ P	
11.1 Qiy-matda	Yk=2000000/(12000-10000)/12000	12048192 so'm
11.2. Miq-dorda	Yk=12004801 so'm/12000	1000 dona

3.6. Firma va kompaniyalar aktivlarini joylashtirish holati va uning foydalilikka ta'sirini tahlili

Firma va kompaniyalarning moliyaviy va iqtisodiy salohiyati ko'pincha aktivlarini joylashtirilishi hamda ularning samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Buni bevosita quyidagicha izohlash mumkin. Sobiq, rejali iqtisodiyot davrida barcha aktivlar yuqoridan belgilangan tartibda ta'minlanishi va joylashtirilishidan, korxonalar erkin ularni o'zgartirishga harakat qilmas edi. Natijada aktivlarning u yoki bu turi o'zining muqim o'rnida turishi va harakatda faol yoki nofaol holatda bo'lishi tabiiy edi.

Aktivlarni hududlar va tarmoqlar bo'yicha joylashtirilishida ham farqlarni sezish mumkin edi. Natijada, asosiy vositalardan samarali foydalanish darajasi ham, aktivlarni foydaliligi ham oldindan belgilangan holda tashkil etilar edi. Mabodo ortiq foyda normasiga ega bo'linsa u ham markazlashgan tartibda budjetga, davlatga yig'ib olinar edi. Mulk, aktivlar, ularning ta'minoti va joylashtirilishini mazmuni esa bugun keskin o'zgardi. Firma va kompaniyalar aktivlarni shunday joylash-

tirishi lozimki bu holat unga imkon qadar, maksimal darajada foyda olib kelsin yoki minimal darajada zararga ishlasin. Aktivlarni samaradorlik darajasi esa birinchi o'ringa qo'yildi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar aktivlarini joylashtirishning-aktivlarning moddiy va nomoddiy shaklda, moliyaviy aktiv shaklida (pul va pul ekvivalentlari, pulsiz ko'rinishlarda), faoliyatning turlari bo'yicha, joylashish o'rni bo'yicha, javobgarlik subyektlari bo'yicha, egaligi bo'yicha va boshqa jihatlari bo'yicha joylashtirishlar nazarda tutiladi.

Firma va kompaniyalar aktivlariga quyidagilarni kiritish mumkin. Aktivlarni joylashtirishda albatta erkin bozor iqtisodiyoti qonun qoidalarini, raqobatchilarni holati va harakatini, turli xavf-xatarlarni (risklarni) hisobga olish talab etiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aktivlarni joylashtirishda muqim holatlarga tayanilmaydi, balki bozordagi holatdan kelib chiqqan holda davriy va doimiy o'zgarishlar zaruriyatiga tayaniladi.

3.21-jadval

Firma aktivlari va ularning joylashuvi

<table>
<tr><td rowspan="5">Aktiv-lar (A)</td><td rowspan="2">Uzoq muddatli aktivlar (UMA)</td><td rowspan="2">Noharakat-chan aktivlar (NA)</td><td>Asosiy vositalar (Av)</td><td>Ko'chmas mulk(KM)</td></tr>
<tr><td>Nomoddiy aktivlar (Na)</td><td></td></tr>
<tr><td rowspan="3">Aylanma aktivlar (OA)</td><td rowspan="3">Harakat chan aktivlar (HA)</td><td>Doimiy harakatchan aktivlar (DHA)</td><td rowspan="2">Me'yorlan-maydigan aktivlar (MMA)</td></tr>
<tr><td>Tez harakatchan aktivlar (THA)</td></tr>
<tr><td>Sekin harakatchan aktivlar (SHA)</td><td>Me'yorlanuvchi aktivlar (MA)</td></tr>
</table>

Aktivlarni joylashtirishda quyidagi yo'nalishlarni tarkiblab o'tishni lozim deb o'ylaymiz;

– faoliyatni ilg'or shakllariga;
– ilg'or texnika va texnologiyalarga;
– malakali kadrlarni o'qitish va qayta o'qitishga;

– investitsion faoliyatga va hokazoga.

Tahlil etishda, aktivlarni holatiga, joylashgan o'rniga, joyiga, javobgarlik subyektlari bo'yicha o'zgarishlariga, aktivlar- ning harakatlanishiga, samaradorligiga va uning o'zgarish sabablariga muhim ahamiyat beriladi.

Korxona aktivlarini joylashuvida quyidagi sxematik bog'lanishni berib o'tish mumkin.

Aktivlarni joylashtirishda, eng avvalo, uzoq muddatli aktivlarni joylashtirishga, undan keyin oborot aktivlarni joylashtirishga ahamiyat beriladi.



3.2-chizma. **Aktivlarni joylashtirishni umumiy sxemasi**

Aktivlarni joylashtirishda muhim ahamiyat foydaning ishlatilishiga qaratilmog'i lozim. Hisobot davri ishlab topilgan foydaning erkin tasarrufdagi qismi birinchi navbatda ishlab chiqarishni rivojlantirishga va kengaytirishga yo'naltiriladi. Bu o'z-o'zidan ayonki uzoq muddatli va joriy aktivlar summasini oshiradi. Sababki ishlab topilgan foydaning, pul ko'rinishda aktivlarning bir qismi uzoq muddatli moddiy ko'rinishiga o'tadi. Bu jarayonni ko'pincha investitsion faoliyatga foydani yo'naltirish deb ham yuritish mumkin.

Foydaning bir qismi rag'batlantirish sifatida ishchi xizmatchilarga yo'naltirilgan hollarda, ushbu qiymat majburiyat sifatida aks etadi va oqlanishi, huquqning olinishi bilan korxonadan chiqib ketadi.

Foydaning qolgan qismi esa taqsimlanmagan foyda sifatida aktivlarning boshqa ko'rinishlarida (TMZ, IChZ, Pul va pul

ekvivalentlari, majburiyatlar shaklida) aylanishda uzluksiz harakatini davom ettiraveradi.

3.22-jadval

Foydaning taqsimlanishi tahlili (ming so'm)

	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi
1	Taqsimlanmagan foyda davr boshiga	300000	320000	+20000
2	Hisobot davri sof foydasi	650000	1200000	+550000
3	Sof foydaning ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan qismi	200000	600000	+400000
4	Sof foydaning zaxiraga olingan qismi	100000	200000	+100000
5	Sof foydaning dividendga yo'naltirilgan qismi	330000	650000	+320000
6	Taqsimlanmagan foyda davr oxiriga	320000	70000	-250000

Joriy davrda xo'jalik yurituvchi subyektning sof foydasi o'tgan yilga nisbatan +550000 ming so'mga o'sishiga erishilgan va jami taqsimot bazasida 1520000 ming so'm foydaga ega bo'lingan. Foydaning 600000 ming so'mi ishlab chiqarishni rivojlantirishga va kengaytirishga yo'naltirilgan, 600000 ming so'mi dividend to'lovlariga, rag'batlantirishlarga hamda 200000 ming so'mi zaxiraga yo'naltirilgan.

3.7. Firma va kompaniyalar passivlarini joylashtirish va uning foydalilikka ta'sirini tahlili

Passivlar milliy hisobchilikda, buxgalteriya hisobining milliy standartlarida xususiy sarmoya va majburiyatlar sifatida tarkiblanadi.

Xususiy sarmoya – subyektning majburiyatlari chegirib tashlangandan keyingi aktivlaridir. Shu sababli xususiy sarmoyaning miqdori aktivlarning qiymati va majburiyatlarni

baholashga bog'liqdir. Xussiy sarmoya tarkibi ustav, qo'shilgan, zaxira sarmoyasidan va taqsimlanmagan foydadan iborat.

Majburiyatlar-shaxsning boshqa shaxsga yoki qarzdorning kreditor foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pulni to'lash va boshqa majburiyatlaridir yohud muayyan xatti-harakatlardan tiyilib turish majburiyatidir.

Majburiyatlar ustavning yoki shartnomaviy talablarning oqibatida kelib chiqadi. Majburiyatlar avvalgi bitimlar yoki bo'lib o'tgan voqealarning natijasidir.

Majburiyatlarni bajarish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

-haq to'lash bilan;

-boshqa aktivlarni berish bilan;

-xizmatlarni ko'rsatish bilan;

-ushbu majburiyatni boshqasi bilan almashtirish bilan;

-majburiyatlarni aksiyalarga almashtirish orqali.

Majburiyatlar qarshi tomonning ushbu majburiyatlarga huquqidan voz kechgan hollarda yoki qarzdor ushbu huquqlardan mahrum bo'lganida ham bajarilgan deb hisoblanadi.

Majuriyatlarning joriy va uzoq muddatli qismi tarkiblanadi. Joriy majburiyatlar to'lov muddati yaqin majburiyatlarni, uzoq muddatli majburiyatlar esa to'lov muddati uzoq davriylikka ega hollarni nazarda tutadi.

Majburiyatlar o'zida iqtisodiy foydani ifodalovchi resurslar oqimi ehtimoli mavjud bo'lganidagina buxgalteriya balansida e'tirof etiladi.

Firma passivlari tuzilishini quyidagi jadval asosida tushunib olish mumkin.

Aktivlarni manbalashning muhim tarkibiy tuzilishini aks ettiruvchi buxgalteriya balansida faoliyatning birinchi kunida ustav sarmoyasi iqtisodiy harakatni, tijorat faoliyatini yo'lga qo'yishning dastlabki kapitali sifatida joylashadi. Lekin keyingi harakatlar, ularning samarasi va natijasi tufayli kapital va majburiyatlarning boshqa qatorlari shakllana boshlaydi. Iqtisodiy harakatni va biznesni birinchi qadamiga turtki bo'lgan ustav sarmoyasi endilikda iqtisodiy resurslarning harakati tufayli manbalashning boshqa qatorlarini shakllantirishga imkon beradi.

3.23-jadval

Firma (kompaniya) passivlari va ularning joylashuvi

<table>
<tr><td rowspan="5">Passivlar (P)</td><td rowspan="2">O'z mablag'larining manbayi (O'MM)</td><td>Xususiy kapital (HK)</td><td rowspan="2">Doimiy passivlar (DP)</td><td rowspan="4">Aylanma mablag'larni shakllantirish manbayi (AMShM)</td></tr>
<tr><td>Maqsadli tushumlar, zaxiralar, kelgusi daromadlar (MTvaZ)</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Majburiyatlar (M)</td><td>Uzoq muddatli majburiyatlar</td><td>Uzoq muddatli majburiyatlar (UMM)</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Joriy majburiyatlar (JM)</td><td>Qisqa muddatli majburiyatlar (QMM)</td></tr>
<tr><td>Kreditorlik majburiyatlari (KM)</td><td>To'lov muddati kelgan majburiyatlar (TMKM)</td></tr>
</table>

Korxona foyda oladi, uning bir qismini ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltiradi va shu bilan kapitallashuv darajasi boshlanadi. Faoliyatning keyingi harakatlari qarz kapitalini jalb etish orqali aktivlar summasini oshirishga, majburiyatlarni tan olish orqali aktivlar summasini oshirishga undaydi. Shu bilan xo'jalik subyektining keng qamrovli harakati boshlanadi.

Foyda – passivning eng ishonchli qatori hisoblanadi. Uning hajmi bevosita tadbirkorlik subyektining samarali faoliyatiga, boshqaruv apparatining uddaburonligiga bog'liq hisoblanadi.

Korxona samarali faoliyatni yo'lga qo'yishi mumkin. Lekin ushbu faoliyat qarz kapitaliga bog'langan bo'lsa ishlab topilgan natijaning katta qismi, olingan kreditlar va ular yuzasidan foizlarni to'lashga yo'naltirilishi foydaning sifatligini kamaytirib yuboradi. Shu sababli kredit va qarz majburiyatlarini ko'tarish hisobiga boshlangan tijorat agar foiz siyosatining manfaatli normalari belgilanmasa tadbirkor uchun samarasiz jarayonga aylanadi. Shu sababli passivlarni shunday tarkibini shakllantirish

lozimki unda iqtisodiy resurslar harakatida albatta foyda normasiga ega bo'linsin.

Xuddi shu holatni buxgalteriya balansining passiv tomoni, birinchi bo'lim moddalarida ham ko'rish mumkin. Kelgusi davr daromadlari yoki kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari zaxirasi holati ham uning faoliyat natijaviyligi ta'sir etuvchi birlik sifatida olinadi. Korxona moliyaviy nobarqarorlik holatiga tushib qolgan hollarda ham uning faoliyat natijaviyligi foyda bilan chiqish hollari kuzatiladi. Buni bevosita, aylanma mablag'larini manbalashda o'z mablag'larining yetishmovchiligi bilan izohlash mumkin.

Joriy majburiyatlar tarkibida kreditorlik majburiyatlarining ko'payib ketishi ham firma, kompaniya faoliyat natijaviyligiga sezilarli ta'sir etadi. Negaki, uning holati ishlab chiqarish jarayoniga va uning boshqa tashkilotlar bilan bo'ladigan oldi-sotdi munosabatlariga ta'sir etadi. Natijada firma, kompaniyaga ishonchsizlik tug'iladi. Ishonchsizlik yuz bergan joyda albatta ishning unumi va natijaviyligiga ham putur yetadi.

Korxonaning erkin tasarrufida qoluvchi sof foydaning yillar bo'yicha jamlangan qismi balansning taqsimlanmagan foyda qatorida aks etadi. Ushbu qatorning realligini ta'minlash yuzasidan ko'pincha debitorlik majburiyatlarining qisqa muddatlikda oqlanishiga ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. Bu jarayon faqat ularning pullik ko'rinishda aktivda to'planishini emas balki aktivlarning barcha turlari bo'yicha to'planishi mumkinligini ham xarakterlaydi. Shu sababli ko'pincha passiv tamonda aks etuvchi foyda summasining sifatliligi ta'min etilmaydi.

Aktivlarni joylashtirish nafaqat korxona faoliyat natijaviyligiga balki uning moliyaviy holatiga ham bog'liq ravishda o'zgaradi. Passivlarni joylashtirishdagi eng birinchi talablar bu xususiy sarmoyaning jami sarmoyaning tarkibidagi ulushining yuqoriligi bilan, xususiy sarmoyaning qarz sarmoyasiga qaram bo'lmasligi shartlari bilan belgilab olinishi lozim. Ya'ni korxona avvalo moliyaviy jihatdan mustaqillikka ega bo'lmog'i, uning to'g'ri nisbatini saqlashi lozim.

Moliyaviy barqarorlikning muhim sharti zaxira va xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan o'z va qarz mablag'lari yetarliligi yoki yetishmasligi ko'rsatkichlarini hisob-kitob

qilishda ham xuddi shu bog'liqlikni ko'rish mumkin. Xussiy sarmoya yetarli bo'lmagan hollarda uzoq va qisqa muddatli majburiyatlarni jalb etish biznesning, tadbirkorlik faoliyatining doimiy sharti hisoblanadi. Shu sababli aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan majburiyatlardan foydalanishda albatta foyda omiliga va uning doimiy davomligini ta'minlashga muhim ahamiyat qaratish lozim.

3.8. Tadbirkorlik foydasining shakllanishi va taqsimlanishidagi muammoli jihatlar

Foydaning shakllanishi va ishlatilishidagi asosiy muammolar birinchi navbatda hisob va hisobotlashning amaldagi holati, tartibi bilan belgilanadi. Xo'jalik subyektlarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishning amaldagi tartiblarida ko'proq soliq qonunchiligi talablariga bo'ysundirilganligini, iqtisodiy tahlil etishda esa kam naf beradigan omillar belgilaganligini ko'rish mumkin. Shu sababli, foyda va zararni chuqur tadqiq etishda, foyda va rentabellikni o'stirishning ichki imkoniyatlarini aniqlashda, korxona foydasini o'stirish yuzasidan har tomonlama asoslangan xulosalarni chiqarishda moliyaviy hisobotlashning takomillashgan tartibini joriy etish lozim.

Moliyaviy natijalarni baholashda foydani shakllanishini alohida muhim jihatlarini e'tiborga olish lozim. Bularni quyidagilarda ko'rish mumkin:

Mahsulot ortib jo'natildi, tovarlar sotildi, xizmatlar ko'rsatildi, lekin ular uchun pul tushumlari amalga oshirilmadi. Shunga qaramay bugalteriya balansi (xususiy kapital tarkibida) va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda joriy davr foydasi aks ettiriladi.

Bu holatda:

Birinchidan: olingan foyda summasining buxgalteriya balansining passiv tomonida xususiy kapital tarkibida, taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar qatorida aks etadigan summasi yoki moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning sof foyda qatorida aks etadigan summalar realligini ta'minlab bo'lmaydi. Bu summa xaridor va buyurtmachilarga bo'lgan

majburiyat summasining bir qismini(foydaga tegishli bo'lgan qismini) tashkil etgan holda faqat unga kelgusida egalik qilish huquqinigina anglatadi xolos. Shu bilan birgalikda, korxonaning moliyaviy barqarorligini o'sishi ta'minlagandek ko'rinadi. Davriy tafovut, ya'ni vaqt bo'yicha o'zgarishlarni hisobga oladigan bo'lsak bu o'sish hech qanday ijobiy ta'sirga ega bo'lmasligini kuzatish mumkin.

Ikkinchidan: Puli kelib tushmagan lekin ortib jo'natilgan mahsulotlar, sotilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlardan moliyaviy natijalarni aniqlashda, daromad va xarajatlarni tan olishning amaldagi tartibiga ko'ra «hisobga olish» qoidasiga amal etiladi. Bu esa hali realligi ta'minlanmagan foydadan soliqlar va dividentlar (rag'batlar) to'lash lozimligini anglatadi. Puli to'lanmagan sotilgan mahsulotlar, tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati albatta majburiyatlar (debitorlik majburiyatlari) qatorida aks ettiriladi. Bu esa albatta korxonaning to'lov layoqati va mablag'lar harakatchanligining tushib ketishiga olib keladi. Ammo, yuzaga kelgan majburiyatlarni qoplash yuzasidan zaxiralarning tashkil etilishini, majburiyatlarning muddatligi va qoplanishi yuzasidan kuchli nazoratning yo'lga qo'yilganligi, shuningdek bu bo'yicha alohida hisobot («Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari haqidagi» ma'lumotnoma) shakli joriy etilishiga qaramay muddati o'tgan majburiyatlar, yoki oqlanmagan majburiyatlar summasi yuqoriligicha qolaveradi. Bu esa korxona moliyaviy holati bo'yicha faktlarni buzib ko'rsatishga olib keladi. Puli to'lanmagan lekin sotilgan qatorga kiritilgan, ortib jo'natilgan mahsulotlar, sotilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar summasi moliyaviy barqarorlikni aniqlashda ijobiy, to'lov layoqatini baholashda esa salbiy ta'sirga ega bo'ladi.

Hisobot davrida hisob-kitob qilingan foyda summasi taqsimlanmagan foyda qatorida, buxgalteriya balansida aks etadi. Demakki ushbu summa mutlaq likvid mablag'lar (pul mablag'lari) qatorida ham aks etishi lozim. Amaldagi holatda esa bu moslikni umuman ta'minlab bo'lmaydi.

Ya'ni, olingan foyda summasiga tegishli pul mablag'lari doimo alohida qatorda aks etishi, uning harakati foydaning taqsimotiga muvofiq boshqarilishi kerakligini ta'min etuvchi

qoidalar belgilanmagan. Bu holatni asosiy vositalar yoki nomaterial aktivlarga eskirish hisoblash va jamg'arib borilishidagi holatga qiyoslash mumkin. Olingan foyda summasining bir qismi qiyin sotiladigan aktivlar (uzoq muddatli aktivlar) yoki sekin sotiluvchi aktivlarga (TMZ) o'tkaziladimi, moliyaviy resurs sifatida yoki majburiyat (debitorlik) shaklida turadimi bundan qat'iy nazar ular orasidagi moslik qaysidir jihatdan ta'minlanishi lozim.

Iqtisodiy nochorlik va bankrotlik alomatlarini aniqlashda asosiy ko'rsatkichlar sifatida to'lov layoqati, o'z va qarz mablag'lari nisbati, moliyaviy mustahkamlik, (uzoq muddatli va joriy) aktivlarning manbalanishi koeffitsiyentlari baholanadi. Bu ko'rsatkichlarning holati ko'pincha foyda, uning realligi, ishlatilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Lekin amalda, shunday hollar ham bo'ladiki foydaga ishlayotgan korxonada ham bankrotlik alomatlari uchrashi mumkin. Buning sababi ko'pincha, olingan foyda summasining nolikvid mablag'larga ko'r-ko'rona ishlatilishi, kreditorlik majburiyatlari o'z vaqtida qoplanmasligi, foydaning samarasiz ishlatilishi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Ba'zi hollarda korxona foydaga ega bo'lmagan holda mol-mulkini o'stirishga erishadi. Buni bevosita mol-mulkni tekinga olish, qayta baholashda, inventarizatsiya paytidagi ortiqcha chiqishlarda ko'rish mumkin.

Aksincha holat ham bo'lishi mumkin. Masalan: dargumon (debitorlik) qarzlari tufayli mol-mulkning kamayishi, korxonada qaysidir mulkning olib qo'yilishi va h.k.

Buxgalteriya hisobini yuritishning uslubiy ta'minotida ham bu kabi masalalarni hal etishning aniq yechimlariga kelish talab etiladi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish, foydani aniqlashdagi tartiblarda bir yoqlama yondashuvlardan chekinish lozim. Masalan soliq foydasini aniqlashga yoki hisob-kitob qilishga, buxgalteriya yoki iqtisodiy foydani aniqlashga ko'proq urg'u berilishi kabi masalalar. Amaldagi tartibda ko'proq soliqqa tortiladigan foyda summasini aniqlashga urg'u berilgan. Soliqqa tortiladigan foyda summasi bo'yicha korxona faoliyati samarasi

juda yuqori bo'lishi, lekin iqtisodiy, buxgalteriya foydasi bo'yicha nochorlikka yuz tutishi mumkin.

Korxonaning butun faoliyat davri davomida ishlab topilgan foyda summasi bilan uning har bir hisobot davridagi ishlab topgan foyda summalari bir-biriga teng chiqmaydi. Bu bevosita qayta baholashlar, hisob siyosatidagi o'zgarishlar va boshqa sabablar bilan bog'lanadi. Buni aniqlashning juda sodda yo'li korxona ishga tushirilgandan yopilgunga qadar bo'lgan jarayondagi qo'yilgan kapital bilan olingan kapital orasidagi mutlaq farqlanishni aniqlash lozim. Bu butun faoliyat davomidagi erishilgan natijani bildiradi.

Buxgalteriya balansida, yoki moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shakllarida ko'rsatkichlarning o'zaro mosligi ta'minlanmagan. Masalan: Asosiy vositalarning qiymatini «Buxgalteriya balansi» aktiv tomon birinchi bo'lim «Uzoq muddatli aktivlar» qatorida va 3-shakl «Asosiy vositalar harakati to'g'risida»gi hisobot bilan mosligini kuzatish mumkin yoki xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotning «Buxgalteriya balansi» passivi birinchi bo'limi «O'z mablag'lari manbayi» qatorida va 5-shakl «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot bilan tegishli qatorlar mosligida ko'rish mumkin. Pul oqimlari yoki majburiyatlarda ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin.

Buxgalteriya balansida «Taqsimlanmagan foyda», moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda «Soliq to'loviga qadar foyda», «Sof foyda» ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Shu bilan birga, soliqqa tortiladigan bazaga qayta qo'shiladigan va chegiriladigan moddalarga ko'ra «Soliq to'loviga qadar foyda» summasi qayta hisob-kitob qilinadi va foyda solig'i bazasi aniqlanadi. Bu holat foyda va uning taqsimlanishini tahlil etishni qiyinlashtiradi. Chunki uning realligini qaysi miqdor belgilab berishini anglash qiyin.

Asosiy vositalarni ekspluatatsiya qilish, ishlatish ularga to'la eskirish hisoblashga qadar davom ettiriladi. Shuningdek, ularning real qiymati bilan buxgalteriya hisobidagi eskirish qiymati o'rtasidagi nisbat yoki bog'liqlik nazariy jihatdangina to'g'ri bo'ladi. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati doimo, ularning haqiqiy qiymatini aks ettirmaydi. Inflyatsiya ta'siri yuqori bo'lgan hollarda asosiy vositalarning likvidatsion qiymati

ularning boshlang'ich qiymatidan ham oshib ketishi mumkin. Bunday holatda to'la eskirib bo'lgan yoki eskirish hisoblab bo'lingan asosiy vositalar xo'jalik faoliyatida yana foydalanishda davom ettiriladi va korxonaga foyda olib keladi. Ya'ni, bunda iqtisodiy foyda buxgalteriya foydasidan bir necha bor yuqori bo'ladi.

Jamg'arib borilgan foyda summasi hech qachon korxonaning tegishli hisobot davri bo'yicha real moliyaviy natijasiga mos kelmaydi. Buni aktivlarning istalgan turida yoki shaklida ham kuzatish mumkin. Masalan TMZlarning, hisob-kitoblardagi xatoliklar, inventarizatsiyada ham yoki ko'p chiqishlar, tabiiy kamayishlar, o'g'irliklar va h.k. sabablar tufayli doimo realligini ta'minlab bo'lmaganidek foydaning ham realligini ta'minlab bo'lmaydi. Daromad va xarajatlarni tan olish, dargumon qarzlar, hisobot sanasidan keyingi o'zgarishlar va h.k. hisobiga uning realligini ta'minlash mumkin emas.

Yuqorida sanab o'tilgan jihatlar buxgalteriya hisob-kitobi bo'yicha aniqlangan foyda summasi har doim ham korxona xo'jalik faoliyatining haqiqiy natijaviyligini to'la aks ettirmasligidan dololat beradi.

Shu sababli tahliliy amallarni o'tkazishda iqtisodiy foyda, buxgalteriya foydasi, soliq foydasi, ko'rsatkichlarni aniq farqlash lozim. Iqtisodiy foyda tovar (ish, xizmat)larni sotishdan natijani xarakterlasa, buxgalteriya foydasi kapitalning natijaviyligini xarakterlaydi. Soliq foydasi xo'jalik faoliyati natijaviyligini soliq qonunchiligiga muvofiq qayta hisob-kitob qilinadigan foyda summasini ifodalaydi.

GLOSSARIY

Daromadlar – hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishidir.

Xarajatlar – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yohud majburiyatlarning ko'payishidir.

Moliyaviy natija – xo'jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir.

Marjinal daromad (foyda) – Sotishdan olingan sof tushumdan o'zgaruvchan xarajatlarni chegirish asosida topiladi.

O'zgaruvchan xarajatlar (xalqaro amaliyot) – mahsulot hajmining o'zgarishiga muvofiq o'zgarib boruvchi xarajatlardir. Mahsulot birligini ortishi bilan uning bir birlikka to'g'ri keladigan qismi ham ortib boradi

O'zgarmas (doimiy) xarajatlar (xalqaro amaliyot). – mahsulot hajmining o'zgarishiga muvofiqlikda o'zgarmay qoluvchi xarajatlardir. Mahsulot hajmining ortishi bilan uning bir birlikka to'g'ri keladigan qismi kamayib boradi.

Mahsulot sotishdan sof foyda – marjinal foyda summasidan o'zgarmas (doimiy) xarajatlar chegirib topiladi (xalqaro amaliyot).

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning maqsadi – xo'jalik yurituvchi subyektning hisobot davri bo'yicha moliyaviy faoliyatining natijasini aks ettirish va bu faoliyatning turli jihatlarini tushunishga imkon beradigan usuldan iborat bo'ladi[1].

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda (yoki zarar) – sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda (yoki zarar) – mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut hamda asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar va xarajatlar farqini o'z ichiga oladi:

Xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar) – asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi va moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan natijani o'z ichiga oladi.

Xo'jalik umumiy faoliyati deganda – xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy foydalarni mustahkamlash va o'stirishga qaratilgan har qanday tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Soliq to'langungacha olingan foyda (zarar) – umumxo'jalik faoliyatidan olingan natija va favqulodda (ko'zda tutilmagan) foyda (zarar) summasini o'z ichiga oladi:

Yilning sof foydasi (zarari) – soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida va erkin tasarrufida qoladigan foyda sumasini xarakterlaydi.

---

[1] 1-son БҲМС «ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисобот» Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 1998 йил 14-августда 474-сон билан рўйхатга олинган

Sotishdan olingan sof tushum – mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan, undan qo'shilgan qiymat, aksiz solig'i va eksport boj poshlinasi, chegirilgan tushum sifatida aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

Operatsion faoliyatdan daromadlar va xarajatlar – asosiy faoliyatning (mahsulotlarni sotishdan tashqari) boshqa jarayonlaridan keladigan daromadlar va xarajatlardir.

Favqulodda daromad (zarar) – deb xo'jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyatidan aniq farq etadigan, ya'ni tez-tez yoki muntazam sodir bo'lmaydigan voqealar yoki bitimlar natijasida yuz bergan daromadlar va xarajatlarga aytiladi.

Tushum xarajat-natija – Hisobot davrida bo'lgan daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi shuni anglatadiki, mazkur davrda ushbu hisobot davridagi daromadlarni olishga asos bo'lgan xarajatlargina aks ettiriladi. Agar daromadlar bilan xarajatlarning o'rtasida bevosita bog'liqlikni o'rnatish qiyin bo'lsa, xarajatlar biron-bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o'rtasida taqsimlanadi. Bu masalan, bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlariga taalluqlidir.

Daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi – shuni anglatadiki, mazkur davrda ushbu hisobot davridagi tan olingan daromadlarni olishga asos bo'lgan xarajatlargina aks ettirishini anglatadi. Agar daromadlar bilan xarajatlarning o'rtasida bevosita bog'liqlikni o'rnatish qiyin bo'lsa, xarajatlar biron-bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o'rtasida taqsimlanadi. Bu masalan, bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlariga taalluqlidir.

Taqsimlanmagan foyda – sof foydaning taqsimlanmagan qismi. Korxona ochilgandan buyon jamg'arib borilgan foyda summasini hisob –kitob qilish orqali to'liq ochib beriladi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. «Daromad-xarajat-natija» aloqadorligini tushuntiring?
2. Realizatsiya hajmini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflang?

3. Ishlab chiqarish xarajatlari, daromad va natijani baholash usullarini tavsiflab bering?

4. Kritik darajadagi mahsulot hajmining qiymati va miqdori qanday aniqlanadi?

5. Kritik hajm darajasida mahsulot hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish metodikasini tushuntiring?

6. Mahsulot sotishdan yalpi foyda, marjinal foyda tahlili va uning o'zgarishini omilli tahlili qanday bajariladi?

7. Ishlab chiqarish va moliyaviy levirdjlar nima?

8. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini joylashtirishni uning foydasiga ta'sirini baholang, tahlil qiling?

9. Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darajasini tahlil etish boshqaruv tahlilini obyekti bo'la oladimi?

10. «Daromad-xarajat-natija» aloqadorligini operatsion jarayonlarga nisbatan qo'llash mumkinmi, agar mumkin bo'lsa uning mazmunini tushuntiring?

11. Marjinal, kontributsiya kabi so'zlar ma'nosini tushuntiring?

12. Marjinal foyda tahlili metodikasini o'ziga xosligi nimada?

13. Kritik hajmni aniqlash, zararsizlik nuqtasini aniqlash, foydaga ishlashning quyi darajasini aniqlash bir-biridan farq etadimi?

14. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarni tarkiblashning ahamiyati nimada?

15. Marja foydasini aniqlash bilan sotishdan yalpi foydani aniqlashning amaldagi tartiblarida qanday o'xshashliklar bor?

16. Daromad va xarajatlarni yuzaga chiqish joyi, javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olishning ahamiyatli jihatlari nimada. Amaldagi tartib bilan ularning qanday farqlanishlari mavjud?

17. Aktivlarni joylashtirishning korxona foydasiga ta'sirini qanday baholash mumkin. Uning metodik jihatlarini tushuntiring?

18. Passivlarning joylashuvi va uning korxona moliyaviy holatiga ta'sirini baholash metodikasini izohlang.

19. Foydaning shakllanishi va uning ishlatilishidagi muammolar nimalardan iborat.

IV bob. IQTISODIY NOCHOR FIRMA VA KOMPANIYALAR FAOLIYATINI TAHLIL QILISHNI XUSUSIYATLARI

4.1. Firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlik: uning sabablari va omillari

Totalitar, rejali tizimning raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotiga transformatsiyalashuvi jarayoni milliy iqtisodiyotda bankrotlik, inqiroz, nomuvozanatlik kabi mutlaqo yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, ularni hal etishning dastaklarini belgilab olish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik tushunchalari, odatda, bir mazmunda qaraladi. Ularni yuzaga keltiruvchi sabablar nihoyatda ko'p. Lekin sabablarning ildizida albatta sog'lom raqobot turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ushbu muammoning dolzarbligini ko'rsatib, «Bozor qonunlari amal qila boshlashi, raqobatchilik muhitini tarkib topishi va erkin tadbirkorlik uchun hamma yo'llar bilan ayni qonunlarga rioya qilgan holda ishlab chiqarish tarkiban o'zgartiriladi ham. Bu narsa faqat raqobatga bardosh berishga intilish bor joydagina yuz beradi. Raqobatga bardosh berish uchun ishlab chiqarishni doimiy ravishda yangilab borishga tadbirkorlar o'zlari majbur bo'ladigan sharoit vujudga keladi»-deb ta'kidlaydi.[53]

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan holda, raqobat kurashiga tortiladilar. Bu kurash kimnidir bor, kimnidir yo'q qiladi. G'olib korxonalar o'zining moliyaviy ahvolini mustahkamlagan holda bozorda muqim o'rniga ega bo'lib boradilar. Mag'lub korxonalar esa sinadilar yoki o'z faoliyatini to'xtatadilar.

[53] И.А Каримов «Ўзбекистон Иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида». Т.. Ўзбекистон, 1995, 200-бет

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu g'oliblik yoki bu mag'lublik muqarrar narsaki, uni to'xtatib qolish mumkin emas.

Aytish mumkinki, uzluksiz davom etuvchi raqobat kurashi doimo iqtisodiy nochorlik yoki bankrotlik holatiga tushish xavfini tug'diradi.

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik, krizis holati, inqiroz kabi tushunchalar, odatda, bitta ma'noni ya'ni, firma va kompaniyalarning sinishini izohlashda ishlatiladigan tushunchalar hisoblanadi.

Bankrotlik tushunchasi italyancha «banco rotto» so'zidan olingan bo'lib, aslida kursining (o'rindiqning) sinishi deb tarjima qilinsa-da, bu so'z qarzdorning nochor ahvolga tushib sinishi, barbod bo'lishi degan ma'nosida ko'p ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunida bankrotlik alomatlari yuridik shaxslar uchun alohida, jismoniy tadbirkor shaxslar uchun alohida o'rnatilgan.

Yuridik shaxsning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va to'lov majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran 6 oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) alomati deb e'tirof etiladi.

Jismoniy shaxsning pul mablag'lari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va to'lov majburiyati ularni bajarish sanasi boshlangan paytdan e'tiboran 3 oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, agar majburiyatlarning summasi unga tegishli mol-mulkning qiymatidan oshib ketgan bo'lsa, uning iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) alomati deb e'tirof etiladi.

Bozor iqtisodiyoti qisqacha lug'at ma'lumotnomasida «bankrotlik — sinish; fuqaro, korxona, firma va bankning mablag' yetishmasligidan o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarini to'lashga qurbi yetmasligidir deyiladi. Bankrotlikka uchrash sabablari tovar ishlab chiqarishda qiymat qonunining amal

qilishi, raqobat va inflyatsiya bilan belgilanadi»[54] deb ta'riflanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida bankrotlik bunday ta'riflanadi; «Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)-xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la hajmda qondirishga qodir emasligi»[55] tushuniladi deyiladi.

I.f.n. Xasanov N. tomonidan «bankrotlik- bu xo'jalik yurituvchi subyektlarni qarz va majburiyatlarini qaytarib berishga va to'lashga qodir emasligi bilan izohlanadi»[56] deb ta'kidlanadi.

Bugungi kunda, iqtisodiy nochorlikni belgilashning nazariy asoslarida ham, uni aniqlashning uslubiy asoslarida ham, iqtisodiy nochorlikni belgilash yuzasidan chiqarilgan huquqiy aktlarda ham, uning tashkiliy va amaliy asoslarida ham qator muammolarga duch kelinmoqda.

Erkin raqobatga dosh berolmabdiki korxonalar yopiladigan bo'lsa, uning ta'siridagi ijtimoiy o'zgarishlarni, muammolarni qanday hal qilish mumkin. Ularni moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini belgilab bo'lmaydimi yoki bankrotlikdan chiqarish choralari ko'rilmaydimi Iqtisodiy nochorlikdan faqat korxonani yopish bilan qutilib bo'ladimi? Bu va bu kabi muammolarga javob topish maqsadida bankrotlik institutini tashkil etish zaruriyatga aylandi va ushbu institut bugun O'zbekistonda ham to'la tashkil etildi.

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)ni siklik jarayonini ko'pincha inson hayot yo'lining kechishiga o'xshatishadi. Ya'ni, insonning tug'ilish davri, o'spirinlik davri, o'sish davri, yetuklik davri va keksalik davri kabi jarayonga qiyoslashadi.

Bu siklik jarayonni iqtisodiy jihatdan quyidagi bosqichlar bo'yicha umumlashtirish mumkin.

---

[54] Ўлмасов А. Тўхлиев Н. Бозор иқтисодиёти қисқа луғат-маълумотнома. Т.: Комуслар бош таҳририяти, 1991 й., 12-бет

[55] Ўзбекистон Республикаси «Банкротлик тўғрисида» ги Қонун. Т. 2003 й. www lex uz

[56] Н Хасанов ««Бозор иқтисодиетига ўтиш шароитида банкротлик ва санациянинг назарий асослари» Диссертация автореферати, Т Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат ва жамият қурилиши академияси 2003 й

4.1-jadval

Bankrotlikning hayot sikli

Tashkil topish	Oyoqqa turish	O'sish	Gullash	Cho'kish
«Tashkil etilish»davrida yangi tovar bozorga tavsiya etiladi va unga bozor talabi umuman kuzatilmaydi, va sotish darajasi juda past bo'ladi.Mazkur bosqichda ko'proq tovar bilan tanishuvni ta'minlash lozim bo'ladi.	«Oyoqqa turish» davrida korxonaning bozorga chiqishi va tovarlarni tavsiya etishi biroz jonlanadi, sotish hajmi o'sishiga erishiladi va bu bilan tovarlarga yangilik kiritish xarajatlari biroz oshiriladi	«O'sish davri»: tovarlarni sotish hajmi, bozorni solishtirma sig'imi o'sib boradi, raqobat kuchayadi. Mazkur bosqichning asosiy vazifasi tovarlarni sotish hajmini va assortimentini oshirish hasobiga maksimal foyda olish vazifasi qaratiladi.	«Gullash davri» tovarlarni sotish hajmi, o'sish darajasi eng yuqori (maksimal) darajaga ko'tariladi, bozor ushbu mollar bilan haddan ziyod to'yinadi, yangiliklarga oid xarajatlar kamayadi, ish hajmini bundan ortiq oshirib bo'lmay qoladi.	«Cho'qish davri» tovar iste'mol uchun jozibadorligini yo'qotadi, sotish hajmi tushib ketadi, mahsulotning bozordagi sig'imi tushib ketadi.

Ushbu siklik jarayonni piramida shaklida ham tuzib chiqish mumkin va bu holat uning umumiy hayotiyligini aniq ifoda etadi. Iqtisodiy nochorlik davomiyligi har bitta korxonada turlicha kechadi va yakun topadi. Bundan shunday xulosaga kelinadiki har qanday korxonaning oxirgi manzili bu iqtisodiy nochorlik, bankrotlik ekan. Faqat ushbu davriylik har qaysi korxonada turlicha oraliqda kechadi. Ya'ni siklik jarayon bitta korxonada tezroq, bitta korxonada sekinroq kechadi.

Iqtisodiy nochorlikka va bankrotlikka, nisbatan oxirgi manzilning haqligi bu tartibda to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli aynan shart iqtisodiy nochorlik, bankrotlikka uchragan korxonaga nisbatangina yuqoridagi fikrlash o'rinli bo'ladi.

Umumiy jihatdan, bu nochorlik va bankrotlikni davlat va jamiyatga ortiqcha ziyon olib kelmasligiga imkon beruvchi bankrotlik taomillarini belgilash lozim.



4.1-chizma. **Bankrotlikni hayot sikli**

Bankrotlikka olib keluvchi sabablarni olimlar tomonidan uchta guruhga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi.

1. Iqtisodiy omillar.
2. Tashkiliy omillar.
3. Ijtimoiy –siyosiy omillar.

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar sifatida i.f.n. dotsent Najmiddinov S. va Xasanov N.lar tomonidan quyidagi 12 ta sabab ko'rsatiladi.[59]

1. O'z oborot mablag'lari yetishmovchiligi;
2. Mahsulotlarni haqiqiy narxini belgilash mexanizmining yo'qligi;
3. Shartnoma intizomining shakllanmaganligi;
4. Korxonada yuridik xizmatning past darajada yo'lga qo'yilganligi;
5. Ijtimoiy, madaniy va maishiy obyektlarni saqlashga xarajatlarning ko'pligi;
6. Debitor va kreditor qarzdorlikni o'sib ketishi;
7. Asosiy ishlab chiqarish zarari hisobiga tugallanmagan kapital qo'yilmalarga yo'l qo'yilishi;
8. Nolikvid tovar, moddiy boyliklarning saqlanib qolishi;

[59] Н.Хасанов,С Нажмиддинов «Корхона молиявий ҳолатини баҳолаш; муаммолар ва уларни хал қилиш» Т · «Иқтисодиет ва ҳуқуқ дунёси» 1999 й 43-бет.

9. Noishlab chiqarish xarajatlari;

10. Oborot mablag'lari o'z aksiyalarini sotib olishga ishlatilishi;

11. Soliqqa tortish va hisoblashdagi korxona rahbarlari va iqtisodiy xizmat xodimlarining yo'l qo'yadigan kamchilik va xatolari;

12. Korxonalarning tijorat faoliyati haqidagi axborotlarning boshqalarga ma'lum bo'lishi.

Bizning fikrimizcha, korxonalar, firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligiga ta'sir etuvchi omillar nihoyatda ko'p. Ularni, muallif N. Xasanov tomonidan keltirib o'tgan tartibda berib o'tish esa iqtisodiy jihatdan o'rinli deyish mumkin.

To'g'ri, ularda asosiy sabablar ko'rsatilgan. Lekin uni quyidagi tartibda berib o'tish iqtisodiy jihatdan to'g'riroq bo'lar edi.

Iqtisodiy omillar bilan bog'liq sabablar:

– korxonaning to'lovga noqobilligi, nolikvidligi (to'lov majburiyatlarini to'lov mablag'lari orqali qoplanishidagi holatning yomonligi, mablag'lar harakatchanligidagi sustlik, nomuvofiqlik...);

– korxonaning moliyaviy nobarqarorligi (aktivlarni moliyalashtirishdagi holatning yomonligi, jalb qilingan kapitalga qaramligi, xususiy kapitalning asosiy kapital va aylanma kapitaldagi salmog'ining pastligi);

– korxonani surunkali zararga ishlashi va past rentabelligi (zararga ishlashning uzluksizligi, rentabellikning manfiy darajasi, xarajatlarning oqlanmasligi...);

– ish aktivligining sekinlashuvi (mablag'lar, aktivlar aylanuvchanligidagi sustlik, pul tushumlarining qisqarib ketishi, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining haddan ziyod ortib ketishi, korxonaning bozordagi o'rni va mavqeyini yo'qolishi...)

– korxona boshqaruv apparatining ish samarasining pastligi (rahbarlarning uquvsizligi, qonunchilikni yaxshi bilmasligi, davlat tomonidan berilgan imkoniyat va yengilliklardan yetarli darajada foydalana olmasligi, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos qonuniyatlarini chuqur o'rganmasligi, shartnomaviy intizomga qat'iy rioya etmasligi, sheriklarni tanlashda aldanib qolishi, marketingni yurita bilmasligi, talab va taklifni inobatga

olmasligi, mehnat jamoasi fikri bilan hisoblashmasdan, eskicha usulda boshqaruvni amalga oshirishi...)



4.2-chizma. **Bankrotlikni keltirib chiqaruvchi sabablar**[58]

[58] Н.Хасанов ««Бозор иқтисодиетига ўтиш шароитида банкротлик ва санациянинг назарий асослари» Диссертация автореферати, Т :Банк молия академияси

– asosiy va nomoddiy aktivlar holatining yomonligi (eskirish darajasi, ko'p xarjligi, ishlab chiqarish quvvatining foydalanish darajasidagi holat va boshqa jihatlar).

2. Ijtimoiy omillarga bog'liq sabablar: mamalakatdagi (ba'zan dunyodagi) ijtimoiy vaziyat (ijtimoiy barqarorlik, xalqning tadbirkorligi, ongi va uddaburonligi, diniy qarashlari, bir maqsadga birlashishi va h.k.)

3. Siyosiy omillar bilan bog'liq sabablar: ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni qo'llab-quvvatlanishidagi holat (davlat tomonidan uni yo'lga qo'yish va rag'batlantirishning turli mexanizlarining ishlamasligi); mahalliy hokimiyat va nazorat organlarini faoliyatga aralashuvidagi turli jihatlar; monetar siyosat, soliq, moliya, bojxona siyosatida qisqa davriylikdagi o'zgarishlarni holati va h.k.

Tahliliy jihatdan esa (moliyaviy hisobotlar-taqdim etilgan axborotlarga tayangan holda) iqtisodiy nochorlikni quyidagi sabablarini ko'rsatish mumkin.

1. Korxona moliyaviy ahvoli bilan bog'liq omillari (to'lovga noqobillik, mablag'lar nolikvidligi, aylanma mablag'larni moliyalashtirishning holati, moliyaviy nobarqarorlik)

2. Korxona moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar bilan bog'liq omillar (moliyaviy natijaviylik, rentabellikni past darajasi yoki manfiy ishorasi)

3. Korxona moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlarni turli jihatlarini ifoda etuvchi boshqa omillar (pul oqimini tarkibiy tuzilishi, asosiy vositalarning holati va harakati, xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari holati).

Bu jihat tarkiblanish moliyaviy hisobot shakllarining tuzilishga va mazmuniga to'la mos keladi o'rganish obyektini to'la qamrab oladi.

4.2. Moliyaviy barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor, moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalar faoliyatining tahlili

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi asosiy sabablardan biri korxonadagi moliyaviy salohiyatni tushib ketishi bilan izohlanadi. Moliyaviy salohiyatni o'zgarish darajalariga muvofiq

firma va kompaniyalarni moliyaviy jihatdan barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor hamda moliyaviy jihatdan nobarqaror firma va kompaniyalarga ajratish mumkin.

Firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holda i.f.d. M.Q.Pardayev quyidagi ko'rsatkichlarni tarkiblab o'tadi.[60]

1. O'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari.
2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar.
3. Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar.
4. Aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar;
5. Asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar.

Ushbu ko'rsatkichlar quyidagi chizmada aniq ko'rsatilgan (3.3-chizmaga qarang).



4.3-chizma. **Firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi**

Prof. A.Vaxobov va A.Ibragimov, N.Ishonqulovlar tomonidan chop etilgan «Moliyaviy tahlil» va «Moliyaviy va

[60] М.Қ.Пардаев, Б.Исроилов Иқтисодий таҳлил (ўқув қўлланма). Т. Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2001 й., 135-бет

boshqaruv tahlili» darsliklarida moliyaviy barqarorlikni 7 ta ko‘rsatkichi berib o‘tiladi. Ular quyidagilardan iboratdir[1]:

1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
2. O‘z va qarz mablag‘lari orasidagi nisbat koeffitsiyenti;
3. Uzoq muddatli qarzlardan foydalanish koeffitsiyenti;
4. Korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘larining chaqqon, harakatchanlik koeffitsiyenti;
5. Asosiy vositalar eskirishining jamlanish koeffitsiyenti;
6. Asosiy vositalarning aniq qiymat koeffitsiyenti;
7. Korxonada jami mulkning harakatchanligi koeffitsiyenti;

4.2-jadval

Korxona moliyaviy barqarorligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar nomi	Hisoblash yo‘li	Nimani ifoda etishi
1	2	3
O‘z mablag‘lari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlari		
O‘z mablag‘larining (O‘m) to‘planish koeffitsiyenti (Ko‘tk)	Ko‘tk=O‘meB	Korxonaning jami mablag‘larida o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘larining holatini ifodalaydi
Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti (Kmq)	Qmq=BeO‘m	Bir so‘mlik o‘z mablag‘iga qancha umumiy mablag‘ to‘g‘ri kelishi ifodalaydi
O‘m. Ni harakatchanlik koeffitsiyenti (Km)	Km=O‘m+O‘ mp-AsoteO‘m	Xususiy kapitalning qancha oborotda ishtirok etayotganligini ko‘rsatadi
Chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar		
ChJQM (chetdan jalb qilingan kapitalni to‘planish koeffitsiyenti Kchjqm()	Kchjqm= chjqmeB	Umumiy mablag‘dan qancha qismi chetdan jalb qilinganini izohlaydi
Uzoq muddatli ChJQM ni to‘planish koeffitsiyenti (Kumchjqm)	Kumchjqm= UmchjqmeO‘m	Xo‘jalik faoliyatini Umchjqm bilan ta’minlanganlik darajasini ifodalaydi

[1] Вахобов А., Ибрагимов А. Молиявий таҳлил.Т. Шарк нашриёти, 2002 й. 23-25 бетлар «Молиявий ва бошқарув таҳлили» Т :Шарк-2005 й

ChJQM tarkibiy koeffitsiyenti (Kumchjqm)	Kumchjqm= Umchjqmechjqm	Umumiy chetdan jalb qilingan mablag'larda Uchjqm ni xissasini ifodalaydi
O'm ni ChJQM ga qaramlik koeffitsiyenti (Kchjqm)	Kchjqm= ChjqmeO'm	Bir so'm o'z mablag'iga qancha chetdan jalb qilingan mablag' to'g'ri kelishini ifodalaydi
O'm ni uzoq muddatli passivlarga (Ump) qaramlik koeffitsiyenti (Kumpq)	Kumpq= UmpeO'm	Uzoq muddatli passivlarni o'z mablag'laridagi ulushi
Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar		
Umumiy harakatchanlik koeffitsiyenti (Kux) yoki umumiy harakatdagi mablag'larni faollik koeffitsiyenti (Uxm)	Kux=Uxm/B	Harakatdagi mablag'larni umumiy mablag'lardagi xissasi
Sof harakatdagi mablag'larning faollik koeffitsiyenti (Kf)	Kf=Sxm/O'xm	Sof harakatdagi mablag'larning umumiy harakatdagi mablag'lardagi xissasini ifodalaydi
Asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari		
Asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi xissasini ifodalovchi koeffitsiyent (Kavx)	Kavx=Av/B	Asosiy vositalarning umumiy xo'jalik mablag'laridagi xissasini ifodalaydi
O'z mablag'larining kapitallashuvi koeffitsiyenti(Kumk)	Kumk=Av-Ump/O'x	O'z mablag'larining qancha qismi asosiy vositalarga sarflanganligini ifodalaydi
Asosiy vositalar jamg'arilishini umumiy koeffitsiyenti (Kavju)	Kavju=Avue/Av Avue-asosiy vositalarning joriy eskirish summasi	Asosiy vositalarning qancha qismi takror to'planganligini ifodalaydi
Asosiy vositalar jamg'arilishining intensivligi koeffitsiyenti	Kin=Avje/Av Avje-Asosiy vositalarning joriy yildagi eskirish summasi	Bir yilda asosiy vositalar qiymatining qancha qismi jamg'arilganligini ifodalaydi
Aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar		

Aylanma mablag'larning (Aym) oborotdagi o'z mablag'lari (O'xm) bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (Kamt)	Kamt=O'xm/Aym	Har bir so'm aylanma mablag'ga qancha o'z mablag'i to'g'ri kelishini ifodalaydi
Aylanma mablag'larning qaramlik koeffitsiyenti (Kchjk)	Kchjk=Chjkm/Aym	Chetdan jalb qilingan mablag'larni aylanma mablag'lardagi xissasini ifodalaydi
Aylanma mablag'larning qisqa muddatli bank kreditlariga (Kmbk) qaramlik koeffitsiyenti (Kbk)	Kbk= Kmbk/Aym	Qisqa muddatli kreditlarni aylanma mablag'lardagi xissasi
Aylanma mablag'larning tez harakatdagi (Pmba) Aym bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kxmt)	Kxmt= Pmba/Aym	Aylanma aktivlarni qancha qismi tez likvid bo'ladigan aktivlar bilan qoplanganligini ifodalaydi
Aylanma mablag'larni butun mulkdagi hissasi	Kamx=Aym/B	Aylanma mablag'larni barcha mulkdagi xissasini xarakterlaydi

Moliyaviy barqarorlikning ko'rsatkichlar tizimini taqqoslaydigan bo'lsak ular orasida katta farqni sezish mumkin.

Mualliflar M.Q.Pardayev va B.Isroilovlar tomonidan moliyaviy barqarorlikni ifoda etuvchi ko'rsatkichlarning har bir guruhiga bir nechta ko'rsatkich kiritiladi.

O'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 3 ta, chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 4 ta, harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 3 ta, asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 4 ta, aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 5 ta ko'rsatkich tarkiblanadi.[62]

Rus olimlari L.V. Dontsova va N.A. Nikiforovalar tomonidan moliyaviy barqarorlikni aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimiga tayanish tavsiya etiladi.

[62] Пардаев М.Қ., Исроилов Б Иқтисодий таҳлил (ўқув қўлланма) Т.; Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси 1999 й.136-138 бетлар

4.3-jadval

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Normal darajasi
Kapitallashuv darajasi	Qarz kapitali/Xususiy kapital	1,5 dan yuqori bo'lmagan hollarda
O'ziga tegishli mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	Xususiy kapital-Oborotdan tashqari aktivlar*/Oborot aktivlar**	Quyi darajasi 0,1 K>0,5
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	Xususiy kapital/Balans jami	Km>0,4+0,6
Moliyalashtirish koeffitsiyenti	Xususiy kapital/Qarz kapitali	Kk>0,7
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	Xususiy kapital+Uzoq muddatli majburiyatlar/Balans jami	Kb>0,6

*-uzoq muddatli aktivlar
**-joriy aktivlar

4.4-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli manbalar
(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farqi (+,-)
1	2	3	4
1. O'z mablag'larining manbalari	383086	816216	433130
2. Uzoq muddatli aktivlar	517950	502316	-15634
3. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'z manbalari (1-2)	-134864	313900	448764
4. Uzoq muddatli kredit va qarzlar	801520	427168	-374352
5. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	666656	741068	74412
6. Qisqa muddatli kredit va qarzlar	588055	1200816	642761

7. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	1254711	1941884	687173
8. Tovar-moddiy zaxiralarining jami	951735	1757145	805410

Firma va kompaniyani moliyaviy jihatdan barqaror deyish mumkin qachonki, uning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar normal holatdan yuqori darajada bo'lsa, firma va kompaniyalar moliyaviy jihatdan xavf-xatari bor deyish mumkin qachonki, ko'rsatkichlar darajasi normal darajada va undan tushib ketsa, moliyaviy nobarqaror deyish mumkin qachonki uning ko'rsatkichlar tizimini ifodasi normal darajadan keskin tushib ketsa uning chegaraviyligini har bitta ko'rsatkichlar tizimiga nisbatan alohida belgilash lozim.

Amaliyotda, moliyaviy barqarorlikni belgilashning eng muhim metodik jihati aktivlarni (uzoq muddatli aktivlar hamda zaxira va xarajatlarni) manbalashdagi holat ko'rsatkichlariga qarab belgilanadi.

Jadval ma'lumotlari asosida tovar moddiy zaxiralarni qoplash yuzasidan o'z va qarzga olingan mablag'larning yetarligi yoki yetishmasligini hisob-kitob qilish lozim.

4.5-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni manbalashda o'z mablag'larining ortiqchaligi yoki yetishmovchiligi

Manbalash turi	Davri	Hisob-kitobi	Ortiqchalik yoki yetishmovchilik
Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z manbalarining yetarliligi (+) yoki yetish-masligi (3-8)	Davr boshi	-134864-951735	-1086599
	Davr oxiri	313900-1757145	-1443245
	O'zgarishi		-356646
			yetishmovchilik ortgan

4.6-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni manbalashda o'z va uzoq muddatli qarzga olingan mablag'larning ortiqchaligi yoki yetishmovchiligi

Manbalash turi	Davri	Hisob-kitobi	Ortiqchalik yoki yetishmovchilik
Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z va uzoq muddatli qarz manbalarining yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-) (5-8)	Davr boshi	666656-951735	-285079
	Davr oxiri	741068-1757145	-1016077
	O'zgarishi		-730998
			Yetishmovchilik ortgan

4.7-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni manbalashda jami mablag'larning ortiqchaligi yoki yetishmovchiligi

Manbalash turi	Davri	Hisob kitobi	Ortiqchalik yoki yetishmovchilik
Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga jami manbalarning yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-) (7-8)	Davr boshi	1254711-951735	+302796
	Davr oxiri	1941884-1757145	+184739
	O'zgarishi		-118057
			Ortiqchalik pasaygan

Korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni belgilab olish mumkin;

– xususiy kapitalni hajmini oshirish. Buning uchun firma va kompaniyalar ta'sischilarini qo'shimcha badallarini jalb qilish shuningdek, faoliyatning keyingi davrlari bo'yicha foyda summasini oshirish talab qilinadi.

– ko'p xarajat talab qiladigan asosiy vositalar, texnika va texnologiyalar o'rniga yangilarini olib kirish;

– bank kreditlarini aniq biznes-reja va foydali loyihalar hisobiga jalb etish hamda ularni umumiy mablag'lar tarkibidagi hissasini kamaytirib borish, firma va kompaniyalarning moliyaviy qaram bo'lib qolmasligiga harakat qilish;

– firma va kompaniyalarda to'lov intizomiga, shartnomaviy shartlarga to'la amal etgan holda debitor va kreditor qarzlarining ko'payib ketmasligini oldini olish;

– oborot aktivlarini manbalash yuzasidan ijobiy farqlanishlarni ta'minlash;

– iqtisodiy resurslarni joylashtirish va boshqarishdagi optimallikni yo'lga qo'yish va.h.k.

4.8-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni manbalashdagi yakuniy holat xulosasi

Davri	Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z manbalarining yetarliligi (+) yoki yetishmasligi	Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z va uzoq muddatli qarzga olingan mablag'larning yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-)	Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga jami manbalarning yetarliligi (+) yoki yetishmasligi
Davr boshi	-1086599	-285079	+302796
Davr oxiri	-1443245	-1016077	+184739
	Nobarqarorlik	Nobarqarorlik	Barqarorlik

4.3. Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini (bankrotligini) xarakterlovchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z harakat maydonida va uning ta'sirida rivoj topadilar, qayta tashkil etiladilar va bankrot bo'ladilar. Tashkil etilayotgan har bir firma, kompaniya qatorida albatta o'z faoliyatini to'xtatayotgani ham bo'ladi. Negaki bozor – bu avvalo raqobat demakdir. U imkon qadar bozorga xos tarzda faoliyat va harakatdagi o'zgaruvchanlikni talab etadi.

Raqobatga bardosh bera olmagan firma va kompaniyalar o'z o'rnini boshqa firma va kompaniyalarga bo'shatib beradilar.

Korxonalarning iqtisodiy-moliyaviy ahvoliga baho asosida iqtisodiy nochorlikni belgilashda turlicha qarashlarni uchratish mumkin. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalishni lozim topdik.

Korxona va firmalarni bankrot deb e'lon qilish va ularni tugatish shartlari davlat nomidan ish ko'ruvchi organlar tomonidan qat'iy belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday vakolatga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasi ega. Ushbu Qo'mita tomonidan firma va kompaniyalar (korxonalar)ni iqtisodiy nochor deb e'lon qilishning tartiblari belgilab boriladi va nazorat qilinadi.

Korxonalar iqtisodiy nachorligi ishlar qo'mitasi tomonidan korxonalarning iqtisodiy nochorligi ko'rsatkichlari va ularning me'yorlari ishlab chiqilgan. Lekin bu ko'rsatkichlar tizimi ham, iqtisodiy adabiyotlar korxonalarning nochorligini baholashga oid ko'rsatkichlar tizimi ham shuni ko'rsatmoqdaki, bu masala, yondashishda hali turli chalkashliklar mavjudligi to'g'risida guvohlik bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi korxonalarni sinish va sanatsiya o'tkazish masalalari bo'yicha hukumat komissiyasi tavsiya etgan «Korxonalarni moliyaviy tahlil qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar» (1997-yil 17-aprel) da 12-ta ko'rsatkichni hisoblash va tahlil qilish tavsiya etilgan.

N. Hasanov o'zining «Korxonalarning nochorligini aniqlash» («Soliq to'lovchining jurnali, №4, 2000-y.) maqolasida uchtagina ko'rsatkichni tavsiya etgan. Prof. E. Akramov «Korxonalarning moliyaviy holati tahlili» (T.: Moliya, 2003) o'quv qo'llanmasida korxonalar iqtisodiy nochorligini aniqlash uchun oltita ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Ko'rinib turibdiki, korxonalarning iqtisodiy nochorligini aniqlash uchun — uchtadan — o'n ikkitagacha ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish tavsiya etilayapti. Bu ko'rsatkichlar har birining hisoblanish tartibi va mazmunini ushbu maqolada batafsil yoritishning imkoniyati yo'q. Lekin korxonalar iqtisodiy nachorligini belgilaydigan

asosiy ko'rsatkichlar borki, ular yuqoridagi mualliflar tavsiya etgan ko'rsatkichlarda u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'lgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda tavsiya etilgan korxonalar iqtisodiy nachorligini belgilovchi ko'rsatkichlarni o'rganish va tahlil qilish, nachorlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni aniqlashga imkoniyat yaratdi.

Iqtisodchi olim, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti Xudoyberdiyev U.X tomonidan iqtisodiy nochorlikni aniqlashning quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tavsiya etiladi.[1]

1. **Korxonalarning mustaqillik koeffitsiyenti** – Bu koeffitsiyent korxona o'z mablag'lari manbayi summasini barcha mablag'larga (aktivlarga) nisbati bilan topiladi. Bu ko'rsatkich korxonaning o'z mablag'lari manbayini mavjud barcha mablag'larning qancha hissasini tashkil etishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 0,5 koeffitsiyent (50%) va undan yuqori bo'lsa, korxona moliyaviy mustaqil hisoblanishi mumkin.

2. **Korxonalarning to'lovga layoqatlik koeffitsiyenti**. Bu ko'rsatkich korxona balansi asosida hisoblanib, balans aktiv II «Joriy aktivlar» bo'limi umumiy summasini qisqa muddatli qarz majburiyatlariga bo'lish orqali topiladi.

3. **Korxonalarning o'z mablag'lari manbayi va qarz majburiyatlar nisbati koeffitsiyenti.** Bu ko'rsatkichni prof. I.T. Abdukarimov moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti deb atab, o'z mablag'larining manbayi summasini qarz majburiyatlarining umumiy summasiga nisbati bilan hisoblashni tavsiya etgan. Korxonalarning o'z mablag'larining qarz majburiyatlaridan ortiqligi xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqarorligining yetarli ekanligidan dalolat beradi, deb xulosa qiladi.

Prof. I.T. Abdukarimovning xulosasiga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash lozimki, bu ko'rsatkich korxonalarning moliyaviy barqarorligini umumiy tarzda ifodalaydi. Lekin aniq sharoitda korxona raqobatda sinmasligi kafolati bo'lolmaydi. Chunki, o'z mablag'larining katta qismi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga sarflangan bo'ladi. Korxonalar esa to'lov muddati kelgan qarz majburiyatlarini tez likvidli mablag'lari hisobiga qoplaydi. Shuning uchun ham o'z mablag'lari jami

[1] У.Х.Худойбердиев Иқтисодий ночорлик таҳлили. www ziyonet uz

summasidan (balans passivi I – bo'lim) uzoq muddatli aktivlar (balans aktivi I – bo'lim) summasini ayirib tashlashimiz va aylanma mablag'larda qatnashayotgan o'z mablag'lari summasini topishimiz lozim. Ma'lumki qarz majburiyatlari ham to'lash (qarzni qaytarish) muddatiga qarab har xil bo'ladi. Korxonalar uzoq muddatli bank kreditlari yoki boshqa subyektlardan uzoq muddatga qarz olgan bo'lishi mumkin. Bu qarzlarni qaytarish muddati joriy yilda bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham bu ko'rsatkichni hisoblashda to'lov muddati joriy yilda bo'lmagan uzoq muddatli kreditlar va qarzlar summasini majburiyatlar summasidan chiqarib tashlash lozim. Shundagina korxonalar o'z mablag'lari joriy yilda to'lanadigan qarz majburiyatlarga yetadimi degan savolga to'g'ri javob topish mumkin. Demak, aylanma malag'lardagi o'z mablag'lari summasini qisqa muddatli qarz majburiyatlariga bo'lib topilgan ko'rsatkich korxonalarning raqobatga bardoshligini real ifodalaydi.

4. **Korxona aktivlarining rentabelligi** – bu ko'rsatkich korxonaning sof foydasini barcha aktivlar summasiga (balansining jami summasiga) bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatlari asosida o'z mablag'lari manbayi summasini ko'paytirib, moliyaviy ahvolini yaxshilashning asosiy yo'llari foydani ko'paytirish hamda uzoq muddatli va joriy aktivlarining optimal qiymatlarini yaratib, ulardan samarali foydalanishdir. Shuning uchun ham korxonalarda barcha aktivlar rentabelligi ko'rsatkichini muntazam ravishda tahlil qilib borish, uning dinamikada o'zgarishini o'rganib borish muhimdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatdoshlik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalar raqobatda sinmasligi uchun quyidagilarga amal qilishlari lozim:

- mavjud mablag'larini to'g'ri joylashtirish va boshqarish;
- ijobiy faoliyat natijaviyligiga erishib borish;
- debitor qarzlarni ko'paytirmaslik yo'llarini topish, mavjud debitor qarzlarni muddatida qaytarish chora-tadbirlarini ko'rish;
- kreditor qarz majburiyatlarini to'lov muddati bo'yicha nazoratini olib borish.

Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini belgilashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimiga tayanish lozim:

- firma va kompaniya to'lov layoqati, qoplov koeffitsiyentini o'rganish;
- firma va kompaniyaning moliyaviy mustaqillik va qaramlik darajasini o'rganish;
- uzoq muddatli va joriy aktivlarni manbalashning holatini o'rganish;
- o'z va qarz mablag'lari orasidagi nisbatni o'rganish;
- aktivlar, kapital va majburiyatlar rentabelligini o'rganish
- ishlab chiqarish quvvatlaridan haqqoniy foydalanish darajasini o'rganish;
- asosiy va nomoddiy aktivlardan foydalanish darajasini o'rganish;
- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini o'rganish.

4.9-jadval

Korxonalar iqtisodiy nochorligini tahliliy ko'rsatkichlari va ularni me'yoriy darajalari

Ko'rsatkichlar	**Aniqlanish tartibi**	**Me'yoriy chegara**	**Nochor-lik belgisi**
1	2	3	4
Firma va kompaniyaning to'lov layoqati	Kt=Joriy aktivlar/muddati kelgan to'lov majburiyatlari	2-3	Kt<2
Firma va kompaniyaning moliyaviy mustaqillik koeff.	Km=O'z mablag'lari manbayi/Jami mulk	Km >50%	Km <50%
Uzoq muddatli va joriy aktivlarni manbalanishi	Oborot mablag'lari naqdligi-moddiy g'amlamalar/O'z mablag'lari+Uzoq muddatli qarz mablag'lari-Moddiy g'amlamalar	Ortiqcha-lik	Etishmov-chilik
O'z va qarz mablag'lari nisbati koeff.	Ka=O'z mablag'lari/qarz mablag'lari	Ortiqcha-lik	Etishmov-chilik
Aktivlar, kapital va majburiyatlar rentabelligi	Kr=Sof foyda/Aktiv yoki kapital+majburiyat	Kr>0	0 dan kichik

Ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish darajasi	Kf=Ishlab chiqarish quvvatining haqiqiy darajasidagi mahsulot hajmi/texnik loyiha bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan hajm	Kf=1 >0	Kf=1< 0
Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishini jamg'arilish koeff.	Ke=Asosiy va nomoddiy aktivlarni eskirish qiymati/Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni boshlang'ich qiymati	Ks>0.5	Ks<0.5
Muddati o'tgan majburiyatlar holati	Kd/k=Muddati o'tgan majburiyatlar/jami majburiyatlar	Kd/k<0.5	Kd/k> 0.5

Qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasining «Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi qarori»[1] ga muvofiq korxonalar moliyaviy-iqtisodiy holati bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- iqtisodiy barqaror;
- iqtisodiy tahlikali (xavf-xatarli);
- iqtisodiy nobarqaror*-**:

**to'lovga qobilligini tiklash imkoniga ega bo'lgan korxonalar:*
***to'lovga qobilligini tiklash imkoniga ega bo'lmagan korxonalar.*

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy holatini baholash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi

[1] Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт Вазирлиги ҳузуридаги Иқтисодий ночор корхоналар ишлари Қўмитасининг «Корхоналарнинг молиявий иқтисодий аҳволи мониторинги ва таҳлилини ўтказиш мезонларини аниқлаш тартиби тўғрисидаги қарори» Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2005 йил 14 апрелда 1469-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган

huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasining «Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risida»gi qaroriga muvofiq quyidagi ko'rsatkichlar tizimini o'rganish tavsiya etiladi.

– to'lov layoqati yoki qoplash koeffitsiyenti (Ktl):

– o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kat)

– korxona aktivlari va xarajatlari rentabelligi (Ra, Rx)

Yakuniy xulosani chiqarish yuzasidan, shunindek, quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlar o'rganiladi:

– o'z mablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti (Ko'q)

– Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti (Kquv)

– Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (Kesk)

Iqtisodiy nochorlik tahlili yuzasidan o'rganiladigan asosiy masalalar qatorida pullik majburiyatlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan kreditorlik qarzalarining mavjudligiga, korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini joriy aktivlar bilan to'lashga qodir emasligiga, rentabellikning quyi darajasi yoki zararga ishlash holatiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Korxonalar moliyaviy -iqtisodiy holatini baholashning asosiy ko'rsatkichlari tavsifi:

Muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlari sifatida pullik va majburiy to'lovlar bo'yicha to'lov muddati kelib uch oydan ortiq muddat o'tgan kreditorlik majburiyatlari summasi nazarda tutiladi.

Muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlari summasi (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug'iga 1-sonli ilova, O'zR AV tomonidan 2003-y. 24-yanvarda ro'yxatga olingan N 1209-sonli (o'zgarishlari 11.10.2012-yil 1209-5 raqamli tartibi bilan ro'yxatdan o'tgan) «Buxgalteriya balansi» moliyaviy hisobot shaklining 492 satridan (O'zR AV tomonidan 20.12.2004-yil №-1209-2 bilan ro'yxatga olingan Moliya Vazirligi buyrug'iga asosan) yoki Buxgalteriya balansiga ilova sifatida berilgan (O'zR AV tomonidan 11.10.2012-yil 1209-5 raqamli tartibi bilan

ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi buyrug'iga ko'ra tuziladigan) «Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrovkasi» dan olinadi.

Qoplash (to'lov layoqati) koeffitsiyenti joriy aktivlar summasining uzoq muddatli majburiyatlar summasiga kamaytirilgan jami majburiyatlarni qoplashga imkonligini xarakterlaydi.

Ushbu koeffitsiyent balans moddalari bo'yicha quyidagicha hisob-kitob qilinadi

Ktl=Tmab/Tmaj (4.1)

Bunda: Tmab- to'lov mablag'lari summasi;

Tmaj-to'lov majburiyatlari;

Hisob-kitobda to'lov majburiyatlari summasi uzoq muddatli majburiyatlar summasiga kamaytiriladi.

Balans qatorlari bo'yicha:

Ktl=390 satr / 770 satr-(730 satr+740 satr) (4.2)

Agar hisob-kitob qilingan ko'rsatkich darajasi 1,25 dan kichik bo'lsa korxona to'lovga noqobil deb tan olinadi.

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kat) aylanma aktivlarni moliyalashtirishda o'z mablag'larining mavjudligini xarakterlovchi, moliyaviy barqarorlikni, korxona egalari va qarzdorlari qiziqishini ifoda etuvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti quyidagi bog'lanish orqali hisob-kitob qilinadi:

Kat= P1+Umm-A1 / A2 (4.3)

Bunda: P1-Buxgalteriya balansi passiv tomoni 1-bo'limi jami «O'z mablag'lari manbayi» summasi. 480-satr

Umm-Uzoq muddatli aktivlarni olib kelishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar va qarzlar summasi. 570+580 satr

A1-Buxgalteriya balansi aktiv tamoni 1-bo'limi jami «Uzoq muddatli aktivlar» summasi. 130 satr

A2-Buxgalteriya balansi aktiv tomon 2-bo'lim jami «joriy aktivlar» summasi. 390 satr.

Buxgalteriya balansi satrlar kodi bo'yicha hisob-kitobi:

Kat=480 satr + 570 satr + 580 satr-130 satr / 380 satr (4.4)

Ushbu koeffitsiyent jami mablag'larning qay darajasi aylanma aktivlarga yo'naltirilganligini xarakterlaydi va uning nisbiy ifodasi 0,2 dan kam bo'lmasligi lozim. Agar davr oxiriga

kelib ushbu ko'rsatkichning ifodasi 0,2 dan kam chiqsa korxona o'z aylanma aktivlari bilan ta'minlanmagan deb qaror chiqariladi.

Rentabellik koeffitsiyenti – korxona xo'jalik-moliya faoliyatining foydaligini yoki zarar bilan yakunlaganligini ifoda etadi.

Kra=Fstk/A*100 (4.5)

Bunda Fstk-soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda («Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotning 240 satri)

A-aktivlarning o'rtacha yillik qiymati (aktivlarning o'rtacha yillik qiymat o'rtacha arifmetik va o'rtacha xronologik usulda aniqlanadi)

Krx= Fstk / X*100 (4.6)

Bunda: X- xarajatlar summasi («Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotning 020 satri+040 satri+170 satri +230 satri)

Agar rentabellik darajasi 0 dan kichik bo'lsa korxona zararga ishlaydigan korxona sifatida tan olinadi.

Agar daraja 0,05 bo'lsa korxona past rentabelli deb tan olinadi.

O'z mablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti (Ko'q) – korxonaning moliyaviy mustaqillik darajasini xarakterlovchi ko'rsatkich sifatida belgilangan.

Korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z mablag'lari manbasi bilan qaytarishga qodirligini tavsiflovchi ushbu ko'rsatkich quyidagicha topiladi.

Ko'/q=P1/P2-Umm (4.7)

Balans qatorlari bo'yicha

Ko'/q= 480 satr/770 satr-(730satr+740satr) (4.8)

Koeffitsiyentning tushishi korxonada moliyaviy tahlikalarning ortishini xarakterlaydi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini xarakterlovchi ko'rsatkich korxonadagi iqtisodiy tahlikaviy holatlarni bilishda o'rganiladigan qo'shimcha ko'rsatkich hisoblanadi.

Ushbu ko'rsatkich quyidagi bog'lanishlar orqali topiladi.

Kquv=Q haq / Q loyiha –(Q ijara +Q konserv.) (4.9)

Bunda: Qhaq-hisobot davrida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi taqqoslama bahoda;

Q loyiha – to'liq texnologik jarayonda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan maksimal darajadagi mahsulot hajmi summasi, taqqoslama bahoda;

Q ijara – ishlab chiqarish quvvatining ijaraga berilgan qismiga tegishli mahsulot hajmi summasi, taqqoslama bahoda;

Q konserv – ishlab chiqarish quvvatining konservatsiya qilingan qismiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi summasi, taqqoslama bahoda.

Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (Kesk) korxona egaligi va tasarrufida bo'lgan asosiy vositalarning texnik holatini baholovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich quyidagi bog'lanishlar orqali topiladi.

$$\textbf{Kesk=Aeq / Abq} \qquad (4.10)$$

Bunda:

Aeq-asosiy vositalarning eskirish qiymati;

Abq-asosiy vositlarning boshlang'ich qiymati.

Balans qatorlari bo'yicha:

$$\textbf{Kesk=011 satr/ 010 satr} \qquad (4.11)$$

Agar ushbu ko'rsatkich darajasi davr oxiriga kelib 0,5 dan ortadigan bo'lsa korxona asosiy vositalarining katta qismi eskirgan deb, iqtisodiy holatda esa tanglik mavjud deb qaraladi.

4.10-jadval

Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlari

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy holat nobarqarorligi
Asosiy ko'rsatkichlar	
To'lov layoqati yoki qoplash koeffitsiyenti (Ktl):	Ktl – 1,25 dan kichik bo'lsa
O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kat)	Kat – 0,2 dan kam chiqsa
Korxona aktivlari va xarajatlari rentabelligi (Ra, Rx)	Ra, Rx – 0 dan past bo'lsa
Qo'shimcha ko'rsatkichlar	
O'z mablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti (Ko'q)	Ko'/q – 1,25 dan tushib ketgan hollarda

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti (Kquv)	Kqo'v – 0,5 dan tushib ketganda
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (Kesk)	Kesk – 0,5 dan oshib ketganda

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda korxonalarning iqtisodiy nochorligini tahlil qilishda uch guruhdan iborat ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi;

Birinchi guruh ko'rsatkichlar muddati 3 oydan ortgan kreditorlik qarzlarini borligi va manfiy rentabellik darajasi;

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlarga to'lovga qobillik, aylanma mablag'lar bilan ta'minlaganlik ko'rsatkichlari;

Uchinchi guruh ko'rsatkichlariga aktivlar rentabelligi, xususiy va chetdan jalb qilingan mablag'lar nisbati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati, asosiy kapitalni eskirishi kabi ko'rsatkichlar kiritiladi.

4.4. Korxona iqtisodiy nochorligini (bankrotligini) prognozlashdagi modellar va ularning tahliliy metodikasi

Iqtisodiy nochorlikni prognozlash, bankrotlik xavf-xatarini aniqlashning xalqaro amaliyotda juda katta tajribasi to'plangan va ularga doimo amal qilib kelinmoqda. Iqtisodiy nochorlikni aniqlash va bankrotlik xavf-xatarini hisoblashning ilk urinishlari ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda AQSh va Yevropa davlatlarida kuzatiladi. Bankrotlik holatini baholash tahlilda eng muammoli masalalar sirasiga kiradi. Shu sababli bu jarayon har bitta davlatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tartiblandi.

Iqtisodiy nochorlikni aniqlash va bankrotlikni baholashni xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan yondashuvlarini quyidagi chizmada aks ettirish mumkin.

Korxonalar iqtisodiy nochorligini aniqlashning va uning bankrotlik holatini bashoratlashning eng ommaviylashgan modeli sifatida Nyu-York universiteti professori E.Altmanning ikki faktorli modeli qo'llaniladi.

4.11-jadval

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning G'arb amaliyotidagi ayrim modellari

Nochorlikni aniqlashdagi yondashuvlar	1. Altmanning ikkita faktorli modeli.
	2. Altmanning besh faktorli modeli.
	3. Firmaning likvidatsion qiymatini aniqlash usuli(Uilkoksa modeli).
	4. Koeffitsiyent tahlili modeli.
	5. Integral baholash modeli.
	6. Fulmer modeli.
	7. Moliyaviy strategiya matritsasi.
	8. U.Biver ko'rsatkichi bo'yicha korxona moliyaviy holatini baholash.
	9. Korxona moliyaviy holatini reyting baholash.

4.12-jadval

Ikki faktorli Za-modeli Za=-0,3877-1,0736*K1+0,0579*K2	
Ko'rsatkichlar	**Aniqlanishi**
Umumiy qoplash koeffitsiyenti (K1)	Joriy aktivlar/joriy majburiyatlar
Moliyaviy bog'liqlik koeffitsiyenti (K2)	Qarz mablag'lari/balans jami

E.Altman tomonidan tavsiya etilgan va xorijiy amaliyotda bankrotlik ehtimolini aniqlashning besh faktorli modeli quyidagi ko'rinishga va bog'lanishga ega.

4.13-jadval

Besh faktorli Za-modeli Za=1,2 +1,4K2+3,3K3+0,6K4+1,0K5	
Koeffitsiyent	**Aniqlanishi**
K1=	Xususiy oborot kapitali/Aktivlar summasi
K2=	Taqsimlanmagan foyda/Aktivlar summasi
K3=	Foizlar to'langunga qadar foyda/Aktivlar summasi
K4=	Xususiy kapitalni bozor qiymati/qarz kapitali
K5=	Sotish hajmi/Aktivlar summasi

Bankrotli ehtimoli bo'yicha qarorlar chiqarishda quyidagi me'yorlarga tayaniladi.

4.14-jadval

Darajalar miqdori	Bankrotlik ehtimoli
Agar Z<1,81 bo'lsa	bankrotli ehtimoli yuqori, deb
Agar Z>2,7 va undan yuqori	bankrotlik ehtimoli past deb qaraladi.

Ushbu model asosida Altman 66 ta korxonada izlanish olib borgan holda 1946–1965-yillar oralig'ida yarmi bankrotlikka yuz tutgani, yarmi faoliyatini yuqori suratlar bilan davom ettirgani aytiladi.

Shuningdek, Moskva davlat universiteti professorlari tomonidan unga 50 ga yaqin tipografiya tashkilotlarini o'rganish asosida bankrotlikni aniqlashning ikki faktorli boshqa bitta modeli yaratildi. Ushbu model quyidagi bog'lanishlarga ega.

4.15-jadval

Ikki faktorli Zp-modeli Z p=0,3872+0,2614Ktl+1,0595Ka	
Ko'rsatkichlar	**Aniqlanishi**
Joriy likvidlilik koeffitsiyenti (Ktl)	To'lov mablag'lari /To'lov majburiyatlari
Avtonomiya koeffitsiyenti (Ka)	Xususiy kapital/Jami manbalar
Ka=1-K2 (Altman formulasi bo'yicha)	

Aniqlangan darajalar bo'yicha bankrotlikning ehtimoli quyidagi holatlarga qarab baholanadi

4.16-jadval

Darajalarning tarkiblanishi	Bankrotlik ehtimoli
Z p =1,3257 dan kam bo'lsa	Bankrotlik ehtimolli juda yuqori
Z p.=3257-1,5475 gacha bo'lsa	Bankrotlik ehmoli yuqori
Z p =1,5745-1,7693 gacha bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli o'rtacha
Z p =1,7693-19911 gacha bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli past
Z p =1,9911 dan yuqori bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli juda past

1997-yilda Altman boshchiligidagi bir guruh amerikalik iqtisodchilar tomonidan bankrotlik ehtimolini aniqlashning yetti faktorli modeli ishlab chiqildi ushbu model bankrotlikni 70 foizgacha aniqlikda hisobash imkonini beradi.

Ushbu yettita ko'rsatkich quyidagilardan iborat:

1. Aktivlar rentabelligi.
2. Foyda dinamikasi.
3. Kredit foizlarini qoplash koeffitsiyenti.
4. Komulyativ foyda.
5. Qoplash koeffitsiyenti (likvidlilik).
6. Avtonomiya koeffitsiyenti.
7. Jami aktivlar harakatlanish koeffitsiyenti.

1972-yilda Iqtisodchi Lis Britaniya korxonalarida bankrotlik ehtimolini aniqlashning 4 faktorli modelini ishlab chiqqan.

4.17-jadval

To'rt faktorli Zl-modeli Zl=0,063K1+0,692K2+0,057K3+0,601K4	
Koeffitsiyent	**Aniqlanishi**
K1=	Oborot kapitali/Aktivlar summasi
K2=	Sotishdan foyda/Aktivlar summasi
K3=	Taqsimlanmagan foyda/Aktivlar summasi
K4=	Xususiy kapital/Qarz kapitali

1997-yil Britaniya olimi Taffler kompaniyalar moliyaviy holatini baholashning muhim ko'rsatkichlari (foyda, oborot kapitali, moliyaviy risk, likvidnost kabi)ga tayangan holda 4 faktorli modelni tavsiya qildi.

4.18-jadval

To'rt faktorli Zt-modeli Zt=0,53R1+0,13R2+0,18R3+0,16R4	
K1=	Sotishdan foyda/Qisqa muddatli majburiyatlar
K2=	Oborot aktivlar/Majburiyatlar summasi
K3=	Qisqa muddatli majburiyatlar/Aktivlar summasi
K4=	Tushum/Aktivlar summasi

Taffler formulasi yechimida bankrotlik ehtimoli bo'yicha qarorlar chiqarishda quyidagi me'erlarga tayaniladi.

4.19-jadval

Darajalar miqdori	Bankrotlik ehtimoli
Z= 0,3 dan katta bo'lsa	Kompaniyaning uzoq muddatli kelajagi bor deb qaraladi
Agar Z=0,2 dan kichik bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli bor deb qaraladi

1970–1975-yillarda fransuz olimlari Dj.Konan va M.Golder lar tomonidan 180 dan ortiq korxonalarni bankrotli darajasini aniqlash yuzasidan olib borgan tadqiqotlari natijasida besh faktori yangi modelga erishildi. Ushbu model quyidagi bog'lanishlarga ega.

4.20-jadval

Besh faktorli Zkg-modeli Zkg= − 0,16K1*0,22K2+0,87K3+0,10K4 − 0,24K5	
Koeffitsiyentlar	**Aniqlanishi**
K1=	debitorlik majburiyatlari+Pul mablag'lari/aktivlar hajmi
K2=	Doimiy kapital/Aktivlar hajmi
K3=	Moliyaviy xarajatlar/Sotish hajmi (soliqqa tortilgandan keyin)
K4=	Xodimlar uchun xarajatlar/Qo'shilgan qiymat(soliqqa tortilgandan keyin)
K5=	Balans foyda/ Jalb qilingan kapital

Hozirda Fransiyada banklar faoliyati bankrotligini baholashda ko'pincha sakkiz faktorli quyidagi formuladan foydalanish an'anaga aylangan

4.21-jadval

Sakkiz faktorli Zb-modeli Zb=-1,225K1+2,003K2-0,824K3+5,221K4-0,689K5-1,164K6+0,706K7+1,408K8-0,85544	
Koeffitsiyentlar	**Aniqlanishi**
K1=	Moliyaviy xarajatlar/Balans foyda
K2=	Doimiy kapital/Investitsion kapital
K3=	Uzoq muddatli kreditorlik majburiyati/Sof aktivlar
K4=	Balans foyda normasi(balans foyda/tushum)
K5=	MEB kreditining davomiyligi
K6=	Qo'shilgan qiymat/Aylanma mablag'lar hajmi
K7=	Mijozlar kreditining davomiyligi
K8=	Ishlab chiqarish investitsiyalari/Umumiy investitsiyalar

Bankrotlik ehtimoli bo'yicha qarorlar chiqarishda quyidagi me'yorlarga tayaniladi.

4.22-jadval

Darajalar miqdori	Bankrotlik ehtimoli
Agar Zb = 0,25 dan kichik bo'lsa	bankrotlik darajasi yuqori
Agar Zb = 0,25-0,125 bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli noma'lum deb
Agar Zb = 0,125-dan yuqori bo'lsa	bankrotli ehtimoli past deb qaraladi

Amerikalik moliyaviy analitik U.Biver korxonalar moliyaviy holatini baholash orqali bankrotlik darajasini tahlil etishning quyidagi jadvalini tavsiya etadi

4.23-jadval

Ko'rsatkichlar	Hisob-kitob uchun formula	Bankrotlik ehtimoli mavjudligi		
		Mavjud emas	5 yildan keyin	1 yildan keyin
Koeffitsiyent Bivera	Sof foyda-Amortizatsiya/Uzoq muddatli majburiyatlar+Qisqa muddatli majburiyatlar	>=0.4-0.45	>=0.17	-0.15
Aktivlarni moliyaviy rentabelligi	Sof foyda*100/Aktiv jami	6-8	4	-22
Moliyaviy leverej koeffitsiyenti	Uzoq muddatli majburiyatlar+Qisqa mudddatli majburiyatlar/Aktiv jami	<=37	<=50	<=80
Aktivlarni sof oborot kapitali bilan qoplanishi koeffitsiyenti	Xususiy kapital-Oborotdan tashqari aktivlar/aktivlar jami	>=0.4	>=0.3	>=0.06
Qoplanish koeffitsiyenti	Oborot aktivlar/Qisqa muddatli majburiyatlar	<=3,2	<=2	<=1

Irkutiya Moliya Akademiyasining bir guruh olimlari tomonidan bankrotlik ehtimolini aniqlashning 4 faktorli modeli yaratilgan uning tarkibiy tuzilishi quyidagilardan iborat.

4.24-jadval

To'rt faktorli Zi modeli Zi= 8,38K1+K2+0,054K3+0,64K4	
Faktorlar	**Aniqlanishi**
K1-	Xususiy oborot kapitali/Aktivlar
K2	Sof foyda/Xussiy kapital
K3	Sotishdan sof tushum/Aktivlar
K4	Sof foyda/Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi

Ushbu model bo'yicha Zi- miqdorining o'zgarishiga qarab quyidagi xulosalar chiqariladi.

4.25-jadval

Darajalar miqdori	**Bankrotlik ehtimoli**
Agar Zi qiymati 0 dan kichik bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli juda yuqori (90-100%)
Agar Zi 0- 0,18 gacha oraliqda bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli yuqori (60-80%)
Agar Zi 0,18-0,32 gacha bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli o'rtacha (35-50%)
Agar Zi 0,32- 0,42 gacha bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli past (15-20%)
Agar Zi 0,42 dan yuqori bo'lsa	Bankrotlik ehtimoli juda past, deb topiladi (10% gacha)

Rus olimlari Sayfulin R.S va Kadikov G.G. lar tomonidan korxonalar moliyaviy holatini ekspress tahlili yuzasidan, reyting baholashning quyidagi formulasi tavsiya etiladi.

4.26-jadval

Besh faktorli Zsk modeli Z ck =2K1+0,1K2 +0,08K3+0,45K4+K5		
Faktorlar	**Aniqlanishi**	**Me'yori**
K1	O'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	0,1 dan katta yoki teng bo'lishi kerak
K2	Joriy likvidlilik koeffitsiyenti	2 dan katta yoki teng bo'lishi kerak

K3-	Avanslangan kapital aylanishining intensivli (Sotish hajmi/Asosiy va oborot kapitali)	2,5 dan katta yoki teng bo'lishi kerak
K4-	Menejmentlik koeffitsiyenti (Sotishdan foyda/sotishdan tushum.	0,445 dan katta yoki teng bo'lishi kerak
K5-	Xususiy kapital rentabelligi (yalpi foyda/xususiy kapital)	0,2 dan katta yoki teng bo'lishi kerak.

Afsuski, ushbu modellarni amaliyotda to'g'ridan to'g'ri foydalanish imkoni yo'q. Shu sababli ularni o'sha davlatlarning o'zida va boshqa davlatlar amaliyotida ham tayyor andoza va mezon ko'rsatkichlari sifatida foydalanishda juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish lozim. Birinchidan ushbu modellarni yaratilganligidan buyon ancha vaqt o'tdi. Bu vaqt orasida makro iqtisodiy va mikro iqtisodiy jarayonlarda juda katta o'zgarishlar kuzatildi, globallashuv jarayoni nihoyatda yangi forma va shakllarda kuchayib bormoqda.

Shuningdek, hamma uchun yagona bo'lgan modelning o'zi yo'q va bunday modelni yaratishni imkoni ham yo'q. Ushbu modellar har bitta sektorda va uning tarkibiy birliklari uchun alohida, shu davrning xususiyatli jihatlarini hisobga olgan holda tuzib chiqilishi lozim.

4.5. Firma va kompaniyalar bankrotligini tan olish va uning o'ziga xos jihatlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotligi O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi qonuni va unga keyinchalik kiritilgan qo'shimcha, o'zgartirishlar bilan va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bankrotlik instituti tadbirkorlar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yish, o'zaro to'lov intizomini kuchaytirish, yig'ilib qolgan kreditorlik va debitorlik qarzlarini undirish. oqibat natijada ishlab chiqarishni barqarorlashtirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

I.f.n. dotsent S.Najmiddinov, N. Xasanovlar tomonidan chop etilgan «Korxona moliyaviy holatini baholash» (muammolar va ularni hal etish)-deb nomlangan o'quv qo'llanmasida) – «bankrotlik belgilangan tartibda korxonaning iqtisodiy nochorligini tan olish, xo'jalik sudi tomonidan uni bankrot deb e'lon qilish demakdir» deb yoziladi.[63]

Firma va kompaniyalar bankrot deb e'lon qilinadi qachonki bankrotlik faktlarini barchasi e'tirof etilsa.

Bankrotlik to'g'risidagi ish xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunning III bobiga ko'ra, xo'jalik subyektlari sudga murojaat qilmasdan turib ham o'zini-o'zi bankrot deb e'lon qilishi mumkin. Buning uchun korxonaning rahbari ixtiyoriy tugatish haqida qaror chiqaradi, uni kreditorlar ma'qullaydi, so'ngra bu qaror mulkdor (qarzdorning mol-mulkida davlat ulushi bo'lsa, Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi ham) tomonidan tasdiqlanadi. Qaror mulkdor tomonidan (qarzdorning mol-mulkida davlat ulushi bo'lsa iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi tomonidan ham) tasdiqlangan paytdan boshlab qarzdor bankrot bo'lgan deb hisoblanadi. Agar kreditorlarning loaqal bittasi bu qarorni ma'qullamasa yoki kreditorlarning barchasi ma'qullasayu, ammo mulkdor bu qarorga norozi bo'lsa, qarzdor o'zini-o'zi bankrot deb topa olmaydi. Bunday holda u qonunda belgilangan tartibda xo'jalik sudiga bankrotlik arizasi bilan murojaat qilishi mumkin.

Qarzdor o'zini-o'zi bankrot deb topgan taqdirda ham u «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunda belgilangan tartibda tugatilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik protsessual kodeksining 30-moddasiga ko'ra, tashkilotlar va fuqarolarning bankrotligi to'g'risidagi ishlar qarzdor turgan joydagi xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

Ushbu Kodeksning 23-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar yoki tadbirkor jismoniy shaxslar xo'jalik sudida taraf sifatida ishtirok etishlari mumkin. Ya'ni, korxonaning yuridik shaxs huquqiga ega bo'lmagan

[63] Хасанов Н, Нажмиддинв С. Корхона молиявий ҳолатини баҳолаш (муаммолар ва уларни ҳал қилиш) Т ,Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунеси 1999 й.57-бет

bo‘linmalari bankrot deb topilishi mumkin emas. Chunki ularning qarz majburiyatlari bo‘yicha yuqori tashkiloti javob beradi.

Bankrotlik to‘g‘risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etadigan bo‘lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o‘ttiz karrasini tashkil etadigan bo‘lsa, xo‘jalik sudi tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Majburiy to‘lovlar majburiyatini bajarmaganligi natijasida qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan xo‘jalik sudiga murojaat etish huquqiga qarzdor, prokuror, davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar ega.

Bankrotlik ishlari alohida toifadagi ishlar jumlasiga kiritilishi bois korxonani bankrot deb topish to‘g‘risida sudga da’vo arizasi bilan emas, ariza bilan murojaat etiladi. O‘z navbatida tomonlar «da’vogar» va «javobgar» emas, «kreditor» va «qarzdor» deyiladi. Chunki bu yerda arizachi da’vo qilmaydi. Faqat suddan korxonaning nochor ahvolga tushganligi sababli uni bankrot deb topishni so‘raydi. Shu sababli, bankrotlik ishlari ko‘rib chiqilayotganida kreditorlik yoki debitorlik qarzlariga nisbatan da’vo muddati ham qo‘llanilmaydi.

«Bankrotlik to‘g‘irisida»gi qonunning 5-moddasiga ko‘ra bankrot deb topish uchun xo‘jalik sudiga quyidagi 4 xil toifadagi shaxslar ariza berishlari mumkin:

1. Prokuror.

2. Kreditor (soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq idorasi va boshqa vakolatli idoralar).

3. Qarzdor.

4. O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi huzuridagi iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo‘mitasi va uning viloyat boshqarmalari (qarzdorning mol-mulkida davlat ulushi bo‘lsa).

Shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda o‘zga shaxslar ham ariza berishlari mumkin. Qarzdor-yuridik shaxs o‘zini bankrot deb topish to‘g‘risida sudga ariza berishi uchun bu haqda mulkdorning yoki vakolatli davlat idorasining qarori bo‘lishi kerak. Qarzdor sudga o‘zini-o‘zi bankrot topish to‘g‘-

risida ariza berishi uchun unda davlat boji to'lash uchun yetarli mablag' bo'lishi shart.

Korxonani bankrot deb topish to'g'risidagi arizaga qarzdor korxonaning so'nggi buxgalteriya balansi, kreditorlik va debitorlik qarzlarining kengaytirilgan ro'yxati (kimdan, qachon, qancha miqdorda qarz bo'lganligi yoki qarz berilganligi va h. k.), kreditorlik qarzining 6 oydan buyon to'lanmay kelinayotganligini asoslovchi hujjatlar hamda korxonaning moliyaviy ahvolini aks ettiruvchi boshqa xil ma'lumotlar ilova qilinishi lozim.

Yuridik shaxsning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda quyidagi taomillar qo'llaniladi:

Kuzatuv – xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy, ahvoli tahlilini o'tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilingan paytdan e'tiboran keyingi taomilga qadar qo'llaniladigan taomili;

Sudgacha sanatsiya qilish – qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egalari, kreditorlar va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash hamda bankrotligining oldini olish maqsadida ko'riladigan chora-tadbirlar;

Sudgacha sanatsiya qilish bankrotlik alomatlari yuzaga kelgan taqdirda, qarzdorning rahbari bu haqda qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga), boshqaruv organlariga yoki qarzdorning mol-mulki egasiga yozma shaklda xabar qilishi shart.

Sud sanatsiyasi – xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qarzini uzish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o'tkazmagan holda qo'llaniladigan taomil;

Sud sanatsiyasi ko'pi bilan yigirma to'rt oylik muddatga joriy etiladi, bu muddat majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslar kreditorlarning talablarini qondirishi uchun xo'jalik sudi tomonidan ko'pi bilan olti oyga uzaytirilishi mumkin.

Kelishuv bitimi – taraflarning sud nizosini o'zaro yon berish asosida tugatish to'g'risidagi bitimi.

Tashqi boshqaruv – xo'jalik sudi tomonidan bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish chog'ida tayinlanadigan hamda qarzdorning mol-mulkini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o'tkazgan holda qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida qo'llaniladigan bankrotlik taomilidir. Sodda qilib aytiladigan bo'lsa, nochor ahvolga tushgan qarzdorning rahbari o'rniga shu sohani yaxshi biladigan, iqtisodni, boshqaruv sirlarini chuqur o'zlashtirgan boshqa kishi muayyan muddatga xo'jalik sudi tomonidan rahbar qilib (tashqi boshqaruvchi) tayinlanadi.

Tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdan boshlab, qarzdorning rahbari o'z vazifasidan chetlashtiriladi va uning vakolatlari tashqi boshqaruvchiga o'tadi. Qarzdorning majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablariga, shuningdek penyalarga nisbatan ham moratoriy joriy etiladi (muzlatiladi).

Tashqi boshqaruvchining nomzodini xo'jalik sudiga kreditor, qarzdor, mulkdor, vakolatli davlat organi taklif etishi mumkin. Ammo bu nomzodlarni kreditorlar yig'ilishi ko'rib chiqadi va ko'p ovoz olgan nomzodni (bir nechta bo'lsa) ma'qullashib, so'ngra ushbu nomzodni tayinlash uchun xo'jalik sudiga berishadi.

Tashqi boshqaruvchining nomzodi kreditor, qarzdor, mulkdor, vakolatli davlat organi tomonidan taqdim etilmasa, xo'jalik sudi iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi taklif etgan nomzodni tayinlaydi. Tashqi boshqaruvchi xo'jalik sudi tomonidan tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bir paytda tayinlanadi va bu haqda ajrim chiqariladi.

Tashqi boshqaruv, o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha muddatga joriy etiladi.

Sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruvning jami muddati o'ttiz olti oydan oshmasligi lozim.

Tugatishga doir ish yuritish-xo'jalik sudi tomonidan kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qondirish hamda qarzdorni qarzlardan qutilgan deb e'lon qilish maqsadida bankrot deb topilgan qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan taomili.

Yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to‘g‘risidagi ish ko‘rilayotganda quyidagi taomillar qo‘llaniladi:

1. Kelishuv bitimi.
2. Tugatishga doir ish yuritish.

Suddan tashqari bajariladigan taomillar sudgacha sanatsiya qilish yoki qarzdorni ixtiyoriy ravishda tugatish (faoliyatini tugatish) bo‘lishi mumkin.

Sudgacha sanatsiya qilish bankrotlik alomatlari yuzaga kelgan taqdirda, qarzdorning rahbari bu haqda qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga), boshqaruv organlariga yoki qarzdorning mol-mulki egasiga yozma shaklda xabar qilishi shart.

Bankrotlikning oldini olish maqsadida qarzdorning muassislari (ishtirokchilari), boshqaruv organi yoki qarzdorning mol-mulki egasi qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza xo‘jalik sudiga taqdim etilgunga qadar qarzdorni moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘radi. Qarzdorni moliyaviy jihatdan sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qarzdor bilan tuzilgan bitimga asosan kreditorlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ham ko‘rilishi mumkin.

Sudgacha sanatsiya qilishning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

– to‘lov muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘la yoki qisman sotib olish;

– ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirish;

– chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish;

– xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

– qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi hamda faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatilishi;

– qarzdorning faoliyatni davom ettirishi uchun qarzdor bilan kreditorlar o‘rtasida kreditorlarga to‘lanadigan to‘lovlar muddatini kechiktirish va(yoki) uni bo‘lib-bo‘lib to‘lash yohud qarzlardan siylov berish to‘g‘risida, ahdlashuvga erishishga qaratilgan bitim;

– majburiy to‘lov majburiyatini bajarishni va kreditlarni qaytarishni sudgacha sanatsiya qilish muddatiga kechiktirish;

– qarzdor yuridik shaxsni qayta tashkil etish.

Sudgacha sanatsiya qilish taomilida boshqa chora-tadbirlar ham bo'lishi mumkin.

Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko'rsatgan holda o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organning qarori asosida amalga oshiriladi.

Sudgacha sanatsiya qilish qarzdorga davlat tomonidan yordam ko'rsatgan holda o'tkazilayotganda qarzdorga uning xizmat ko'rsatib kelayotgan bankdagi ishlab turgan hisobvaraqlari to'xtatib qo'yilib, so'mlarda va (yoki) valutada ish yuritadigan sanatsiya hisobvarag'i ochiladi. Sanatsiya hisobvarag'ini ishlatish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qarzdorni davlat tomonidan yordam ko'rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilish o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha muddatga joriy etiladi.

Qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilishi mumkin:

– ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish;

– norentabel ishlab chiqarishlarni yopish;

– debitorlik qarzlarini undirish;

– qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish;

– qarzdorning talabidan o'zganing foydasiga voz kechish;

– uchinchi shaxslarning qarzdorning majburiyatlarini bajarishi;

– qarzdorning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish;

– qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish;

– qarzdorning aktivlari o'rnini almashtirish.

Qarzdorning moliyaviy, ahvolini tahlil etish qarzdorga tegishli mol-mulk xarajatlarini qoplash uchun yetarliligini, shuningdek qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvolini, shu jumladan qarzdorning mol-mulki bo'lsa, shu mol-mulkni inventarizatsiya qilish natijalarini moliyaviy tahlil qilish, mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tahlil qilish asosida qarzdorning to'lov qobiliyatini

tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligi to'g'risidagi takliflarni, bankrotlikning keyingi taomillarini joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslarini tayyorlaydi.

Bankrotlik tahlili bevosita tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish asosida bayonnoma tuzish bilan yakunlanadi. Bayonnomada korxonaning moliyaviy ahvoli va uning iqtisodiy tashxisi, korxonaning iqtisodiy nochorligini barcha ko'rsatkichlarini izohi beriladi. Ushbu bayonnoma bankrotlik holatlari yuzasidan huquqiy hujjatlar tayyorlash uchun manba bo'lib ham hisoblanadi.

Amalda bankrot deb e'lon qilingan korxonalarga nisbatan bir nechta tadbirlar rejasi belgilanadi;

- sanatsiyalash (moliyaviy yordam ko'rsatish);
- faoliyat yo'nalishini o'zgartirish;
- divertsifikatsiya (bir emas bir necha nomenklaturada mahsulot ishlab chiqarishga o'tish);
- ixtiyoriy tugatish;
- majburiy tugatish.

Ataylab qilingan va soxta bankrotlik holatlarida bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikka tortiladilar.

Bunday g'ayri-qonuniy harakatlarga qarzdor mol-mulkining yoki majburiyatlarining bir qismini yoki hammasini yashirish, qarzdorning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni yashirish yoki yo'q qilish, ularni soxtalashtirish, mansabdor shaxslarning yoki qarzdor mulkdorining shaxsiy manfaatlarini, yohud uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligini oshirish, kreditorga zarar yetkazish maqsadini ko'zlagan holda boshqa har qanday usul bilan qasddan bankrotlikka olib kelish va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 180 va 181-moddalariga ko'ra, soxta bankrotlik hamda bankrotlikni yashirganlik uchun jinoiy javobgarliklar ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi qonuniga muvofiq kreditorlarning pul mablag'lari bo'yicha talablarini to'la hajmda qondirishga, shu jumladan soliqlar, yig'imlar, budjetga va budjetdan tashqari fondlarga boshqa

majburiy to'lovlarni to'lashga qodir bo'lmagan korxonalar bankrot (iqtisodiy jihatdan nochor) deb hisoblanadi. Bunda bankrotlikni xo'jalik sudi e'tirof etgan va qarzdorning o'zi ixtiyoriy ravishda o'zini tugatish chog'ida e'lon qilgan bo'lishi kerak. Xo'jalik sudi qarzdor, kreditor va prokuror taqdim etgan bankrotlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi. Sud bankrotlikni e'tirof etgandan keyin ishonchli (vakolatli) shaxs tugatish komissiyasining kuzatuvi ostida korxonani tugatish, shu jumladan, qarzlarni uzish bo'yicha zarur harakatlarni amalga oshiradi.

4.6. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirishda xalqaro tajribalar hamda ulardan foydalanish

Bankrotlik bizning qonunchiligimizga, respublikamizda bozor munosabatlari rivojlana borib, erkin raqobatga tobora keng yo'l ochilgan, tadbirkorlarning nochor ahvolga tushib qolishi bilan bog'liq munosabatlar yuzaga kela boshlagan paytdan boshlab, ya'ni, bankrotlik holatining vujudga kelishini huquqiy jihatdan tartibga solishning zaruriyatning ortishi bilan yangi huquqiy institut sifatida kirib keldi.

Xorijiy davlatlarda bankrotlik instituti katta muammoli masala sifatida tan olinadi. Ularda bu mavzu bir necha yuz yillar davomida qo'llanib kelinmoqda. Jumladan, bankrotlik bilan bog'liq munosabatlar dastlab XVI asrning o'rtalarida qonun normalari bilan tartibga solina boshlangan. Ammo o'sha paytlarda bu normalar ko'proq jinoiy-huquqiy tusda bo'lgan. Ya'ni, korxonani bankrotlik holatiga tushirganlik uchun aksariyat hollarda jinoiy javobgarlik belgilangan. Bankrotlikning kelib chiqish sabablari chuqur o'rganilgan holda u bilan bog'liq munosabatlar har doim ham jinoiy tusda bo'lmasligi, ko'pincha fuqarolik, moddiy-huquqiy munosabatlarga yaqin bo'lganligi sababli keyinchalik bankrotlik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalarining aksariyat qismi fuqarolik-huquqiy normalarini tashkil qila boshlagan.

Aksariyat xorijiy davlatlarning qonunchiligiga ko'ra, kreditorlik qarz majburiyatini bajarish muddati boshlangan kunning

ertasidan boshlab, korxonani bankrot deb e'tirof etish mumkin. Ya'ni, korxonaning mol-mulki qiymatidan uning qarz majburiyatlari qiymati oshgan bo'lishi yoki kreditorlarning talablari ma'lum vaqt mobaynida ijro etilmayotgan bo'lishi ularning qonunchiligida talab qilinmaydi. Ammo shu bilan birga ularda bankrot deb e'tirof etilishi uchun korxonaning kreditorlik qarzining eng oz qiymati belgilab qo'yilgan. Masalan, AQShda 5 ming dollar, Angliyada 750 funt sterling, Rossiyada eng kam oylik ish haqining 500 (jismoniy shaxslar uchun 100) baravari miqdorida va h. k.

Bankrotlik to'g'risidagi chet el tajribalarini tahlili shuni ko'rsatadiki, bankrotlik to'g'risidagi qonunlar asosan ikki yo'nalishga yoki modelga ega.

Birinchisi Buyuk Britaniya modeli bo'lib, bunda bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik bankrotga uchragan korxonaga berilgan qarzlarni egasiga qaytarib berilishini ta'minlashga qaratilgan. Masalaning bunday tarzda qo'yilishi asosan korxonani tugatish asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi model esa Amerika modeli bo'lib, bunda qonunchilik bankrotga uchragan korxonani turli chora-tadbirlar yordamida to'lov layoqatini tiklab, xo'jalik faoliyatini davom ettirishiga qaratilgan.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida ham Bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik ana shu ikki model asosida rivojlanib, takomillashib bormoqda.

Bankrotlikka oid qonunchilik jahon miqyosida 2 xil yo'nalishda rivojlanib bormoqda. Birinchi yo'nalishning mohiyati shundan iboratki (Angliya, Germaniya va boshqa davlatlarda), bunda bankrotlikka oid qonunchilikning mohiyati asosan nochor ahvolga tushgan korxonani tezroq tugatib (bankrot qilib), uning kreditorlari qarzini qaytarishga qaratilgan bo'ladi.

Qonunchilikdagi ikkinchi yo'nalish bo'yicha (AQSh, Fransiya va boshqa davlatlarda) rivojlanayotgan davlatlardagi bankrotlikka oid huquq normalarida nochor ahvolga tushgan korxonani imkon qadar saqlab qolib, uni nochor ahvoldan chiqarishga ko'proq e'tibor beriladi.

Bankrotlikni xalqaro modellari va ularni o'ziga xos xususiyatlari



4.5-chizma.

Respublikamizning 1994-yilda qabul qilingan «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunida yuqoridagi, ikki yo'nalishni birlashtirishga qaratilgan huquqiy normalar aks etgan edi. Ammo keyinchalik qabul qilingan qonunlar va qonun osti hujjatlarining mazmuniga e'tibor berilsa, bizda ham bu sohadagi qonunchilikda ikkinchi yo'nalishning xususiyatlari ko'proq namoyon bo'la boshladi, ya'ni, ularda qarzdorni nochor ahvoldan chiqarishga yondashuvlarga ustunlik berilishi seziladi. Qonunchiligimizning bu yo'nalish bo'yicha rivojlanishi iqtisodiy jihatdan o'rinlidir. Xuddi shu jihatlarni agrar sektorda xo'jalik subyektlarini iqtisodiy nochorlik botqog'idan qutqarishda qo'llanilgan chora-tadbirlarda ham ko'rish mumkin.

Shu sababli, respublikamizda «Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi, amaldagi «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunda aynan qishloq xo'jaligi korxonalariga oid maxsus huquqiy normalarning kiritilganligi ham bejiz emas.

4.27-jadval

Moliyaviy inqirozlarni xavf-xatarini aniqlash indikatorlari

Moliyaviy inqirozlarni kuzatish obyektlari	Indikator ko'rsatkichlari	
	Umumiy ko'rsatkichlar	Tarkibiy ko'rsatkichlar
Korxonaning sof pul oqimi	1. Korxona bo'yicha jami sof pul oqimi 2. Operatsion faoliyat bo'yicha sof pul oqimi	1. Sof Pul oqimini yetarligi koeffitsiyenti 2. Pul oqimini likvidlilik koeffitsiyenti 3. Pul oqimini samaradorlik koeffitsiyenti 4. Sof pul oqimini reinvestitsiya koeffitsiyenti
Korxonaning bozor qiymati	Korxona sof aktivlarining bozor qiymati bo'yicha summasi	1. Korxonaning bozor qiymati 2. Foydaning kapitallashuvi koeffitsiyenti bo'yicha korxona qiymati
Korxona kapitali strukturasi	1. Xususiy kapital summasi 2. Qarzga olingan kapital summasi	1. Mustaqillik koeffitsiyenti 2. Kapitallashuv koeffitsiyenti 3. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti
Korxona moliyaviy majburiyatlari tarkibi	1. Uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlar summasi 2. Qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar summasi 3. Moliyaviy kreditlar summasi 4. Tovar (tijorat) krediti summasi	1. Korxonaning uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlari nisbati koeffitsiyenti 2. Jalb qilingan moliyaviy va tovar kreditlari nisbati koeffitsiyenti 3. Kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarning jami majburiyatlardagi salmog'i koeffitsiyenti 4. Kreditorlik

	5. Hisob-kitoblar bo'yicha joriy majburiyatlar summasi	majburiyatlarining aylanish koeffitsiyenti, davri
Korxona aktivlari tarkibi	1. Oborotdan tashqari aktivlar (uzoq muddatli aktivlar) summasi 2. Oborot aktivlar summasi 3. Joriy debitorlik majburiyatlari summasi 4. Pullik aktivlar summasi	1. Yuqori likvidlilikka ega mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti 2. Real pullik aktivlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti 3. Joriy likvidlilik koeffitsiyenti 4. Kritik baholash koeffitsiyenti 5. Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti 6. Oborot aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti 7. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari nisbati koeffitsiyenti 8. Debitorlik majburiyatlari aylanish davriyligi 9. Moliyaviy jarayonning davriyligi
Joriy xarajatlar tarkibi	1. Joriy xarajatlarning jami summasi 2. Doimiy joriy xarajatlar summasi	1. Joriy xarajatlar darajasi 2. Doimiy xarajatlar darajasi 3. Operatsion richag koeffitsiyenti
Moliyaviy operatsiyalarning nochorlik zonasi bo'yicha konsentratsiya darajasi	1. Umumiy xavf-xatar	1. Kritik xavf-xatar koeffitsiyenti 2. Xalokatli xavf-xatar koeffitsiyenti

Chunki bu qonunlarda iqtisodiy nochorlikka yuz tutgan qishloq xo'jalik korxonalarini bankrot deb e'tirof etish xususiyatlari bilan birga bunday korxonalarning iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning chora-tadbirlari ham aniq belgilab berilgan.

4.28-jadval

Biver ko'rsatkichlari tizimi

Ko'rsatkich-lar	Hisob-kitobi	Darajasi		
		1-guruh normal moliyaviy holat	**2-guruh o'rtacha, (nobarqa-ror) moliyaviy holat**	**3-guruh nochor moliya-viy holat**
Biver koeffitsiyenti	Sof foyda+ +Amortizatsiya/ Qarz kapitali	0,35 dan yuqori	0,17-dan 0,3 gacha	0,16 dan -0,15 gachach
Joriy likvid-lilik darajasi koeffitsiyenti (Kl)	Oborot aktivlar/Joriy majburiyatlar	2<,=Kl<,= 3,2	1<,=Kl<,= 2	1<,=Kl
Iqtisodiy rentabellik	Sof foyda*100/Ba-lans jami	6+8 va undan yuqori	5+2	1 dan - 22 gacha
Moliyaviy leverej	Qarz kapitali/Balans jami*100	35 dan kam	40+60	80 va undan yuqori
Oborot aktiv-larning o'z oborot mab-lag'lari bilan qoplanish koeffitsiyenti	Xususiy kapital-Oborotdan tashqari aktivlar/Oborot aktivlar	0,4 va undan yuqori	0,3+0,1	0,1 dan kichkina

Firma va kompaniyalar faoliyatining iqtisodiy nochorligini o'rganishda baholanuvchi indikatorlar MDH mamlakatlarida quyidagilar tarkiblanadi.

Xorij amaliyotida ko'pincha iqtisodiy nochorlikni baholashda U.Biverning metodikasidan foydalaniladi. Ushbu usuldan Rossiya amaliyotida quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda korxonalar iqtisodiy nochorligini baholashni normativ darajalari belgilangan.

1. Biver koeffitsiyenti.

2. Joriy likvidlilik darajasi koeffitsiyenti.
3. Iqtisodiy rentabellik.
4. Moliyaviy leverej.
5. Oborot aktivlarning o'z oborot mablag'lari bilan qoplanish koeffitsiyenti.

Iqtisodiy nochorlikni har bitta davlatga xos modeli bir-biriga to'la to'kis mos tushmaydi. Buni bevosita shu davlatning moliyaviy shart-sharoitlari, inflyatsiya darajalarini, moliyalashtirish, kreditlashning turlichaligi, soliq va budjet siyosatini, hisob va amortizatsiya siyosati, ish unumi va samaradorligining turlichaligi va boshqa jihatlar bilan izohlash mumkin.

Glossariy

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) — xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi;

Kelishuv bitimi — taraflarning sud nizosini o'zaro yon berish asosida tugatish to'g'risidagi bitimi;

Kreditorlar — qarzdor pul majburiyatlari bo'yicha va(yoki) majburiy to'lovlar majburiyatini bajarish bo'yicha qaysi yuridik yoki jismoniy shaxs oldida javobgar bo'lsa, ayni shu yuridik yoki jismoniy shaxslar (qarzdor qaysi fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo'lsa, ayni shu fuqaro, shuningdek o'z ishtirokidan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) bundan mustasno);

— kreditorlar yig'ilishi (kreditorlar qo'mitasi) vakili — bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etishiga kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi tomonidan vakolat berilgan shaxs;

Kuzatuv — xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy, ahvoli tahlilini o'tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilingan

paytdan e'tiboran keyingi taomilga qadar qo'llaniladigan bankrotlik taomili;

Majburiy to'lovlar — davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

Moratoriy — qarzdor yuridik shaxs tomonidan pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to'lovlar majburiyati bajarilishini to'xtatib turish;

Pul majburiyati — qarzdorning fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo'yicha hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra kreditorga muayyan pul summasini to'lash majburiyati;

Sud boshqaruvchisi (muvaqqat boshqaruvchi, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi)— bankrotlik taomillarini o'tkazish maqsadida xo'jalik sudi tomonidan tayinlanadigan shaxs;

Sudgacha sanatsiya qilish — qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egalari, kreditorlar va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash hamda bankrotligining oldini olish maqsadida ko'riladigan chora-tadbirlar;

Sud sanatsiyasi — xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qarzini uzish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o'tkazmagan holda qo'llaniladigan bankrotlik taomili;

Tashqi boshqaruv — xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o'tkazgan holda qo'llaniladigan bankrotlik taomili.

Tashqi boshqaruvchi — nomzodi xo'jalik sudiga kreditor, qarzdor, mulkdor, vakolatli davlat organi tomonidan taklif etishilishi orqali saylanadigan va korxona boshqaruvi uchun to'la mas'ul bo'lgan subyekt.

Tugatishga doir ish yuritish — xo'jalik sudi tomonidan kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qondirish hamda

qarzdorni qarzlardan qutulgan deb e'lon qilish maqsadida bankrot deb topilgan qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan bankrotlik taomili;

Qarzdor — pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir bo'lmagan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

Raqobat — xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi;

Insofsiz raqobat — xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yohud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlari;

Korxonaning «Tashkil etilish» davri:-yangi tovar bozorga tavsiya etiladi va unga bozor talabi umuman kuzatilmaydi va sotish darajasi juda past bo'ladi. Mazkur bosqichda ko'proq tovar bilan tanishuvni ta'minlash lozim bo'ladi.

Korxonaning «O'sish davri» — tovarni sotish hajmi, bozorni solishtirma sig'imi o'sib boradi, raqobat kuchayadi. Mazkur bosqichning asosiy vazifasi tovarlarni sotish hajmini va assortimentini oshirish hasobiga maksimal foyda olish vazifasi qo'yiladi.

Korxonaning «Tanilish davri» — tovarlarni sotish hajmi bir maromda kechadi, o'sish darajasi sekinlashadi, bozor to'yinadi, yangiliklarga oid xarajatlar siqiladi. Ya'ni tovarlarni sotish hajmi bir maromda saqlanadi va bundan ortiq oshirib bo'lmay qoladi.

Korxonaning «Cho'kish davri» — tovar iste'mol uchun jozibadorligini yo'qotadi, sotish hajmi tushib ketadi, bozordagi sig'imi tushib ketadi.

Iqtisodiy nochorlikni aniqlash modellari – iqtisodiy nochorlik, bankrotlikni baholashning usullar majmuasi. Iqtisodiy nochorlikni aniqlash modellari har bitta davlatga xos modeli bir-biriga to'la to'kis mos tushmaydi. Buni bevosita shu davlatning moliyaviy shart-sharoitlari, inflyatsiya darajalarini, moliyalashtirish, kreditlashning turlichaligi, soliq va budjet siyosatini, hisob va amortizatsiya siyosati, ish unumi va samaradorligining turlichaligi va boshqa jihatlar bilan izohlash mumkin.

Iqtisodiy nochorlikni o'rganishda baholanuvchi indikatorlar – iqtisodiy nochorlikni aniqlashda baholanuvchi ko'rsatkichlar tizimi hisoblanadi.

Iqtisodiy nochor deb e'lon qilingan korxonalarga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlar – nochorlikni oldini olish va tugatish yuzasidan belgilanadigan chora-tadbirlar. Odatda ularning sanatsiyalash (moliyaviy yordam ko'rsatish); faoliyat yo'nalishini o'zgartirish; divertsifikatsiya (bir emas bir necha nomenklaturada mahsulot ishlab chiqarishga o'tish); ixtiyoriy tugatish; majburiy tugatish shakllari qo'llaniladi.

Qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash – qarzdorlikni tugatish yuzasidan belgilanadigan chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi jarayon. To'lov qobiliyatini tiklash chora-tadbirlariga ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish; norentabel ishlab chiqarishlarni yopish; debitorlik qarzlarini undirish; qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish; qarzdorning talabidan o'zganing foydasiga voz kechish; uchinchi shaxslarning qarzdor majburiyatlarini bajarishi; qarzdorning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirishi; qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish; qarzdorning aktivlari o'rnini almashtirish tadbirlari kiradi.

Tugatishga doir ish yuritish – xo'jalik sudi tomonidan kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qondirish hamda qarzdorni qarzlardan qutulgan deb e'lon qilish maqsadida bankrot deb topilgan qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan taomili.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Iqtisodiy nochorlikka (bankrotlikka) olib keluvchi sabablar nima?
2. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) masalalarini qaysi organ ko'rib chiqadi?
3. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni belgilashda qaysi ko'rsatkichlar asos qilib olinadi?
4. Iqtisodiy nochorlikni oldini olish yo'llari va vositalari nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy nochorlikni oldini olish, nochor korxonalarni qayta tashkil etish, tugatish, sanatsiyalash, faoliyatni o'zgartirish masalalari qanday hal etiladi?
6. Firma va kompaniyalarni moliyaviy sog'lomlashtirishni qanday yo'llarini bilasiz?
7. Iqtisodiy nochorlikni xalqaro modellari va ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llashning muhim jihatlari?
8. Iqtisodiy nochorlikni baholashning metodik jihatlari?
9. Iqtisodiy nochorlikni baholashning xalqaro amaliyoti?
10. Korxonalarni iqtisodiy nochorligini oldini olishning tarmoq va faoliyatga xos jihatlari nimada?
11. Iqtisodiy nochorlikni baholashda to'lovga qobillikni o'rni?
12. Iqtisodiy nochorlikni davlat va xususiy sektorda belgilashning farqli jihatlari?
13. Iqtisodiy nochorlikni mikro firma va kichik korxonalarda belgilash tartibi?
14. Xususiy tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy nochorligini belgilash tartibi?
15. Iqtisodiy nochorlik belgilari mavjud, mavjud emasligini belgilashdagi mezonlar?
16. Iqtisodiy nochorlikni bashoratlash taomillari?
17. Iqtisodiy nochorlikni oldini olishda moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlarining ahamiyati?
18. Iqtisodiy nochorlik yuzasidan tugatish jarayoni qaysi hollarda qo'llaniladi?
19. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishda resurlarni jalb etishning ichki va tashqi omillari?

20. Iqtisodiy nochorlikni oldini olishda marketing tahlilini ahamiyati?

21. Biznesni reinjenirlash deganda nimani tushunasiz?

22. Iqtisodiy nochorlikda korxonani ixtiyoriy tugatish taomillari nimada?

23. Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning modellari va ularni qo'llashning muammoli jihatlari nimada?

24. Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning rasmiy jihatlarini belgilashni muhimligi?

25. Iqtisodiy nochorlikka tushishning ijobiy jihatlari ham mavjudmi?

V bob. FIRMA VA KOMPANIYALAR ISH VA BOZOR AKTIVLIGINI TAHLILI

5.1. Firma va kompaniyalar ishi va bozor faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ular tahlilining vazifalari

Aktivlik tushunchasi – ijobiy ma'nodagi sifat tasnifiga ega bo'lgan jihatlarni anglatuvchi tushunchadir. Uning o'rindosh tushunchasi sifatida ko'pincha faol, yutuq va muvaffaqiyat degan so'zlar ham ishlatiladi. Lekin jozibadorligi bo'yicha ish aktivligi va bozor aktivligi deb yuritish yuqoridagi tushunchalar qatorida eng maqbuli hisoblanadi. Ushbu tushunchalardan fan amaliyotida (buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditda) ham juda ko'p foydalaniladi.(Masalan, aktiv asosiy vositalar, aktiv hisob-varaqalari, aktiv moddalar va h.k.) Ularning har biri o'z mazmuniga va ahamiyatli jihatiga ega. Ammo, korxonaning o'ziga nisbatan umumiy ishlatiladigan yagona jihat bu- korxonaning bozor aktivligi hamda ish aktivligi ko'rsatkichlaridir.

Ish aktivligi korxonaning bozordagi nufuzini, obro'sini, shuxratini dong taratishini belgilab beruvchi sifat belgisidir. Bu jihatlar, o'z navbatida uning mijozlariga xos tushuncha hamdir. Bu sifat belgilari ortida albatta korxona mahsulot, ish va xizmatlarining raqobatdoshligi turadi.

Korxonalarning nufuzi (obro'si, shuxrati, dong taratishi) negizida turuvchi mahsulot, ish va xizmatlarning raqobatdoshligi bozor aktivligini ham belgilab beradi. Bu jihatlar nafaqat korxonaning balki makro ko'lamda tarmoqning (iqtisodiyot sektori), davlatning ham nufuzini, shuxratini oshiradi. Bundan ko'rinib turibdiki ish va bozor aktivligi bir-biriga bog'liq va uzviylikdagi tushunchalar sifatida qaraladi. Ish aktivligi to'xtagan joydan (ish aktivligiga baho berib bo'lgandan so'ng mazmunida) albatta bozor aktivligi boshlanadi deyish noto'g'ri. Ushbu tushunchalarni bir-biridan xoli tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu

sababli ham ish va bozor aktivligi ko'rsatkichlari korxonalar moliyaviy holatiga baho berishda muhim mavzu sifatida o'rganiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishga qadar (uzoq tarixiy davr) korxonalarda ushbu jihatlar qanday o'rganilgan. Ushbu jihatlar o'zi bo'lganmi. Ularning bugungi jihatlarida qanday farqlanishlar kuzatiladi. Korxonalarning ichki, tashqi bozordagi aktivligini qanday izohlash mumkin. Bu aktivlikning naflilik darajasi o'zi nima beradi. Korxonalarning ish va bozor aktivliklarini aniqlashdan maqsad nima. Uning sifat mezonlari mavjudmi? Bu kabi va boshqa savollarga o'ylaymizki tahliliy jihatdan quyida izohlar berib o'tiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishga iqtisodchilar tomonidan ko'pincha tor doiradagi jihatlar bilan izoh beriladi. Ya'ni amal qilib kelgan iqtisod (rejali) shunday bir mexanizmda ishlaganki uni barcha unsurlari davlat tomonidan boshqarilgan (bu jihatni ham faqat shu davrning kishilik jamiyatigina anglab yetadi), tartibga solingan va hal etilgan. Bunday iqtisod xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkinliklarini cheklagan, rag'batini so'ndirgan, kamchiligini yashirgan, faoliyatini, ijodkorligini, yangiliklarga qiziquvchanligini cheklab kelgan.

Rivojlangan davlatlarni tarixiy yo'li shuni tasdiqlaydiki, hech bir iqtisodiyot bozor iqtisodiyotidek rang-baranglikni, rivojlanishni, taraqqiyotni, mulkiy intiluvchanlikni, rag'batni, jamiyat farovonligini ta'min eta olmaydi. Ana shunday sharoitda iqtisodiyotning kichik bir zarrasi bo'lgan korxonada undan ayri holda faoliyatni yo'lga qo'yishni, rivojlantirishni tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish juda ko'p jihatlarni zamonaviylashtirishni, ularga yangicha ruh berishni talab etadi. Shu jihatdan korxona ish aktivligiga ham kapital qo'yilmalarni-investitsiyalar mazmunida, ilmiy yechim va g'oyalarni-innovatsiyalar shaklida, texnik yangilashni-modernizatsiyalash mazmunida, moliyalashtirishni – kapitallashuv mazmunidagi kabi bozor iqtisodiyotining jozibadorligiga mos yangi iboralarning amaliyotga kirib kelishi ifodasidir. Ushbu tushuncha (ko'rsatkich) ilgari, mablag'larning aylanuvchanligini baholash orqali tavsiflanadigan oddiy tushuncha (ko'rsatkich)

sifatida qaralgan. Korxona ish aktivligini bugungi mazmuni juda keng ma'noni anglatadi. Unda nafaqat kechagi faoliyatning samarasini bilish, mablag'larning harakatini ko'rish mumkin balki yaqin kelajakda va kelgusidagi kutilishlarini ham bilish, ko'rish mumkin.

Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga globallashuvi, korxonalarning ichki bozordan tashqi bozorga o'z nomi bilan chiqishi, erkin raqobatchilar qatorida o'zining tovar belgisi bilan kurashga otlanishida, jahonda obru topishida ularning ish va bozor aktivligi ko'rsatkichlari muhim mezonga aylanadi. Bu jihatlar ortidan keladigan naflikni esa hech bir o'lchov bilan baholab bo'lmaydi.

Firma va kompaniyalar ish faolligi deganda-uning asosiy va joriy aktivlarining aylanuvchanligi, qarzlarning oqlanuvchanligi tushuniladi.

I.f.d. prof. M.Q. Pardayev tomonidan korxona ish faolligi, deb – «korxonani o'z maqsadiga erishish yo'lida iqtisodiy va moliyaviy salohiyatdan samarali foydalanish evaziga muntazam ravishda iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat chora-tadbirlarga aytiladi».[65]

Ish faolligini asosiy ko'rsatkichi sifatida foyda va rentabellik ko'rsatkichlari muallif tomonidan olingan holda firma va kompaniyalar ish faolligi quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tarkiblanadi;

– ish faolligini iqtisodiy potensialni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari;

– ish faolligini moliyaviy potensialni ishlatishi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari;

– ish faolligini iqtisodiy samaradorlik bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari.

I.f.d. Prof. E.Akramov tomonidan korxonaning muqim moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida olingan ish faolligi ko'rsatkichi korxonada iqtisodiy o'sishga, korxonani bir xil darajada rivojlanishiga olib keluvchi, mahsulotni ishlab chiqarish rejalarini bajarilishiga imkon beruvchi, sotishni ko'lamini oshirishga olib keluvchi muhim

[65] М.Қ.Пардаев, Б.Исроилов «Молиявий таҳлил» (услубий кўргазмалар ва тавсиялар албоми) Т.; Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й., 245-бет

dastak sifatida qaraladi.[66] Muallif tomonidan (E.Akramov) korxona ish faolligini quyidagi bog'lanishi keltiriladi.

Korxona foydasini dinamik indeksi>Mahsulotni sotish hajmini dinamik indeksi>Korxona mulkining dinamik indeksi.[67]

Bu qoida xalqaro amaliyotda «Korxona iqtisodini oltin qoidasi»deb yuritiladi (ushbu qoidaga biz oldingi bobda kengroq to'xtalgan edik).

Firma va kompaniyalar ish aktivligini muallif tomonidan quyidagi ko'rsatkichlar tizimi orqali o'rganish tavsiya etiladi.

5.1-jadval

Korxona ish faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi

t/r	Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi formulasi	Belgilar izohi
	2	3	4
1.	Korxona aktivlarini aylanuvchanlik koeff.(Ka)	Ka= MST/A	MST-Mahsulot sotishdan tushum A-Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
2.	Uzoq muddatli aktivlarni aylanuvchanlik koeff.(Kuma)	Kuma=MST/UMA	Uma-uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
3.	Aylanma mablag'larni aylanuvchanlik koeff.(Kam)	Kam=MST/Am	Am-aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati
4.	Zaxira va xarajatlarning aylanuvchanlik koeff.(Kzx)	Kzx=MST/Zx	Zx-zaxira va xarajatlarning o'rtacha yillik qiymati
5.	Xususiy kapitalni aylanuvchanligi koeff.(Kxk)	Kxk=MST/O'mm	O'mm-O'z mablag'lari manbasini o'rtacha yillik qiymati
6.	Tayyor mahsulotni aylanuvchanlik koeff. (Ktm)	Ktm=MST/Tm	Tm-tayyor mahsulotlar o'rtacha yillik qiymati
7.	Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeff.(Kdm)	Kdm=MST/Dm	Dm-debitorlik majburiyatlarining o'rtacha qiymati

[66] Э.Акрамов Анализ финансового состояния предприятия Т.;ТГЭУ 2000г. стр-91
[67] Э Акрамов Анализ финансового состояния предприятия Т.,ТГЭУ 2000г. стр-91

8.	Debitorlik majburiyatlari aylanishini o'rtacha muddati (Kd)	Kd=365/Kdm	
9.	Kreditorlik majburiyat-larini aylanish davri (Ka)	Ka=365/Kkm	
11.	Pul mablag'larining ay-lanuvchanligi(Kp)	Kp=MST/Pm	Pm-pul mablag'larining o'rtacha qiymati

*Kreditorlik majburiyatlarini aylanish koeffitsiyentini baholashda ko'pincha qarzdorlikning tabiati bo'yicha, sotilgan mahsulot ish va xizmatlarning tannarxiga nisbatan baholash mezon qilib olinadi. Sababi BHMS bo'yicha kreditorlik majburiyatlarining – katta qismi ishlab chiqarish xarajatlari obyektiga nisbatan tan olinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat firma va kompaniyalar ish faolligi balki ularning bozor aktivligini oshirishga ham muhim ahamiyat qaratish lozim.

Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi.

5.2-jadval

Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash formulasi

t/r	Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi formulasi	Belgilar izohi
1.	Bitta aksiyaning daromadligi (Da)	Da=Asf/Abb	Asf-Bitta aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda Abb-bitta aksiyanig bozor bahosi
2.	Bitta aksiyaning haqiqiy daromadligi(Ad)	Ad=Ads/Anq	Ads-bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividend summasi Anq-bitta aksiyaning nominal qiymati
3.	Bitta aksiyaning kurs farqi koeff.(Kak)	Kak=Asb-Aob/Anq	Asb-aksiyani sotish bahosi Aob-aksiyani sotib olish bahosi
4.	Aksiyaga to'langan dividendlar salmog'i koeff. (Katd)	Katd=Tdus/Sf	Tdum-to'langan dividendlarning umumiy summasi Sf-korxona sof foydasi

Quyidagilar tahlil vazifalari qilib belgilanadi.

1. Firma va kompaniyalarning ish aktivligini tahlil etish orqali uning moliyaviy va iqtisodiy salohiyatini ko'tarish imkoniyatlarini belgilab berish;

2. Firma va kompaniyalarni bozor aktivligini tahlil etish orqali uning nufuzini, shuxratini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib berish;

3. Firma va kompaniyalarni ish va bozor aktivligini uning moliyaviy holatiga ta'sirini baholash;

4. Firma va kompaniyalarda aktivlar, likvid mablag'larning harakatchanligini baholash orqali aniq biznes strategiyalarini belgilab berish;

5. Aktivlarni aylanuvchanligi, aksiyalarning daromadligini o'stirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilab berish;

6. Korxonalarning ish va bozor aktivligi indikatorlarini maqsadli boshqarishni puxta o'ylangan loyihalarini tayyorlash.

Tahlil uchun zarur bo'lgan axborotlar moliyaviy hisobot va moliyaviy hisobotga berilgan izohlar, qaydlar va tushuntirishlardan olinadi.

5.2. Firma va kompaniyalar ish faolligini asosiy va aylanma kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili

Korxonalar ish va bozor aktivligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni bir tizimga solish tahliliy amallarni va ularni o'rganishni osonlashtiradi. Shu sababli korxona ish aktivligini quyidagi tarkibda guruhlash amaliyotini tuzib chiqishimiz mumkin.

1. Asosiy kapital bilan bog'liq bo'lgan ish aktivligi ko'rsatkichlari.

2. Aylanma kapital bilan bog'liq bo'lgan ish aktivligi ko'rsatkichlari.

3. Xususiy sarmoya va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan ish aktivligi ko'rsatkichlari.

(Asosiy va aylanma kapital-uzoq muddatli va joriy aktivlarga nisbatan ishlatiluvchi tushunchalar hisoblanadi).

Korxona ish aktivligini asosiy kapital bilan bog'liqlik ko'rsatkichlari uzoq muddatli aktivlar: asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar, o'rnatiladigan asbob

uskunalar, uzoq muddatli investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni xarakterlaydi

Aylanma kapital bilan bog'liq bo'lgan jihatlari esa tovar moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari, pul mablag'lari aylanuvchanligi bilan bog'liq jihatlarni xarakterlaydi.

Xususiy sarmoya va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni ustav, qo'shilgan rezerv va taqsimlanmagan foydani o'z ichiga oluvchi xususiy kapital va muddatli majburiyatlarni aylanuvchanligi bilan bog'liq jihatlar xarakterlaydi.

Korxonaning asosiy kapitali-ishchi kapitalini harakatlantiruvchi kuch, ish unumini o'stirishni assosiy sharti, iqtisodiy salohiyatni o'stirishning muhim dastagi, holati, harakati va samaradorligi bo'yicha moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili deb qaraladi.

Asosiy kapitalning muhim qatorida albatta asosiy vositalar turadi. Asosiy vositalarning aylanuvchanligini baholashda albatta davlat amortizatsiya siyosatidan (amalda soliq va hisob siyosatini ichida yuritiladi) kelib chiqqan holda ularga amortizatsiya hisoblashning amaldagi normalaridan kelib chiqqan holda tartiblarning belgilanishi ushbu ko'rsakichni aniqlashni mantiqsiz jaryonga aylatirmaydi. Asosiy vositalarga amortizatsiya normalaridan kelib chiqqan holda eskirish hisoblashning mazmuni, ularning aylanuvchanligini korxonaning ish samarasiga bog'liq ravishda aniqlanishidan tubdan farq etadi. Asosiy vositalarning aylanuvchanligini izohlash yuzasidan quyidagi misolga murojaat qilamiz. Asosiy vositaning qiymati 1 mlrd, joriy davrdagi savdo aylanmasi 5 mlrd. Aylanuvchanlik koeffitsiyenti 5 ga teng. Bu bir yilda besh marta aylanadi degani. Bitta aylanishga 2 oydan (12/5=2.4) ortiq vaqt ketadi. Lekin aslida asosiy vositalarning yakuniy bir marta aylanishiga eng yuqori amortizatsiya normasida 5 yil vaqt ketadi. Ta'kidlash joyizki asosiy kapitalning yoki asosiy vositalarning bu tarkib aylanuvchanligi bir-biridan keskin farq etadi. Ularning biri jismoniy jihatdan eskiruvchanlikni xarakterlasa, ikkinchi turi iqtisodiy resurslarning samaradorligini xarakterlaydi. Aylanuvchanlik xuddi shu sifat belgisi bilan ham farqlanadi.

Asosiy kapitalning aylanuvchanligi baholashda natijaviy ko'rsatkich, sotishdan sof tushum haqidagi ma'lumot moliyaviy

natijalar to'g'risidagi hisobotning (joriy va o'tgan davr bo'yicha) tegishli (010) satridan olinadi. Asosiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati moliyaviy hisobotning 1-shakli «Buxgalteriya balansi»ning aktiv tamonidan uzoq muddatli aktivlarni davr boshi va oxiriga jamlab 2 ga bo'lish (oddiy arifmetik hisoblash) orqali topiladi. Ushbu ko'rsatkichni ko'pincha vositalar ma'nosida ham qarashadi va buxgalteriya balansining 010 satri bo'yicha asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini aniqlash orqali hisob-kitob qilish hollari ham uchraydi.

Asosiy kapitalning aylanuvchanlik koeffitsiyenti(Ka) va aylanish davri quyidagicha hisob-kitob qilinadi.

$$Ka=ST/Ak \quad (5.1)$$

$$Kad=365/Ka \quad (5.2)$$

Asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymatini oddiy arifmetik o'rtacha xronologik formulalar asosida topiladi

Oddiy arifmetik formula bo'yicha

$$Akb+Ako/2 \quad (5.3)$$

O'rtacha xronologik formula bo'yicha

$$A=(1/2Aya+Af+Am+,..+1/2Ad)/n-1 \quad (5.4)$$

Bunda;

Aya- 1-yanvar holatiga asosiy vositalar qiymati;

Af- 1-fevral holatiga asosiy vositalar qiymati;

Ad- 1-dekabr holatiga asosiy vositalar qiymati;

Aya- 1-yanvar holatiga asosiy vositalar qiymati.

Uzoq muddatli aktivlarning alohida tarkibiy moddalari bo'yicha ham aylanuvchanlikni hisob-kitob qilish mumkin. Lekin bu ko'rsatkichlarning barchasi ham o'zining iqtisodiy jihatdan mazmuniga ega bo'lavermaydi. Mazmunga, umumiy jihatdan o'rganilganda ega bo'lish ularning barcha qatorlari uchun ham bir xilda ahamiyatli deb qaraladi.

Korxona ish aktivligining aylanma aktivlari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlilda alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki ish aktivligini ta'minlashning asosiy va harakatchan unsurlari ushbu qatorda joylashgan. Aylanma aktivlarni balans moddalariga nisbatan tovar moddiy zaxiralar (ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tovarlar, tayyor mahsulotlar), debitorlik majburiyatlari (hisob-kitobdagi debitorlik majburiyatlari va boshqa debitorlik majburiyatlari),

pul mablag'lari (naqd va naqdsiz, valuta, moliyaviy qo'yilmalar) qatorini tarkiblash mumkin.

Ish aktivligi umumiylikda jami joriy aktivlari summasiga nisbatan, birlik ko'rsatkichlari bo'yicha tovar moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari va pul mablag'lariga nisbatan hisob-kitob qilinadi.

Umumiy ko'rsatkich	Ku=Mahsulot sotishdan sof tushum/joriy aktivlar	(5.5)
Birlik ko'rsatkich	Kb=Mahsulot hajmi/TMZ, DM, Pm,	(5.6)

Bunda;

TMZ-tovar moddiy zaxiralar o'rtacha yillik qiymati;

DM-debitorlik majburiyatlarini o'rtacha yillik qiymati;

Pm-pul mablag'larining o'rtacha yillik qiymati;

Joriy davrdagi kunlar sonini aylanma kapitalning aylanish koeffitsiyentiga bo'lish asosida aylanmasining davriyligi hisob-kitob qilinadi;

Umumiy ko'rsatkich	Kud=365/Ku	(5.7)
Birlik ko'rsatkich	Kbd=365/Kb (TMZ, DM, Pm)	(5.8)

5.3-jadval

Firma va kompaniyalar ish faolligini aktivlar bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarini tahlili tasnifi

1. Korxona mulkining umumiy aylanuvchanligi-korxona egaligi va tasarrufidagi barcha aktivlarning aylanuvchanlgini xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan tushumni aktivlar (mulk)ning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida topiladi Aktivlarni (mulkni) o'rtacha yillik qiymati davr boshiga va oxiriga qiymatlar yigindisini 2 ga bo'lish orqali hisob-kitob qilinadi.
2. Joriy aktivlarning aylanuvchanligi(Kd2)-korxona joriy aktivlarining joriy davrdagi aylanish darajasini xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan tushumni joriy aktivlarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida topiladi

3. TMZ aylanuvchanligi (Kd3)-korxona tovar moddiy zaxirlarining aylanuvchanlik darajasini xarakterlaydi. Sotishdan tushumni tovar moddiy zaxiralarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida hisob-kitob qilinadi.

4. Ishlab chiqarish zaxiralarining aylanuvchanligi (Kd4)-korxona ishlab chiqarish zaxirlarining aylanuvchanligini xarakterlaydi. Sotishdan tushumni ishlab chiqarish zaxiralarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

5. Pul mablag'larining aylanuvchanligi(Kd5)-pul mablag'larining joriy davrdagi aylanuvchanlik darajasini xarakterlaydi. Sotishdan tushum pul mablag'larini o'rtacha qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

6. Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi(Kd6)- korxonaning debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasini xarakterlaydi va sotishdan tushumni debitorlik majburiyatlarining o'rtacha qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

5.4-jadval

Asosiy va aylanma kapitalning aylanish koeffitsiyenti va davriyligi tahlili

Moliyaviy hisobot satrlari	Belgi	Davri	Aylanish koeffitsiyenti	Aylanish davriyligi
Korxona mulkining umumiy aylanuvchanlk davri-Kd1, D1				
(№2 shakl)010 satr	Kd1,D1, (o')	o'tgan yil	2,321	157,22
№1 shakl(400 satr db+400satr do)/2	Kd1,D1 (h)	hisobot yili	2,516	139,52
		O'zgarishi	+0.195	-17.7
2. Joriy aktivlarning aylanuvchanligi – Kd2, D2				
(№2 shakl)010 satr	Kd2,D2, (o')	o'tgan yil	4,181	87,29
№1 shakl(390satr db+390satr do)/2	Kd2,D2 (h)	hisobot yili	4,069	89,70
		O'zgarishi	-0,112	+2,42
3. TMZ aylanuvchanligi Kd3, D3				
(№2 shakl)010 satr	Kd3,D3, (o')	o'tgan yil	5,267	69,29
№1 shakl(140satr db+140satr do)/2	Kd3,D3 (h)	hisobot yili	5,326	68,53
		O'zgarishi	+0.059	-0,76
4. Ishlab chiqarish zaxiralarining aylanuvchanligi Kd4, D4				
(№2 shakl)010 satr	Kd4,D4, (o')	o'tgan yil	4,675	78,07
№1 shakl(150satr db+150satr do)/2	Kd4,D4 (h)	hisobot yili	4,780	73,22

		O'zgarishi	+0,105	-4,85
5. Pul mablag'larining aylanuvchanligi Kd5, D5				
(№2 shakl)010 satr	Kd5,D5, (o')	o'tgan yil	214,428	1,70
№1 shakl(320satr db+320satr do)/2	Kd5,D5 (h)	hisobot yili	183,041	1,99
		O'zgarishi	-31,387	+0.29
6. Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi Kd6, D6				
(№2 shakl)010 satr	Kd6,D6, (o')	o'tgan yil	26,251	13,90
№1 shakl(210satr db+210satr do)/2	Kd6,D6 (h)	hisobot yili	20,078	18,17
		O'zgarishi	-6,173	+4,27

Kd1, D1, Kd3 D3, Kd4, D4 ko'rsatkichlar bo'yicha korxonada ijobiy holatlar, qolgan katotorlar bo'yicha salbiy jihatlar kuzatiladi

5.3. Firma va kompaniyalar ish faolligini xususiy va qarz kapitali bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili

Korxona kapitali ikki qismdan iborat shaklda tavsiflanadi. ularning bir qismi xususiy kapital (o'z sarmoyasi) sifatida, ikkinchi qismi qarz kapitali (qarz sarmoyasi) sifatida qaraladi. Lekin shu ikkita birlik va uning tarkibiga kiruvchi birlik qatorlar korxona umumiy moliyaviy holatiga baho berishda, uning ish aktivligini baholashda muhim o'rin tutadi.

Xususiy kapital (o'z sarmoyasi) iqtisodiy harakat va faoliyatda alohida o'rin tutadi. Bu kapital o'z ichiga ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kaptali va foydaning taqsimlanmagan qismini oladi. Xususiy kapital qarz kapitalidan farqli ravishda aniq muddatli harakat xususiyatiga ega emas. Ya'ni, uning qaytaruvchanligi belgilanmaydi. Ushbu kapital korxonaning butun faoliyati davomida harakatda bo'ladi va uning maqsadligi ta'sischi sifatida foydadan ulush olishdagi xususiyati bilan izohlanadi.

Korxonaning ish aktivligini xususiy kapital bilan bog'liq ko'rsatkichlarini asosiy va aylanma kapital aylanuvchanligidagi holatga qiyosan umumiy va birlik ko'rsatkichlarini belgilash mumkin.

– Xususiy kapital harakatchanligi koeffitsiyenti va davriyligi(Kxk, Dxk)

– Qarz kapitali aylanuvchanligi koeffitsiyenti va davriyligi.(Kkk, Dkk)

Qarz kapitali aylanuvchanlik koeffitsiyenti (Kxk) sotishdan tushumni qarz kapitalining yillik o'rtacha qiymatiga bo'lish asosida hisob-kitob qilinadi.

$$Kxk=ST/Xk \qquad (5.8)$$

Bunda: ST-sotishdan sof tushum
Xk-xususiy kapital o'rtacha yillik qiymati

Karz kapitali aylanuvchanligi (Kkk) sotishdan tushumni qarz kapitalining o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish o'rqali hisob-kitob qilinadi.

$$Kkk=ST/Kk(um, jm, kr) \qquad (5.9)$$

Bunda: ST-sotishdan sof tushum
Qk-qarz kapitali
um-Uzoq muddatli
jm-qiska muddatli
kr-kreditorlik majburiyati(joriy majburiyatlar tarkibida)
Qarz kapitalining uch xil shaklini tarkiblash mumkin;

1. Uzoq muddatli qarz kapitali (um);
2. Qisqa muddatli qarz kapitali(qm);
3. Kreditorlik majburiyati(kr)

Firma va kompaniyalar ish faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatorida yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari xususiy va qarz kapitalini aylanuvchanlik davriga ham baho beriladi.

$$Dxk= Xk/ST \text{ yoki } 365/Kxk \qquad (5.10)$$

$$Dkk= Kk (um, km, kr)/ ST \text{ yoki } 365/Kkk(um, km, kr) \qquad (5.11)$$

Aylanuvchanlik koeffitsiyenti va davriyligi tahlil etish orliqlari bo'yicha 365(yillik), 180(yarim yillik), 90(choraklik), 30(oylik) muddatlarga nisbatan hisob-kitob qilinadi.

Jadval ma'lumotilaridan shuni kuzatish mumiknki joriy davrda o'tgan yilga nisbatan korxonada xususiy kapital aylanuvchanligi biroz sekinlashgan, qarz kapitali aylanuvchanligi esa bir muncha tezlashgan.

5.5-jadval

Xussiy kapital va qarz kapitali aylanuvchanligi tahlili

Moliyaviy hisobot satrlari	Belgi	Davri	Aylanish koeffitsiyen-ti	Aylanish davriyligi
1. Xususiy kapitalning umumiy aylanuvchanligi-Kd1, D1				
(№2 shakl)010 satr	Kd1,D1, (o')	o'tgan yil	3,790	96,30
№1 shakl(410+420+430+440satr db +410+420+430+440+400satr do)/2	Kd1,D1 (h)	hisobot yili	3,910	93,35
		O'zgarishi	+0,120	-2,95
2. Qarz kapitali aylanuvchanligi –Kd2, D2				
(№2 shakl)010 satr	Kd2,D2, (o')	o'tgan yil	13,75	26,54
№1 shakl(770satr db+770satr do)/2	Kd2,D2 (h)	hisobot yili	13,06	27,94
		O'zgarishi	-0,69	+1,44
3. Uzoq muddatli majburiyatlari aylanuvchanligi Kd3, D3				
(№2 shakl)010 satr	Kd3,D3, (o')	o'tgan yil	33,40	10,92
№1 shakl(490satr db+490satr do)/2	Kd3,D3 (h)	hisobot yili	29,59	12,33
		O'zgarishi	-3,81	+1,41
4. Joriy majburiyatlarning aylanuvchanligi Kd4, D4				
(№2 shakl)010 satr	Kd4,D4, (o')	o'tgan yil	9,70	37,6
№1 shakl(600satr db+600satr do)/2	Kd4,D4 (h)	hisobot yili	8,99	40,6
		O'zgarishi	-0,71	+3,0

5.4. Firma va kompaniyalar bozor aktivligini tahlili

Bozor aktivligi, korxonaning bozordagi nufuzi va obro'sini, anglatuvchi indikator sifatida qaraladi.

Firma va kompaniyalarni bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatoriga firma va kompaniyalarning xususiy kapitalining birlik ko'rsatkichlarining foydalilik va daromadlik darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar kiritiladi.

Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida tashkil etilgan aksionerlik jamiyatlarini mulkiy jamg'armalarini shakllantirishda ular tomonidan chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish muhim masala hisoblanadi.

Aksiyalarni dastlabki, nominal qiymati shakllantirish, firma va kompaniyalarning ish faolligi, foydaligi ta'sirida o'zgarib boruvchi aksiyalarning bozor qiymatlarini o'rganish asosida firma va kompaniyalarni dividend siyosatiga ham baho berish mumkin.

Aksiyalarning bozor qiymati, birlamchi va ikkilamchi bozorda firma va kompaniya aksiyalarini narxlarini oshishini tavsiflaydi.

Firma va kompaniyalarni bozordagi faolligini esa bitta aksiyaning daromadlik, foydalilik darajasi ta'minlaydi.

Bunga bevosita firma va kompaniyalarni dividend siyosatining ta'siri, firma va kompaniyaning rentabellik darajasi, moliyaviy barqarorligi, to'lovga qobilligi kabi ko'rsatkichlar ta'sir etadi.

Korxona bozor aktivligini tahlili yuzasidan olib boriladigan ishlar ko'lamdorligi ularni tahlil etish metodikasini belgilashda asosiy jihatlar quyidagilarga qaratiladi:

– korxonaning bozor aktivligi ko'rsatkichlarini tavsiflash;
– bozor aktivligini qiyosiy o'zgarishlarini baholash;
– korxonaning bozor aktivligini omilli tahlil etish;
– bozor aktivligini o'stirish yo'llarini belgilash;
– aksiyalarning birlamchi va ikkilamchi bozordagi holatini baholash
– bozor aktivligini moliya bozorini rivolantirishdagi jihatlari.

5.6-jadval

Korxona bozor aktivligini tahlili

Ko'rsatkichlar	Joriy davr	O'tgan davr	O'zgarishi
1. Korxonaning sof foydasi (ming so'm)	300000	365000	+65000
2. E'lon qilingan dividend summasi (ming so'm	165000	184000	+19000
3. Aksiyalarning soni, dona	150000	150000	-
4. Bitta aksiyaning nominal bahosi (so'm)	5000	5000	-
5. Bitta aksiyaning bozor bahosi (so'm)	6000	7000	+1000
6. Bitta aksiyaga sof foyda (so'm)	2000	2433	+433
7. Bitta aksiyaga dividend summasi (so'm)	1100	1226	+126
8. Bitta aksiyaning potentsial daromadliligi (so'm)	0,33	0,34	+0,01
9. Bitta aksiyaning haqiqiy daromadliligi (so'm)	0,22	0,24	+0,02
10. Bitta aksiya kurs bahosining o'zgarish koeffitsiyenti	0,20	0,40	+0,20
11. Aksiyalarga to'langan dividendlarning salmog'i koeffitsiyenti	0,55	0,50	+0,05

1 Bitta aksiyaning potentsial, daromadligi $= \frac{\text{Korxonaning bitta aksiyasiga sof foyda}}{\text{Bitta aksiyaning bozor narxi}}$

2 Bitta aksiyaning haqiqiy daromadligi $= \frac{\text{Bitta aksiyaga dividend summasi}}{\text{Bitta aksiyaning nominal narxi}}$

3 Bitta aksiya kurs bahosining o'zgarish koeffitsiyenti $= \frac{\text{Aksiyaning sotuv bahosi} - \text{Aksiyaning sotib olish bahosi}}{\text{Bitta aksiyaning nominal narxi}}$

4 Aksiyalar bo'yicha to'langan dividendlarning salmog'i koeffitsiyenti $= \frac{\text{Barcha to'langan dividendlar summasi}}{\text{Korxonaning sof foydasi}}$

Korxonada bitta aksiyaning potensial daromadligi o'tgan yilga nisbatan +0,01 darajaga o'sgan. Haqiqiy daromadligi esa

+0,02 darajaga, bitta aksiyaning kurs bahosining o'zgarishi koeffitsiyenti esa +0,20 darajaga, to'langan dividendlar malmog'i koeffitsiyenti +0,05 darajaga ortgan.

5.5. Korxona ish aktivligini omilli tahlili va uni o'stirish usullari

Aylanish koeffitsiyenti va uning davriyligini o'zgarishi korxona faoliyatiga sezilarli ta'sir etuvchi birliklar hisoblanadi. Ish aktivligini oshirishda ta'sir etuvchi birliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ish aktivligini ortishida aylanish tezligi sotishdan olingan tushum summasining o'zgarishiga bog'liq.

Tushum qanchalik yuqori bo'lsa aktivlarning aylanuvchanligi shunchalik tez bo'ladi. Bu ularning harakatlanishi va yangilanishi bosh omilidir.

- ish aktivligini ortishida nafaqat sotish hajmining o'sishiga balki u bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, tijorat faoliyati va boshqaruv xarajatlarini ham oshishi kuzatiladi.

Shu sababli aylanish tezligi qanchalik yuqori bo'lsa ularning bo'g'iniga to'g'ri keladigan qismi shunchalik kamayib boradi. Demak ish aktivligini oshishi birinchi navbatda boshqaruvning quyi bo'g'inlaridagi xarajatlarni ham maqsadli boshqarish imkonini beradi.

- ish aktivligini ortishi ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarida ish siklining davomiyligiga ham ta'sir etadi. Ya'ni ish aktivligini o'sishi ta'minot, ishlab chiqarish, tijorat faoliyatining davriyligini tezlashishiga olib keladi.

Bu esa tahliliy muddatda aylanishlar sonini yanada oshirish imkonini beradi.

Aylanuvchanlik tahlilda ishlab chiqarish sikldagi jarayonlar va moliyaviy sikldagi jarayonlarni farqlash lozim.

Ishlab chiqarish siklida zaxiralar va debitorlik majburiyatlarining aylanish davriyligi baholansa, moliyaviy siklda ishlab chiqarish siklining aylanish davriyligi bilan kreditorlik majburiyatlarining aylanish davriyligini o'zaro farqlanishi baholanadi.

5.7-jadval

Korxonada aylanma aktivlarning aylanish siklining to'liq tuzilishi

Ishlab chiqarish sikli davriyligi			
Xom asho va materiallarni aylanish davri	Tugallanmagan ishlab chiqarishni aylanish davri	Tayyor mahsulotni aylanish davri	Debitorlik majburiyatining aylanish davri
Ishlab chiqarish jarayoni davriyligi			Moliyaviy sikl
Kreditorlik majburiyatlarini aylanish davriyligi			

Ishlab chiqarish sikli davomiyligi quyidagi hisob-kitoblar orqali topiladi.

$$ITs=ADz+Addm \quad (5.12)$$

Bunda: ITs-ishlab chiqarish sikli davriyligi, kunda
ADz-zaxirlarning aylanuvchanligi, kunda
ADdm-debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi, kunda
Moliyaviy siklning davomiyligi.

$$MTs=ITs-Adkm \quad (5.13)$$

Bunda: MTs-moliyaviy siklning davomiyligi, kunda
ADkm-kreditorlik majburiyati aylanuvchanligi, kunda

Siklik jarayonning davriyligini oshirishning quyidagi yo'llarini tarkiblash mumkin.

1. Zaxirlarlar aylanuvchanligini tezlashtirish
2. Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligini tezlashtirish
3. Kreditorlik majburiyatlari aylanuvchanligini sekinlashtirish.

Pul mabalag'lariga asosiy kapital va ishlab chiqarish zaxiralari sotib olamiz va mehnat omili bilan birga ishlab chiqarishni yo'lga qo'yamiz. Ishlab chiqarishdan olingan mahsulotlarni, xaridor va buyurtmachilarga taqdim etilib, ular tomonidan tan olingunga qadar bo'lgan jarayon albatta qanchadir muddatni talab etadi. Ushbu muddatlikda, sarflangan pulning, ish hajmi ko'rsatkichi orqali yangi pulga aylanishiga qadar bo'lgan jarayonning tezlashishi ko'p omillarga bog'liq ravishda o'zgaradi. Bu omillarni mazmuniga ko'ra ichki va tashqi omillarga tarkiblash mumkin.

Ichki omillar:

– mablag'larning aylanuvchanligi birinchi navbatda faoliyatning turiga bog'liq (ishlab chiqarish faoliyati, xizmat ko'rsatish, vositachilik faoliyati va h.k.);

– mablag'larning aylanuvchanligi tarmoq xarakteriga bog'liq (farmasevtika sanoatidagi korxonalarning ish aktivligi, ogir sanoatdagi korxonalarning ish aktivligidan farq qiladi);

– mablag'lar aylanuvchanligi korxonaning doirasiga bog'liq (kichik biznesdagi aylanuvchanlikni, o'rta va yirik biznesdagi doiraviylik (ish hajmi, natijaviyligi) bilan taqqoslab bo'lmaydi)

Ichki omillarga, shuningdek, aktivlarni samarali boshqaruv strategiyasi, baho siyosati, aktivlarni tuzilishi va tarkibi, tovar moddiy zaxiralarni baholash tartiblari ham kiritiladi.

Tashqi omillarga shuningdek mamlakatdagi ahvol, tarmoqning rivojlanganlik darajasi, hisob-kitoblarning shakllari, inflyatsiya darajalarining ta'sirini kiritish mumkin.

Omilli tahlilda har bitta ko'rsatkichni, uning o'zgarish sabablarini hisob-kitob qilish mumkin bo'lgan omillar ta'siridagina o'rganish mumkin. Masalan aktivlar aylanuvchanligiga ta'sir etuvchi birliklar bu mahsulot sotishdan sof tushumning o'zgarishi hamda aktivlarning o'rtacha yillik qiymatlarining o'zgarishi ta'sirida hisob-kitob qilinadi, joriy aktivlar aylanuvchanligida esa joriy aktivlar va ularning tarkibiy o'zgarishlari muhim omil sifatida qaraladi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida korxona ish aktivligi ta'sir etuvchi omillarni hisob-kitobini ko'rib o'tishimiz mumkin.

5.8-jadval

Ish aktivligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Moliyaviy hisobot satrlari	**Belgi**	**Davri**	**Aylanish koeffitsiyenti**	**Aylanish davriyligi**
Korxona mulkining umumiy aylanuvchanligiga ta'sir etuvchi omillar				
(№2 shakl)010 satr	Kd1,D1, (o')	o'tgan yil	2,321	157,22
№1 shakl(400 satr db+400satr do)/2	Kd1,D1,sh	H.y.shartli	2,421	150,76
	Kd1,D1 (h)	hisobot yili	2,516	139,52

	Jami	O'zgarishi	+0,195	-17,7
	Shu jumladan	ST o'zg.hisob	+0,100(2,421-2,321)	-6,46(150,76-157,22)
		A-Aktivlar o'r. yill.qiym.o'z. hisobiga	+0,095	-11,24
2. Joriy aktivlarning aylanuvchanligi –Kd2, D2				
(№2 shakl)010 satr	Kd2,D2, (o')	o'tgan yil	4,181	87,29
№1 shakl(390satr db+390satr do)/2	Kd2,D2,sh	H.y.shartli	4,101	89,00
	Kd2,D2 (h)	hisobot yili	4,069	89,70
	Jami	o'zgarish	-0,112	+2,42
	shu	jumladan		
		ST o'zg.hisob	-0,080(4,101-4,181)	+1,71(89,00-87,29)
		JA- o'r. yill.qiym.o'z. hisobiga.	-0,032(4,069-4,101)	+0,70(89,70-89,00)
3. TMZ aylanuvchanligi Kd3, D3				
(№2 shakl)010 satr	Kd3,D3, (o')	o'tgan yil	5,267	69,29
№1 shakl(140satr db+140satr do)/2	Kd3,D3,sh	H.y.shartli	5,300	68,86
	Kd3,D3 (h)	hisobot yili	5,326	68,53
	Jami	o'zgarish	+0,059	-0,76
	shu	jumladan		
		ST o'zg.hisob	+0,033(5,300-5,267)	-0,43(68,86-69,29)
		TMZ o'r. yill.qiym.o'z. hisobiga.	+0,026(5,326-5,300)	-0,33 (68,53-68,86)
4. Ishlab chiqarish zaxiralarining aylanuvchanligi Kd4, D4				
(№2 shakl)010 satr	Kd4,D4, (o')	o'tgan yil	4,675	78,07
№1 shakl(150satr db+150satr do)/2	Kd4,D4,sh	H.y.shartli	4,700	77,65
	Kd4,D4 (h)	hisobot yili	4,780	73,22

	Jami	o'zgarish	+0,105	-4,85
	Shu	jumladan		
		ST o'zg.hisob	+0,025(4,700-4,675)	-0,42(77,65-78,07)
		TMZ o'r. yill.qiym.o'z. hisobiga.	0,080(4,780-4,700)	-4,43(73,22-77,65)
5. Pul mablag'larining aylanuvchanligi Kd5, D5				
(№2 shakl)010 satr	Kd5,D5,	o'tgan yil	214,428	1,70
№1 shakl(320satr db+320satr do)/2	Kd5,D5,sh	H.y.shartli	201,365	1,81
	Kd5,D5 (h)	hisobot yili	183,041	1,99
	Jami	o'zgarish	-31,387	+0,29
	Shu	jumladan		
		ST o'zg.hisob	-13,063(201,365-214,428)	+0,11(1,81-1,70)
		TMZ o'r. yill.qiym.o'z. hisobiga.	-18,324(183,041-201,365)	+0,18(1,99-1,81)
6. Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi Kd6, D6				
(№2 shakl)010 satr	Kd6,D6, (o')	o'tgan yil	26,251	13,90
№1 shakl(210satr db+210satr do)/2	Kd7,D7,sh	H.y.shartli	22,214	16,43
	Kd3,D3 (h)	hisobot yili	20,078	18,17
	Jami	o'zgarish	-6,173	+4,27
	shu	jumladan		
		ST o'zg.hisob	-4,037(22,214-26,2510)	+2,53(16,43-13,90)
		TMZ o'r. yill.qiym.o'z. hisobiga.	-2,136(20,078-22,214)	+1,74(18,17-16,43

Korxona ish aktivligini oshirishning muhim tadbirlari:

– mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish jarayonini optimalligini taminlash;

– puxta o'ylangan moliyaviy reja asosida ish olib borish;

– aktivlarning aylanuvchanligini o'stirish yuzasidan hisob-kitoblarning eng zamonaviy shakllariga o'tish;

– aktivlarni, mahsulot, ish xizamtalarni baholashni maqbul siyosatini yuritish;

– marketing tadqiqotlari ta'sirchanligini oshirish;

– investitsion jozibadorlik negizida mablag'lar harakatchanligini jadallashtirish noan'anaviy usullaridan foydalanish.

Korxona bozor aktivligini omilli tahlili va uni o'stirish yo'llari

Bozor aktivligi korxonaning bozordagi jozibadorligini xarakterlaydi. Bozordagi jozibadorlikka, odatda, ikki xil qarashlar mavjud. Ya'ni keng ma'nodagi va tor ma'nodagi. Keng ma'noda jozibadorlik korxonaga investorlar, mol yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, xaridor va buyurtmachilarni korxonaga bo'lgan ishonchini ifoda etsa tor ma'noda korxona qimmatli qog'ozlarining birjada yoki bozordagi nufuzini ifodalaydi.

Korxonaning bozor aktivligiga baho berishning ko'rsatkichlar tizimi nihoyatda ko'p.

Ularning eng muhimlari haqida yuqorida to'xtalgan edik. Tahliliy jihatdan barcha ko'rsatkichlarni o'rganish talab etilmaydi. Maqsad nimaga qaratilganligi va ularning axborotligiga qarab bozor aktivligining u yoki bu ko'rsatkichi, ko'rsatkichlar tizimi baholanadi.

Korxonaning bozordagi jozibadorligi yuzasidan, investorlar va hamkorlar, raqobatchilarni ko'pincha korxona aksiyalarining daromadligi, foydaliligi, aksiyaning bozordagi bahosining o'sish darajalari, aksiyaning dividendligi qiziqtiradi.

Bu jihatlar, moliyaviy holatdagi va undagi o'zgarishlarni bozor indikatorlari asosida baholashda har bitta ko'rsatkichni dinamik tahlil etishni, o'zgarish sabablarini chuqur tahlil etishni hamda aniq yechimlar yuzasidan moliyaviy chora-tadbirlar rejasini tuzib olishni talab etadi.

Bozor aktivligi ko'rsatkichlarini omilli tahlili, har bitta ko'rsatkichni alohida o'zgaruvchi birlik sifatida qarashni va o'zgarishlar sabablarini izohlashni xarakterlaydi.

Bozor aktivligi va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar (ko'rsatkichlar bo'yicha):

Bozor aktivligini oshirishning muhim jihatlari korxonaning dividend siyosatining qay tarzda yuritilishiga ham bog'liq.

Odatda, sof foydaning dividend to'lovlariga yo'naltirilgan qismi birinchi navbatda imtiyozli aksiya egalariga, qolgan qismi esa oddiy aksiya egalari o'rtasida taqsimlanishi lozim.

Agar korxonaning bozordagi jozibadorligi oshib borsa albatta, aksiyalarni nafaqat dividend shaklida daromad keltirishi balki, kurs o'zgarishi hisobga ham daromad keltirishi mumkinligini unga ega bo'lishga harakatga undaydi.

5.9-jadval

Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar va ularni omilli tahlili metodikasi

t/r	Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi formulasi	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi
		3			
1	Bitta aksiyaning daromadligi (Da)	Da=Asf/Abb	1200	1600	+400
	Omillar ta'siri:	Dash		1300	+400
1.11.	Bitta aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda o'zgarishi ta'siri	Dash-Dao'=Asfh/Abbo'-Asfo'/Abbo'	x		+100
1.2	Bitta aksiyaning bozor bahosining o'zgarishi ta'siri	Dah-Dash=Asfh/Abbh-Asfh/Abbo'	x	x	+300
2	Bitta aksiyaning haqiqiy daromadligi(Ad)	Ad=Ads/Anq	2400	3100	+700
	Omillar ta'siri:	Adsh		3100	+700
2.1	Bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividend summasi	Adsh-Ado'=Adsh/Anqo'-Adso'/Anqo'	x	x	+700
2.2	Bitta aksiyaning nominal qiymati	X*	x	x	x

3	Bitta aksiyaning kurs farqi koeff.(Kak)	Kak=Asb-Aob/Anq	0.20	0.32	+0.12
	Omillar ta'siri:	Kaksh	x	032	+0.12
3.1.	Aksiyaning sotish, olish va sotish bahosini o'zgarishi ta'siri	Kaksh-Kakh=(Asbh-Aobh/Anqo')-(Asbo'-Aobo'/Anqo'			+0.12
3.2.	Aksiyaning nominal qiymati	X*	x	x	x
4	Aksiyaga to'langan dividendlar salmog'i koeff. (Katd)	Katd=Tdus/Sf	0.25	0.37	+0.12
	Omillar ta'siri:	Katdsh	x	035	+0.12
4.1.	Dividend summasining o'zgarishi	Katdsh-Katdo'=Tdush/Sfo' -Tduso'/Sfo'	x	x	+0.10
4.2	Sof foydaning o'zgarishi	Katdh-Katdsh=Tdush/Sfh-Tdush/Sfo'	x	x	+0.02

* – nominal qiymati o'zgargan hollarda hisob-kitob qilinadi

Korxonaning bozor aktivligini oshirishning amaliy chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim:

– korxonaning bozordagi nufuzini oshirishning eng ishonchli yo'li ishlab chiqarilgan mahsulot, ish va xizmatlarning sifatini oshirish, tashqi bozorga chiqish, faoliyat samaradorligi va natijaviyligini oshirib borish:

– korxonaning puxta o'ylangan ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy rejalarini aniq manzilli loyihalarini tuzib chiqish va ularda ilmiy yangiliklarga xarajatlarni oshirish;

– korxonaning bozordagi nufuzini himoyalashning puxta qonunchilik mexanizmini ishlab chiqish.

– korxonalarning aniq va uzluksiz dividend siyosatini yo'lga qo'yish.

Glossariy

Aktivlik tushunchasi – ijobiy ma'nodagi sifat tasnifiga ega bo'lgan jihatlarni anglatuvchi tushunchadir.

Ish aktivligi – korxonaning bozordagi nufuzini, obro'sini, shuxratini, dong taratishini belgilab beruvchi sifat belgisidir. Korxona ish aktivligi deganda uning asosiy va joriy aktivlarini aylanuvchanligi, qarzlarning oqlanuvchanligi tushuniladi.

Korxonaning asosiy kapitali – ishchi kapitalini harakatlantiruvchi kuch, ish unumini o'stirishni assosiy sharti, iqtisodiy salohiyatni o'stirishning muhim dastagi, holati, harakati va samaradorligi bo'yicha moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili deb qaraladi.

Korxonaning aylanma kapitali – doimiy harakatdagi ishchi kapital (pul mablag'lari, debitorlik majburiyatlari va tovar moddiy zaxiralar), joriy aktivlarning puldagi o'lchovi.

Xususiy kapital – korxonaning ustav, qo'shilgan, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydasidan iborat mablag'lar manbasi.

Qarz kapitali – majburiyat sifatida turuvchi va qarzga olingan mablag'lar manbasi.

Aylanish davri – aktivlar, kapital, majburiyatlarning bir marta aylanishiga ketgan vaqt o'lchovi.

Aylanish koeffitsiyenti – aktivlar, kapital va majburiyatlarning (sifat belgisi bo'yicha) aylanishlar soni.

Aylanishning sifat belgisi – aylanishlar soni va davrini aniqlashning mezoni-mahsulot sotishdan sof tushum.

Korxona mulkining umumiy aylanuvchanligi – korxona egaligi va tasarrufidagi barcha aktivlarning aylanuvchanligini xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan sof tushumni aktivlar (mulk)ning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida topiladi

Joriy aktivlarning aylanuvchanligi – korxona joriy aktivlarining joriy davrdagi aylanish darajasini xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan sof tushumni joriy aktivlarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida topiladi

TMZ aylanuvchanligi – korxona tovar moddiy zaxirlarining aylanuvchanlik darajasini xarakterlaydi. Sotishdan sof tushumni

tovar moddiy zaxiralarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida hisib-kitob qilinadi.

Ishlab chiqarish zaxiralarining aylanuvchanligi – korxona ishlab chiqarish zaxiralarining aylanuvchanligini xarakterlaydi. Sotishdan sof tushumni ishlab chiqarish zaxiralarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

Pul mablag'larining aylanuvchanligi – pul mablag'larining joriy davrdagi aylanuvchanlik darajasini xarakterlaydi. Sotishdan sof tushum pul mablag'larini o'rtacha qiymatiga bo'lish asosida topiladi

Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi – korxonaning debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasini xarakterlaydi va sotishdan sof tushumni debitorlik majburiyatlarining o'rtacha qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

Xususiy kapital aylanuvchanligi – o'z sarmoyasining aylanuvchanligini xarakterlaydi. Sotishdan sof tushumni xususiy kapital o'rtacha qiymati bo'lish asosida topiladi.

Qarz kapitali aylanuvchanligi – qarzga olingan mablag'larning aylanuvchanlik darajasini xarakterlaydi. Mahsulot sotishdan sof tushumni qarz, majburiyatlarni o'rtacha qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

Ishlab chiqarish siklida – zaxiralar va debitorlik majburiyatlarining aylanish davriyligi baholansa, moliyaviy siklda ishlab chiqarish siklining aylanish davriyligi bilan kreditorlik majburiyatlarining aylanish davriyligini o'zaro farqlanishi baholanadi.

Bozor aktivligi – korxonaning bozordagi jozibadorligini xarakterlaydi. Bozordagi jozibadorlikka, odatda ikki xil qarashlar mavjud. Ya'ni keng ma'nodagi va tor ma'nodagi. Keng ma'noda jozibadorlik korxonaga investorlar, mol yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, xaridor va buyurtmachilarni korxonaga bo'lgan ishonchini ifoda etsa tor ma'noda korxona qimmatli qog'ozlarinining birjada yoki bozordagi nufuzini ifodalaydi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Korxona ish va bozor faolligi deganda nimani tushunasiz?

2. Korxona bozor aktivligini tahlil etish metodikasini tushuntiring?

3. Korxona ish aktivligini tahlil etish metodikasini tushuntiring?

4. Korxona bozor aktivligi ko'rsatkichlari va ularning mazmunini izohlang?

5. Korxona ish aktivligi ko'rsatkichlari va ularning mazmunini izohlang?

6. Korxona ish aktivligini oshirish yo'llari va imkoniyatlari?

7. Bozor aktivligini o'stirish yo'llari va imkoniyatlari?

8. Bozor va ish aktivligini moliyaviy holatga ta'sirini izohlab bering?

9. Korxona reputatsiyasi deganda nimani tushunsiz?

10. Korxonani ish aktivligini ishlab chiqarish bilan bog'liq jihatlari nimada?

11. Korxona ish aktivligini moliyaviy jihatlari nimada?

12. Korxona ish aktivligini baholashda tahlil etiladigan ko'rsatkichlar tizimini iste'molchilar talabida manfaatligi farq etadimi?

13. Korxona ish aktivligini oshirishni ichki omillari va tashqi omillariga nimalar kiradi?

14. Korxona ish aktivligini baholashni moliyaviy holatni bashoratlashdagi o'rnini izohlang?

15. Korxona bozor aktivligini aniqlashda aksiyani bozor kursi haqidagi ma'lumot qanday hisob-kitob qilinadi?

16. Bozor aktivligini aniqlashda aksiya daromadligi va foydaligi ko'rsatkichlarini tarkiblash xususiyatlari nimada?

17. Bozor aktivligini oshishi bilan ish aktivligini oshishi orasidagi muvofiqlikni tushuntiring?

18. Moliyaviy (xizmat ko'rsatish) sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalarda ish va bozor aktivligini aniqlashni ahamiyatli jihatlarini izohlang?

19. Korxona bozor va ish aktivligini tahlil etishning axborotligi qanday ta'minlanadi?

20. Korxona ish va bozor aktivligi ichki moliyaviy tahlil yoki tashqi moliyaviy tahlil obyektimi?

21. Ish aktivligini o'sishini qaysi omillar ta'min eta oladi. Ish samaradorligini o'sishimi yoki aktivlardan samarali foydalanishmi?

22. Bozor aktivligini ta'minlashda marketing tahlilining roli mavjudmi?

23. Monopol korxonalarda ish va bozor aktivligini tahlil etishning xususiyatlari nimada?

24. Kichik biznes va mikro firmalarda bozor aktivligini qanday baholash mumkin?

25. Yakka tadbirkorlik subyektlarida ish va bozor aktivligi tahlili?

26. Bozor va ish aktivligini baholashni xorijiy amaliyoti va ularning farqli jihatlari

VI bob. FIRMA VA KOMPANIYALARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI TAHLILI

6.1. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatliligini baholashni mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalari

Firma va kompaniyalar iqtisodiy harakatda ,albatta, qarz kapitaliga zaruriyat sezadilar. Negaki, biznesni dastlabki qadamiga yetarli mablag' tadbirkorlarda doimo yetarli darajada bo'lavermaydi yoki umuman bo'lmaydi. Iqtisodi rivojlangan davlatlar biznesni kuzatish shuni ko'rsatadiki faoliyatni, biznesni 90 foizi qarz kapitali hisobiga yo'lga qo'yiladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, firma va kompaniyalar doimo aniq biznes loyihalari, rejalari asosida qarz kapitali jalb qiladilar va uni ishlatishdan foyda olishga harakat qiladilar.

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni tasdiq topgan me'yoriy aktlari va nizomiga tayangan holda har bitta biznes subyektini kreditni, qarzni qaytarib berish layoqatiga egaligi o'rganilmog'i lozim. Bu mezonlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Iqtisodiyot Vazirligi, Iqtisodiy nochor korxonalar bilan ishlash qo'mitasi va tegishli Vazirliklar tomonidan tuzib chiqilgan.

Yo. Abdullayev, E. Karaliyev, Sh. Toshmurodov, S. Abdullayeva tomonidan chop etilgan «Bank ishi» darsligida mijozning kreditga layoqatligi deganda qarz oluvchining olgan qarzini (asosiy qarzini va uni foizini) to'la va o'z vaqtida qobiliyati tushuniladi[1].

Jahonda va mamalakatimiz amaliyotida kreditga layoqatlikni baholashda quyidagi mezonlarga tayaniladi.

– mijozning xarakteri (Fe'l atvori);

– mijozning qarz olish qobiliyati;

[1] Ё Абдуллаев, Е.Каралиев, Ш Тошмуродов, С Абдуллаева «Банк ишн» Т : Иқтисод –молия, 2009, 354 бет.

– olingan qarzni uzish yuzasidan mablag'lar ishlab topishga qobilligi;

– mijozning kapitali;

– kreditning ta'minlanganligi;

– kredit operatsiyalarini amalga oshirish chog'idagi shart-sharoitlar;

– mijoz faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi.

Yuqorida mazmundagi ta'rif i.f.d. prof. M.Q.Pardayev tomonidan ham keltiriladi. «Korxonaning kreditga layoqatligi deganda-uning kredit olish va o'z vaqtida olingan kreditni to'liq qaytarish qobiliyati tushuniladi».[68]

Muallif tomonidan, korxonalarning, firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini o'rganish maqsadida quyidagi ko'rsatkichlarni baholash lozimligi ta'kidlanadi.[69]

– kreditni to'lashga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash, tahlil etish;

– mablag'larni likvidligi (aylanuvchanligini) baholash, tahlil etish;

– firma va kompaniyalar foydaligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni tahlil etish;

– moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkich-larni baholash, tahlil etish.

Bu jihatlar bank mijozining moliyaviy hisobotlari asosida o'rganiladigan, ularning moliyaviy holatiga bog'liq ko'rsatkich-larga nisbatan to'g'ri tarkiblangan deyish mumkin.

Firma va kompaniyalarda kreditga layoqatligini baholashda olinadigan kreditni turiga, albatta qarash, ya'ni kredit mablag'larini uzoq (bir yildan ortiq muddatga), qisqa muddatga jalb etish hollarini e'tiborga olish lozim. Uzoq muddatli kreditlar, odatda uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishga, qisqa muddatli kreditlar esa aylanma aktivlarni manbalashga yoki shakllantirishga jalb qilinadi.

Bank amaliyotida xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga qodirlik darajasini baholashda bir qator moliyaviy ko'rsatkich-lardan foydalaniladi. Moliyaviy koeffitsiyentlarni tanlash va

[68] Пардаев М.Қ,. Исроилов Б Молиявий таҳлил Т,. Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунеси 1999 й 219-бет

[69] Пардаев М.Қ, Исроилов Б Молиявий таҳлил Т,; Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунеси. 1999 й.220-бет

ularning mezon ko'rsatkichlar sifatida olinishi bankning kredit siyosatining o'ziga xosligiga, mijozlarning fe'l atvoriga, moliyaviy ahvoli va undagi o'zgarishlarni kutilishiga bog'liq ravishda belgilanadi.

Kreditga qodirlikni baholashning yuqoridagi tarkiblari albatta barcha banklar uchun yagona mezon hisoblanadi. Lekin bu mezonlar har bitta tijorat banki, yoki moliya institutlarini kredit resurslarini joylashtirishda o'zaro manfaatli qoidalarni belgilashda bizningcha «ishonch» mezonini birinchi o'ringa qo'yishni inkor etmasligi lozim.

Buni qanday izohlash mumkin. Buning mazmuni shundaki, yaxshi va zo'r g'oyaga ega tadbirkorda yuqoridagi mezonlarning barchasi talab darajasida bo'lmaydi. Bunga turli sabablar ta'sir etadi. Lekin yaxshi va zo'r g'oyaga ega bo'lmagan mijozda mazkur mezonlar va qo'shimcha talablar ortig'i bilan bajariladi. O'z-o'zidan ayonki kredit resurslari birinchi subyekt emas rasmiy hujjatlari talabga javob beradigan ikkinchi subyekt olishiga imkoniyatlar bo'ladi.

Firma va kompaniyalarning kreditga qodirlik darajasini uning to'lovga qobilligi, likvidligi, moliyaviy barqarorligi, kapitalning foydaliligi kabi ko'rsatkichlar asosida bayon etish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarning mezoniga tayangan holda firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini tavsiflovchi «sinf» shkalasi tuzib chiqiladi. Ushbu shkala bo'yicha firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar darajasi birinchi va ikkinchi sinfga tushsa, firma va kompaniya kreditni olishga layoqatli qolgan sinflar bo'yicha kreditni olishga noloyiq deb topiladi.

Tahlil etishda, kredit tashkilotlarining inspektorlari tomonidan, kredit olish haqida ariza bergan har bitta firma yoki kompaniyaning auditorlik xulosasi olingan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida moliyaviy holati baholanadi. Baholash natijasi bo'yicha bayonnoma tuziladi va bu bayonnoma kredit oluvchi bilan tuziladigan kredit shartnomasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini baholashda tahlil oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi;

- firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini davriy oraliqlar bo'yicha o'rganish;
- firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar va kapital foydaliligini baholash;
- mablag'larni joylashinuvidagi holat, ularning aylanuvchanligini baholash;
- muddati o'tgan majburiyatlarning holati, firma va kompaniyalarning moliyaviy mustaqillik darajasidagi o'zgarishlar, sotish hajmidagi o'sish, likvid mablag'larning holati kabi qo'shimcha ko'rsatkichlarga baho berish;

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini tahlil etishda moliyaviy hisobotni barcha shakllaridan foydalanish, ularning muvofiqligiga va davriy o'zgarishlariga ahamiyat berish talab etiladi.

Korxona kreditga qodirligi tahlilida moliyaviy tahlil va tahlikalar tahlili amalga oshiriladi.

Tahlikalar tahlili maqsadi —kreditni berish imkoniyatlari va darajasini aniqlashga qaratilgan.

Moliyaviy holatni baholash maqsadi -moliyaviy ahvol va undagi o'zgarishlarni, o'zgarish sabablarini hisobga olgan holda tahliliy qororlar tayyorlashga qaratilgan.

Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda kreditga layoqatlilikni tahlilida:

- baholash ko'rsatkichlari dinamikasi,
- buxgalteriya balansini takibiy moddalari,
- aktivlar sifati,
- xo'jalik subyekti moliya-xo'jalik faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlil etiladi.

Kreditga qodirlik tahlilini miqdoriy ko'rsatkichlar qatorida quyidagi asosiy baholash ko'rsatkichlari tahlil etiladi:

- likvidlilik koeffitsiyentlari;
- o'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti;
- aylanuvchanlik va rentabellik ko'rsatkichlari.

Asosiy baholash ko'rsatkichlarining amaldagi holati normativ ko'rsatkichlar bilan taqqoslangan holda kredit resurslarini harakati yuzasidan qarorlar chiqariladi. Uchinchi guruh ko'rsatkichlar bo'yicha odatda optimal va kritik normalar

belgilanmasligi mumkin (korxonaning o'ziga xos xususiyatlari, tarmoq xususiyatlari va boshqa aniq shartlarga muvofiq).

Mazkur ko'rsatkichlar natijalariga qarab agar talab qilinsa, reyting ballarini ham hisoblab chiqish mumkin.

6.1-jadval

Xo'jalik subyektining kreditga qodirligini baholashda o'rganilishi lozim bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar		Hisoblash formulasi
1. Mustaqillik koeffitsiyenti	K1=UMM/BJ yoki K1=UMM/UMM+M	UMM-Uz mablag'lari manbasi BJ-Balans jami M-Majburiyatlar
2. Aylanma aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i	K2=JA/A	JA-Joriy aktivlar A-Aktivlar jami
3. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	K3=UMM+UMKK-UMA/JA	UMA–Uzoq muddatli aktivlar UMKK-uzoq muddatli kredit va qarzlar
4. Joriy likvidlilik koeffitsiyenti	K4=JA/KMM	KMM-Qisqa muddatli majburiyatlar
5. Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti	K5=PM+KMMK/KMM	PM-Pul mablag'lari KMMK-qisqa muddatli mol.qo'yil.
6. Aktivlarni rentabellik koeffitsiyenti	K6=STKF/Auyk	STKF -Soliq to'loviga qadar foyda Auyk-aktivlarning o'rtacha yillik qiymatlari
7. Aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	K7=ST/Auyk	ST-Mahsulot sotishdan sof tushum

Haqiqatdagi darajalarni har bitta ko'rsatkichni taqqoslash bazasiga va normativ bazasiga nisbatan qiyosiy o'rganish asosida kreditga qodirlikni rasmiy jihatlarini belgilash mumkin.

6.2-jadval

Kreditga qodirlik ko'rsatkichlari va ularning nisbiy ifodalari

Koef-fitsiyent	2011	2012	O'zgarishi	Mijozning moliyaviy holatini tahliliy tavsifi
K1	0.490	0.499	+0.009	O'rtacha sifat
K2	0.588	0.644	+0.056	O'rtacha sifat
K3	0.133	0.223	+0.90	Yomon holat
K4	1.308	1.415	0.107	O'rtacha sifat
K5	0.020	0.039	+0.019	Yomon holat
K6	0.186	0.203	+0.017	Bir muncha ijobiy
K7	2.321	2.516	+0.195	Ijobiy holat

Kreditga qodirlikni tahlil etishning darajasi va sifati axborot manbalarining to'liqligiga va ularning atroflicha o'rganilishiga bog'liq. Shu sababli tahlil etishda o'rganiladigan axborotlarni tarkiblash va ularni tizimlashtirish muhim masala hisoblanadi. Quyida, korxonalar kreditga layoqatligini baholash, tahlil etishning axborot manbalari va ular qo'yilgan talablarni keltirib o'tamiz.

6.3-jadval

Kreditga layoqatlikni baholashda ichki va tashqi moliyaviy tahlilni axborot manbalari

Ichki moliyaviy tahlil	**Tashqi moliyaviy tahlil**
Ta'sis hujjatlari	Ta'sis hujjatlari
Uchinchi shaxslar bilan bog'liqlikni tasdiqlovchi hujjatlar	Faqat qarz beruvchi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar
Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnoma	Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnoma
Loyiha smeta hujjatlari	-
Birlamchi hujjatlar (asosiy vositalarni baholash, ularning tarkibi, harakati, oborot aktivlarni holati, harakati haqidagi, xo'jalik jarayonlari haqidagi	-
Analitik hisob ma'lumotlari	-
Buxgalteriya hisobotlari	Buxgalteriya hisobotlari
Statistik hisobotlar	Statistik hisobotlar
Soliq hisobotlari	Soliq hisobotlari

Audit xulosalari, nazorat va soliq tekshirishlari dalolatnomalari	Yakuniy auditorlik xulosasi
-	Qarz oluvchining shaxsiy sifatlari haqidagi ma'lumotnoma, /qarzdorning dong'i, shuhrat taratishi/(Gudvil)
-	Kredit tarixi yuzasidan axborotlar
-	Boshqa kredit tashkilotlari ma'lumotlari
Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo'yicha maxsus axborotlar	Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo'yicha maxsus axborotlar
Makro iqtisodiy va maxsus axborotlar (davlat dasturlari, tarmoqning rivojlanishi haqidagi manbalar va h.k.)	Makro iqtisodiy va maxsus axborotlar (davlat dasturlari, tarmoqning rivojlanishi haqidagi manbalar va h.k.)
Ekologik me'yorlar bo'yicha axborotlar	Ekologik me'yorlar bo'yicha axborotlar

Tahlil etishda taqdim etilgan manbalarning axborotligi va tarkibi yuzasidan ham muhim talablar qo'yiladi. Bu talablar mijozning kreditga layoqatligini baholashda tashqi tahlilchiga kredit resurslarini jalb etish yuzasidan tuzib chiqiladigan savolnomaga to'la javoblar tayyorlashga imkon beradi. Bu holat kredit mablag'larini jalb qilishdagi turli xavf-xatarlarni oldini olishga, kredit tashkilotlarining jalb qilingan resurslarini o'z vaqtida va foizi bilan qaytarib olishiga hamda ularning likvidligini oshirishiga imkon beradi.

6.4-jadval

Mijozning kreditga layoqatligini baholashda taqdim etiladigan manbalarning axborot tarkibi

Axborot manbalari	Axborot tarkibi
Ta'sis hujjatlari	Kapital tarkibi
	Foydani taqsimlash yo'nalishlari
	Aksionerlar tarkibi
	Korporativ mijozning ichki tarkibi
Buxgalteriya hisoboti	Korxona mulki tarkibi va tuzilishi
	Korxona moliyaviy holati, to'lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligi
	Xususiy va qarzga olingan mablag'lardan samarali foydalanish holati

	Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini tarkibi, tuzilishi va nisbati
	Kreditorlar oldidagi majburiyatlarni qoplash darajasi
	Korxonaning foydaligi
	Pul mablag'larining oqimi
	Iqtisodiy nochorlikka tushmaslik xavf-xatarining darajasi
Texnik iqtisodiy asoslash, biznes reja	Korxonaning obro' e'tibori
	Korxonani rivojlantirish strategiyasi
	Tashkiliy struktura sifati
	Ta'minot sifati
	Aktivlar sifati
	Operatsion faoliyatning darajasi
	Texnik qurollanish darajasi
	Mahsulotlarni sotish bozorining diversifikatsiyasi
	Jalb qilinadigan mablag'larga talabning asoslanishi
Kredit byurolari	Boshqa kreditlarning olinganligi
	Boshqa kreditlardan foydalanganlik darajasi
	Kredit tarixi
Boshqa banklar	Boshqa kreditlar
	Boshqa kreditlardan foydalanganlik darajasi
	Moliyaviy aktivlari
Tashkilotlar, raqobatchilar	Bozordagi obro'si
	Bozordagi ulushi
	Raqobatdagi qayratligi
	Tarmoqdagi o'rni
Xaridorlar	Raqobatchilar o'rtasidagi shuhrati
	Sotish hajmi
	Mahsulot sifati
	Xaridorlarni kreditlash shartlari
Mol yetkazib beruvchilar	Kreditor obro'si
	Kreditlash shartlari
	Mahsulot yetkazib berish hajmi
	Qiyosiy o'rni
Boshqa manbalar (reyting agentliklari, birja ma'lumotlari va.h.k.)	Makroiqtisodiy ma'lumotlar
	Tarmoq bo'yicha ma'lumotlar
	Maxsus hisobotlar
	Statistik manbalar

Kreditga layoqatlik tahlilida o'rganiladigan muhim ko'rsatkichlar qatoriga shuningdek, korxona faoliyatining joriy va istiqboldagi rivojlanish jihatlarini baholash ham talab etiladi. Bunda banklar tomonidan quyidagi so'rovnoma tuzib chiqiladi.

6.5-jadval

Kredit oluvchining faoliyatni baholash

Baholash elementi	**Ko'rsatkichlar**
Mijozning faoliyatni rivojlantirishga intilishi	O'sish dinamikasi
	O'zgaruvchanlik
	Istiqbollik
Mahsulot (ish, xizmat)larga talabning o'zgarishi	Mijozlar tavsifi
	Bozor hajmi va sifat ko'rsatkichlari
	Sotish hajmi
	Baho belgilash tartibi
	Sotish rejasi
	Talabning barqarorligi
	Tovarning almashuvchanligi
	Xavf-xatarlar
Taklifning o'zgarishi	Raqobatchilar holati
	Jo'natmalar muvofiqligi
	Jo'natmalar xavf-xatari
	Narxning barqarorligi
	Ishchi kuchi bilan bog'liq sabablar
	Xalqaro valutaga talabning mavjudligi
Mahsulotning sifat tasnifi	Texnologiya darajasi
	Mahsulot sifati
	Kapital va mehnat sig'imi
Raqobat darajasi	Raqobatchilar
	Raqobatning intensivligi
	Bozorga kirishda to'siqlar
	Peshqadam raqobatchilarning bozordagi ulushi

6.2. Firma va kompaniyalarda, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlil

Kreditlarning muddatligi uning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli kredit resurslarini uzoq va qisqa muddatlarga jalb etishda uning qaytarilishiga muhim ahamiyat qaratiladi. Kredit

resurslar kechiktirilgan to'lovlar yuzasidan foizlar summasi bilan birgalikda qaytariladi.

Agar to'lovlar va foizlar o'z vaqtida amalga oshirilsa ushbu mijozning kreditor oldidagi ishonchi ortadi. Bu holat esa mijozning kredit tarixiga yoziluvchi eng muhim jihatdir.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarning tarkiblanishi qarz munosabatlarini rasmiy jihatlariga ta'sir etmaydi. Ya'ni har ikkala holatda ham moliyaviy holat tahlili bo'yicha bir xildagi zaruriy amallar, analitik tadbirlar amalga oshiriladi. Odatda, muddatligi bo'yicha kreditlar va qarzlar uzoq, o'rta va qisqa muddatga tarkiblanishi belgilangan. Lekin hisob amaliyotida ularni uzoq va qisqa muddatli tarkiblanishi belgilangan. Shu sababli kredit va qarzlarni ham muddatligi bo'yicha uzoq va qisqa muddatli shaklda tarkiblash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uzoq muddatli kreditlarni uzoq muddatli aktivlarni (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar, o'rnatiladigan asbob-uskunalar yuzasidan, ularni sotib olish, ko'rish, ta'mirlash, ilmiy yangiliklar kiritish kabi yo'nalishlarda) shakllantirishga yo'naltiriladigan va bir yildan ortiq muddatga beriladigan kreditlardir.

Qisqa muddatli kreditlar joriy, aylanma aktivlarni to'ldirishga savdo hajmini oshirishga va boshqa maqsadlarga bir yilgacha muddatga beriladigan kreditlardir.

Firma va kompaniyalarga uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda, aniq va puxta ishlangan biznes rejaga investitsion loyihalarga e'tibor berish lozim.

Lekin ungacha albatta, ushbu firma yoki kompaniyaning, moliyaviy ahvoli o'rganilishi lozim. Kredit resurslarini jalb etishning turli risklarini ham ta'kidlab o'tish lozim deb o'ylaymiz. Masala: Bir necha yildan buyon faoliyat yuritayotgan korxonaning moliyaviy holatini tahlil etishning axborot manbayiga egamiz va uning kreditni jalb etish bayonnomasini tuzishda unga tayanish mumkin. Lekin yangi tashkil topgan korxona faoliyatini endigina yo'lga qo'ygan korxonaning moliyaviy hisobotlari tuzilmagan hollarda, uning moliyaviy ahvolini qanday baholash mumkin. Birinchidan endigina faoliyat boshlagan yoki ro'yxatga olingan korxonaning albatta,

ustav kapitali shakllanganligiga ahamiyat beriladi. Ustav kapitalining darajasi va uning biznesni yo'lga qo'yishdagi, tarmoq bo'yicha o'rtacha darajaga nisbatan holatini baholash orqali ham fikr yuritish mumkin. Shuningdek, loyihaning jozibadorligi, kafillik shartlari asosida ham kredit shartnomasini rasmiylashtirish mumkin.

Kredit arizasi bergan firma yoki kompaniyaning moliyaviy tahlilida muhim ko'rsatkichlar sifatida birinchi navbatda uning to'lov layoqati, qoplov koeffitsiyenti baholanadi. Bu koeffitsiyentlar asosida firma va kompaniyaning, choraklar va yillar bo'yicha to'lovga qobillik darajasi, o'zining muddatli majburiyatlarini to'lashga qobilligi baholanadi.

Firma va kompaniyalar tomonidan olingan kredit resurslar nafaqat korxonaning to'lovga qobilligiga balki uning mablag'larining harakatchanlik (likvidlilik) darajasiga ham bog'liq. Shu sababli tahlil etishda buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida firma va kompaniyalarning harakatchan mablag'larini holatiga, tez va sekin pulga aylanuvchi aktivlarga, nolikvid mablag'lar holatiga, ularning to'lov muddati kelgan, qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarga nisbatiga, doimiy passivlarni nolikvid va likvid mablag'larni manbalashdagi holatiga baho berish talab etiladi.

So'nggi paytlarda olingan kredit resurslarining o'z vaqtida va qaytmaslik hollariga moliya institutlari tomonidan ko'p duch kelinmoqda. Shu sababli firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini tahlil etishda moliyaviy holat tahlilida quyidagi qo'shimcha tarzda quyidagi mavzularni o'rganish tavsiya etiladi;

- firma va kompaniyalarning rentabellik darajasi;
- aylanma mabalag'larning holati;
- o'z mablag'larini hajmi, ularning asosiy va oborot kapitalidagi ishtiroki;
- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarni o'sish darajalari;
- to'lov muddati kelgan va o'tib ketgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga;
- firma va kompaniyalarning pul va qimmatli qog'ozlarining mavjudligiga va boshqa jihatlarga ahamiyat beriladi.

Bugungi amaliyotda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga uzoq va qisqa muddatli

kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimiga 5 tarkib guruh ko'rsatkichlarni o'rganilishini xarakterlash lozim.

Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. To'lov layoqati va likvidlilik koeffitsiyentlari.
2. Ish aktivligi koeffitsiyentlari.
3. Moliyaviy leverej koeffitsiyentlari.
4. Rentabellik koeffitsiyentlari.
5. Qarzni qoplashni tavsiflovchi koeffitsiyentlar.

6.6-jadval

Tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditga qodirligini baholashda hisob-kitob qilinadigan ko'rsatkichlar

Koeffitsiyentlar guruhi	Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Likvidlilik koeffitsiyentlari (2.0-1.25)	Joriy likvidlilik	K=JA/KMM	JA-joriy aktivlar QMM-qisqa muddatli majburiyatlar
	Tezkor likvidlilik	K=LA/KMM	LA-likvid aktivlar
Ish aktivligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar (0.25-060)	Aktivlar aylanuvchanligi	K=ST/A	ST-Sotishdan tushum A-aktivlarning o'rtacha qiymat
	Asosiy kapital aylanuvchanligi	K=ST/AK	AK-asosiy kapital
	Joriy aktivlar aylanuvchanligi	K=ST/JA	JA-joriy aktivlar
	Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi	K=ST/DM	DM-debitorlik majburyatlar
	TMZ aylanuvchanligi	ST/TMZ	TMZ-tovar moddiy zaxiralar
	TM,Tovarlar aylanuvchanligi	ST/TM,T	TM-tayyor mahsulot T-tovarlar
Moliyaviy leverej koeffitsiyentlari	Majburiyatlarni aktivlarga nisbati	Maj/A	Majburiyatlar
	Majburiyatlarni o'z kapitaliga nisbati	Maj/UK	O'K-o'z kapitali
	Majburiyatlarni aksionerlik	Maj/AK	AK-aksionerlik kapitali

	kapitaliga nisbati		
	Uzoq muddatli majburiyatlarni asosiy kapitalga nisbati	UMM/AK	UMM-uzoq muddatli majburiyatlar
	O'z kapitalini aktivlarga nisbati	UK/A	
Moliyaviy natijaviylik koeffitsiyentlar			
Foyda normasi koeffitsiyentlari	Yalpi foyda normasi	K=YaF/ST	YaF-yalpi foyda ST-sotishdan tushum
	Sof operatsion foyda normasi	K=SOF/ST	SOF-sof operatsion foyda
	Sof foyda normasi	K=SF/ST	SF-sof foyda
Rentabellik koeffitsiyentlari	Aktivlar rentabelligi	K=SF, STKF/A	STKF-soliq to'loviga qadar foyda
Aksiyaning foyda me'yori	Oddiy aksiyalar daromadlik koeffitsiyenti	K=D/Ak	D-oddiy aksiyalarga e'lon qilingan dividend summasi A-oddiy aksiyalarning soni
	Aksiyaning dividendlik koeffitsiyenti	K=Db/Ab	Db-bitta aksiyaga e'lon qilingan dividend Ab-bitta aksiyaning bozor bahosi
Qarzni qoplashni tavsiflovchi ko'rsatkichlar	Foiznig qoplanganlik koeffitsiyenti	K=F/FT	FT-foiz to'lovlari F-hisobot davri foydasi
	Foiz to'lovlarining qoplanganlik koeffitsiyenti	K=F/T	T-To'lovlar=foiz+ +lizing to'lovlari+ +imtiyozli aksiyaga dividendlar+boshqa to'lovlar

6.3. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatliligini baholashda to'lov qobiliyati va mablag'lar likvidliligi tahlili

Firma va kompaniyalarda kredit resurslarini jalb etishda asos ko'rsatkich bu – to'lovga qobillik ko'rsatkichidir. To'lovga

qobillik korxona to'lov imkoniyatlarini, ya'ni uning o'z majburiyatlarini to'lashga qodirligini xarakterlaydi.

Mualliflar Vaxobov A.V. hamda Ibragimov A.T. lar tomonidan chop etilgan «Moliyaviy tahlil», «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» darsligida korxona to'lov layoqatiga shunday ta'rif beriladi.

«To'lov qobiliyati deyilganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larni yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi» [70].

Mualliflar: Xasanov N., Najmiddinov S. lar tomonidan chop etilgan «Korxona moliyaviy holatini baholash» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida «to'lovga qobillik-korxonaning to'lov imkoniyatlarini, ya'ni uning oborot mablag'lari qanchalik qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashini xarakterlaydi»[71] deyiladi.

Professor M. Pardayev tomonidan to'lov qobiliyati deganda xo'jalik yurituvchi subyektda belgilangan muddatlarda to'lashni talab qiluvchi kreditorlik qarzlari yuzasidan hisob-kitob qilish uchun yetarli miqdorda pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari borligi tushuniladi.

Likvidlilik bilan to'lov qobiliyati bir-biridan farq qiladi. Likvidlilik qarzlarni to'lash uchun mablag'lar mavjudligini ko'rsatsa, to'lov qobiliyati – qarzni uzish imkoniyati borligini ko'rsatadi.

Yuqorida berilgan ta'riflar albatta mazmun jihatdan to'g'ri lekin uni quyidagi tartibda berib o'tish lozim deb o'ylaymiz.

Firma va kompaniyalarni to'lov layoqati deganda – to'lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplashga joriy mablag'larining yetarliligi yoki yetishmovchiligi tushuniladi.

Bu jihatni ta'riflash mazmun jihatdan yuqoridagi ta'riflashlar bilan bir xilda, lekin so'z va iboralar o'z o'rnida ishlatilgan. Sababki, birinchi ta'rifdagi «kamchilik», «xo'jalik» so'zlari, ikkinchi ta'rifdagi «to'lov imkoniyatlari», «oborot» kabi so'zlar o'z o'rnida ishlatilmagan.

---

[70] Вахобов А.В., Ибрагимов А.Т. Молиявий таҳлил. Т.:Шарк, 2002 й. 29-бет

[71] Хасанов Н., Нажмиддинов С. Корхона молиявий ҳолатини баҳолаш (муаммолар ва уларни ҳал этиш). Т.; Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 й., 29-бет

Firma va kompaniyalarni to'lov layoqatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi:

- mutlaq to'lov layoqati;
- oraliq to'lov layoqati;
- joriy (umumiy) to'lov layoqati.

Mualliflar; A.V. Vaxobov, A.T. Ibragimovlar tomonidan chop etilgan «Moliyaviy tahlil», «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» darsliklarida to'lov layoqatining 2 ta ko'rsatkichi farqlanadi, ya'ni;

- uzoq muddatga to'lov layoqati;
- qisqa muddatga to'lov layoqati.

To'lov layoqatining ko'rsatkichlarini uzoq va qisqa davriylikka deb tarkiblash to'g'ri emas. Nagaki bu tarkiblash, muddat bo'yicha emas balki to'lov mablag'larining likvidligi bo'yicha tarkiblashni xarakterlaydi. Ya'ni mualliflar, qisqa muddatli to'lov layoqati deganda qaytarish muddati kelgan majburiyatlarga faqat, pul mablag'lari va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni yetarliligi yoki yetishmovchiligini tushunadilar. Birinchidan, uzoq va qisqa muddat, qarz kapitalining bir yilgacha va bir yildan ortiq muddatga bo'lgan majburiyatlarini ham olishi lozim. Yaqin oraliqqa nisbatan uzoq va qisqa muddatni belgilab bo'lmaydi. Ikkinchidan, qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bo'lmaydi, ular «qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar»ning bir turi xolos.

Prof. E.Akramov tomonidan to'lovga qobillikni 4-ko'rsatkichini aniqlash ham tavsiya etiladi. Bu ko'rsatkich «Umumiy to'lovga qobillik» ko'rsatkichidir.[72]

Umumiy to'lovga qobillik ko'rsatkichi barcha aktivlarni majburiyatlar jamiga bo'lish asosida topiladi.

1.Mutlaq to'lov layoqati (Kmtl). Ushbu ko'rsatkich firma yoki kompaniyaning pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarini muddati kelgan to'lov majburiyatlariga, qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish asosida topiladi.

$$\mathbf{Kmtl = PM + QMMQ / QMM} \qquad (6.1)$$

Bunda;

PM-pul mablag'lari;

[72] Акрамов Э Анализ финансового состояния предприятия Т , ТГЭУ,2000 г., 53-стр.

QMMQ-qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar;

QMM-qisqa muddatli (to'lov muddati kelgan) majburiyatlar.

Ushbu ko'rsatkich qisqa muddatli majburiyatning har bir so'miga to'g'ri keladigan pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarni xarakterlaydi.

2. Oraliq to'lov layoqati (Kotl). Ushbu ko'rsatkich mutlaq to'lov layoqati ko'rsatkichidan Sof debitorlik summasiga farq qiladi.

$$\mathbf{Kotl=PM+QMMQ+SDM/QMM} \qquad (6.2)$$

Bunda;

SDM-sof debitorlik majburiyati.

Sof debitorlik majburiyati, jami debitorlik qarzidan muddati o'tgan debitorlik qarzlarini chegirish asosida topiladi. Chunki muddati o'tgan debitorlik qarzlari kreditorlik qarzini qoplay oladigan haqiqiy manba bo'la olmaydi.

O'tish muddati bo'lib huquqiy va jismoniy shaxslar uchun ham bitta mezon bir yilga belgilangan. (mol yetkazib beruvchi va xaridor, buyurtmachilar bilan bo'ladigan munosabatlardagi 3-oylik muddat bundan mustasno).

3. Joriy to'lov layoqati (Kjtl). Ushbu ko'rsatkich muddati kelgan to'lov majburiyatlari yoki qisqa muddatli majburiyatlarni to'lashga barcha oborot, aylanma aktivlarni yetarliligi yoki yetishmovchiligini xarakterlaydi.

$$\mathbf{Kjtl=PM+QMMQ+SDM+TZ\ /\ QMM} \qquad (6.3)$$

Bunda;

TZ- tovarlar va zaxiralar qiymati.

Prof. E.Akramov tomonidan tavsiya etilgan umumiy to'lovga qobillik ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi. Ya'ni;

Kutl=Uzoq muddatli aktivlar+Oborot aktivlar/M

Bunda;

M-majburiyatlar (buxgalteriya balansi passivining 2-bo'lim jamisi).

Firma va kompaniyalar to'lov layoqatini baholashda mablag'lar likvidligi ko'rsatkichi ham o'rganiladi.

Professor M.Pardayev tomonidan likivilikka quyidagicha ta'rif beriladi. Likvidlilik korxonaning o'z joriy (aylanma)

aktivlari hisobidan qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ko'rsatadi.

Buxgalteriya balansi haqiqatdan ham likvidligi, ya'ni to'lovga qobiliyatli deb hisoblanishi uchun joriy aktivlar majburiyatlardan ancha (ikki baravardan ortiqroq) yuqori bo'lishi kerak.

Joriy majburiyatlarni bajarish uchun likvidliligi aylanish tezligiga, ya'ni naqd pulga aylanish tezligiga bog'liq bo'lgan turli aktivlardan foydalanish mumkin.

A.Vaxobov, A.Ibragimov, N.Ishonqulovlarning fikricha likvidlilik deganda, avvalo, mablag'larning joylanishi, ularning pulga aylanish darajasi, yaqin va uzoq davriylikdagi to'lov majburiyatlarining oqlanishi, joriy aktivlar va passivlarning o'zaro farqlanishidagi zaruriy shartlarning saqlanishi tushuniladi.[1]

Professor E.Akramovning fikricha moliyaviy mustahkamlik yoki likvidlilik deganda korxonalarning olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik darajasi tushuniladi.

Bu bilan olim MDH davlatlari tahlilchilari V.G. Artemenko, M.V. Bellendirlar, A.D. Sheremet, R.S Sayfulin, A.N. Li va S.I. Shevchenkolarning fikrlariga tayanadi va ularni takrorlaydi. Shu bilan birga moliyaviy mustahkamlik va likvidlilik ko'rsatkichlari bitta narsa deb qaraladi.

Iqtisodchi olim T.Shogiyasovning fikricha balans likvidligi-xo'jalik yurituvchi subyektning aktividagi moddalarning pulga aylanishi orqali to'lov majburiyatlarini qoplay olishi, aniqrog'i - to'lov majburiyatlarining muddati, aktivdagi moddalarning pulga aylanish muddatiga mos kelishiga aytiladi.[2]

Muallif tomonidan balans likvidligi va korxona likvidligi ko'rsatkichlari ham tarkiblanadi. Korxona likvidligi – balans likvidligiga nisbatan keng ma'noni anglatadi deyiladi.

Bizningcha likvidlilik-deganda xo'jalik yurituvchi subyekt nozorat qilib turadigan iqtisodiy resurslarning (aktivlarning) harakatchanligiga, muddatli moliyaviy majburiyatlarni yaqin kelajakda qoplash yuzasidan mablag'larning mavjudligiga aytiladi.

---

[1] А Вахобов, А Ибрагимов, Н Ишонқулов «Молиявий ва бошқарув таҳлили» Т. Шарк 2005 й 260-бет.

[2] Т.Шогиясов. Комплекс иқтисодий таҳлил Т Иктисод-молия 2009 185-бет

Mablag'lar likvidligi (aylanuvchanligi)ni baholashda aktivlar, kapital va majburiyatlar harakatchanligi va to'lov muddat bo'yicha qayta tarkiblanadi.

6.7-jadval

Buxgalteriya balansining likvidlilik bo'yicha tarkiblanishi

T	Aktiv tomon	T	Passiv tomon
A1	Doimiy harakatdagi aktivlar	P1	To'lov muddati kelgan majburiyatlar
A2	Tez pulga aylanadigan aktivlar	P2	Qisqa muddatli to'lov majburiyatlari
A3	Sekin pulga aylanadigan aktivlar	P3	Uzoq muddatli to'lov majburiyatlari
A4	Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	P4	Doimiy passivlar

Ba'zi manbalarda buxgalteriya balansining aktiv va passiv tomon moddalari likvidligi bo'yicha quyidagicha nomlanishi ham kuzatiladi.

6.8-jadval

Buxgalteriya balansining likvidlilik bo'yicha tarkiblanishidagi farqlanishlar[1]

T	Aktiv tomon	T	Passiv tomon
A1	Eng likvid aktivlar	P1	Eng shoshilinch majburiyatlar
A2	Tez sotiladigan aktivlar	P2	Qisqa muddatli passivlar
A3	Sekin sotiladigan aktivlar	P3	Uzoq muddatli passivlar
A4	Qiyin sotiladigan aktivlar	P4	Doimiy passivlar

Boshqa manbada buxgalteriya balansining aktiv va passiv tomonlari quyidagi tarkibda nomlanishi ham kuzatiladi.[2]

[1] Пардаев М. Молиявий таҳлил СамИСИ-2007 www/ziyonet/uz

[2] Э Акрамов. Корхона молиявий ҳолатини таҳлили Т · ТМИ. Электрон манба 2010 й

6.9-jadval

A1	Doimiy harakatchan aktivlar	P1	Kreditorlik majburiyatlari
A2	Tez harakatchan aktivlar	P2	Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar
A3	Sekin harakatchan aktivlar	P3	Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar
A4	Noharakatchan aktivlar	P4	Doimiy passivlar

Likvidlilik darajasi bo'yicha buxgalteriya balansining moddalarini jamlanishi va ularning nomlanishidagi turlicha qarashlarni avvalo likvidlilikni aniqlash bo'yicha rasmiy metodikaning mavjud emasligi bilan, shuningdek xorijiy tillardan turli shaklda tarjimalarning mavjudligi bilan, asosiy e'tibor mazmunning shaklanishiga qaratilishi bilan izohlash mumkin.

Likvidlilik darajasi bo'yicha buxgalteriya balansining tegishli qatorlariga quyidagi moddalarni kiritish mumkin.

6.10-jadval

Likvidlilik darajasi bo'yicha buxgalteriya balansi aktivi moddalari

Aktiv tomon	Balans moddalari	Balans satri	Izoh
Eng likvid aktivlar	Pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	320 satr+370 satr+*	*380 satr-boshqa joriy aktivlar
Tez sotiladigan aktivlar	Debitorlik majburiyatlari	210 satr+*	*230 satr-Ajratilgan bo'linmalarning qarzi
Sekin sotiladigan aktivlar	Tovar moddiy zaxiralar	140 satr+190 satr*+200 satr **	*190 satr-kelgusi davr xarajatlari *200 satr-kechiktirilgan xarajatlar
Qiyin sotiladigan aktivlar	Uzoq muddatli aktivlar	130 satr	

6.11-jadval

Likvidlilik darajasi bo'yicha buxgalteriya balansi passivi moddalari

Passiv tomoni	Balans moddalari	Balans satri	Izoh
To'lov muddati kelgan majburiyatlar	Kreditorlik majburiyatlari	600 satr-(730 satr+740 satr+*)	*620- Ajratilgan bo'linmalarga qarz
Qisqa muddatli majburiyatlar	Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar	730 satr+740 satr	
Uzoq muddatli majburiyatlar	Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar	490 satr+*	*510- Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz
Doimiy passivlar	O'z mablag'lari manbayi	480 satr	

Aktivlar, kapital va majburiyatlarni o'zaro taqqoslash asosida firma, kompaniyaning buxgalteriya balansining likvidlilik darajasiga baho berish mumkin.

6.12-jadval

Buxgalteriya balansining likvidlilik darajalarini tarkiblanishi

O'zgarishlar tartibi	Mutlaq farqlanishlardagi o'zgarishlar				Likvidlilik darajassi
1-holat	A1>=P1	A2>=P2	A3>=P3	A4<=P4	Mutlaq likvid balans
2-holat	A1<P1	A2>=P2	A3>=P3	A4<=P4	Likvid balans
3-holat	A1<P1	A2<P2	A3>=P3	A4<=P4	Nolikvid balans
4-holat	A1<P1	A2<P2	A3<P3	A4<=P4	Nochorlik holatidagi balans

A1+A2+A3+A4=P1+P2+P3+P4

Buxgalteriya balansi elementlari va jamlangan qatorlarini (moddalarini) o'zaro nisbatlash asosida likvidlilikni nisbiy dara-

jalariga va to'lovga qobillik darajalariga ham baho berish mumkin.

6.13-jadval

Likvidlilikni nisbiy ifodalari

Nisbat	I.f.d. prof M.Pardayev tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlar tizimi	Tavsiya etilayotgan ko'rsatkichlar tizimi
A1/P1	Eng shoshilinch majburiyatlarning to'lov koeffitsiyenti	To'lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti
A2/P2	Qisqa muddatli passivlarning to'lov koeffitsiyenti	Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti
A3/P3	Uzoq muddatli passivlarning to'lov koeffitsiyenti	Uzoq muddatli majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti
A4/P4		Doimiy aktivlarni o'z mablag'lari manbayiga nisbati koeffitsiyenti
A1/P1		Joriy to'lov layoqati
A1/P1+P2		Mutlaq to'lovga qobillik
A1+A2/P1+P2		Oraliq to'lovga qobillik koeffitsiyenti
A1+A2+A3/P1++P2+P3		Umumiy to'lovga qobillik koeffitsiyenti
Aktivlarni moliyalashtirish holati		
P4/A4		Doimiy aktivlarni o'z mablag'lari hisobiga manbalanishi
P3+P4/A4		Doimiy aktivlarni o'z va qarz mablag'lari bilan manbalanishi
P4+P3-A4/A1+A2+A3		Joriy aktivlarni manbalanishi
P4+P3+P3/A3+A4		Moddiy aktivlarni manbalanishi

6.14-jadval

Jadval Mablag'lar harakatchanligi bo'yicha buxgalteriya balansining tarkiblanishi

AKTIV	01.01. 2011	01.01. 2012	PASSIV	01.01. 2011	01.01. 2012	Majburiyatlarni qoplashdagi ortiqchalik(+), yetishmovchilik (-)	
						01.01.2011	01.01.2012
Doimiy harakatdagi aktivlar	1409	3205	To'lov muddati kelgan majburiyatlar	42922	65046	-41513	-61841
Tez pulga aylanadigan aktivlar	17816	24247	Qisqa muddatli to'lov majburiyatlari	19184	10894	-1368	13353
Sekin pulga aylanadigan aktivlar	70639	89142	Uzoq muddatli to'lov majburiyatlari	9259	8252	61380	80890
Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	62964	64613	Doimiy passivlar	81463	97015	-18499	-32402
BALANS	152828	181207	**BALANS**	152828	181207	x	x

6.15-jadval

Aktiv va passivni likvidlilik bo'yicha normalari

AKTIV	Mutlaq likvidlilik sharti	PASSIV
Doimiy harakatdagi aktivlar	A1=>P1	To'lov muddatli kelgan majburiyatlar
Tez pulga aylanadigan aktivlar	A2=>P2	Qisqa muddatli to'lov majburiyatlari
Sekin pulga aylanadigan aktivlar	A3=>P3	Uzoq muddatli to'lov majburiyatlari
Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	A4<=P4	Doimiy passivlar

6.16-jadval

1. Davr boshiga likvidlilik yuzasidan ko'rsatkichlarining holati

(1409) A1<P1(42922)	Joriy likvidlilik: JL = -42881 m.s.
(17816) A2<P2(19184)	Istiqboldagi likvidlilik: IL = 61380 m.s.
(70639) A3>P3(9259)	JLb=A1+A2/P1+P2
(62964) A4<P4(81463)	ILb=A3/P3

Balansning likvidligini yetarli deyish noo'rin. Ya'ni korxona yaqin kelajakda likvidlilikni oshirish yuzasidan imkoniyatga ega emas. Lekin istiqbolda uni oshirishning birmuncha imkoniyatiga egaligidan xo'jalik subyektini o'z majburiyatlarini qoplashning ortiqchaligini (+61380 ming so'm) kuzatish mumkin

6.17-jadval

2. Davr oxiriga likvidlilik yuzasidan ko'rsatkichlarining holati

(3205) A1<P1(65046) (24247) A2>P2(10894) (89142) A3>P3(8252) (64613) A4<P4(97015)	Joriy likvidlilik: JL = -48488 ming so'm
	Istiqboldagi likvidlilik: IL = 80890 ming so'm
	JLo=A1+A2/P1+P2 ILo=A3/P3

Davr oxiriga kelib ham xo'jalik subyektining likvidlilik darajasida sezilarli o'zgarish kuzatilmagan. Balans likvidligini davr boshidagi kabi nolikvid holatda deyish mumkin. Yaqin kelajakda uni tiklanmaslik imkoniyati nihoyatda yuqoriligicha qolmoqda. Istiqbolda esa tiklanish kutilishi mumkin.

Jadval ma'lumotlari asosida buxgalteriya balansining likvidlilik ko'rsatkichlarini alohida baholab chiqamiz

1. Balans likvidligini umumiy koeffitsiyenti (L1)-likvid mablag'larning summasini jami majburiyatlarga nisbati orqali topiladi Uning tavsiya etilgan normasi 2,0-2,5 darajaga teng deb qaraladi.

6.18-jadval

L1 =(A1+A2+A3)/ (P1+P2+P3)	01.01.2011	1,259	Normadan past
	01.01.2012	1,384	Normadan past
	O'zgarishi	+0,125	Ijobiy siljish

Xo'jalik subyektining umumiy likvidligi oshgan. Ishonchli xo'jalik yurituvchi subyekt va kuchli moliyaviy sherik sifatida qaralishiga yetarli asos mavjud deb baholash mumkin.

2. Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti (L2)-doimiy harakatdagi aktivlar bilan qisqa muddatli majburiyatlarning nisbatini xarakterlaydi. Mutlaq likvidlilikning norma darajasi 0,2g'g'0,7 qilib belgilangan.

6.19-jadval

L2 = A1/(P1+P2)	01.01.2011	0.0227	Normadan past
	01.01.2012	0.0422	Normadan past
	O'zgarishi	0.0195	Ijobiy siljish

Mutlaq likvidlilik o'sgan. Majburiyatlarni to'lash imkoniyati oshgan, qisqa muddatli bank kreditlarining riski kamaygan.

3. Kritik baholash koeffitsiyenti (L3) xo'jalik subyektining doimiy harakatdagi va tez pulga aylanadigan aktivlarini to'lov muddati kelgan va qisqa muddatli to'lov majburiyatlariga nisbatlash orqali topiladi. Ushbu ko'rsatkich ko'proq kredit jalb qiluvchi korxonalarda ahamiyatli hisoblanadi. Tavsiya etilgan normasi 0,7-0,8=>1,0

6.20-jadval

L3 = (A1+A2)/(P1+P2)	01.01.2011	0,3096	Normadan past
	01.01.2012	0,3615	Normadan past
	O'zgarishi	0,0519	Ijobiy siljish

Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyati oshganligini ko'rish mumkin.

4. Joriy likvidlilik darajasi (L4) jami likvid aktivlarning to'lov muddati kelgan va qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga yetarliligini xarakterlaydi. Norma birligi 1,0 teng deb olinadi.

6.21-jadval

L4 = (A1+A2+A3)/(P1+P2)	01.01.2011	1,447	Qoniqarli emas
	01.01.2012	1,535	Qoniqarli emas
	O'zgarishi	0,088	Ijobiy siljish

5. Ishchi kapitalning joriy aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti (L5) sekin pulga aylanadigan aktivlarni jami likvid aktivlarga bo'lish orqali hisob-ktitob qilinadi.

6.22-jadval

L5 = A3/(A1+A2+A3)	01.01.2011	0,786	
	01.01.2012	0,765	
	O'zgarishi	-0,021	Ijobiy siljish

Korxonada ishchi kapitalning harakatchanligi va jamoaning ish aktivligi ortgan deyish mumkin.

6. Aktivlarning tarkibida aylanma mablag'larning salmog'i koeffitsiyenti (L6) joriy aktivlarni balans jamiga, aktivlar jamiga nisbatlash orqali hisob-kitob qilinadi.

6.23-jadval

L6 = (A1+A2+A3)/B	01.01.2011	0,5863	
	01.01.2012	0,6395	
	O'zgarishi	0,0532	Ijobiy siljish

Jami aktivlar tarkibida joriy aktivlar, aylanma aktivlarning salmog'i ortgan. Mahsulot chiqishi va korxonaning ish faolligi jadallashgan.

7. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (L7) aylanma aktivlarni o'z mablag'lari manbasi bilan manbalanishini xarakterlaydi. Tavsiya etiladigan jihati 0,1 dan kichik bo'lmasligi kerak.

6.24-jadval

L7 = (P4-A4)/(A1+A2+A3)	01.01.2011	0,206	Yaxshi holat
	01.01.2012	0,278	Yaxshi holat
	O'zgarishi	0,072	Ijobiy siljish

Xo'jalik subyektining o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi o'sgan va moliyaviy barqarorlik yaxshilangan.

6.4. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlili

Firma, kompaniyani kreditga layoqatligini o'rganishda bitta to'lov layoqati ko'rsatkichi natijalariga tayanish to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli qo'shimcha ko'rsatkichlar va ularni tahlil etishga muhim ahamiyat beriladi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiritiladi.

1. Firma, kompaniyaning moliyaviy barqarorligi.
2. Firma, kompaniya foydaliligi;
3. Kapitalning aylanuvchanligi.

1. Firma, kompaniya moliyaviy barqarorligiga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi: chetdan jalb qilingan mablag'larning barcha mablag'lar tarkibidagi xissasi, chetdan

jalb qilingan mablag'larning o'z mablag'lariga nisbati darajasi, o'z aylanma mablag'larining harakatlanish darajasi, uzoq muddatli mablag'larning chetdan jalb qilingan mablag'lardagi xissasi, moddiy aylanma mablag'larning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi, o'z mablag'lari tarkibida asosiy kapitalning xissasi, asosiy kapitalning eskirish darajasi,asosiy va aylanma mablag'larning umumiy kapitalga nisbati koeffitsiyentlari tahlil etiladi.

2. Foydalilik ko'rsatkichlari qatorida umumiy mablag'larning foydaliligi, asosiy vositalar foydaliligi, uzoq muddatli va oborot aktivlarning foydaliligi, o'z mablag'lari foydaliligi, sotilgan mahsulot foydaliligi kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

3. Kapitalning aylanuvchanligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatorida umumiy mablag'larning aylanuvchanligi, asosiy vositalarning aylanuvchanligi, aylanma mablag'larning aylanuvchanligi, moddiy aylanma mablag'larining aylanuvchanligi, pul mablag'larining aylanuvchanligi, debitor qarzlarining aylanuvchanligi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Hozirgi paytda kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi hollari ko'p uchrashi va ulardan imkon qadar himoyalanish maqsadida qo'shimcha sur'atda yana quyidagi ko'rsatkichlarni baholash ham talab etiladi.

-rentabellik darajalari;

-sotilgan mahsulotlarni o'zgarish sur'atlari;

-to'lov muddati o'tgan majburiyatlarning holati;

-olingan kreditlar yuzasidan foizlar va ularning to'lash imkoniyatlari;

-firmaning hisob raqami va boshqa hisob raqamlaridagi pul mablag'larining holati kabi masalalar.

6.5. Firma va kompaniyalarda kreditga layoqatligini o'stirishning amaliy chora-tadbirlari

Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini o'stirishning amaliy chora-tadbirlari, ularning moliyaviy holatida ro'y berayotgan o'zgarishlar va natijalardan kelib chiqib belgilanadi. Ya'ni, to'lovga qobil firma va kompaniyalarda belgilanadigan chora-tadbirlar, to'lovga noqobil, moliyaviy nobarqaror firma va

kompaniyalarda belgilanadigan chora-tadbirlar keskin farq qiladi. Ulardan biri moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishga harakat qilsa, ikkinchisi muammoni hal etish va yashab qolish harakatiga tushadi.

To'lovga noqobillik yoki kreditga layoqatlikni o'stirishni muhim tadbirlariga quyidagilar kiradi.

1. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini joylashtirishni qayta ko'rib chiqish. Uning mazmunini qanday tushunish mumkin?

Firma, kompaniyalarda likvid mablag'larining aylanuvchanligini tezlashtirish maqsadida ortiqcha aylanma aktivlarni hisobdan chiqarish, asosiy va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqarish zaruriyatidan ortig'ini aylanma mablag'lar qatoriga olish (ularni sotish, buzish, hisobdan chiqarish va boshqa yo'llar bilan), debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini so'ndirish (yo'l qo'yilgan tartiblarda), qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarni maqsadli joylashtirish.

2. To'lov mablag'lari va to'lov majburiyatlari orasidagi nisbatdagi manfiy o'zgaruvchanlik sababini moliyaviy holatdagi tanglikdan emas, balki, ishlab chiqarish va boshqaruvning quyi bo'g'inlaridan izlash lozim. Ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni yaxshi yo'lga qo'yilmasligi, ishlab chiqarish xarajatlarini oshib ketishi, narx belgilash siyosatining to'g'ri yuritilmasligi va boshqalar.

3. To'lovga noqobillik sharoitida mablag'lar yetishmovchiligini hal etish yuzasidan avvalo, ichki imkoniyatlarni aniqlab olish va ularni ishga solish lozim. Noqobillik sharoitida boshqa bir subyektdan qarz so'rash va uning ishonchini oqlashni iqtisodiy imkoniyati bo'lmaydi.

4. Firma va kompaniyalarning ishlab chiqarish bo'g'inlarini, uning balansida turuvchi faoliyatning boshqa obyektlarini xarajatlarini kamaytirish, to'xtatish yoki o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashga o'tkazish lozim.

5. Firma va kompaniyalarni pul mablag'lari va pulli ekvivalentlarni aylanishida qat'iy reja belgilash va unga amal etish. Ya'ni, pul mablag'larini qarz majburiyatlariga ishlatishni aniq rejasini tuzib olish.

6. Mablag'lar aylanuvchanligidagi muammolarni davlat tomonidan hal etish mexanizmini ishlab chiqish. Bu muammo mazmunini qanday izohlash mumkin. Ya'ni, ishlab chiqarilgan mahsulotni o'z xaridorini topishiga qadar ketgan vaqtni o'rtacha bir oy deb hisoblasak, uning yuzasidan to'lovlarning amalga oshish vaqti 3 oy qilib belgilansa (oldi-sotdi munosabatlarida ishtirok etayotgan korxonalarning deyarli barchasida to'lov layoqati past darajada), tovarni pulga aylanish vaqti o'rta hisobda 4–5 oyga to'g'ri kelmoqda. Bu albatta aylanma mablag'larni aylanishiga nisbatan past ko'rsatkich hisobga olinadi. Buni tezlashtirishning iqtisodiy asosi bo'lgani holda uning huquqiy asosi yo'q, ya'ni, natura shaklida to'lash yoki hisob-kitoblarning kredit shaklidan foydalanish, veksel operatsiyalarini yo'lga qo'yish, qarzlarni o'zaro so'ndirish va boshq. Naqd pul mablag'lari harakati masalasini hal etish yuzasidan ulardan to'la chetlanish to'g'ri emas.

7. Firma va kompaniyalar kreditga layoqatligini ta'minlash va uni o'stirishda albatta ularning investitsion aktivligiga ham ahamiyat berish lozim. Investitsion aktivlik bu qarz olish va uni qaytarishdan keskin farq etadi.

8. Buning uchun korxonadan ikkita narsa talab etiladi xolos. Birinchisi aniq loyiha, ikkinchisi homiy. Aniq loyihaga ega bo'lish asosida ham investor yoki homiyni topish qiyin bo'lmaydi.

9. Korxonalarda kreditga qodirlikni baholashning asosiy jihatlaridan biri o'z oborot mablag'lari naqdligiga qaratilganligi bois ularni manbalashni o'z mablag'lari manbasi bilan bog'liq bo'lgan qatorlarini oborot aktivlari normativlaridan kelib chiqqan holda baholash lozim. Bunda oborot aktivlarning ortiqchaligi manbalashdagi holatni buzib ko'rsatishga olib keladi. Kam hollarda esa sun'iy ravishda oshib ketishiga olib keladi.

10. Korxonalar kreditga layoqatligini o'stirishning muhim chora-tadbirlaridan biri bu bevosita hisob-kitoblardagi majburiyatlarni ichki va tashqi majburiyatlarga tarkiblash orqali baholash amaliyotiga o'tishdir. Korxona majburiyatlari qatoridan ichki majburiyatlarni chegirish ushbu xarajatlarni yo'q qilmaydi. Lekin to'lovga qobillikni oshirishda sezilarli siljishga imkon beradi.

6.6. Kreditga layoqatlikni baholashni xorij tajribalari va ularning muvofiqligi

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatliligini baholashning xorij tajribalarini o'rganish asosida shuni izohlash mumkinki, uning

- uslubiy asoslarida;
- tashkiliy asoslarida;
- huquqiy, me'yoriy asoslarida sezilarli farqlarni sezish mumkin.

Uslubiy asoslari. Uslubiy asoslari bo'yicha mazmun jihatdan bir xildagi yondashishni ko'rish mumkin. Lekin farq etuvchi jihatlar ham mavjud.

Masalan, to'lovga qobillikni o'rganishda bizning amaliyotda 3 ta muhim ko'rsatkich aniqlanadi. Ya'ni mutlaq oraliq va umumiy to'lov layoqati ko'rsatkichlari. Lekin xorij amaliyotida firma, kompaniyani kreditga layoqatligiga bitta, umumiy to'lovga qobillik ko'rsatkichi natijasi bilan baho beriladi. Pul va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar bir qatorga va o'ringa qo'yiladi. Qimmatli qog'ozlarning aylanishi pul mablag'larining aylanishiga nisbatan tez kechadi. Tovarlar va zaxiralarning aylanuvchanligi majburiyatlar aylanuvchanligidan tez kechadi va hokazo. G'arb mamlakatlarida kreditga qodirlikni baholashda eng muhim qoida sifatida shartli «S-1-5» qoidasiga amal etiladi. Bu qoida quyidalarni xarakterlaydi.

S1-xarakter-qarz beruvchining bozordagi obro'si, uning holatini aniqlash

C2-capacity-qarz oluvchining faoliyatni yakuniga yetkaza olishi, tegishli daromadga ega bo'lishi hamda olingan kreditlarni qaytarib bera olish qobilyati

C3-capital-qarz oluvchi sarmoyasining yetarliligi

C4-conditions-biznesning rivojlanishi yuzasidan shartlar

C5-collateral-garov

Bu qoidalarga bizning kredit amaliyotimizda ham to'liq amal etiladi, faqat uning rasmiy jihatlari bu tartibda belgilanmagan.

Kreditga qodirlik tahlilidagi uslubiy jihatlardagi farqlanishlar albatta mamlakatimizda buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni

yuritishda milliy standart normalariga tayanilishi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning farqlanishi bilan izohlash mumkin.

Tashkiliy asos. Kredit olish va berish tartibida kredit muassasalarining raqobatchilari nihoyatda ko'p. Bu holat kredit mijozlari uchun kurash qonuniga amal etilishi va moliya bozorini rivojlanganligidan dalolat beradi. Kredit resurslari band qilishdagi har qanday to'siqlar olib tashlangan. Kredit oluvchi bilan kredit beruvchi o'rtasida yoki qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o'rtasida ishonch, bir-birini aldamaslik qarz munosabatlari biznes shioriga aylangan. Kredit oluvchidan asosiy talab qilinadigan narsa uning aniq biznes loyihasi va garovi hisoblanadi. Bizda esa o'zgacha. Aniq biznes loyiha va garovdan tashqari ko'plab shartlarga bo'ysinish talab etiladi.

Huquqiy asos. Firma va kompaniyalarga kredit berish va uni qaytarishni me'yoriy hujjatlarini takomillashtirish talab etiladi. Negaki, uning bir turi tadbirkorlar huquqini qarz oluvchini huquqini himoya qilsa, ikkinchisi qarz beruvchini huquqini ximoya etadi. Betaraflik qoidasiga amal etgan holda tugal qonunchilik mexanizmini yaratish lozim. Kreditni olish va qaytarishdagi turli tahlikalardan himoya etuvchi zaxiralar fondini tashkil etish, qarzdor va qarz beruvchi bir-birini aldamaslik lozim.

Ijtimoiy asos-xorij amaliyotida ijtimoiy asoslar sifatida kredit munosabatlari ko'pincha bir manzilli emas ko'p manzilli jihatlarga ustunlik beriladi. Ya'ni kredit va qarzga doir munosabatlar banklar va korxonalar o'rtasidagina emas balki moliyaviy institutlarning keng tizimi doirasida amal etishi mexanizmi bilan ham farqlanadi.

O'zaro ishonchda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda ijtimoiy omillar, muhim bo'lgan boshqa omillardan ba'zan ustun turadi. Buni qanday izohlash mumkin. Respublikamiz mintaliteti, xalqning tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qiziqishlarini ustunligi va uning meros sifatida avloddan avlodga o'tgan ana'analari, o'zaro izzat-hurmat, ishonch kabi rasmiy jihatlardan ustun turuvchi ijtimoiy belgilar ham uning yorqin ifodasidir.

«Gilam sotsang qo'shningga sot, bir burchagida o'zing utirasan», «molni sotsang aybini aytib sot, baraka topasan», «torozida aldama gunohi yomon» degan naqllar biznesni, tadbirkorlik faoliyatida bironta mezoni bilan belgilanadigan jihatlar emas. Ular bizning qon-qonimizga singib ketgan mezonlardir. Xuddi shunday ijtimoiy jihatlarni qarz olish va qarz berish munosabatlarida ham ko'rish mumkin. «Birovning omonatiga xiyonat qilma», «omonatni yuki og'ir» va boshqa ko'plab naqllar ildizida ham aslida qarz munosabatlarida ehtiyotkorlikning ijtimoiy jihatlari turibdi deyish mumkin.

Mamlakatimizda kredit munosabatlarini yo'lga qo'yishda va uning izchil mexanizmini shakllantirishda albatta xorijiy amaliyotning ahamiyatli jihatlari qamrab olingan. Byurokratik to'siqlarga chek qo'yilgan. Bunga O'zbekiston banklarining ishonchlilik darajasi bo'yicha xalqaro reyting agentliklari va kompaniyalari ekspertlari tomonidan berilayotgan baho ham yaqqol misol bo'la oladi. Lekin shunga qaramay hali bu sohada qilinishi lozim bo'lgan, o'rganish va milliy iqtisodiyotga mos tarzda qo'llash zarur bo'lgan jihatlar ko'p.

Xalqaro kredit amaliyotining tayyor andozasi doimo bir xilda turli iqtisodiyotga mos tushavermaydi. Shu sababli bu jihatdan muvofiqlikni ta'minlashda davlat monetar siyosati, soliq, moliya, hisob siyosatlarini shuningdek, tijorat banklarining kredit siyosatini ham bir tizimda va muvofiqlikda rivojlantirish talab etiladi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Kredit nima?, Qarz nima?, Ssuda nima?
2. Kreditga layoqatlik (qodirlik) nima?
3. Kreditga layoqatlik tahlili qanday metodik jihatlarga ega?
4. Kreditga layoqatlikni aniqlashni, baholashni rasmiy jihatlarini kim belgilaydi?
5. Kreditga layoqatlilikda to'lovga qobillikni baholashning muhimligi?
6. Kreditga layoqatlikni baholashda korxona moliyaviy mustaqilligi (avtonomiyasi) ko'rsatkichni aniqlashning ahamiyati nimada?

7. Kreditga layoqatlilik tahlilida sof oborot aktivlarni baholashni zaruriyati nimada?

8. Kreditga layoqatlik, qodirlikni baholashda banklarning kredit siyosatining muhimligi.

9. Kreditga layoqatlikni baholashning asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlari?

10. Firma, kompaniyalar kreditga layoqatligini baholashning xorijiy tajribalari?

11. Kreditga layoqatlikni o'stirishning amaliy chora-tadbirlari, yo'llari?

12. Kreditga qodirlikni to'lov layoqatiga muvofiqligi?

13. G'arb amaliyotidagi «5S» qoidaning mazmunini tushuntiring.

14. Kredit ta'minlanganligi deganda nimani tushunasiz?

15. Mikro firma va kichik korxonalarni kreditga layoqatligi bilan yirik korxonalarning kreditga layoqatligi tahlilida farqlanishlar mavjudmi?

16. Xususiy tadbirkorlik subyektlari kreditga layoqatligini baholash taomillari.

17. Kredit jalb qilishda mijozning kredit tarixi qanday rol o'ynaydi?

18. Kreditga layoqatlikni baholashda ichki va tashqi moliyaviy tahlilning farqlanishini tushuntiring?

19. Kreditga layoqatlikni tahlilini rasmiy va norasmiy jihatlari?

20. Kreditga layoqatlikni normalarini belgilashning ahamiyatli jihatlari?

21. Kreditga layoqatlik normalarini belgilashda tarmoq, faoliyat xususiyatlari hisobga olinishini izohlab bering?

22. Kredit resurslarini jalb etishdan samaradorlikni baholash taomillari?

23. Bank kreditlaridan foydalanish uchun foiz to'lovlari xarajatlarning qaysi guruhiga kiradi va ularni moliyalashtirish tartibi qanday?

24. Bank kreditlarini mijoz moliyaviy holatiga ta'sirini baholashdagi taomillar nimada?

25. Kreditga layoqatlikni baholashda joriy va istiqbollik ko'rsatkichlarini farqlashni zaruriyati nimada?

26. Iqtisodiy nochorlik holatida kredit munosabatlari qanday hal etiladi?

27. Iqtisodiy nochorlik belgilarini baholashda kreditorlar asosiy e'tiborni qaysi jihatlarga qaratadilar?

28. Kreditga layoqatlikni baholashda axborotlarni ishonchliligi qanday hal etiladi?

VII bob. FIRMA VA KOMPANIYALARDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI

7.1. Investitsiyalar mazmuni, mohiyati va turlari

Investitsiya siyosati har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiy etishida muhim yo'nalish bo'lib kelgan. Iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuchni taraqqiyot hech qachon investitsion faoliyatdan o'zga narsadan ololmaydi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan investitsiya sohasi – mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini, barqarorligini ta'minlaydi va xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining jadal o'sishi, bo'lg'usi yuksalishning muhim poydevori bo'lib xizmat qiladi[1] deb ta'kidlagani ham bejiz emas.

Investitsiya so'zining o'rindosh iborasi shu paytga qadar kapital qo'yilma tushunchasi ishlatilgan. Kapital qo'yilmalar deganda asosiy fondlarni vujudga keltirish, ularni ta'mirlash, qayta qurish, ishlab chiqarishni kengaytirish ma'nosida sarflar tushunilgan. Bu holat to'g'ri hisoblanadi. Negaki ta'minotni markazlashtirilgan va rejalashtirilgan mexanizmi amal etgan, yagona davlat mulkchiligi sharoitida uning mazmuni to'g'ri ifodalangan.

Biz ikkita muhim narsani ajratib olishimizga to'g'ri keladi. Birinchisi kapital qo'yilmalar, ikkinchisi investitsiya tushunchasi.

Investitsiya tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi.

Investitsiya-lotincha so'zdan olingan bo'lib «kapital solish», «kapital qo'yish» degan ma'nolarni anglatadi.

U.F.Sharpning tomonidan investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. «Investitsiyalar- kelgusida qiymatlik

[1] Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг 1998 йил якунлари ва 1999 йилда иқтисодиётнинг устувор йўналишлари. // Халқ сўзи –1999 й ,17 февраль 2-б

olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatliklardan voz kechishdir».[1]

Iqtisodchi olim K.Eklund fikricha «Investitsiya – bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir».[2]

Bir guruh olimlar Kempbell R. MAKKONELL, Stanli L. BRYu lar tomonidan «investitsiyalar –kelajakda daromad va ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi»[3]

Rossiyalik iqtisodchi olim E. V. Mixaylova esa «investitsiyalar – kelajakda daromad yoki ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi»[4].

Iqtisodchi olimlar D. G'ozibekov va T. Qoraliyevlar tomonidan investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. «Investitsiya-daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga jalb qilinadigan (sarflanadigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar» deb ta'riflanadi[5].

Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S lar tomonidan investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. Investitsiya – bu foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklardir.

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi qonunida investitsiya deganda «Iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tushuniladi»[6].

Yuqoridagi qatorlarni istagancha davom ettirish mumkin. Shu bilan birga ushbu ta'riflarni qaysidir jihatdan to'g'ri ham deyish mumkin. Negaki har bitta muallif o'sha davrning nigohi, darajasi bilan qaraydi. Qolaversa investitsiyaning foyda olish

---

[1] Шарп У.Ф Инвестиции.Пер.с анг М.; ИНФРА-М, 2000г 979 стр.

[2] Эклаунд К. Эффективная экономика,М , «Экономика»,1991, 96-бет.

[3] Кэмпбелл Р Стэнли Л Экономикс 2-том.М ;Республика 1992 г. 388 стр.

[4] Михайлова Е В «Финансовые рынки и их формирование», СП.б Изд-во СПУЭиФ, 1991 й., 7 -бет.

[5] Гозибеков Д , Коралиев Т. «Инвестицион фаолиятни ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш» Т.; Матбаачи,1993 й . 6-бет

[6] Ўзбекистон Республикасининг инвестицион фаолият тўғрисидаги қонуни, 1998 й., 24-декабр

maqsadida sarmoya kiritishga qaratilgan harakat ekanligi barcha ta'riflarda o'z aksini topgan.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Investitsiya deganda investorlar (sarmoyadorlar) tomonidan kelajakda foyda olish maqsadida barcha turdagi; mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklarni muddatli band etish tushuniladi.

Negaki G'ozibekov D. va Qoraliyev T., Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., B.S Mamatovlar lar tomonidan berilgan ta'rifdagi «ijtimoiy samara»dorlik faoliyatni yo'lga qo'yilishining zaruriy sharti sifatida o'z-o'zidan namoyon bo'laveradi. Ya'ni bu jarayon korxona faoliyatini yo'lga qo'yishdagi egaistik xarakterning ustunligiga o'xshaydi. Lekin jarayon ko'proq foyda olish maqsadiga qaratilgan.

Shu bilan birga ushbu jarayonni sodda tushunchasiga yana shu bilan izohlash mumkinki, kapitalning maksimallashuvi uni doimo samarali boshqarish, nazorat qilib turish, resurslarni maqsadli harakatga keltirib turish imkoniyatini cheklaydi.

Ya'ni mablag'lar qanchalik ko'paysa uni bir kishi yoki ularning guruhi tomonidan boshqarish qiyinlashadi. Ana shunday holatda uni boshqalar orqali harakatga keltirish va undan yanada ko'proq foyda olish imkonini investitsiya orqali hal etish mumkin.

Cheklanmagan ehtiyojlarni qondirishga urg'u berish ham ta'rif doirasida zaruriy shart emas deb o'ylaymiz. Negaki bunga faqat investitsiya jarayoni orqaligina erishilmaydi. U bir vosita, yo'l, imkoniyat xolos.

«Investitsion faoliyat to'g'risida»gi qonunda ham investitsiya tushunchasiga to'liq ta'rif berilmagan. Negaki uning obyekti va subyekti to'liq ko'rsatilmagan.

Kapital qo'yilmalarni investitsiyalardan farqiga kelsak ushbu tushuncha faqat uzoq muddatli aktivlarni shakllantirish, ta'mir etish, kengaytirish va qayta tashkil etishga nisbatan ishlatiladi.

Investitsiyani turlariga kelsak uning ham turli shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Investitsiyalar pul mablag'larini qo'yilishi, aksiyalar, boshqa pul mablag'larining, pay ulushlarini, harakatdagi va harakatsiz

mulk, avtorlik huquqlari, nau-xaular va boshqa shakllarda mablag'larni maqsadli joylashtirishni xarakterlaydi.



7.1-chizma. **Investitsiya faoliyatining obyekti va subyektlari**

Ta'sischilariga ko'ra; davlat, huquqiy tashkilotlar, jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari va tashkilotlari shakli bo'yicha; ichki investitsiya; tashqi, xorijiy investitsiya, moddiy asosligi bo'yicha; moddiy, real investitsiyalar, nomoddiy, intellektual investitsiya va boshqa turlarini ajratish mumkin.

7.1-jadval

Investitsiyalar turlari

Investitsiya				
Moliyaviy investitsiyalar		**Real investitsiyalar**		**Intelektual investitsiyalar**
Qimmatli qog'ozlarga investitsiya	Boshqa korxonalar aktivlariga investitsiya kiritish	Asosiy kapitalga investitsiya kiritish	Oborot kapitaliga investitsiyalar	Patentlar, litsenziyalar, nau-xau, ilmiy ishlanmalar, kadrlarni o'qitish, malakani ommalashtirish

7.2-jadval

Investitsion qarorlarni qabul etishdagi mezonlar		
Diskont ko'rsatkichlari	Kompleks ko'rsatkichlar (SVA-metodikasi bo'yicha)	Vaqt faktorini hisobga olmaydigan ko'rsatkichlar
Sof joriy qiymat (NPV)		
Rentabellikning ichki normasi (LRR)		Loyihaviy foyda maksimumi (ACBP)
Rentabellikning modifikatsiyalangan darajasi	-Rentabellikning ichki modifikatsiyalangan normasi (MIRR) -Investitsion kapitalning marjinal rentabelligi (MRIC)	Qoplanish muddati (PB)
Qoplanishning diskont muddati (DPV)		Rentabellikning hisob normasi (ARR)
Investitsion jozibadorlikning o'rtacha yillik ko'rsatkichi -	-yillik ekvivalenti xarajatlarning (AEC) -yillik sof joriy qiymati (ANPV)	Taqqoslama iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti (Ke)
Investitsiya rentabelligi indeksi (PI)		Kutiladigan iqtisodiy samara (Et)
Reinvestitsiyalash darajasini hisobga olgan holda korrektirovka qilingan ko'rsatkichlar	-Pul mablag'larini o'sish koeffitsiyenti (Ktw) -Pul mablag'larini reinvestitsiyalashni hisobga olgan holdagi sof joriy qiymati (NPVtw))	

Investitsion tahlil shartlariga quyidagilar kiritiladi:

– investitsiya hajmini baholash;

– investitsiyadan kutiladigan daromadni baholash;

– diskont stavkasini aniqlash (davr faktorini va risklarni hisobga olgan holda);

– tahlil metodlarini tanlash.

Daromadlik tahlilida o'rganiladigan masalalar:

– daromad qachon olinadi;

– qancha daromad olinadi;

– qancha muddatda olinadi;

– egalikni so'ngida mulkni sotishdan kutiladigan sof tushum kancha bo'ladi;

– daromadni olish ehtimoli qanchalik yuqori.

Investitsion tahlil o'zaro uzviylik va bog'liqlikdagi quyidagi bloklarni qamrab oladi:

- investitsiyalarning dastlabki tahlili;
- uzoq muddatli moliyalashtirishga talabi tahlili;
- investitsiyani moliyalashtirish mablag'larini baholash va tarkibiy tahlil etish;
- pul oqimlari loyihasini baholash va tahlil etish;
- investitsion loyihani amalga oshirishga inflyatsiya va soliqlar ta'siri tahlili;
- investitsion kapital bahosini tahlili;
- uzoq muddatli rejalashtirishga xavf-xatarlar ta'siri tahlili;
- Investitsiyalar samaradorligini tahlil etish;
- investitsiya portfelini tahlil etish;
- investitsiyaning tezkor tahlili;
- investitsiyaning reprospektiv tahlili.

7.2. Makroiqtisodiy investitsiya ko'rsatkichlari tahlili

Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlari iqtisodiyot rivojiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatmoqdaki, ishlab chiqarish hajmi yildan yilga tushib ketmoqda, korxonalar yopilmoqda, investitsion jadallik tushib bormoqda. Biroq, O'zbekiston Respublikasida kuchli o'ylangan, aniq chora-tadbirlar rejasi asosida olib borilayotgan islohotlar natijasida

aytish mumkinki sezilarli talofatlar yoki iqtisodiyotning shok holatiga tushib qolishidan ancha yiroq iqtisodiyotning poydevori mustahkam ekanligini yana bir bora isbotlamoqda. Bu poydevorning asosini albatta, kuchli qonunchilik tartib qoidalari, iqtisodiyotning erkin rivojlanishi va ongli tartibga solinishi, tadbirkorlikning qo'llab quvvatlanishining o'ziga xos milliy modelini yaratilganligi, mehnatkash xalqimizning farovonligiga erishishga bo'lgan umummilliy qiziqishlarining naqadar ustunligi bilan izohlash mumkin. Global iqtisodiyotda jiddiy muammolar saqlanib qolayotganligiga qaramay respublikamizda aniq belgilangan iqtisodiy dasturlar va ularda belgilangan muhim ustuvor vazifalarni amalga oshirish natijasida iqtisodiy rivojlanishning barqaror yuqori sur'atlari, makroiqtisodiy mutanosiblik, aholi hayot darajasining barqaror o'sishi va mamlakatning jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlash ta'minlanishiga erishib kelinmoqda. Iqtisodiy inqiroz davom etayotgan va jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari pasayib borayotgan bir sharoitda ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, sifatli, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda xizmatlarning zamonaviy turlarini ko'paytirish va nomenklaturasini kengaytirish, ishlab chiqarishning energiya sig'imini qisqartirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy qayta tashkil etish yillarida elektroenergetika sanoatida, neft-gaz kompleksi tizimida, metallurgiya, ximiya, neft va gazni qayta ishlash tarmoqlarida, transport va aloqa sohasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga muhim ahamiyat berib kelinganligi, ushbu sohalarning bugungi kunda davlatimiz iqtisodining muhim tayanchiga aylanganligini ko'rish mumkin.

2005-2012-yillarda amalga oshirilgan investitsion faoliyat ko'rsatkichlarini dinamik o'rganish asosida o'tgan davrda investitsiya hajmi 5.2 baravar o'sganligini (37778,1 dan 19689,6 mlrd so'mga ortganligini) ko'rish mumkin. Mazkur davrda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsion mablag'lar hajmi 83,8 %dan 95,1 % ga ortganligini, asosiy vositalarning kapital

remontiga qilingan sarflar 9,8 % dan 4,5 % ga tushganligini ko'rish mumkin.

Bu shundan dalolat beradiki keyingi yillarda mavjud asosiy vositalarni kapital ta'mirlash asosida ularni ushlab turishga yoki ishlab chiqarishda foydalanishning davriyligi oshirishga emas balki yangi asosiy vositalarni ishlab chiqarishga jalb etishga, ya'ni investitsion kapitalni yangilashga ahamiyat berilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Investitslash hajmini nafaqat o'tgan yillarga nisbatan ijobiy o'zgarishlarda, balki uning tarkibiy jihatlarida, moliyalashtirish manbalarida ham ko'rish mumkin.

7.3-jadval

Investitsiyalash hajmining dinamik o'zgarishlari

Yillar	Jami		Shu jumladan							
			Asosiy kapitalga		Asosiy vositalar tamiriga		Nomoddiy aktivlarga		Boshqa aktivlarga	
	mlrd so'm	%	mlrd so'm	%	mlrd so'm	%	mlrd so'm	%	mlrd so'm	%
2001	1604,5	100	1320,9	82,3	83,7	5,2	37,6	2,3	162,2	10.2
2005	3778,1	100	3165,2	83,8	369,2	9,8	20,3	0,5	223.4	5.9
2006	4819,2	100	4041,0	83,8	508,4	10,5	26,6	0,5	243.2	5.2
2007	6597,6	100	5903,5	83,5	612,3	9,3	81,7	1,1	402.4	6.1
2008	10686,6	100	9559,9	89,4	1061,4	9,9	69,3	0,7	-	-
2009	14500,4	100	13660,6	94,2	745,9	5,1	93,9	0,7	-	-
2010	16054,8	100	15338,7	95,5	665,0	4,1	51,1	0,3	-	-
2011	19689,6	100	18726,1	95,1	892,3	4,5	71,2	04	-	-

O'tgan davrlarda investitsion kapitalni joylashtirish yuzasidan qilingan ishlar samarasini yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rib o'tish mumkin. Investitsiya hajmining 2001-yilga nisbatan o'sish darajalari 2005-yilda 2,3 baravarni, 2010-yilda 9 baravarni, 2011-yilda esa 12,2 baravar o'sishiga erishilgan.

Uning tarkibiy tahlili yuzasidan shuni izohlash mumkinki investitsiyalash hajmida asosiy kapital yo'naltirilgan daraja o'tgan yillarda 82,3 foizdan 95,1 foizga ko'tarilgan. Mavjud asosiy vositalarni ta'mirlashga yo'naltirilgan mablag'lar summasining salmog'i esa yillar kesimida tushib bormoqda.

7.4-javdal

Asosiy kapitalga investitsiyalashni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

Yillar	Barcha manbalar bo'yicha investitsiyalar hajmi		Shu jumladan						
			Davlat budjeti	Korxona mablag'lari	Axola mablag'lari	Xorijiy inv.	Budjetdan tashqari manbalar	Qarz mablag'lari	Boshqa
	mlrd sum	%	%	%	%	%	%	%	%
2005	3165,2	100	12,3	46,1	11,4	10,6	4,8	14,8	-
2006	4041,0	100	10,4	48,4	11,8	11,9	6,8	10,7	-
2007	5903,5	100	8,0	45,7	10,9	19,1	5,7	10,5	0,1
2008	9559,9	100	8,3	41,2	8,7	24,1	6,1	11,3	0,3
2009	13660,6	100	7.1	37,0	9,8	14,6	4,8	23,3	3,4
2010	15338,7	100	5,6	33,0	16,0	13,1	3,2	24,9	4,2
2011	18726,1	100	5,7	33,4	17,8	12,9	3,5	22,9	3,8

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiya hajmining dinamik o'zgarishlaridan shuni izohlash mumkinki, 2005-yilda investitsiyalar hajmi 3165,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilga kelib ushbu miqdor 3 baravarga o'sgan holda 9559,9 mlrd so'mni, 2011-yilga kelib esa deyarli 6 baravarga o'sgan holda 18726,1 mlrd so'mni tashkil etgan.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ulush korxona mablag'lari, qarz mablag'lari va aholi mablag'lari hisobiga to'g'ri kelishini ko'rish mumkin.

Shuningdek, moliyalashtirish manbalari tarkibida, xorijiy investitsiyalarning hajmi ham sezilarli salmoqqa ega ekanligini ta'kidlash joiz.

Iqtisodiy rivojlanishning lokomotivi sifatida qaralayotgan bank tizimining rivojlanishi, kredit munosabatlarining faollashuvi natijasida, o'zaro manfaatli loyihalarni moliyalashtirishda qarz mablag'laridan samarali foydalanishga bo'lgan harakatlar jadallashganligini ko'rish mumkin. Agar 2005-2008-yillar bo'yicha jami investitsiyalar hajmida qarz mablag'lari salmog'i 10-15 foizni tashkil etgan bo'lsa 2009-yildan uning salmog'i 20 foizdan ortganligini ko'rish mumkin.

7.5-jadval

Respublika bo'yicha investitsion oqimning texnologik tarkibi

Yillar	Jami	Qurilish montaj ishlari	Mashina, uskuna, jihozlar	Boshqa xarajatlar
2001	100	48.2	39.5	12.3
2005	100	48.7	38.7	12.6
2006	100	49.6	38.1	12.3
2007	100	55.1	33.4	11.5
2008	100	42.2	43.9	13.9
2009	100	50.8	39.3	9.9
2010	100	52.1	39.0	8.9
2011	100	48.8	38.6	12.6

7.6-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalar kiritishning takroriy tuzilishi

Yillar	Asosiy kapialga investitsiya		Shu jumladan			
			Yangi kurilishga	Ishlab chiqarishni kengaytirish-ga	Rekonstruk-tsiya va moderniza-tsiyalashga	Boshqalar
	mlrd. sum	%	%	%	%	%
2001	753.2	100	40.8	12.0	46.8	0.4
2005	1338.8	100	31.9	19.7	47.6	0.8
2006	1645.2	100	41.7	14.3	42.8	1.2
2007	4507.2	100	42.2	18.4	25.2	14.2
2008	7203.4	100	51.2	10.6	23.4	14.8
2009	10111.8	100	60.0	3.8	22.0	14.2
2010	10733.7	100	51.7	3.9	25.1	13.9
2011	18726.1	100	55.2	1	25.9	18.9

Respublika bo'yicha 2001-2011-yillar oralig'ida investitsion oqimning texnologik tarkibini tahliliy kuzatishlar yuzasidan shuni ta'kidlash joizki o'tgan yillar davomida qurilish mantaj ishlari, mashina, uskuna va jihozlarni sotib olishga yo'naltirilgan mablag'lar salmog'i 85-90 foizni tashkil etgan. Shu jumladan

jami sarflangan mablag'larning 50 foizga yaqini va undan ortig'i qurilish mantaj ishlariga yo'naltirilgan

2001-yilda jami mablag' sarfining 48,2 foizi qurilish montaj ishlariga, 39,5 foizi mashina, uskuna va jixozlarni sotib olishga yo'naltirilgan bo'lsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarining boshlanishining dastlabki yillarida (2009) 50,8+39,3 foizi, 2010-yilda 52,1+39,0 foizi, 2011-yilga kelib esa 48,8+38,6 foizi yo'naltirilgan.

Asosiy kapitalga kirtilgan investitsiyalarning takroriy tuzilishi tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, 2001-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 753,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa 2005-yilda 1338,8 mlrd so'mni, 2008-yilga kelib 7203,4 mlrd so'mni hamda 2011-yilga kelib esa 18726.1 mlrd so'mga (2001-yilga nisbatan 25 baravarga) ortganligini ta'kidlash lozim.

7.7-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi

Yillar	Jami, mlrd so'm		Sanoat	Kishlok xo'jaligi	Trans-port	Aloqa	Savdo va umumiy ovkatlanish	Geologiya va razvedka	Uy joy kurilishi	Boshqa
	Mlrd sum	%	%	%	%	%	%	%	%	%
2001	1320.9	100	38.9	5.4	12.0	2.1	1.5	0.6	11.2	28.3
2005	3165.2	100	32.6	4.4	16.6	7.5	1.5	4.0	11.0	22.4
2006	4041.0	100	34.3	4.1	15.7	6.2	1.8	4.0	11.8	22.1
2007	5903.5	100	37.7	3.4	15.6	6.1	2.3	3.3	11.3	20.3
2008	9559.9	100	34.5	2.7	18.4	6.7	2.7	9.0	9.2	16.8
2009	13660.6	100	29.6	2.9	26.4	3.8	3.4	6.5	8.9	18.5
2010	15338.7	100	30.4	3.4	23.0	6.7	4.7	2.4	15.1	14.3
2011	18726.1	100	32.4	5.0	19.3	4.1	4.2	2.5	17.8	14.7

Mablag'larning yarmidan ortig'i yangi qurilishlarga sarflanganligini, chorak qismi va undan ortig'i korxonalarni rekonstruksiyalash va modernizatsiyalashga sarflanganligini ko'rish mumkin.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha investitsiyalarni yo'naltirilganlik darajasi ham o'tgan yillar bo'yicha iqtisodiyotni rivojlantirishning maqsadli dasturiy tizimida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda asosan sanoat sohasiga, transpot, uy-joy qurilishi sohalarida amalga oshirilganligini ko'rish mumkin. Agar 2001-yilda jami investitsiyalarning 38,9 foizi sanoat, 12 foizi transport sohasiga, 11,2 foizi uy-joy qurilishiga, 5,4 foizi qishloq xo'jaligi sohasiga yo'naltirilgan bo'lsa, 2011-yilda bu nisbatlar 32,4 %, 19,3 %, 17,8 %, 5,0 % darajasida ta'minlangan.

7.8-jadval

Saonat sektorlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi

Yillar	jami		Elektr energetika	Neft kazib chiqarish	Gaz	Rangli metallurgiya	Ximiya	Mashinasozlik	Kurilish mater. sanoati	Engil sanoat	Ozik ovqat	Boshqa
	mlrd so'm	%	%	%	%	%	%	%	%	%	%	%
2001	513.9	100	3.8	3.5	28.2	11.1	9.9	14.6	1.2	15.9	5.7	6.1
2005	1032.4	100	7.9	1.6	13.9	15.7	6.9	4.1	3.5	15.2	5.7	25.5
2006	1383.6	100	4.6	1.0	29.4	14.9	7.1	4.1	5.2	12.1	6.6	15.0
2007	2223.2	100	6.4	4.9	41.1	15.2	3.5	4.6	4.1	8.7	5.5	6.0
2008	3293.7	100	5.7	5.2	40.1	9.7	5.6	6.3	4.0	9.1	6.4	7.9
2009	4043.0	100	10.3	4.9	31.2	11.5	6.6	10.6	6.6	6.3	6.0	6.0
2010	4659.9	100	16.7	4.3	17.9	17.0	4.2	11.2	8.3	8.4	5.4	6.6
2011	6070.3	100	13.5	4.7	23.6	11.7	3.0	13.6	4.4	10.5	4.9	10.1

Saonat sektorlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibiy tahlilidan shuni kuzatish mumkinki investitsiyalarning sanoat sektorlari bo'yicha tarikiblanishida asosiy ulush gaz, energetika, mashinasozlik, rangli metallurgiya, yengil sanoat hissalariga to'g'ri keladi. 2011-yilga kelib jami sanoatga yo'naltirgan investitsiyalarning 23,6 foizi gaz sanoati sohasiga, 13,6 foizi mashinasozlik sanoatiga, 13,5 foizi elektr energetika

sohasiga, 11,7 foizi rangli metallurgiya sohasiga, 10,5 foizi yengil sanoatga, 4,9 foizi oziq-ovqat sanoatiga, 4,7 foizi neftni qazib chiqarish sanoatiga, 4,4 foizi qurilish materiallari sanoatiga, 10,1 foizi sanoatning boshqa sohalariga yo'naltirilganligini ko'rish mumkin.

7.9-jadval

Kapital qo'yilmalar dinamikasi va tarkibi

	Kapital qo'yilmalar (mln dollar)			Kapital qo'yilmalar tarkibi (foizda)		
	1990 yil	2000 yil	2010 yil	1990 yil	2000 yil	2010 yil
Kapital qo'yilmalar	833,8	3142,5	9712,7	100	100	100
Shu jumladan:						
Davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar mablag'lari va boshqa markazlashtirilgan manbalar	386,1	958,1	1266,6	46,3	30,5	13
Markazlashmagan investitsiyalar	447,7	1456,9	5621,6	53,7	46,3	57,9
Korxonalar mablag'lari	342,7	852,9	3124,4	41,1	27,1	32,2
Aholi mablag'lari	105,5	376,6	1554,2	12,6	12,0	16
Bank kreditlari va boshqa kredit mablag'lari	-	227,4	943,0	-	7,2	9,7
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	-	727,5	2824,0	-23,2	-	29,1
Shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar	-	105,2	2454,7	-	3,4	25,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi

Shuningdek, 2012-2016-yillar oralig'ida yangi va raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, ishlab chiqarishni texnik va texnologik rekonstruksiyalash va modernizatsiyalashga qaratilgan qiymati 6,2 mlrd dollarga teng bo'lgan 270 dan ortiq investitsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha hukumat topshiriqlari belgilangan.

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishilishi, iqtisodiy va institutsional islohotlarning chuqurlashtirilishi hamda mamlakatimizda investitsiya muhitining yaxshilanishi investitsiya faolligining sezilarli darajada kuchayishiga va iqtisodiyotimizga yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalar hajmining 2010-yilda 1990-yildagiga nisbatan 11,6 barobar o'sishi uchun imkon berdi. Ayniqsa, moliyalashtirish manbalari bo'yicha investitsiyalar tarkibida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Iqtisodiyotimizdagi ancha yuqori o'sish sur'atlari hisobidan markazlashmagan manbalar, birinchi navbatda xususiy va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi ortib bormoqda.

Xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni rag'batlantirishga qaratilgan butun bir chora-tadbirlar majmuasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi. Natijada 2010-yilda xorijiy investitsiyalarning jami kapital qo'yilmalar tarkibidagi ulushi 29,1 foizni, jumladan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 25,3 foizni va hukumat kafolati ostidagi investitsiyalar 3,8 foizni tashkil etdi.

Agar 1990-yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning 46 foizdan ortig'i davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar va boshqa markazlashgan manbalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, 2010-yilda markazlashgan moliyalashtirish manbalarining jami kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 13 foizga tushdi. Bu jarayonda davlat budjeti va boshqa markazlashgan manbalar hisobidan yo'naltirilgan umumiy investitsiyalar hajmi 3,3 barobardan ziyod ortdi.

1990-2010-yillarda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasidagi aniq maqadga yo'naltirilgan siyosat natijasi sifatida ishlab chiqarishga jalb qilingan investitsiyalarning ulushi o'sib, umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi 58,3 foizdan 73,5 foizga yetdi.

Faol investitsiya siyosati iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. O'zbekistonning investitsiya strategiyasida yangi va yuksak texnologiyalarga asoslangan, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarimizni chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan,

mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. 1990 – 2010-yillar davomida investitsiyalar tarkibida yoqilg'i-energetika sohasini (5,2 foizdan 11,8 foizga), transport va aloqa sohasini (5,4 foizdan 29,9 foizga) hamda metallurgiya sohasini (0,1 foizdan 5,5 foizga) rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi ortdi.

7.1-diagramma

Jalb etilgan investitsiyalar tarkibi



Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi

Yangi ishlab chiqarish obyektlarini tashkil etish hamda mavjud ishlab chiqarish koxonalarini modernizatsiya qilish uchun mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va yoqilg'i-kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati sohalariga yirik kapital qo'yilmalar yo'naltirildi, bu esa iqtisodiyotga jalb qilingan kapital qo'yilmalar tarkibida ushbu tarmoqlar ulushining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investit-

siya loyihalarini amalga oshirishda jahondagi eng yirik va mashhur AQShning «Jeneral Motors», «Teksako», Germaniyaning «MAN», «Daymler Bents», «Klaas», Buyuk Britaniyaning»BAT», Ispaniyaning «Maksam», Yaponiyaning «Isuzu», «Ito-chu», Malayziyaning «Petronas», Koreyaning «Korean Eyr»,»CNOC», «LG», Xitoyning «SNPC», Rossiyaning «Lukoyl»,»Gazprom» kabi kompaniyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xalqaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va bir qator arab davlatlarining investitsiya banklari mamlakatimizning asosiy hamkorlari bo'lmoqda.

7.10-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yilmalar tarkibi

(foiz hisobida)

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Jami	100	100	100
Ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha	58,3	57,5	73,5
Yoqilg'i-energetika	5,2	7,6	11,8
Metallurgiya	0,1	2,7	5,5
Kimyo va yoqilg'i-kimyo	1,4	7,9	1,2
Mashinasozlik	3,6	4,1	3,4
Yengil sanoat	2,5	2,4	2,5
Oziq-ovqat sanoati	2,3	2,5	1,7
Qurilish materiallari	1,7	0,3	2,5
Qishloq xo'jaligi	26,7	5,7	3,5
Transport va aloqa	5,4	16,8	29,9
Boshqa sohalar	9,4	7,5	11,5
Noishlab chiqarish tarmoqlar bo'yicha	41,7	42,5	26,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi

Investitsiya va sanoat sohasidagi faol siyosat natijasi sifatida mustaqillik yillarida yurtimizda yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi avtomobil zavodlari tashkil etildi. Jahondagi yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-

kimyo majmuasi, Qo'ng'irot soda zavodi, o'nlab to'qimachilik majmualari barpo etildi.

Iqtisodiyotning yetakchi, avvalambor bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni va shuningdek, samarali tarkibiy o'zgarishlar va investitsiya siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2006-yilda tashkil etilgan Nizom fondi, bugungi kunda qariyb 7 milliard dollardan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi muhim o'rin egallamoqda. Jamg'armaning eng asosiy vazifalaridan biri – iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari rivoji, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat. Hozirgi paytda Jamg'armaning investitsiya portfelida umumiy qiymati 18,5 milliard dollardan ortiq 55 investitsiya loyihasi mavjud.

Shuning 4,3 milliard dollari Jamg'arma mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladi. Jamg'arma faoliyat yuritayotgan davr mobaynida umumiy qiymati 1,7 milliard dollarni tashkil etadigan 16 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi qurilishi, Xonjiza polimetall konini o'zlashtirish loyihasi, Qamchiq dovoni orqali «Ohangaron –Pungan» magistral gaz tarmog'ining qurilishi, «Farg'onaazot»va «Maksam – Chirchiq» ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida yirik ammiak agregatlarining rekonstruksiya va modernizatsiya qilinishi, 500 KVtli «G'uzor» kichik stansiyasi va «Surxon» kichik stansiyasi yuqori voltli liniyasi qurilishi, Pomuq va Dengizko'l konlarida siqish kompressor stansiyalarining barpo etilishi, Qo'ng'irot kompressor stansiyasidagi gaz namini qochirish qurilmasi, Qarshi kaskadi nasos stansiyalarining rekonstruksiya qilinishi, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasining havo flotini yangilash loyihalari, 400 ta «Mersedes-Bents» rusumli yo'lovchi tashish avtobuslarini xarid qilish loyihalari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, umumiy qiymati 5,7 milliard dollarga teng bo'lgan investitsiya loyihalari amalga oshirilish ko'zda tutilgan.



Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi

7.2-chizma. **Tashqi investitsiyalar dinamikasi**

Ularning sirasiga Sho'rtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metanni qayta ishlash bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish zavodini barpo etish, Yangi «Angren» ko'mir konini modernizatsiya qilish orqali Angren issiqlik elektr stansiyasining 1–5-sonli energiya bloklarini yil bo'yi ko'mir asosida ishlash tizimiga o'tkazish, Navoiy va Toshkent issiqlik elektr stansiyalarida bug'-gaz moslamalarini qurish, Toshkent – Samarqand temir yo'l yo'nalishida foy-dalanish uchun «Talgo – 250» yuqori tezyurar elektropoezd-larini xarid qilish, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatini kompleks modernizatsiya qilish kabi loyihalar kiradi.Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hal etadigan yana bir muhim vazifa xorijiy investorlar, moliya institutlari va sheriklarni investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish va amalga oshirish maqsadida mamlakatimizga keng jalb etish hisoblanadi. Jamg'armaning qo'shma loyihalarda ishtirok etishi Osiyo taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Islom taraqqiyot banki, Xitoy eksport-import banki, Xitoy Davlat taraqqiyot banki, Koreya taraqqiyot

banki, boshqa xorijiy moliya institutlari, bank va kompaniyalarning mablag'lari hisobidan 3,2 mlrd dollardan ziyod chet el investitsiyasi va kreditlarini jalb etish imkonini berdi.

7.3. Investitsiyalar samaradorligini baholash usullari

Samara, samaradorlik tushunchalari jarayonlar yutug'iga, natijaviyligiga nisbatan ishlatiluvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Iqtisodiy mazmunda samara va samaradorlik deganda ishlab chiqarish hajmining o'sishi, xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini ortishi, milliy daromadning o'sishi tushuniladi.

Kapital qo'yilmalar, investitsiyalar samaradorligini baholash yuzasidan qator namunaviy metodikalar ishlab chiqilgan.

Investitsion loyihalar samaradorligini aniqlash usullari haqidagi gap ketganda uning daromadligi, rentabelligi va qoplanish muddatlarini aniqlash ussullari haqidagi yondashuvlar nazarda tutiladi. Xalqaro amaliyotda investitsiyalar samaradorligini baholashda foydalaniladigan asosiy usullarga quyidagilar kiritiladi.

1. Diskontlash asosida aniqlanadigan quyidagi usullar:
- sof joriy qiymat (sof kutilgan samara) NPV;
- investitsiyaning rentabelligi indeksi PI;
- investitsiyaning ichki rentabelligi normasi IRR;

2. Hisob baholashlariga asoslangan usullar:
- Qoplanish muddatiga (RR);
- Investitsiya samaradorligi koeffitsiyenti (ARR).

Sof joriy qiymatni aniqlash – loyihadan olinadigan sof daromadni aniqlash xarakterlaydi va diskontlangan pul oqimlari summasidan investitsiyaga yo'naltirilgan jami summani farqlash orqali hisob-kitob qilinadi.Ya'ni:

Sof joriy qiymat = Loyihadan kutilayotgan pul oqimi qiymati – Jami investitsiya summasi

G'arb amaliyotida sof joriy qiymat (sof kutiladigan qiymat)ni ushbu usulga o'xshash, diskontlangan pul mablag'larining kelgusidagi tushumini xarakterlovchi (Net present value — NPV), hamda jami investitsiya summasini aniqlash (invest cost — 1S) birliklaridan iborat quyidagi formulasidan foydalaniladi:

$$NPV = \sum_{i=1}^{n} FV_n \frac{1}{(1+r)^n} - IC \qquad (7.1)$$

Bunda ΣFVn — loyihadan kelgusida tushadigan tushumlarning;

r — Loyihaning daromadligi;

IS — Investitsiya summasi.

Daromadlik indeksini aniqlash orqali xarajatlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan daromad darajasi aniqlanadi. Rentabellik darajasi pul oqimlarining sof joriy qiymatini boshlang'ich investitsiyaning jami summasiga nisbati orqali hisob-kitob qilinadi. G'arb amaliyotida ushbu usul investitsiya rentabelligini aniqlash indeksi sifatida qaraladi (profitability index — PI).

Investitsiya rentabelligini hisob-kitobini quyidagi bog'lanishlar orqali topish mumkin.

$$PI = \sum_{i=1}^{n} \frac{FV}{(1+r)^n} : IC \qquad (7.2)$$

Amaliyotda, rentabellik normasini aniqlashda sof joriy qiymatni boshlang'ich investitsiyalarning joriy qiymatiga nisbatlash asosida aniqlanadi. Ushbu daraja boshlang'ich investitsiyaga yo'naltirilgan kapitalning har bir so'miga to'g'ri keladigan joriy qiymatni ifodalaydi.

$$\text{Rentabellikning ichki normasi} = \text{(Sof joriy qiymat / Boshlang'ich investitsiyaning joriy qiymati)} \cdot 100\% \qquad (7.3)$$

G'arb amaliyotida unga o'xshash, analog usul (internal rate of return — IRR) ikki xil maqsadda hisob-kitob qilinadi.

1) Jalb qilingan mablag'lar hisobiga loyihani moliyalashtirishda yo'l qo'yish mumkin bo'lgan foizlik xarajatlarini aniqlash;

2) (NPV)va (PI) usullarini qo'llagan holda loyihalar bahosini tasdiqlash.

4. Rentabellik normasi deganda (IRR) daromadlikka (r) tengligi yoki (r) funksiyasidagi sof joriy qiymatning (NPV) nolga tengligi tushuniladi.

$$\mathbf{IRR = r,\ NPV\ (f\ (r)) = 0.}$$

Investitsiyaning rentabellik normasi (IRR) quyidagi bog'lanish orqali hisob-kitob qilinadi:

$$IRR = r_1 + \frac{r_1}{f(r_1) - (r_2)}\ (r_2 - r_1) \qquad (7.4)$$

$$\textbf{Rentabellikni ichki normasi} = \textbf{(diskontlash stavkasi bo'yicha hisob-kitob qilingan sof joriy qiymat} \cdot \textbf{100\% / (Investitsiyaning boshlang'ich summasi).} \qquad (7.5)$$

Qoplanish muddatini hisob-kitob qilish. Ushbu usul orqali qancha muddatda investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larning to'liq qaytarilishi hisb-kitob qilinadi. Qoplanish muddati qanchalik qisqa bo'lsa loyihaning likvidligi shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha. Likvidlilik qanchalik yuqori bo'lsa investitsiyalash tahlikasi (risk) shunchalik kam bo'ladi yoki aksincha. Investitsiya samaradorligini baholashda shuningdek, qoplash muddatini aniqlashda oddiy buxgalteriya foyda normasini hisoblash usulidan ham foydalaniladi. G'arb amaliyotida ushbu usul analogi sifatida investitsiyaning samaradorlik koeffitsiyentini aniqlash (accounting rate of return -ARR).usulidan foydalaniladi

Buxgalteriya foyda normasi usulida loyiha rentabelligini aniqlash quyidagi bog'lanishlar orqali topiladi:

$$\textbf{Loyiha rentabelligi} = \textbf{(Sof foyda + Amortizatsiya ajratmalari / Investitsiya qiymati)} \cdot \textbf{100\%} \qquad (7.56)$$

Investitsiya samaradorligini koeffitsiyenti (ARR) quyidagi formula orqali hisob-kitob qilinadi:

$$ARR = \frac{PN}{½(IC - RV)} \qquad (7.7)$$

Bunda ARR —Investitsiyaning samaradorlik koeffitsiyenti;

PN —loyihaga qo'yilgan mablag'larga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik foyda summasi

IS — loyihaga yo'naltirilgan mablag'lar summasi (investitsiya summasi);

RV — aktivlarning likvidatsiya qiymati (aktivlarning foydalanish muddati tugagandan keyingi qoldiq qiymati).

Investitsion loyihalarni korxonada baholashda tahlilning metodik jihatlarini quyidagi amaliy ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz.

7.11-jadval

Investitsion loyihalar va ulardan kutiladigan daromadlar

	1-loyiha	2-loyiha
Investitsiya hajmi ming so'm	100000	100000
Daromad:		
Birinchi yili	50000	25000
Ikkinchi yili	38800	25000
Uchinchi yili	18000	25000
To'rtinchi yili	10000	25000
Beshinchi yili	4000	25000
Oltinchi yili	-	25000
Jami:	120000	150000

Birinchi loyihaning qoplanish muddati

Km=2yil+100000-88800/180/12=2 yil 8 oy

Ikkinchi loyihaning qoplanish muddati

Km=100000/25000=4 yil

Investitsiyaning qoplanish davriyligi qo'yilgan mablag'-larning qaysi muddatda oqlanishini xarakterlaydi. Qaysi loyihaning qoplanish muddati qisqa davriylikka ega bo'lsa ushbu loyihani moliyalashtirish samarali deb baholanadi.

O'z-o'zidan ma'lumki birinchi loyiha ikkinchi loyiha nisbatan 1 yil 4 oyga tez qoplanish muddatiga ega. Shu sababli birinchi loyiha, ikkinchi loyihaga nisbatan imkoniyatli hisoblanadi. Lekin loyihaning daromadligiga kelsak ikkinchi loyiha birinchi loyihaga nisbatan ko'proq foyda olib keladi. Ya'ni birinchi loyihaning daromadligi 120000 ming so'mni,

ikkinchi loyihaning daromadligi 150000 ming so'mni tashkil etadi.

Shu sababli investitsiyalar tahlilida faqat ularning qoplanish muddatiga emas balki samaradorligiga ham baho beriladi.

Investitsiya samaradorligini investitsiyalashdan kutiladigan daromad darajasi belgilab beradi.

Yuqoridagi misol bo'yicha amaldagi loyihalarning samaradorligi quyidagicha baholanadi.

7.12-jadval

Investitsion loyihalar samaradorligi

Ko'rsatkichlar	Birinchi loyiha	Ikkinchi loyiha	Farqi
Investitsiya hajmi	100000	100000	-
Investitsiya daromadligi	120000	150000	+30000
Rentabellik*	120%	150%	30%

*-Rentabellik=Investitsiya daromadi/Investitsiya hajmi*100

Samaradorlik yuzasidan birinchi loyiha emas balki ikkinchi loyiha ko'proq naflilikka ega.

Investitsiyalashdan sof kutiladigan samarani aniqlashda loyiha talab qilinadigan xarajatlarning joriy qiymati, loyihani amalga oshirishdan keladigan kelgusida pul oqimlarini joriy qiymati hisob-kitob qilinadi.

Loyihani amalga oshirishdan keladigan kelgusida pul oqimlarini joriy qiymati (PV) quyidagicha hisob-kitob qilinadi.

$$PV=\sum_{n=1}^{} \frac{CF}{(1+r)^n}=20000*0.909+16000*0.826+12000*0751=40408 \text{ ming so'm}$$

Investitsiyalashdan kutiladigan sof samaradorlik darajasi loyiha uchun talab qilinadigan xarajatlarning joriy qiymati (IC) bilan loyihani amalga oshirishdan keladigan pul oqimlarining joriy qiymatini farqlash asosida topiladi.

$$NPV= PV-ICo=\sum_{n=1}^{} \frac{CF_n}{(1+r)^n} -ISo=40408-36000=4408 \text{ ming so'm}$$

Agar NPV >0 bo'lsa loyihadan kutiladigan daromad yuqori deb;

NPV<0 bo'lsa loyihadan kutiladigan daromad bozor ko'rsatkichidan past darajada deb (ushbu holatda pulni bankda saqlash foydali hisoblanadi)

NPV=0 bo'lsa loyiha foydali ham. zararli ham emas deb qaraladi.

Misol. Korxona investitsion faoliyatga yo'naltirgan mablag'-lar hajmi-36000 ming so'mni tashkil etadi. Shundan faoliyatning birinchi yili 20000 ming so'm pul tushumi (daromad), ikkinchi 16000 ming so'm hamda uchinchi yili 12000 ming so'm olinishi kutilmoqda.

7.13-jadval

Sof kutilgan qiymatni aniqlash

	Kutilgan daromad hajmi				
Investitsiya hajmi*	Birinchi yili	Ikkinchi yili	Uchin-chi yili	Jami daromad	
3600	20000	16000	12000	48000	
1.000	0.909	0.826	0.751	x	Investitsiyalangan pulning joriy qiymati koeffitsiyenti $(1+r)^n$
36000	18180	13216	9012	40408	Kelgusi daromadlarning joriy qiymati

*-Kapitalning yillik daromad foizi 10%

Sof kutilgan qiymat summasi (NVP)= 40408-36000=4408 ming so'm

4. Daromadning ichki normasi (IRR) quyidagi bog'lanishlar asosida hisob-kitob qilinadi.

$$\sum_{n=1}^{} \frac{CF_n}{(1+IRR)^n} - Ico=0 \qquad (7.8)$$

Agar aniqlangan natija diskont stavkasidan ortsa yoki unga teng bo'lsa investitsiya samarali deb baholanadi. Mazkur usul sof joriy qiymatni aniqlashning teskari ifodasi hisoblanadi.

7.4. Ichki investitsiyalar tahlili

Kapital qo'yilmalarni amalga oshirish, boshqa firma, kompaniyalar aksiyalarini sotib olish, litsenziya huquqlari va boshqa holatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida har bitta firma va kompaniyaning muhim faoliyat yo'nalishlariga aylanib

bormoqda. Albatta firma va kompaniyalar ishlab chiqarish faoliyatini yaxshilash, uni qayta tashkil etish, kengaytirish, rekonstruksiyalash, harakatchan va noharakatchan aktivlarni joylashtirishda o'z manbalariga tayangan holda ish ko'radilar. Zaruriyat tug'ilgan hollarda qarz munosabatlarini yo'lga qo'yadilar.

Ichki investitsiyalar firma va kompaniyalarning o'z resurslarini foyda olish maqsadida joylashtirishini xarakterlaydi.

Ichki investitsiya manbalariga firma va kompaniyalarning sof foydasi, amortizatsiya ajratmalari, erkin pul mablag'lari, bank kreditlari va qarz mablag'lari, budjet va budjetdan tashqari mablag'lari kiradi. 2011-2012-yillarda investitsiyalarni manbalashdagi holat quyidagi darajada bo'lgan.

7.2-jadval

Investitsiyani moliyaviy manbalashni holati haqida ma'lumot

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
Investitsiya hajmi	100	100
Moliyaviy manbalashdagi holati		
Respublika budjeti	29,2	23,1
Korxonalar va aholi mablag'lari hisobiga	39,1	38,8
Tashqi investorlar mablag'lari hisobiga	23,2	29,3
Bank kreditlari va qarz mablag'lari hisobiga	7,2	8,7
Budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga	1,3	0,1

Ichki investitsiyalarni tahlil etishda ular yuzasidan tuzilgan loyihalar samaradorligi, natijaviyligiga, investitsion xarajatlar va ularning moliyaviy manbalashning holatiga, investitsion loyihalarning oqlanish muddati va tahlikalariga baho beriladi.

Firma va kompaniyalarda ichki investitsiyalarni tashkil etishni muhim yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin;

- asosiy kapitalni shakllantirishga mablag'larni qo'yish;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish va boshqa korxonalar ustav kapitalida xissali qatnashish;
- kapital qo'yilmalarni amalga oshirish;
- ishlab chiqarishni kengaytirish va rekonstruksiyalash;
- kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish;

- sho'ba va assosatsiyalangan korxonalarda xissali qatnashish;

- xorijiy firma va kompaniyalar faoliyatiga mablag'lar qo'yish va band etish.

7.5. Tashqi (xorijiy) investitsiyalar tahlili

Respublikamiz iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va o'rnini shu bilan izohlash mumkinki, ularning kiritilishi ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etishni, texnik yangilash, mahsulotlar sifatini oshirish va uni jahon bozoriga olib chiqish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish imkonini beradi.

Tashqi investitsiya yuzasidan puxta qonunchilik tizimini yaratilganligi, respublikamizdagi ijtimoiy muhitni yaxshiligi, undagi tinchlik va osoyishtalik, arzon mehnat va moddiy resurslarning mavjudligi, mamlakatimizning geografik muhim hududda joylashganligi xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, qo'shma korxonalarni ko'plab ochilishiga zamin yaratmoqda.

Respublika hududlarining istiqbolli sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Iqtisodiyot vazirligi va Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan kelishuvga asosan hududiy investitsiya dasturlari ishlab chiqilgan.

2012-yil uchun hududiy investitsiya dasturi barcha manbalar bo'yicha umumiy qiymati 1163,3 mln AQSh dollariga teng investitsiyalarni jalb qiluvchi 1184 loyiha qamrab olingan. (Bu ko'rsatgich 2011-yildagiga qaraganda 138,3 % foizni tashkil etadi.)

2012-yil uchun hududiy investitsiya dasturlarini amalga oshirish tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini 2545,3 milliard so'mga, eksportning umumiy hajmini 301,9 million AQSh dollariga oshirilishiga hamda 25,1 ming yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

2012-yil holatiga ko'ra Hududiy investitsiya dasturi doirasida 1250 loyiha o'zlashtirilgan.

Hududiy investitsiya dasturi doirasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar quyidagi sohalarga jalb etilgan:

- yengil sanoat (74 ta loyiha) ;
- xizmatlar (35 ta loyiha);
- kimyo va neft-kimyo sanoati (38 ta loyiha);
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish (28 ta loyiha);
- oziq-ovqat sanoati (22 ta loyiha);
- meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash (16 ta loyiha);
- qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish (9 ta loyiha);
- metallga ishlov berish (9 ta loyiha);
- qurilish (5 ta loyiha);
- avtomobilsozlik-detallar ishlab chiqarish (4 ta loyiha);
- charm qayta ishlash va poyabzal ishlab chiqarish (19 ta loyiha);
- turizm (5 ta loyiha);
- farmatsevtika (8 ta loyiha);
- iqtisodiyotning boshqa sohalari (41 ta loyiha).

Jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jo'g'rofiyasi shuni ko'rsatadiki, ularning asosiy ulushi Buyuk Britaniya, Xitoy, Kipr, Rossiya, Shveytsariya, Turkiya, AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya va boshqa mamlakatlarga to'g'ri keladi.

O'zbekiston – Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni hamda mintaqaning to'laqonli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi yetakchi industrial davlat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy iqtisodiyoti xorijiy investorlarga taqdim qilayotgan afzalliklardan biri-siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, tabiiy-iqlim sharoitining qulayligi, arzon ishchi kuchi, mehmondo'stlik va mehnatsevarlik hamda boshqa jihatlardir. Barcha afzalliklar sirasidan O'zbekistonda biznes boshlashning muhim omillaridan biri bu xomashyo bazasining ko'pligi, yirik mintaqaviy bozorlarning markazida qulay geografik joylashuvi, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yer va havo transporti tizimi, diversifikatsiyalashgan sanoat bazasi va respublikaning ilmiy-intellektual, kadrlar salohiyatining mavjudligi bilan izohlanadi.

2012-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 2011-yilning shu davriga nisbatan qariyb 100,5 foizni tashkil etib, 26,4 mlrd AQSh dollariga teng bo'ldi. Shu jumladan, umumiy eksport hajmi 2011-yilga nisbatan 111,6 foiz yoki 13,1 mlrd. AQSh dollarini, import esa 109 foiz yoki 12,0 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

Shu o'rinda, 2012-yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 2123,6 million dollarni tashkil etganini alohida ta'kidlamoq lozim.

7.13-jadval

Eksport hajmi

EKSPORT	JAMI		
	2012-yil uchun	**2011-yilga nisbatan (% da)**	**Natijaga nisbatan (%da)**
Jami:	**13 150,1**	**111,6**	**100**
paxta tolasi	1 259,7	93,5	9,6
iste'mol tovarlari	878,4	44,1	6,7
kimyoviy mahsulotlar va ulardan yasalgan buyumlar	764,8	91,2	5,8
yoqilg'i va neft mahsulotlari	4 921,2	177,1	37,4
qora va rangli metallar	1 055,2	94,6	8,0
mashina va uskunalar	917,7	91,9	7,0
xizmatlar	2314,2	130,6	17,6
boshqalar	1034,9	48,8	7,9

7.13-jadval

IMPORT	JAMI		
	2012-yil uchun	2011-yil-ga nisba-tan (%da)	Natijaga nisbatan (%da)
Jami:	12026,5	109	100
Iste'mol tovarlari	1187,5	119,4	9,9
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan	1738,1	122,2	14,4

yasalgan buyumlar			
Yoqilg'i va neft mahsulotlari	875	90,2	7,3
Qora va rangli metallar	937,9	108,7	7,8
Mashina va uskunalar	5461,3	109,3	45,4
Xizmatlar	730,3	130,1	6,1
Boshqalar	1096,4	88,9	9,1

O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi natijasida 160 dan ortiq mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatilgan bo'lib, natijada esa, uning tashqi savdo geografiyasi yildan yilga kengayib bormoqda. 2011-yilda O'zbekiston tashqi savdosida MDH davlatlarining ulushi 44,7% bo'lib, shundan Rossiya (26,2%), Ukraina (2,6%), Qozog'iston (10,9%), Tojikiston (0,5%), Turkmaniston (1,8%), Qirg'iziston (0,6%), ulushga ega bo'lsa, uzoq xorij davlatlarining eksportdagi ulushi 55,3% bo'lib, unda: Xitoy (10,2 %), Janubiy Koreya (6,4 %), Turkiya (4,7 %), Afg'oniston (3,1%), Germaniya (2,2 %), Eron (1,7 %) ulushni tashkil etgan.

Investitsion faoliyatga ta'sir etuvchi asosiy jihatlar quyidagilardan iborat.

Iqtisodiy va moliyaviy faktorlar:

- soliq tizimi;
- bank tizimining ishonchligi, rivojlanishi va barqarorligi;

7.14-jadval

Investitsiyalar tarkibi

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalarning tarkibi (%)		
	2010-y.	2011-y.
Jami:	100 %	100 %
Ishlab chiqarish yo'nalishida	86,2	84,3
Sanoat va qurilish	48,4	42,7
Qishloq xo'jaligi	2,4	5,2
Transport va aloqa	30,2	30,9
Boshqa sohalar	5,1	5,5
Noishlab chiqarish yo'nalishida	13,8	15,7

- budjet daromadligi(defitsiti);
- energetik resurslar ta'riflarining o'zgarishi;

– inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Ijtimoiy siyosiy faktorlar:

– siyosiy barqarorlik;
– demografik jarayon;
– aholining real daromadlari;
– ishsizlikning darajasi;
– kriminal holat darajasi va boshqalar.

Huquqiy faktorlar:

– qonunchilik bazasining yaratilganligi;
– me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilganligi;
– qonunchilik bazasining ishlash holati va boshqalar.



7.3-chizma. **O'zbekiston Respublikasiga kiritilgan investitsiyalarning dinamik o'zgarishi**

Glossariy

Investitsiya – bu barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijodiy samaraga erishishdir.

Real investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) – pul mablag'larini korxonaning moddiy va moliyaviy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Moliyaviy investitsiyalar – bu asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi.

Shaxsiy investitsiyalar-bu tadbirkorlar, xususiy firmalar, konsernlar va aksionerlik jamiyatlari tomonidan taqiqlanmagan

faoliyatlarga sarflanadigan mulkdorlik va intellektual boyliklarni anglatadi.

Investor – investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs

Investitsiya subyektlari – investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir.

Investitsiyalar turi- institutsional investorlar, yakka investorlar.

Institutsional investorlar – mutaxassislar bo'lib, ularga begonalarning pulini boshqargani uchun haq to'laydilar.

Investitsiya jarayoni-pul taklif qiluvchilar(vaqtincha bo'sh mablag'larga ega bo'lganlar)ni pul talab qilayotganlar (ularga ehtiyoj sezayotganlar) bilan uchrashtirish mexanizmidir.

Yakka investorlar-o'z moliyaviy manfaatlari uchun shaxsiy mablag'larini tasarruf etadilar.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Investitsiya tushunchasi va uning mazmunini ochib bering?
2. Kapital qo'yilmalar nima?
3. Investitsiya obyektlari?
4. Investitsiya subyektlariga kimlar kiradi?
5. Investitsion tahlilni kimlar amalga oshiradi?
6. Investitsiyalarning moliyaviy tahlili mazmunini ochib bering?
7. Investitsiyani qanday shakllari mavjud?
8. Investitsiyalarni moliyaviy manbalashga qanday manbalar kiradi?
9. Investitsion kapitalni dastlabki va kelgusi qiymatlari qanday aniqlanadi?
10. Investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil etish maqsadi va vazifalari nimada?
11. Investitsion loyihalar moliyaviy tahlil etishning mazmunini tushuntirib bering?
12. Loyihalar samaradorligini baholash qanday amalga oshiriladi

13. Investitsion loyihalar tahlilida o'rganiladigan asosiy jihatlar?

14. Investitsiyalarni jalb etishda marketing tadqiqotlarining roli nimada?

15. Korxonalarning investitsion faolligini baholash mezonlariga izoh bering?

16. Investitsion tahlilni axborot manbalariga nimalar kiradi?

17. Investitsion loyihalarni tuzib chiqishda tahliliy amallar qanday rol tutadi va ularning samaradorligini belgilab beruvchi jihatlar nimada?

18. Investitsion xavf-xatarlar (risklar) tahlili nima?

19. Investitsiyalarni jozibadorligini tavsiflang?

20. Investitsion qarorlar va ularni ijrosida tahlilchi ekspertlarning roli nimada?

21. Iqtisodiyot rivojida alohida olingan korxonalarning investitsion faoliyati qanday o'rin tutadi?

22. Investitsion faollikda inflyatsiya ta'sirini izohlab bering?

23. Investitsion jarayonda amortizatsiyalash va foydaning kapitallashuvi qanday rol o'ynaydi?

24. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi ustivor jihatlar nimada?

25. Investitsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni tarkiblang va ularni tavsiflab bering?

26. Investitsion jarayondagi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, obyektiv va subyektiv omillarni izohlang

27. Davlatning iqtisodiy qudrati va rivojlanish dinamikasi korxonalardagi investitsion jarayonga ta'sir etadimi?

1-ilova

Uzoq muddatli aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Db	Do	F
Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti	Aqq/Bq			
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti	Aeq/Bq			
Asosiy vositalarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi koeffitsiyenti	O'mm+Umkq/A			
Nomoddiy aktivlar yaroqlilik koeffitsiyenti	NAqq/NAbq			
Nomoddiy aktivlar eskirish koeffitsiyenti	NAeq/NAbq			
Nomoddiy aktivlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	O'mm+Umkq/NA			
Kapital qo'yilmalarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	O'mm+M/KQ			
Uzoq muddatli investitsyalarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	O'mm+Umkq/Umi			
Uzoq muddatli investitsiyalarning qoplanish koeffitsiyenti	ST/Umi			
Uzoq mudatli aktivlarning aylanish koeffitsiyenti	ST/Uma			
Uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi	Stqf,Sf/Uma			
Asosiy kapital rentabelligi	Stqf, Sf/Ak			
Nomoddiy aktivlar rentabelligi	Stqf, Sf/NA			
Kapital qo'yilmalar rentabelligi	Stqf, Sf/KQ			
Uzoq muddatli aktivlar jami mulk tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti	Uma/BJ			
Asosi vositalarning uzoq muddatli aktivlar tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti	A/Uma			

Joriy aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Db	Do	Farqi
Joriy aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	JA / BJ			
Pul mablag'larining joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	PM / JA, BJ			
Debitorlik majburiyatlarining joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	DM / JA, BJ			
Tovar moddiy zaxiralarning joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti	TMZ / JA, BJ			
Ishlab chiqarish zaxiralarining tovar moddiy zaxiralaridagi salmog'i koeffitsiyenti	Ichz / JA			
Joriy aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi koeffitsiyenti (sof oborot aktivlar)	O'mm+Umkq-Uma / JA			
Joriy aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/JA			
TMZ aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/TMZ			
Ishlab chiqarish zaxirlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/Ichz			
Tovarlarning aylanuvchanlik koefitsenti	ST/T			
Tayyor mahsulotlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/TM			
Debitorli kmajburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/DM			
Joriy aktivlarni rentabellik koeffitsiyenti	Stqf, Sf/JA			
Joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati koeffitsiyenti(umumiy to'lovga qobillik)	JA/JM			
Joriy majburiyatlarning joriy aktivlarga nisbati koeffitsiyenti (karamlik koeffitsiyenti)	JM/JA			
Joriy aktivlarning o'z mablag'lari manbasi bilan qoplanishi koeffitsiyenti	O'mm/JA			

O‘z mablag‘lari manbasi bilan bog‘liq bo‘lgan nisbiy ifodalar (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Db	Do	Farqi
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	O‘mm/BJ			
O‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti	O‘mm/M			
Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	BJ/O‘mm			
Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsiyenti	JQK/JK			
-O‘z sarmoyasi hara-katchanligi koeffitsiyenti	XK/O‘mm			
-O‘z mablag‘lari va uzoq muddatli jalb qilingan mablag‘larni zaxira, xarajatlarni manbalashdagi holat ko‘rsatkichlari	O‘mm+Umk q-Uma/ZX			
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	O‘mm/Jqs			
Uzoq muddatli aktivlarning o‘z mablag‘lari va uzoq muddatli qarzga olingan mablag‘lar bilan manbalanishi koeffitsiyenti	O‘mm+O‘mk q/Uma			
Xususiy kapital rentabeligi	Sf/XK			

Majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan nisbiy ifodalar (moliyaviy koeffitsiyentlar)

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Db	Do	Farqi
Qarz kapitali va o‘z mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti	M/O‘mm			
Qarz kapitalini barcha kapital tarkibidagi salmog‘i,	M/BJ			
Uzoq muddatli majburiyatlarning jami mablag‘lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog‘i koeffitsiyenti	Umm/M, BJ			
Qiska muddatli majburiyatlarning jami mablag‘lar va majburiyatlardagi salmog‘i	Qmm/M, BJ			

Kreditorlik majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i koeffitsiyenti	Km/M, BJ			
Kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentlari	SMicht/Km			

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug'iga 1-sonli ilova, O'zR AV tomonidan 2003-y. 24-yanvarda ro'yxatga olingan N 1209

Приложение Н 1 к Приказу министра финансов от 27 декабря 2002 г. Н 140, зарегистрированному МЮ 24 января 2003 г. Н 1209
Ёзгаришлар: МЮ 20.12.2004 г. Н 1209-2, МЮ 19.05.2007 г. Н 1209-4, МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5

BUXGALTERIYA BALANSI – 1-sonli shakl
БУХГАЛТЕРСКИЙ БАЛАНС – форма N 1

		Kodlar Kodi
_____20___ yilga na_____ 20___god	BHUT bo'yicha 1-shakl Forma N 1 po OKUD	O710001
Korxona, tashkilot Предпритие, организация	KTUT bo'yicha- по ОКПО-	
Tar- moq Отрасл	XXTUT bo'yicha- по ОКОНХ-	
Tashkiliy-huquqiy shakli Организационно-правовая форма	THShT bo'yicha- по КОПФ-	
Mulkchilik shakli Форма собственности	MShT bo'yicha- по КФС-	
Vazirlik, idora va boshqalar Министерства, ведомства и другие	DBIBT bo'yicha- по СООГУ-	

Soliq to'lovchining identifikatsion raqami Идентификационний номер налогоплательщика	STIR- ИНН-	
hudud Территория	MHOBT- COATO-	
Manzil Адрес	Jo'natilgan sana- Дата висилки-	
O'lchov birligi, ming so'm Единица измерения, тис. сум.	qabul qilingan sana- Дата получения-	
	Taqdim qilish muddati- Срок представления	

Ko'rsatkichlar nomi **Наименование показателя**	Satr kodi Код стр.	hisobot davri boshiga На начало отчетного периода	hisobot davri oxiriga На конец отчетного периода
1	2	3	4
Aktiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar **I. Долгосрочные активи**			
Asosiy vositalar: **Основние средства:**			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300) Первоначалная (восстановителная) стоимост (0100, 0300)	010		
Eskirish summasi (0200) Сумма износа (0200)	011		
qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 – 011) Остаточная (балансовая)стоимост (стр. 010-011)	012		
Nomoddiy aktivlar: **Нематериалние активи:**			
Boshlang'ich qiymati (0400) Первоначалная стоимост (0400)	020		
Amortizatsiya summasi (0500) Сумма амортизации (0500)	021		
qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 – 021) Остаточная (балансовая) стоимост (стр. 020-021)	022		
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080), shu jumladan: **Долгосрочние инвестиции,** всего (стр.040+050+060+070+080), в том числе:	030		
qimmatli qog'ozlar (0610) Ценние бумаги (0610)	040		
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620) Инвестиции в дочерние хозяйственние общчества (0620)	050		
qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar(0630) Инвестиции в зависимие хозяйственние общчества (0630)	060		
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070		

1	2	3	4
Инвестиции в предприятие с иностранным капиталом (0640)			
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690) Прочие долгосрочные инвестиции (0690)	080		
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700) **Оборудование к установке (0700)**	090		
Kapital qo'yilmalar (0800) **Капиталние вложения (0800)**	100		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940) **Долгосрочная дебиторская задолженност (0910, 0920, 0930, 0940)**	110		
Строка 111 исключена в соотвецтвии с Приказом МФ, зарегистрированним МЮ 20.12.2004 г. Н 1209-2 shundan: muddati o'tgan из нее: просроченная	111		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990) **Долгосрочние оцроченние расходи (0950, 0960, 0990)**	120		
I bo'lim bo'yicha jami (satr. 012+022+030+090+100+110+120) **Итого по разделу И (стр. 012+022+030+090+100+110+120)**	130		
II. Joriy aktivlar **II. Текушчие активи**			
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr.150+160+170+180), shu jumladan: **Товарно-материалние запаси,** всего (стр.150+160+170+180), в том числе:	140		
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600) Производственние запаси (1000, 1100, 1500, 1600)	150		
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700) Незавершенное производство (2000, 2100, 2300, 2700)	160		
Tayyor mahsulot (2800) Готовая продукция (2800)	170		
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi) Товари (2900 за минусом 2980)	180		
Kelgusi davr xarajatlari (3100) **Расходи будушчих периодов (3100)**	190		

1	2	3	4
Kechiktirilgan xarajatlar (3200) **Оцроченние расходи (3200)**	200		
Debitorlar, jami (satr. 220+240+250+260+270+280+290+300+310). **Дебитори**, всего (стр. 220+240+250+260+270+280+290+300+310) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 20.12.2004 г. Н 1209-2) (См. Предидушчую редакцию)	210		
shundan: muddati o'tgan* из нее: просроченная* (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5) (См. Предидушчую редакцию)	211		
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi) Задолженност покупателей и заказчиков (4000 за минусом 4900)	220		
Ajratilgan bo'linmalarning qarzi (4110) Задолженност обособленних подразделений (4110)	230		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarning qarzi (4120) Задолженност дочерних и зависимих хозяйственних общчеств (4120)	240		
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200) Аванси, виданние персоналу (4200)	250		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300) Аванси, виданние поставшчикам и подрядчикам (4300)	260		
Budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400) Авансовие платежи по налогам и другим обязателним платежам в буджет (4400) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5)	270		
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500) Авансовие платежи в государственние целевие фонди и по страхованию (4500)	280		
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	290		

1	2	3	4
Задолженност учредителей по вкладам в уставний капитал (4600)			
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700) Задолженност персонала по прочим операциям (4700)	300		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800) Прочие дебиторские задолженности (4800)	310		
Pul mablag'lari, jami (satr.330+340+350+360), shu jumladan: **Денежние средства,** всего (стр.330+340+350+360), в том числе:	320		
Kassadagi pul mablag'lari (5000) Денежние средства в кассе (5000)	330		
Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari (5100) Денежние средства на расчетном счете (5100) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 19.05.2007 г. Н 1209-4)	340		
Chet el valutasidagi pul mablag'lari (5200) Денежние средства в иностранной валюте (5200)	350		
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700) Прочие денежние средства и еквиваленти (5500, 5600, 5700)	360		
qisqa muddatli investitsiyalar (5800) **Краткосрочние инвестиции (5800)**	370		
Boshqa joriy aktivlar (5900) **Прочие текущие активи (5900)**	380		
II bo'lim bo'yicha jami (satr. 140+190+200+210+320+370+380). **Итого по разделу II** (стр. 140+190+200+210+320+370+380) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 19.05.2007 г. Н 1209-4) (См. Предидущую редакцию)	390		
Balans aktivi bo'yicha jami (satr.130+390) **Всего по активу баланса** (стр.130+стр.390)	400		
Passiv			
I. O'z mablag'lari manbalari **I. Источники собственних средств**			
Ustav kapitali (8300) Уставний капитал (8300)	410		
Qo'shilgan kapital (8400)	420		

1	2	3	4
Добавленний капитал (8400)			
Rezerv kapitali (8500) Резервний капитал (8500)	430		
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600) Викупленние собственние акции (8600)	440		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700) Нераспределенная прибил (непокритий убиток) (8700)	450		
Maqsadli tushumlar (8800) Целевие поступления (8800)	460		
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900) Резерви предстояшчих расходов и платежей (8900)	470		
I bo'lim bo'yicha jami (satr.410+420+430-440+450+460+470) **Итого по разделу И** (стр.410+420+430-440+450+460+470)	480		
II. Majburiyatlar **II. Обязателства**			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr.500++520+530+540+550+560+570+580+590) **Долгосрочние обязателства**, всего (стр.500+520+530+540+550+560+570+580+590) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 19.05.2007 г. Н 1209-4)	490		
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr.500+520+540+560+590) в том числе: долгосрочная кредиторская задолженност (стр.500+520+540+560+590)	491		
Строка 492 исключена в соотвецтвии с Приказом МФ, зарегистрированним МЮ 20.12.2004 г. Н 1209-2 shundan: muddati o'tgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari из нее: просроченная долгосрочная кредиторская задолженност	492		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000) Долгосрочная задолженост поставшчикам и подрядчикам (7000)	500		
Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510		

1	2	3	4
Долгосрочная задолженност обособленним подразделениям (7110)			
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120) Долгосрочная задолженност дочерним и зависимим хозяйственним обшчествам (7120)	520		
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230) Долгосрочние оцроченние доходи (7210, 7220, 7230)	530		
Soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240) Долгосрочние оцроченние обязателства по налогам и другим обязателним платежам (7240) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5)	540		
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290) Прочие долгосрочние оцроченние обязателства (7250, 7290)	550		
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300) Авапси, полученние от покFпателей и заказчиков (7300)	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810) Долгосрочние банковские кредити (7810)	570		
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840) Долгосрочние займи (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900) Прочие долгосрочние кредиторские задолженности (7900)	590		
Joriy majburiyatlar, jami (satr.610+630+640+650+660+670+680+690+700+710+ +720+730+740+750+760) **Текушчие обязателства,** всего (стр.610+630+640+650+660+670+680+690+700+ +710+720+730+740+750+760) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 19.05.2007 г. Н 1209-4)	600		
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr.610+630+650+670+680+690+ +700+710+720+760)	601		

1	2	3	4
в том числе: текущая кредиторская задолженност (стр.610+630+650+670+680+690+ +700+710+720+760)			
shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari* из нее: просроченная текущая кредиторская задолженност* (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5) (См. Предидушчую редакцию)	602		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000) Задолженност поставшчикам и подрядчикам (6000)	610		
Ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110) Задолженност обособленним подразделениям (6110)	620		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120) Задолженност дочерним и зависимим хозяйственним обшчествам (6120)	630		
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230) Оцроченние доходи (6210, 6220, 6230)	640		
Soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240) Оцроченние обязателства по налогам и другим обязателним платежам (6240) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5)	650		
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290) Прочие оцроченние обязателства (6250, 6290)	660		
Olingan bo'naklar (6300) Полученние аванси (6300)	670		
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400) Задолженност по платежам в буджет (6400)	680		
Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510) Задолженност по страхованию (6510)	690		
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520) Задолженност по платежам в государственние целевие фонди (6520)	700		
Ta'sischilarga bo'lgan qarzlar (6600) Задолженност учредителям (6600)	710		

1	2	3	4
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700) Задолженност по оплате труда (6700)	720		
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810) Краткосрочние банковские кредити (6810)	730		
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840) Краткосрочние займи (6820, 6830, 6840)	740		
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950) Текушчая част долгосрочних обязателств (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900) Прочие кредиторские задолженности (6900 кроме 6950)	760		
II bo'lim bo'yicha jami (satr.490+600) **Итого по разделу II** (стр.490+600)	770		
Balans passivi bo'yicha jami (satr.480+770) **Всего по пассиву баланса** (стр.480+770)	780		

BALANSDAN TASHQARI SCHYOTLARDA HISOBGA OLINADIGAN QIYMATLIKLARNING MAVJUDLIGI TO'G'RISIDA MA'LUMOT
СПРАВКА О НАЛИЧИИ ЦЕННОСТЕЙ, УЧИТИВАЕМИХ НА ЗАБАЛАНСОВИХ СЧЕТАХ

Ko'rsatkichlar nomi **Наименование показателя**	Satr kodi Код стр.	hisobot davri boshiga На начало отчетного периода	hisobot davri oxiriga На конец отчетного период
1	2	3	4
Operativ ijaraga olingan asosiy vositalar (001) Основние средства, полученные по оперативной аренде (001) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5)	790		
Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar (002) Товарно-материалние ценности, принятие на ответственное хранение (002)	800		
Qayta ishlashga qabul qilingan materiallar (003) Материали, принятие в переработку (003)	810		
Komissiyaga qabul qilingan tovarlar (004) Товари, принятие на комиссию (004)	820		
O'rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (005) Оборудование, принятое для монтажа (005)	830		
Qat'iy hisobot blankalari (006) Бланки строгой отчетности (006)	840		
To'lovga qobiliyatsiz debitorlarning zararga hisobdan chiqarilgan qarzi (007) Списанная в убиток задолженност неплатежеспособних дебиторов (007)	850		
Olingan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti (008) Обеспечение обязателств и платежей – полученние (008)	860		
Berilgan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti (009) Обеспечение обязателств и платежей – виданние (009)	870		

1	2	3	4
Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha berilgan asosiy vositalar (010) Основние средства, сданние по договору финансовой аренди (010) (Строка в редакции Приказа МФ, зарегистрированного МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5)	880		
Ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mulklar (011) Имушчество, полученное по договору ссуди (011)	890		
Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (012) Расходи, исключаемие из налогооблагаемой бази следуюшчих периодов (012)	900		
Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo'yicha) (013) Временние налоговие лготи (по видам) (013)	910		
Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari (014) Инвентар и хозяйственние принадлежности в експлуатации (014)	920		

**) Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari mavjud bo'lgan hollarda ularning rasshifrovkasi Buxgalteriya balansining ilovasiga muvofiq keltiriladi*

**) При наличии просроченной дебиторской и кредиторской задолженности их расшифровка приводиця согласно приложению к Бухгалтерскому балансу*

(Сноска введена в соотвецтвии с Приказом МФ, зарегистрированним МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5)

Rahbar
Руководител_____

—

Bosh buxgalter
Главний бухгалтер_____

Buxgalteriya balansiga
ILOVA
ПРИЛОЖЕНИЕ
к Бухгалтерскому балансу
МЮ 11.10.2012 г. Н 1209-5

MUDDATI O‘TGAN DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI RASSHIFROVKASI
20___ yil _____ holatiga
РАСШИФРОВКА
ПРОСРОЧЕННОЙ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ по состоянию _____ 20___ г.

N	Muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lgan debitor va kreditorlar ro‘yxati Перечен дебиторов и кредиторов, по которим имеепя просроченная задолженност	Muddati o‘tgan umumiy qarz Общчая просроченная задолженност	Tashkilotga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bo‘yicha vujudga kelgan muddati o‘tgan qarzlar Prosrochennaya zadoljennost, obrazovavshayasya po prichinam, ne zavisyashchim ot organizatsiy				
			jami всего	shu jumladan / v tom chisle:			
				hukumat qarorlariga asosan oldindan haq to‘la-may jo‘natilgan (olingan) mahsulotlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzlar просроченная задолженност	davlat resurslari va jamg‘armalaridan jo‘natish ko‘zda tutilgan xom ashyo va materiallar bo‘yicha o‘tkazilgan bo‘nak to‘lovlari summasi сумма перечисленних авансових платежей, по которим	hukumat qarorlari bo‘yicha kechiktirilgan qarzlar задолженност, опроченная по решениям правителства	qonunchilikka muvofiq da’volar bo‘yicha sud jarayonida ko‘rib chiqilayotgan yoki xo‘jalik sudi tomonidan kreditorlardan undirish to‘g‘risida qaror chiqqan qarzlar summasi сумма задолженности, по которой в соответствии с законодателством идет процесс судебного

				по продукции, отгруженной (полученной) без предоплати по решениям Правительства	предусмотрена отгрузка сиря и материалов из государственних ресурсов и фондов		разбирателства по предъявленним искам или винесено решение хозяйственного суда о взискании с кредитора
1	2	3	4	5	6	7	8
MUDDATI O'TGAN DEBITORLIK QARZLARI ПРОСРОЧЕННАЯ ДЕБИТОРСКАЯ ЗАДОЛЖЕННОСТ							
1.	**Muddati o'tgan qarzdorlikka ega bo'lgan debitorlar, jami** **Дебитори, по которим имеєця просроченная задолженност, всего**						
2.	**Respublika ichidagi muddati o'tgan qarzlar, jami** **Просроченная задолженност внутри республики, всего**						
2.1.	shu jumladan, debitorlar nomi bo'yicha						

	в том числе по наименованиям дебиторов						
2.2.	**Ichki idoraviy muddati o'tgan qarzlar, jami Внутриведомственная просроченная задолженност, всего**						
2.2.1.	shu jumladan debitorlar nomi bo'yicha в том числе по наименованиям дебиторов						
3.	**Respublikadan tashqaridagi muddati o'tgan qarzlar, jami Просроченная задолженност за пределами республики, всего**						
3.1.	shu jumladan debitorlar nomi bo'yicha в том числе по наименованиям дебиторов						

MUDDATI O'TGAN KREDITORLIK QARZLARI ПРОСРОЧЕННАЯ КРЕДИТОРСКАЯ ЗАДОЛЖЕННОСТ							
4.	**Muddati o'tgan qarzdorlikka ega bo'lgan kreditorlar, jami Кредитори, по которим имеєдя просроченная задолженност, всего**				x		
5.	**Respublika ichidagi muddati o'tgan qarzlar, jami Просроченная задолженност на территории республики, всего**				x		
5.1.	shu jumladan, kreditorlar nomi bo'yicha в том числе по наименованиям кредиторов				x		
5.2.	**Ichki idoraviy muddati o'tgan qarzlar, jami Внутриведомственная просроченная задолженност, всего**				x		
5.2.1.	shu jumladan kreditorlar nomi bo'yicha				x		

	в том числе по наименованиям кредиторов						
6.	**Respublikadan tashqaridagi muddati o'tgan qarzlar, jami Просроченная задолженност за пределами республики, всего**				x		
6.1.	shu jumladan kreditorlar nomi bo'yicha в том числе по наименованиям кредиторов				x		

Rahbar
Руководител _____ _____
(F.I.O./F.I.O) (imzo / подпис)

M. O'./M.P.

Bosh buxgalter
Главний бухгалтер_____ _____
(F.I.O./F.I.O) (imzo / подпис)

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi №723-XII 08.12.1992, kuchga kirish sanasi 08.12.1992
2. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonuni. 1996-yil 17-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi Qonuni. 26.05.2000.
4. Respublikasining Qonuni Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi O'zbekiston №220-I Qabul qilingan sana 25.04.1996, kuchga kirish sanasi 01.06.1996
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni Banklar va bank faoliyati to'g'risida №216-I Qabul qilingan sana 25.04.1996, kuchga kirish sanasi 31.05.1996
6. O'zbekiston Respublikasining Chet el investitsiyalari to'g'risida Qonuni №609-I Qabul qilingan sana 30.04.1998, kuchga kirish sanasi 20.05.1998
7. O'zbekiston Respublikasining Investitsiya faoliyati to'g'risida Qonuni №719-I Qabul qilingan sana 24.12.1998, kuchga kirish sanasi 12.01.1999
8. O'zbekiston Respublikasining Reklama to'g'risida Qonuni №723-I Qabul qilingan sana 25.12.1998, kuchga kirish sanasi 06.01.1999
9. O'zbekiston Respublikasining Lizing to'g'risida- Qonuni №756-I Qabul qilingan sana 14.04.1999, kuchga kirish sanasi 28.04.1999
10. O'zbekiston Respublikasining Baholash faoliyati to'g'risida- Qonuni №811-I Qabul qilingan sana 19.08.1999, kuchga kirish sanasi 11.09.1999
11. O'zbekiston Respublikasining Xususiy korxona to'g'risida- Qonuni №558-II Qabul qilingan sana 11.12.2003, kuchga kirish sanasi 23.01.2004
12. O'zbekiston Respublikasining Firma nomlari to'g'risida-qonuni №O'RQ-51 Qabul qilingan sana 18.09.2006, kuchga kirish sanasi 19.09.2006

13. O'zbekiston Respublikasining Mikromoliyalash to'g'risida- Qonuni №O'RQ-50 Qabul qilingan sana 15.09.2006, kuchga kirish sanasi 16.09.2006

14. O'zbekiston Respublikasining Soliq maslahati to'g'risida- Qonuni №O'RQ-55 Qabul qilingan sana 21.09.2006, kuchga kirish sanasi 22.09.2006

15. O'zbekiston Respublikasining Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida- Qonuni №O'RQ-163 Qabul qilingan sana 22.07.2008, kuchga kirish sanasi 23.07.2008

16. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risida- Qonuni №O'RQ-319 Qabul qilingan sana 06.01.2012, kuchga kirish sanasi 07.01.2012

17. O'zbekiston Respublikasining Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida- Qonuni №O'RQ-327 Qabul qilingan sana 26.04.2012, kuchga kirish sanasi 27.04.2012

18. O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun javobgarlik joriy etilishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining jinoyat kodeksiga hamda o'zbekiston respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar kiritish haqida- Qonuni №O'RQ-333 Qabul qilingan sana 11.09.2012, kuchga kirish sanasi 12.09.2012

19. O'zbekiston Respublikasining Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar uquqlarining kafolatlari to'g'risida- Qonuni №O'RQ-336 Qabul qilingan sana 24.09.2012, kuchga kirish sanasi 25.09.2012

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish amda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida –Qarori №PQ-615 Qabul qilingan sana 04.04.2007, kuchga kirish sanasi 04.04.2007

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

Qarori №PQ-916 Qabul qilingan sana 15.07.2008, kuchga kirish sanasi 15.07.2008

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida- Farmoni №PF-4053 Qabul qilingan sana 18.11.2008, kuchga kirish sanasi 18.11.2008

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida- Farmoni №PF-4058 Qabul qilingan sana 28.11.2008, kuchga kirish sanasi 28.11.2008

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida- Qarori №PQ-1169 Qabul qilingan sana 05.08.2009, kuchga kirish sanasi 05.08.2009

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida- Farmoni №PF-4191 Qabul qilingan sana 26.02.2010, kuchga kirish sanasi 26.02.2010

7. Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori №PQ-1317 Qabul qilingan sana 06.04.2010, kuchga kirish sanasi 06.04.2010

8. O'zbekiston respublikasi prezidentining «xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida» 1998 yil 19 noyabrdagi pf-2114-son farmoniga o'zgartishlar kiritish to'g'risida-o'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni №PF-4219 Qabul qilingan sana 20.05.2010, kuchga kirish sanasi 20.05.2010

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011—2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida-Qarori №PQ-1438 Qabul qilingan sana 26.11.2010, kuchga kirish sanasi 26.11.2010

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida- Qarori №PQ-1501 Qabul qilingan sana 11.03.2011, kuchga kirish sanasi 11.03.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida- Farmoni №PF-4296 Qabul qilingan sana 04.04.2011, kuchga kirish sanasi 04.04.2011

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida- Qarori №PQ-1529 Qabul qilingan sana 12.05.2011, kuchga kirish sanasi 12.05.2011

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida- Farmoni №PF-4354 Qabul qilingan sana 24.08.2011, kuchga kirish sanasi 24.08.2011

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida- Qarori №PQ-1604 Qabul qilingan sana 25.08.2011, kuchga kirish sanasi 25.08.2011

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida- Qarori №PQ-1675 Qabul qilingan sana 30.12.2011, kuchga kirish sanasi 30.12.2011

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida- Qarori №PQ-1731 Qabul qilingan sana 26.03.2012, kuchga kirish sanasi 26.03.2012

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida - Farmoni № PF-4434 Qabul qilingan sana 10.04.2012, kuchga kirish sanasi 10.04.2012

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida- Farmoni №PF-4453 Qabul qilingan sana 16.07.2012, kuchga kirish sanasi 16.07.2012

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, vazirlik, davlat kumitalari va idoralarining normativ hujjatlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda valuta operatsiyalarini erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida- qarori №355 Qabul qilingan sana 15.08.2003, kuchga kirish sanasi 15.08.2003

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Iqtisodiy nochor korxonalarning sud boshqaruvchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida- qarori №138 Qabul qilingan sana 23.03.2004, kuchga kirish sanasi 23.03.2004

3. Elektron tijoratni amalga oshirishda to'lovlarni o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №120 Qabul qilingan sana 12.06.2007, kuchga kirish sanasi 12.06.2007

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida- qarori №288 Qabul qilingan sana 31.12.2008, kuchga kirish sanasi 31.12.2008

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy va kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida-qarori №290 Qabul qilingan sana 31.12.2008, kuchga kirish sanasi 31.12.2008

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Eksport potentsialini oshirish va ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida- qarori №14 Qabul qilingan sana 16.01.2009, kuchga kirish sanasi 16.01.2009

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida- qarori №26 Qabul qilingan sana 29.01.2009, kuchga kirish sanasi 29.01.2009

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida- qarori №144 Qabul qilingan sana 20.05.2009, kuchga kirish sanasi 20.05.2009

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish hisobiga eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida- qarori №156 Qabul qilingan sana 08.06.2009, kuchga kirish sanasi 08.06.2009

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ruxsatnomalar olish tartibotlarini takomillashtirish va soddalashtirish to‘g‘risida- qarori №158 Qabul qilingan sana 10.06.2009, kuchga kirish sanasi 10.06.2009

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida- qarori №188 Qabul qilingan sana 09.07.2009, kuchga kirish sanasi 09.07.2009

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yirik korxonalar va ishlab chiqarishlarda texnologik asbob-uskunalar va texnologiyalarning texnik auditini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida- qarori №72 Qabul qilingan sana 15.03.2011, kuchga kirish sanasi 15.03.2011

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston respublikasida lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish va tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida- qarori №143 Qabul qilingan sana 21.05.2011, kuchga kirish sanasi 21.05.2011

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va ruxsat berish tartibotlarini amalga oshirishda davlat boshqaruv funktsiyalarini qisqartirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida- qarori

№283 Qabul qilingan sana 17.10.2011, kuchga kirish sanasi 17.10.2011

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy rivojlantirish, tarkibiy o'zgartirishlar, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari yig'ma axborot-tahlil departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida- qarori №299 Qabul qilingan sana 11.11.2011, kuchga kirish sanasi 11.11.2011

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sanoatda ishlab chiqarish harajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida- qarori №64 Qabul qilingan sana 07.03.2012, kuchga kirish sanasi 07.03.2012

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sanoat tarmoqlari korxonalarining ma'naviy eskirgan va eyilgan asbob-uskunalarini jadal yangilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida- qarori №115 Qabul qilingan sana 19.04.2012, kuchga kirish sanasi 19.04.2012

18. O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yillik qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida- qarori №1192 Qabul qilingan sana 04.12.2002, kuchga kirish sanasi 14.12.2002

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xo'jalik yurituvchi subyektlarning harajatlarini hisobga olish va moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida- qarori №444 Qabul qilingan sana 15.10.2003, kuchga kirish sanasi 15.10.2003

20. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Chet el valutasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida- qarori №1411 Qabul qilingan sana 17.09.2004, kuchga kirish sanasi 27.09.2004

21. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomni (yangi tahrirda) tasdiqlash haqida- buyrug'i №1401 Qabul qilingan sana 29.08.2004, kuchga kirish sanasi 08.09.2004

22. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida- buyrug'i №1961 Qabul qilingan sana 01.06.2009, kuchga kirish sanasi 11.06.2009

23. Tijorat banklari, shu jumladan boshqa investorlar ishtirokida bankrot korxonalar negizida tashkil etilgan korxonalarning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini o'rnatilgan me'yordan kamroq hisoblash tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qarori №2114 Qabul qilingan sana 23.06.2010, kuchga kirish sanasi 03.07.2010

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T.; «O'zbekiston» 1996.

2. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». T.; «O'zbekiston» 1998.

3. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». T.; «O'zbekiston» 1999.

4. Karimov I.A. «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz». T.; «O'zbekiston» 1999.

5. Karimov I.A. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish – farovonlik poydevori». T.; «O'zbekiston ovozi» gazetasi 22-iyul 2000-yil.

6. Karimov I.A. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz». T.; «O'zbekiston» 2000.

7. Karimov I.A. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish – farovonlik poydevori». T.; «O'zbekiston ovozi» gazetasi 22-iyul 2000-yil.

9. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. – T.: O'zbekiston, 2005.

10. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005.

11. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. -T.: O'zbekiston, 2005.

12. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T.; «O'zbekiston» 2007.

13. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uni O'zbekiston sharoitida bartaraf etish yo'llari va choralari». T.: «O'zbekiston». 2009 y.

IV. Darsliklar

O'zbekiston Respublikasida chop etilgan

1. Vahobov A.V., Ibroximov A.T., Ishonqulov N.F. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». Darslik. T.; «Sharq», 2005 y.

2. Karimov A. va boshq. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa akdiyadorlik kompaniyasi . 2004, 592 b.

Rossiya Federatsiyasida chop etilgan

1. Василева Л.С.,Штейт Е.М., Петровская М.В. Анализ финансово хозяйственной деятелности предприятий. М.:Екзамен-2008, 324 ст.

2. Донцова Л.В. Анализ финансовой отчетности: Учебник-М.: Дело и Сервиз, 2005

3. Ионова А.Ф. Селезнова Н.Н. Фиансовий анализ. Учебник. М.:Проспект, 2006, 624 ст.

4. Ковалев В.В., Волкова О.Н. Анализ хозяйственной деятелности предприятий. М.: Проспект, 2005, 424 ст

5. Савицкая Г.В. «Анализ хозяйственной деятелности предприятии». М.: Финанс и статистика, 2010, 375 ст.

6. Томас П.Карлин. Анализ финансовой отчетности (на аснове ГААП).Учебник. М.: ИНФРА-М, 2001, 423 ст.

Xorijda chop etilgan

1. M.Feldman, A.Libman. Crash course in accounting and financial statement analysis. Textbook. USA. John wiley & Sons, Inc. 2007. 223 p.

2. Gary Giroux. Financial Analysis A User Approach. Leyh Publishing, LLC. 297 p. 2004 y.

Gary Giroux. Detecting Earnings Management. John Wiley & Sons. 326 p. 2004 y.

3. Donald E. Kieso, JerryJ. Weygandt, Terry D. Warfield. «Intermediate Accounting», John Wiley& Sons, Inc. 2004 y. 1331 p.

4. K. Fred Skousen, EARL K. Slice. «Intermediate Accounting», South-Westren College Publishing. 2000 y. 1453 p.

V. **O'quv qo'llanmalar**

O'zbekiston Respublikasida chop etilgan.

1. Axmadjonov X.I., Raximov M.Yu. «Moliyaviy tahlil». T., TMI bosmaxonasi 2004 y.

2. Axmadjonov X., Ishonqulov N., Nurmanov U. «Pul mablag'larining hisobi va tahlili». T.; «Iqtisod-moliya», 2009 .

3. Ibroximov A.T., Raximov M.Yu. «Boshqaruv tahlili». T., TMI bosmaxonasi 2004 y.

4. Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. T.: «Iqtisod-moliya», 2009 y.

Rossiya Federatsiyasida chop etilgan

1. Бачарев В.В. Финансовий анализ. Питер 2007, 240 ст.

2. Ковалев В.В. Финансовая отчетност. Анализ финансовой отчетности-М.: Проспект, 2005.

3. Камишанов П.И. Бухгалтерская финансовая отчетност: Составление и анализ. Учебное пособие-М.: ОМЕГА, 2005.

4. Колмикова Т.С. Инвестиционний анализ М.: Вишее оброзование 2010, 204 ст.

5. Савицкая Е.В., Лебединская Е.В. Економический анализ М.: Из.дом ГУ ВШЕ 2008, 208 ст.

6. Покловский Л.М.,.. Учет и анализ банкроцтва. М Кнорус,

VI. Gazeta va jurnallar

«Bozor, pul va kredit» jurnali. -T.: 2000-2012

«O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali. -T.: 2000-2012
«Soliq va bojxona xabarlari» gazetasi. -T.: 2000-2012
«Moliyachi» jurnali-2000-2012

VII. Internet saytlari

http://www.lex.uz
http://www.ZiyoNET.uz
http://www.stat.uz
http://www.tfi.uz

MUNDARIJA

Kirish 3

I bob. MOLIYAVIY TAHLIL VA UNING AXBOROTLAR TIZIMI

1.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida moliyaviy tahlilning zaruriyati va muhimligi 9
1.2. Fanlar tizimida moliyaviy tahlil, uning fan sifatida shakllanishi 15
1.3. Iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismlari; Boshqaruv va moliyaviy tahlil 24
1.4 Moliyaviy tahlili maqsadi, mazmuni va asosiy vazifalari 34
1.5. Moliyaviy tahlil usullari 39
1.5.1. Moliyaviy hisobotni o'qish 41
1.5.2. Gorizontal tahlil 43
1.5.3. Vertikal tahlil 44
1.5.4. Trend (asos) tahlili 46
1.5.5. Koeffitsiyent tahlili 49
1.5.6. Taqqoslama (qiyosiy) tahlil 55
1.5.7. Omilli tahlil 57
1.6. Moliyaviy tahlil subyektlari 60
1.7. Moliyaviy tahlil va uning tashkil etilishi 65
1.8. Moliyaviy tahlilini axborotlar tizimi va uning oldiga qo'yiladigan talablar 71
1.8.1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan hisobotlar axborotligi va ularning muammoli jihatlari 76
1.8.2. Hisobotlar bo'yicha xarajatlarni baholash va ularni minimallashtirish 86
1.8.3. Hisobotlarni elektron shaklda topshirishni takomillashtirish va axborotlarni analitik ishlashni avtomatlashtirish 93
1.9. Chet el firma va kompaniyalarida moliyaviy holat tahlili va uning O'zbekiston Respublikasidagi moliyaviy holat tahlili bilan muvofiqligi 100

II bob. BUXGALTERIYA BALANSINI GORIZONTAL, VERTIKAL VA TRENDLI TAHLILI

2.1. Buxgalteriya balansi, uning tarkibiy tuzilishi..... 110
2.2. Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishni mazmuni..... 117
2.3. Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili..... 122
2.4. Buxgalteriya balansini trend tahlili. 134
2.5. Korxona aktivlari, passivlari va ularni joylashtirishning moliyaviy holatga ta'sirini tahlili..... 137
2.6. Uzoq muddatli aktivlar, zaxira va xarajatlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishini tahlili..... 146
2.7. Lizing hisobiga olingan mablag'lar tahlili..... 152
2.8. Firma va kompaniyalar balansini reyting baholash va moliyaviy tahlilni yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi..... 156

III bob.MAHSULOT SOTISHNI KRITIK HAJM DARAJASI VA FOYDALILIK TAHLILI

3.1. Moliyaviy natijalar to'g'rsidagi hisobot elementlari va uning ko'rsatkichlar tizimi..... 166
3.2. Realizatsiya hajmi, chiqarish xarajatlari va foyda aloqadorligini tahlili(costs-volume-profit)..... 171
3.3. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash..... 175
3.4. Marjinal daromad(foyda) kontributsiyasi va uning omilli tahlili..... 181
3.5. Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darajasini tahlili..... 188
3.6. Firma va kompaniyalar aktivlarini joylashtirish holati va uning foydalilikka ta'sirini tahlili..... 196
3.7. Firma va kompaniyalar passivlarini joylashtirish va uning foydalikka ta'sirini tahlili..... 199
3.8. Tadbirkorlik foydasining shaklanishi va taqsimlanishidagi muammoli jiahatlar..... 203

IV bob. IQTISODIY NOCHOR FIRMA VA KOMPANIYALAR FAOLIYATINI TAHLIL QILISHNI XUSUSIYATLARI

4.1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tushunchasi mohiyati, firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillar..... 211
4.2. Moliyaviy barqaror, moliyaviy havf hatari bor va moliyaviy nabarqaror firma va kompaniyalar faoliyatini tahlili..... 218
4.3. Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini (bankrotligini) xarakterlovchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili..... 226
4.4. Korxona iqtisodiy nochorligini (bankrotligini) prognozlashdagi modellar va ularning tahliliy metodikasi..... 236
4.5. Firma va kompaniyalar bankrotligini tan olish va uning o'ziga xos jihatlari..... 243
4.6. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirishda xalqaro tajribalar hamda ulardan foydalanish..... 251

V bob. FIRMA VA KOMPANIYALAR ISH VA BOZOR AKTIVLIGINI TAHLILI

5.1. Firma va kompaniyalar ish va bozor aktivligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ular tahlilini vazifalari.... 263
5.2. Firma va kompaniyalar ish aktivligini asosiy va aylanma kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatikichlari tahlili..... 268
5.3. Firma va kompaniyalar ish faolligini xususiy va qarz kapitali bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili..... 273
5.4. Firma va kompaniyalar bozor aktivligi tahlili..... 276
5.5. Korxona ish aktivligini omilli tahlili va uni o'stirish usullari 278

VI bob. FIRMA VA KOMPANIYALARNIN KREDITGA LAYOQATLILIGI TAHLILI

6.1. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalari..... 290
6.2. Firma va kompaniyalarda, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlil..... 298

6.3. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatliligini baholashda mablag'lar likvidligi va to'lov qobilyatini tahlili 302
6.4. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlili... 314
6.5. Firma va kompaniyalarda kreditga va layoqatligini o'stirishning amaliy chora-tadbirlari 315
6.6. Kreditga layoqatlikni baholashni xorij tajribalari va ularning O'zbekiston Respublikasidagi tajribalar bilan muvofiqligi 318

VII bob. FIRMA VA KOMPANIYALARDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI

7.1. Investitsiyaning mazmuni, mohiyati, turlari 323
7.2. Investitsiyalarning tarkibiy tahlili 328
7.3. Investitsiyalarni moliyaviy tahlil etishning maqsadi va uning asosiy jihatlari 341
7.4. Ichki investitsiyalar tahlili 346
7.5. Tashqi (xorijiy) investitsiyalar tahlili 348

M.YU. RAXIMOV

IQTISODIYOT SUBYEKTLARI MOLIYAVIY HOLATINING TAHLILI

O'quv qo'llanma

Muharrir **E. Bozorov**
Badiiy muharrir **M. Odilov**
Kompyuterda sahifalovchi **U. Raxmatov**

Nashr lits. AI № 174, 11.06.2010.
Bosishga ruxsat 01.12.2013da berildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi №2. Times garniturasi. Shartli b.t. 24,5.
Nashr-hisob t. 24,25. Adadi 200 dona.
65-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084. Toshkent. Kichik halqa yo'li, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100003. Toshkent. Olmazor, 171-uy.

ISBN 978-9943-13-441-6